

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI ANDIJON FILIALI**

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o'рта tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi Andijon
filiali direktor o'rinbosari
D. Gapparova




“Ortopedik stomatologiyada yangi texnologiyalar”

(Malaka oshirish guruhlari uchun)

MA'RUZA MATNLAR TO'PLAMI

Uslubiy kengashda ko'rib chiqildi
va ma'qullandi

“ 6 ” 01
 G.I.Sodiqova

2.1.1- mavzu:	Stomatologik davolash muassasalarini tuzilishi va jihozlanishi.
----------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Stomatologik davolash muassasalarini tuzilishi va jihozlanishi. 2. Stomatologik yordam haqida ma'lumotlar. 3. Stomatologik poliklinikadagi bo'limlar va xizmat turlari
<p>O'quv mashg'uloti maksadi:</p> <p>1.Ta'limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko'nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish 	
<p>Pedagogik vazifalar.</p> <p>Stomatologiyada zamonaviy tish protezlarini yasashda ishlatiladigan tibbiy asbob-uskunalar, tish protezlarini yasashda ishlatiladigan xom ashyolarni to'g'ri tanlash. Tish protezlarini tayyorlashda tish texniklarining vazifalari. Tish yasash jarayoni bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish.</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Tinglovchi:</p> <p>Stomatologik poliklinika. Stomatologik poliklinikadagi bo'limlar va xizmat turlari. Tish texnigi xonalarini jihozlash. Stomatologik asbob va uskunalar. Tish texnigining vazifalari. Stomatologik protezlarni tayyorlashda ishlatiladigan xom ashyolarni to'g'ri tanlash.</p>
O'qitish metodlari	Zamonaviy ta'lim usullari
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka

	tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 dakika	<p>Tashkiliy qism</p> <p>1.1 O'qituvchi guruhga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida davomatini va darsga tayyorligini tekshiradi.</p> <p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib O'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 dakika</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni tO'lik bayonetish 30-40.</p> <p>3.O'kitishning noannaviy usullarini</p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi, stomatologik bemorlarni parvarish qilishni va ularga psixalogik yordamni to'g'ri va samarali olib borish xaqida ma'lumot beradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Galereya" usuli orqali</p>	<p>. Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollariga javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."</p> <p>Galereya sxemasi tinglovchilar tomonidan</p>

kO'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash	mustaxkamlanib boriladi.	to'ldiriladi.
3-bosqich Yakuniy 5 daqqa	Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib, baholar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: tish texnigi xonalarini jixozlanish mavzusini o'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1. H.Sh.Rahmonov "Tish texnikasi materialshunosligi" 2. S.Yusupova D.Ashurov "Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi" 3. N.Toshpo'latova "Og'iz bo'shligi kasalliklari"	Tinglaydilar,uyga vazifalarni belgilab oladilar.

Mavzu:Tish texnigi xonalarini jihozlash

Dars rejasi:

1. Stomatologik davolash muassasalarini tuzilishi va jixozlanishi.
2. Stomatologik yordam haqida ma'lumotlar.
3. Stomatologik poliklinikadagi bo'limlar va xizmat turlari.

Stomatologik xonani tashkil etish uchun kengligi 14 m² dan kichik bo'lmasligi, umuman olganda ishlashga qulay, yorug' bo'lishi kerak (taxminan 4,3x 3,3 m).

Har keyingi kreslo qo'shilganda xona kengligi o'zgarib, qo'shimcha 7 m², har bir kreslo universal qurilma uchun 10 m² ajratilishi kerak. Balandligi 3,3m dan kam bo'lmasligi shart. Kreslolar bir qatorida, derezaga yaqin quyilishi kerak chunki bemorlarning og'iz bo'shlig'iga tabiiy yorug'lik tushishi toza havo kirishini ta'minlash uchun.

Stomatologik kabinetda turli xil ashyolar va dorilar qo'llash natijasida og'ir metall parlari paydo bo'ladi va bu parlar bemor yoki vrach nafas olganda yomon ta'sir qilishi mumkin shuning uchun stomatologik xonalarda havo almashtirgich o'rnatiladi, xona devorlari va shiplariga 5 % li oltingugurt eritmasi oqartirgichlarga qo'shib suvaladi, ustidan keyinchalik yaxshi tozalanishi uchun moyli buyok bilan buyaladi.

Pol esa simob tomchilari tushganda simob bilan ishlaganda, yoki ogir simob buglari organizmga yomon ta'sir qilmasligi uchun, avvalo pol karton bilan so'ngra ustidan linolium bilan koplanishi, linolium devorga 8-10 sm chikarilib kuyilishi kerak.

Amalgama bilan ishlash faqatgina maxsus shkaflar bo'lgandagina ruxsat etiladi. Shkaflar metaldan yoki taxtadan bulishi kerak, xavo aylanishi esa 0,7-1 m sekund bulishi kerak.

Xonada ikkita kanalizatsiyali rakovina: issiq va sovuk suvli bulishi kerak. 1-rakovinada, 2-sida instrumentlar yuviladi. Amalgamalar ham rakovinada yuvilganligi sababli 3-4 oyda simobdan tozalab turilishi kerak. Stomatologik xonada vrach, hamshira va kichik hamshira uchun ish joyi bulishi kerak. Faqat terapevtik bemorlarni qabul kilishga muljallangan xonalarda quyidagi jixozlar va uskunalar bulishi kerak.

1. Stomatologik kreslo (kerak bo'lganda kushetka vazifasini ham bajaradi).
2. Vrach uchun suyanchigi bo'lgan stul, iloji boricha gildirakli harakatlanish uchun.
3. Stomatologik uskuna bormashinasi, lampasi, tufdoni, diatermokoagulyatori, elektron tashxis kuyuvchi moslamasi, gidroterapiya asboblari bilan.
4. Vrach uchun kreslo yonidagi stolcha. (agar stomatologik uskunaning o'zida instrumentlar uchun qo'lay stolchasi bo'lsa uning xo'jati yo'q).
5. Kasallik tarixi va boshqa hujjatlarni yuritish uchun kanselyar stoli.
6. Yozuv stoli- hamshiralalar uchun
7. Stullar.
8. Ishlatilgan asboblarni yuvish uchun rakovina va uning yonida instrumentlar kuyish uchun tumbochka.
9. Amalgama koruvchi uskuna uchun tumbochka va maxsus shkaf (вытяжной).
10. Steril instrumentlar uchun stol.
11. Dori - darmonlar va plomba ashyolari uchun stol.

12.A va B gurux dorilarni saklashga muljallangan eshigi kulflanadigan shkafcha. Fransiya stomatologi De Labar ko'l bormashinasini (1820 yilda), so'ngra Amerikalik stomatolog Morisson oyok bilan ishlaydigan bormashinani (1870 yilda) yaratib, tishning karies kasalligini davoladi. Shunday qilib XIX asrning o'rtalaridan boshlab, bormashina yaratilishi tufayli tishlarning karies, pulpit, periodontit kasalliklarini davolay olish mumkin bula boshladi. Dastlabki oyok mashina uch qismdan iborat: a) asosiga o'rnatilgan oyok tepkisi, b) harakatga keltiruvchi va egiluvchan dastasi, gildiragi, v) naqonechnigi bor.

Chizimcha ip (shnur) yordamida bu uch qism harakati birlashib, gildirakka o'rnatilgan sterjen aylanib naqonechnikka o'rnatilgan borni aylantiradi. Bor esa karies tufayli kovak bo'lgan tishni kesadi, yumshagan, shikastlangan emal, dentin to'qimalardan tozalaydi, tishni kovlaydi.

Birinchi bormashinalar oyok yordamida aylanuvchi bo'lgan. Hozirgi paytda esa elektrik va turbinali bormashinalar mavjud.

Hozirgi kunda universal stomatologik uskunalarining har xil turlari ishlab chikarilyapti. Bu bormashinalarda borning aylanishi tezligi oldingi bormashinalardan yuqori. Bu tezlikni reostat orkali boshqariladi. Oldingi bormashinalarda borning aylanishi minutiga 5000 marotaba bo'lsa keyingi bormashinalarda aylanish tezligi minutiga 8000-10.000 dan 300.000-450.000 ni

tashkil qiladi. Bu uskunalarda kompressor o'rnatilgan bo'lib, kompressordan kelgan xavo bilan karies kovaklarini kuritish mumkin, suyuq dorilarni pulverizatsiya qilish mumkin. Bulardan tashkari uskunadagi tufdonni kanalizatsiyaga ulangan, termokoagulyator, elektrodiagnostika qiluvchi asbobi ham mavju4.

Keyingi yillarda turbinali bormashinalar keng kullanilmokda. Ularda elektrodvigatelning urnida naqonechnik o'rnatilgan kichkina turbina kullanilgan. Kompressordan keladigan sikilgan xavo, turbinaga o'rnatilgan borni aylantiradi. Turbinali bormashinalarda bor minutiga 100.000-300.000- 500.000 marta aylana oladi. Turbinali bormashinalarda borning aylanish tezligi kattaligi sababli tish qattiqto'qimalarini charxlash tez amalga oshiriladi. Ular uchun borlarni qattiqmetallar korishmasidan va almazdan yasaladi. Bunda bor kuchli sikilgan xavo okimi yordamida aylanadi, tish kizib ketishi mumkin bo'lganligi uchun sovuk suv purkab turuvchi kullanma ishlatiladi. Maxsus chidamli borlar bilan ishlanadi. Turbina avtomatik tarzda turbinali moy bilan moylanib turiladi, bunda turbina kizimaydi va qismlari kam yediriladi.

Zamonaviy «Kavo» (Germaniya) firmasi tomonidan yaratilgan stomatologik kurilma shifokorning ishiga qo'layliklar kiritdi. Bunda boshqarish tarkibi (sistemasi) yangilandi, gigiena talablariga tula javob beradigan qilib yaratildi, estetik kurinishi yaxshilandi. Programmali boshqarish tartibiga kura kresloning holati, boshkuygich oson boshqariladigan buldi. Ishlatiladigan asboblari shifokorning yakinigai kuchma moslamada keltirib qo'yiladigan buldi. Asboblarning uchliklarni olib qo'yiladigan kilinganligi ularni zararlantirishni osonlashtirdi. Stomatologik kurilmadagi maxsus zararsizlantirgich moslamasi shifokorni, hamshira va kasalni kasallik yuktiruvchi infeksiyadan asrashga yordam beradi.

Hozirgi kunda bir necha xil bormashinalar bor. Tik turuvchi oyok bilan ishlaydigan bormashinalar, oyok bilan va elektr motori bilan ishlaydigan kombinatsiyalashtirilgan oddiy va murakkab bormashinalar, ustanovkalar, turli xildagi elektrobormashinalar, turbinali bormashinalar, kichkina, ixcham, kulda kutarib yurib, bemorlarni kasalxona, uylarida davolash uchun ishlatiladigan (portativ) bormashinalar bor. Hozirgi kunda o'zok muddat bilan ishlaydigan, borning aylanishini yanada tezlashtiradigan, ixcham, arzonrok bormashinalar ishlab chikarish kerakligi tavsiya etilmokda. Bor kancha tez aylansa, tish kovagini tozalashdagi og'riq shuncha kam bo'ladi. Oyok bilan ishlaydigan bormashinada bor O'rtacha 1-dakikada 1000 marta aylanadi. Elektr toki bilan ishlaydigan motori, reostati bor bormashinalar 2000-5000 marta, turli uskunalarda 1-dakikada borni 10.000-30.000 marta aylantirish mumkin.

Shakliga qarab 2 xil: to'g'ri va burchakli naqonechniklar, endodontiyada ishlatiladigan naqonechniklar mavju4. To'g'ri naqonechnik yuqori jag'da ishlashga muljallangan bo'lib, ba'zi xollarda (pastki frontal tishlarning vestibulyar yuzasida) pastki jag'da ham ishlatiladi. To'g'ri naqonechnik bilan ishlash noqo'lay joylarning hammasida burchakli naqonechnik ishlatiladi. Naqonechniklarni vakti - vakti bilan yoglab turish kerak. Buning uchun juda suyuq bo'lgan mineral moylar ishlatilmaydi, chunki ishlatganda yoglar hamma tomonga uchib ketadi. Ish kunining oxirida naqonechniklarni artib, moylab kuyish kerak.

Tish qattiqto'qimalarni charxlash naqonechnikda o'rnatilgan bor yordamida bajariladi. Tishning kaysi soxasida ishlashimizga qarab har xil o'lcham va shakldagi borlar ishlatiladi. Borlarning shakllari: sharsimon, silindrsimon, (fissurali), qonussimon (teskari qonussimon), gildiraksimon. Bulardan tashkari kichik uyikli borlar, ya'ni finirlar ham ishlatiladi. Plomba kuyib bo'lgandan keyin esa, plombani silliklash uchun polirlar ishlatiladi. Bormashinalarning katta kichikligi, borning aylanish tezligi, qo'shimcha moslamalarning mavjudligiga qarab har xil ish sharoitiga moslab tanlanadi. Statsionar elektr bormashina BES-10 borni

1 dakikada kupi bilan 10.000 marta aylantiradi. Bu modeldagi bormashinaning boshqa turlari BESG-03 va BESG-05, USU-30, BEP-30 ham egiluvchan dastak (rukav) orkali harakatni motordan naqonechnikka o'zatadi. Bormashina elektr yoritgich bilan ta'minlanmagan. SK-1 kishlok va dala sharoitida ishlashga moslashtirilgan bo'lib, elektr toki bulmasa oyok kuchi bilan harakatga keltiriladi. Kuchma stomatologik kabinetlarga muljallangan.

Kombinatsiyalashtirilgan elektr bormashina borlarning katta kichikligiga qarab bir necha o'lchamlari mavjud:

№ 1- borning diametri-0,85 mm ga teng

№ 3- 1,1 mm

№ 5- 1,6 mm

№ 7- 2,0 mm

№ 9- 2,7 mm

№ 13- 3,1 mm

To'g'ri naqonechniklar uchun borlarning o'zunligi 44 mm dan iborat. Burchakli naqonechniklar uchun esa borlarning o'zunligi va 22 mm dan va 27 mm dan iborat. Stomatologiya fani uz rivojlanish davrida 4 ta bulimga ajraladi:

1.terapevtik stomatologiya.

2.Jarroxlik

3.Ortopedik

4.Bolalar stomatologiyasi.

Terapevtik stomatologiya tish va og'iz bo'shligi shillik kavatining kasalliklarini qonservativ yul bilan davolash va shu kasalliklarni oldini olish tadbirlarini ishlab chikish va amalga oshirish bilan shugullanadigan stomatologiyani bir bulagi. Bundan tashkari tish va og'iz bo'shligi shillik kavatidagi kasalliklar bilan somatik ya'ni ichki kasalliklar O'rtasidagi uzviy boglanishlar va ularni bir-biriga kursatadigan ta'sirini urganish bilan xam shugullanadi. Tish kasalliklari va og'iz bo'shligi shillik kavati kasalliklari bulgan bemorlar ovkatni tula ravishda mexanik maydalay olmaydilar, natijada yaxshi mexanik ishlanmagan, mydalanmagan ovkat medaga tushadi va meda xamda ichaklarni ish faoliyatini buzulishiga olib keladi. Ichki kasalliklar xam uz navbatida og'iz bo'shligi shillik kavati xolatiga ta'sir kursatadi.

Og'iz bo'shligi shillik kavati xolati juda katta diagnostik axamiyatga ega. Og'iz bo'shligi shillik kavatidagi 90-95% uzgarishlar simptomatik uzgarishlardir, ya'ni kandaydir kasallikni belgisi alomatlari xisoblanadi. Fakat 5-10% uzgarishlargina maxalliy sabablar natijasida paydo bo'ladi.

Abu Ali Ibn Sino iborasi bilan aytganda: «Og‘iz bo‘shligi shillik kavati ichki a‘zolarinig kuzgusidir».

Tanandagi aksariyat patologik uzgarishlar og‘iz bo‘shligi shillik kavatida, shu kasalliklarga xos belgilar, alomatlar bilan namoyon bo‘ladi. Masalan yukumli kasalliklarning birinchi belgilari alomatlari simptomlari og‘iz bushldigida paydo bo‘ladi, gripp difteriya ichki kasalliklardagi uzgarishlar, meda ichak kasalliklari, asab tizimi, tomir qon kasalliklarida xam og‘iz bo‘shligi shillik kavatida uzi xos uzgarishlar kuzatiladi.

Terapevtik stomatologiya yemirilgan tishlarni anatomik shaklini tiklash va shillik kavat kasalliklarini patogenetik va simptomatik davolash bilan shugullanadi.

Jarroxlik stomatologiya yoki yuz jag‘ jarroxligi og‘iz bo‘shligi buyin va yuz jag‘ soxasidagi kasallikni jarroxlik yuli bilan davolashga ixtisoslashgan stomotologiyani bir tarmogidir. Jarroxlik stomatologiyasi uz navbatida bajaradigan vazifasiga karab kuyidagilarga bulinadi:

1. Tish jarroxligi
2. yuz jag‘ bo‘shligi va buyin soxalarini yiringli jarroxligi.
3. xavsiz va xavfli usmalar yoki onkostomatologiya.
4. yuz jag‘ jaroxatalri travmatologgiyasi.
5. tugma va ortirilgan yuz jag‘ soxasidagi nuksonlar.
6. yuz jag‘ soxasini tiklash va kayta tiklash jarroxligi.

Tish jarroxlik stomotologiyasi kuyidagi davolash usullarini uz ichiga oladi:

1. Tish ildizi uchini kesish.
2. Gemeseksiya: ko‘p ildizli tishlarni davolashda qo‘llaniladi ya‘ni kasallangan tish ildizini tish toji bilan birga kesish.
3. Replantatsiya olingan tishlarni uz katakchalariga kaytarib ekish. Uz navbatida birlamchi replantatsiya kechiktirilgan replantatsiya bevosita replantatsiya farklanadi.
4. Transplantatsiya-bu tishni olib utkazish, ekish.
5. Implantatsiya-jag‘ suyaklari ichiga sun‘iy tishlarni maxkamlash uchun tayanch jismlarni utkazish.

Yuz jag‘ soxasini yiringli jarroxligi yuz- jag‘, buyin va og‘iz bo‘shligi soxalaridagi yalliglanish kasalini jarroxlik usuli bilan davolaydi.

Onkostomatologiya yuz jag‘ soxasidagi usmalarni davolaydi.

Yuz jag‘ tromotologiyasi yumshok to‘qima jaroxati va yuz jag‘ suyaklarini shikastlanishlari davolash birinchi tibbiy yordam kursatish bilan shugullanadi.

Tiklash va kayta tiklash yuz soxasini tiklash uzgartirish. Tabiiy burmalarni ajinlarni yukotish va boshka kosmetik operatsiyalarni bajaradi.

Tugma va orttirilgan nuksonlar bemorlarni jarroxlik yuli bilan soglomlashtirish yullarini faoliyatini tiklash.

Ortopedik stomatologiya.

OS-tish chakak sistemasidagi tugma yoki orttirilgan shakl buzilishi va nuqsonlarni bartaraf va oldini olish tadbirlarini amalga oshiradi. OS nafakat aloxida tishlarni anatomik shaklini tiklash yoki tishlardagi yeishmovchiliklarni tiklaydi. Masalan burun shaklini murakkab yasamalar Bilan tiklash. Bu usul asosan kekxa yoshdagi bemorlarga yoki jarroxlik tiklash bosqichlarini oraligida kullaniladi. Murakkab

yasamalar bilan yuz shaklini tiklash yana usmalarni jarroxlik yuli bilan olingandan keyin kullaniladi.

Bolalar stomatologiyasi.

Bolalarda uchraydigan barcha stomatologik kasalliklarni davolashga va profilaktika kilishga ixtisoslashgan stomatologiyani bir tarmogi. U asosan utgan asrni 70-80 yillari shakllangan.

1.bolalar terapevtik stomatologiyasi.

2.bolalar jarroxlik

3.bolalar ortodontiyasi.

Maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalar muassasalarida stomatologik kasalliklarnioldini olish.

Bolalarga yoshlikdan foydali ko'nikma va odatlarni singdiraborish, ya'ni sog'lom turmush tarzi qoidalarini o'rgatish, sog'lom avlodniyetishtirishda muhimdir. Gigienik tarbiya olib borishda sanitariya —maorif ishlariga e'tibor beriladi va bolalar og'iz bo'shlig'ini tozatutishga o'rgatiladi.Bolalarda tish kasalliklarining oldini olish maqsadidamaktabgacha tarbiya muassasalarida va maktablarda pediater tomonidanolib boriladigan sanitariya — maorif ishlarini to'g'ri tashkil etishkerak bo'ladi. Sanitariya — maorif ishlari sog'lom turmush tarzihaqidagi tibbiyot bilimlarini tashviqot kilish, sog'liqni saqlash,

kasalliklarning oldini olish yo'llarini tushuntirishdan iborat.Tibbiyot hodimlari, xususan stomatolog vrachlar yoki pediaterlar,maxsus o'qitilgan tibbiy hamshiralalar bolalar o'rtasida, tarbiyachilar,o'qituvchilar, va ota —onalar o'rtasida suhbat o'tkazishsa, so'zga chiqib,ma'ruza qilishsa, sanitariya — maorifi ishlarining samarasi maqsadgamuvofiq bo'ladi. Bulardan tashqari, sanitariya maorifiga doir maxsusadabiyotlar, varaqalar, ko'rgazmalar, slyaydlar, diafilm namoyishi vaboshqa shu kabilar ham tashkil etiladi, biroq bularning ta'siri kamroqbo'lsada, ularning ikkalasi bir — biriga o'zaro bog'liqdir.Bolalar o'rtasida sanitariya — maorif ishlarini yaxshi, o'ylab olibborilganda foydasi yaxshi bo'ladi.Sanitariya — maorifi ishlarini birgalikda olib borgan ma'qul.

I.G. Paxomova (1982), Ye.V. Borovskiy (1986) va boshqalarni fikriga ko'rabunda to'rtta zveno: ishni olib borayotgan vrach, o'qituvchilar, tarbiyachilar,ota — onalar va bolalarning o'zlari qatnashishlari lozim.

Sanitariya — maorif ishlarini birinchi navbatda o'qituvchilar vabolalar muassasalaridagi tibbiy xodimlar boshlashlari kerak. Tibbiypedagogik ishlar rejasiga quyidagi savollarni kiritish mumkin:

- sut tishlari va doimiy tishlarning shakllanish xususiyatlari,yetilishi va funksiyalari;
- tishlarning yorib chiqish muddatlari;
- bolalarda tish kariesi va uning asoratlari;
- tish cho'tkasi va tish pastasini turini tanlash;
- tishni qaysi yoshdan tozalash kerak, tishni tozalash qoidalari;
- tishlarning sog'lom bo'lishida ovqatlanishning ahamiyati;
- milk va og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari;
- stomatologiya kasalliklarining oldini olishda og'iz bo'shlig'initoza tutishning ahamiyati.

Suhbat davomida stomatologiyada profilaktikaning maqsad vazifalarini tushintirish lozim. Rejalashtirilgan tadbirlar aniqshaklda bayon etilishi kerak. Ushbu profilaktika tadbirlarining yaxshinatija va samara berishi uchun ular yuqoridagi tadbirlarni to'labajarishlari, sinchkov bo'lishlari lozimligi uqtiriladi. Sanitariya — maorif ishining keyingi bosqichida bolalar bilan

qizg'in suhbat olib boriladi. Suhbatni bolalar yoshiga qarab o'tkazganma'qul. Bunday suhbatlar 2 — 4 yoshdagi bolalar bilan o'yin tarzida o'tkaziladi. Bunda, bolalarni o'yinlarga qiziqtirish, qisqasi bolaning «tilini» topishga harakat qilish kerak bo'ladi. Bunga misol tariqasida «Quyvon» ni yoki bolalarga tanish bo'lgan boshqa biror personajni o'ylabtopish mumkin. Masalan, karam, sabzini ko'p yeydigan va shu bilan birgatahshini ham tozalab turadigan quyvonchani, uning tishi og'rimasligini misol qilib keltirish mumkin. Qiziq, u tishini qanday tozalar ekana. Shunday qilib o'yin jarayonida bolalarga qanday qilib tishni tozalash kerakligini tushintirish va tozalab ko'rsatish, keyin bu ishga o'rgatish kerak, shunda bolalar tish tozalash yo'llarini o'zlari mustaqilo'rganib oladilar.

Tishva parodont kasalliklarining oldini olishda og'iz bo'shlig'i gigienasi

Stomatologik kasalliklarni oldini olishda og'iz bo'shlig'i gigienasi muhim rol o'ynaydi. Og'iz bo'shlig'i tozalanganda ovqatqoldiqlari, tish karashlari yuvilib ketadi, biologik faol vositalar (tish pastasi, tish eleksiri kabi) tish to'qimasi va parodontni fosfatzlari, kalsiy, mikroelementlar, vitaminlar bilan boyitadi. Tishlar cho'tka bilan muntazam ravishda tozalab borilsa, parodont to'qimalarida almashinuv jarayonlari, qon aylanishi yaxshilanadi, natijada olib borilayotgan maxalliy profilaktika tadbirlari samara beradi. Og'iz bo'shlig'ining shaxsiy va kasbga aloqador gigienasi tafovutqilinadi. Shaxsiy gigienada odam o'zi turli gigiena vositalarini qo'llagan holda tish yuzasi va milklarni karashdan doimiy ravishda tozalab turadi.

Kasbga aloqador gigienada — stomatolog vrach qator tadbirlarni bajaradi. Bu tadbirlar tish toshining yumshoq qatlamlarini olib tashlash, tishlarni plombalash, shuningdek og'iz bo'shlig'i xolatiga bahoberish, gigiena qoidalarini turini bajarishga o'rgatish hamdabajarilayotgan tadbirlarning natijasini nazorat etishdan iborat. Gigienik tadbirlarni turi va yaxshi amalga oshirish uchun og'iz bo'shlig'ini toza tutish usullarini bilish zarur. Tishlar cho'tka va pasta yordamida kuniga ikki marta — ertalab va kechqurun tozalanadi. Ovqat qoldiqlari og'iz bo'shlig'ida uzoq vaqt qolib ketmasligi uchun tishni ertalab nonushtadan so'ng va kechki ovqatdan so'ng tozalansamaqsadga muvofiq bo'ladi.

G.N. Paxomov (1982) tavsifiga ko'ra, tish tozalashning standart usuli bo'yicha jag'ning yuqori va pastgi qatoridagi tishlar shartli ravishda 6 segmentga bo'linadi. Tishlar birin — ketin, avval jag'ning tepa, so'ngra pastki tomonlari tozalanadi. Supuradigan harakatlar bilan (yuqori jag' tishlar pastga tomon va pastki tishlar yuqoriga tomon) chaynov tishlaridagi karashlar tozalanadi, bu xarakat bir necha bor takrorlanadiva tish cho'tkasi yordamida aylanma harakatlar bilan yakunlanadi. So'ngra keyingi segmentga o'tiladi va xokoza. Tishlarning tanglay va tilga tegib turadigan yuzlari avvalgi tarzda tozalanadi. Bolalarga tish tozalash o'rgatilayotganda cho'tka xarakatlarini sanab borish lozim. Har bir jag'dagi tishda 10 martadan juft harakatlar qilinadi, bunda milk atrofi ham tozalanadi. Tishni kamida

3 — 5 minut tozalash lozim, shunda undagi yumshoqkarashlar ketadi. Og'iz bo'shlig'ini toza tutishda gigiena vositalarini to'g'ri tanlashning ahamiyati muhim. Vrachlar tish muntazam tozalab turilishiga qaramay, ba'zan og'iz bo'shlig'i holati yaxshi bo'lmasligini e'tirofetadilar. Bunga ko'p jihatidan tish cho'tka va tish pastani noto'g'ri tanlash sabab bo'ladi.

Tish cho'tkaning tanlashda uning shakliga, tish qatorlariga mos kelishiga, cho'tka qillarining sifatiga, uzun — qisqaligiga vajoylashuviga ahamiyat berish lozim. U qiyishqoq, pishiq va uzoq muddatgachidaydigan bo'lishi kerak. Tish cho'tkaning tuzilishi har bir tishni bemalol tozlash imqoninib eradigan, boshchasi va dastasining egriligi va o'lchami qulay bo'lishidankor. U katta bo'lmasligi kerak, aks xolda u og'izning orqa tomonigacha etmay, orqadagi tishlarning yon va orqa yuzlarini tozalay olmaydi. Suttishlari hali tushmagan bolalarga qili yumshoq tish cho'tka, doimiy tishlar chiqqandan keyin qilining qattiqligi o'rtacha cho'tkalar kerak bo'ladi. Doimiy tishlari chiqqan bolalar qili qattiq cho'tkadan foydalanishi mumkin.

Tish tozalab bo'lgandan keyin cho'tkani ustiga suv quyib turib yuvish, qiliga bir oz sovun surtib, stakanga boshchasini yuqori tomonga qaratib qo'yish lozim.

Ko'p yillar mobaynida tishni tozalashda tish kukunidan foydalanib kelingan. So'nggi yillarda tish kukuni kamroq ishlab chiqariladigan bo'ldi. Chunki u tish pastalariga nisbatan ishlatish uchunnoqulay va gigenik emas. Bundan tashqari, tish pastasining tish kukunidan birmuncha afzal tomonlari bor: pasta gigenik, yig'inchoq, plastik, ta'mi xushbo'y, hidi uzoq vaqtgacha yo'qolmaydi. Tish pastasidagi yubiklarida chiqariladi, shuning

uchun cho'tka yoki boshqa narsadan ifloslanmaydi.

Gigenik va davolash — profilaktika tish pastalari bo'ladi. Gigenik tish pastalari tarkibida qo'shimcha davolovchi va profilaktik vositalar bo'lmaydi, ular og'iz bo'shlig'ini mexanik tozalashga mo'ljallangan.

Tish emali kariesga chidamli bo'lgan bolalarga «Karlson», «Detskaya», «Buratino» gigenik tish pastalarini tavsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularda hushbuy efir moylari va tozalovchi xossalari bo'lganligi sababli ta'mi yaxshi bo'ladi.

Davolash — profilaktika tish pastalari tarkibida xlorofil, moychechak, qayin po'stlog'i, igir ildizi, propolis, vitaminlar, mikroelementlar, kariesga qarshi minerallar (kalsiy, fosfor, ftorkabi) o'simlik preparatlari bo'ladi.

Tish emalining kariesga chidamliligi past, tish kariesi belgilarini bo'lgan bolalarga yaxshisi tarkibida ftor bo'ladigan tish pastalarini tayinlash lozim. Chunki bunday pastalar tish emalini chidamli qiladi. «Ftorodent», «Cheburashka», «Salyut», «Zodiak», «Flyuorodent» kabilarana shunday tish pastalari qatoriga kiradi.

Tarkibida ftor bo'ladigan tish pastalarini ichimlik suvida ftormiqdori ortiq bo'lgan rayonlarda yashaydigan bolalarga tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda tarkibida ionlar tutadigan tish pastalarini tavsiya etish mumkin. Odatda bu pastalar tarkibida kalsiy glyukanat, glitserofosfat, xlorid, fosfat kislotasi, tuzlari, mikroelementlar, molibden, mis, vanadiy tuzlari bo'ladi. Sanoatimiz bu guruhga tegishli «Jemchug», «Remodent» kabi tish pastalarini ishlab chiqaradi. Parodont to'qimalarida yallig'lanish jarayonlari bo'lganda «Romashka», «Rayxon», «Lazur», «Zefir», «Lesnaya», «Novaya», «Xlorofillovaya» tish pastalari shifobaxsh ta'sir qiladi.

Bolalar tishi emalning chidamliligini oshirish uchun hozirgivaqtda profilaktika tadbirlari majmuasi ishlab chiqilgan. Emal chidamliligini oshirish uchun remineralizatsiya qiladigan, kariesga qarshi qator vositalar mavjud. Bunday vositalar umumiy vamaahaliy deb ikkiga bo'linadi. Umumiy vositalar buyuriladi. Ular qon oqimiga tushib, uyaksistemasi, tish emaliga boradi va struktura hosil bo'lishida qatnashadi. Bu vositalar o'z tarkibida asosan ftor elementi saqlaydi. Bu quyidagicharo'yobga chiqariladi:

1. Ichimlik suvni ftorlash. Arzon, havfsiz vosita bo'lib, tishkariesini kamaytirishda juda ta'sirchan. Ichimlik suvini ftorlashkaries kasalligini 40 — 60% ga kamaytiradi. Doimiy tishlarnikariesdan saqlash uchun ichimlik suvda ftorning optimal qonsentratsiyasi 0,8 dan 1,2mg/l bo'lishi kerak. Ichimlik suv sanepidstansiya nazoratidada davlat muassasalari tomonidan ftorlanadi.

2. Ftor tabletkalari. Ftorli tabletkalarning afzalligi shundaki, ularni xar bir odam uchun alohida dozalash mumkin. Bu tabletkalarregionda ichimlik suv markazlashgan holda ftorlanmaganda ishlatiladi. Tabletkalar tishlar rivojlanayotgan va shakillanayotgan davrda yaxshita'sir qiladi. Organizmga har kuni 0,3 — 0,5 mg atrofida ftor tushishikerak.

3. Vitaftor — tarkibida vitaminlar A, S, D2 va natriy ftoridsaqlaydigan suyuqlik. 1 mg vitaftorda vitamin A — 0,000362 g, D2 — 0,000002 g, S — 0,0112 g, natriy ftorit — 0,000018g bo'ladi. Vitamin A, S, D2 va ftor tishlar rivojlanishi va suyak hosil bo'lishi jarayonlarigao'zaro bog'liq holda ta'sir qiladi. Vitaftor 6 yoshgacha bo'lgan bolalargatayinlanadi.

Emal chidamliligini mahalliy oshirish usullari.

Mahalliy qo'llanish uchun natriy ftorid, qalayi, ftor, monoflorfosfat, kalsiy, fosfor va mikroelementlar (kalsiyglyukanat, glitserofosfat, kalsiy laktat va boshqalar) saqlaydiganpreparatlardan foydalanildi.

1. Preparat applikatsiyasi. Avvalo tish karashi tozalanadi, iliq havobilan quritiladi. Yuqori va pastki jag' tishlarga minerallashganeritmaga (10%li kalsiy glyukanat) ho'llangan paxta yoki doka tamponlar 15 — 20 minut mobaynida bosib turiladi. Shundan so'ng tamponlarni 1 — 2 minutga 4% li natriy ftorid eritmasiga xo'llangan boshqa tamponlarbilan almashtiriladi. Muolajadan keyin 2 soatgacha ovqat yeyish mumkinemas.

2. Ftor saqlagan va mineral eritmalar bilan og'izni chayish ko'p vaqt vamoddiy xarajat talab etmaydi, ayni vaqtda u yetarlicha ta'sirchan. Shumaqsadda 0,05, 0,2, 0,25% li natriy ftorid (kuniga 1 marta, haftasiga 1 marta, oyiga 1 marta) eritmalaridan foydalanish mumkin. Og'iz natriflorid bilan 1 minut chayiladi. Bunda taxminan 10 ml eritmaishlatiladi. Chayish uchun 3% li «Remodent» eritmasini ishlatish hammumkin: 3 — 5 minut mobaynida 15 — 20 ml eritma sarf qilinadi. Profilaktika kursi yiliga 3 — 5 muolaja.

3. Tishga ftorli lak quyidagicha surtiladi: tishlar yumshoq karashdantozalanadi, quritiladi. Preparatni tishga yumaloqlangan paxta, shpatelyoki cho'tkacha yordamida surtiladi. Og'iz shillik pardasiga tushgan lakartib olinadi. Lak surtgandan keyin 12 — 22 soatgacha tishlarnitozalamoslik va qattik narsa yemaslik kerak. Profilaktika uchun ko'pibilan 6 oy ichida 2 — 4 muolaja qilinadi.

Tish — jagʻ sistemasi kasalliklarining oldini olishtadbirlarini davlat muassasalari ishtirokida amalga oshirish muhimdir. Buning uchun Sogʻliqni saqlash, xalq taʼlimi muassasalari, savdo korxonalari, bolalar muassasalaridagi ota — onalarkengashlarining birgalikdagi saʼi harakatlari kerak boʻladi. Halq taʼlimi muassasalari zimmasiga gigiena burchaklari (bolalar bogʻchalarida), gigiena sinflari (maktablarda) tashkil qilish, ularni

zarur jihozlar va asboblardan taʼminlash meditsina xodimlari ishi uchun qulay sharoitlar yaratish yuklatilgan. Sogʻliqni saqlash muassasalari bolalar muassasalarini tibbiy xodimlar (stomatolog vrach, pediater vrach, maxsus oʻrgatilgan hamshira, sanitarka) bilan taʼminlashlari kerak.

Meditsina hodimlari dispanser guruhlarini aniqlash, epidemiologik sharoitni oʻrganish, oziq — ovqat bloki ishini nazorat qilish, zarur ovqat mahsulotlariga buyurtmalar tuzish kabi vazifalarini bajaradi.

Bundan tashqari, stomatolog vrach tibbiy hamshira bilan birga ogʻiz boʻshligʻini profilaktik tekshiruvdan oʻtkazish, karies va parodont kasalliklarini qator koʻrsatkichlarini aniqlashlari lozim. Dispanserizatsiya vaqtida stomatolog parodont kasalliklariga imqon beradigan belgilarni aniqlashga (tishdagi karash, tishlarning tigʻiz joylashganligi, prikusning notoʻgʻriligi, notoʻgʻri qoʻyilgan plombalar, til va lab yuganchalarining qisqaligi, ogʻiz dahlizining kichikligi kabi tish jagʻ sistemasi nuqsonlariga) ahamiyat berish lozim.

Bunday oʻzgarishlar topilgan bolalarni tegishli mutaxassislariga yuborish zarur. Bolalar muassasidagi stomatologni asosiy vazifasi ogʻiz boʻshligʻini sogʻlomlashtirishdan iboratdir. Bundan tashqari, u pediater bilan birgalikda dispanserlashda qatnashadi, Tibbiy hamshira bilan birgalikda profilaktika tadbirlarini oʻtkazadi, sanitariya maorif ishlarini tashkilotadi.

Savdo xodimlari kompleks profilaktika sohasida katta vazifalarni ado qiladilar. Hozirgi vaqtda yirik shaharlarda maktab va maktabgachatarbiya muassasalarini oziq — ovqat mahsulotlari bilan taʼminlaydigan oʻqonlar tashkil qilingan, ammo bu korxonalarining ish saviyasi mutlaqo qoniqarsiz. Bolalar muassasalari kerakli oziq — ovqatlar bilan muntazam taʼmin etilmaydi, ular tibbiy xodimlar bilan yaxshi hamkorlik qilmaydilar. Bolalar muassasalari sut, meva, sabzavot mahsulotlari bilan yaxshi taʼminlanmaydi. Bola organizimining normal oʻsishiga yordam beradigan vositalar, mineral tuzlar, oqsillar saqlaydigan mahsulotlar kamberiladi. Maktab bufetlarida xamirdan tayyorlangan mahsulotlar, shirinliklar koʻp ular bola organizimining normal oʻsib, rivojlanishiga yomon taʼsir qiladi. Har bir nohiya va jamoalarda gigenist vrach lavozimi taʼsis etilishi lozim. Uning vazifasi bolalar jamoasida ovqatlanishni toʻgʻritashkil qilish, oziq — ovqat korxonasi ishini nazorat etishdan iborat boʻlishi kerak. Ularga mahsulotlarni yil mavsumiga mos ravishda keltirilishini ham nazorat qilib borish vazifasi yuklanadi.

Stomatologik davolash muassasalari aholiga ogʻiz boʻshligʻi va tish kasalliklari boʻyicha tibbiy yordam koʻrsatishga moʻljallangan maxsus muassasalardir. Ular poliklinika, stomatologik klinika, xususiy kabinet yoki shifoxona tarkibidagi boʻlim

shaklida faoliyat yuritishi mumkin. Bunday muassasalar tuzilishi va jihozlanishi sanitariya-gigiyena talablari hamda tibbiy standartlarga to'liq mos bo'lishi lozim.

Stomatologik muassasaning asosiy tarkibiy qismlariga qabulxona va kutish zali kiradi. Bu yerda bemorlar ro'yxatdan o'tkaziladi, tibbiy hujjatlar yuritiladi va bemorlar shifokor qabulini kutadi. Kutish zali qulay, yorug' va shamollatiladigan bo'lishi, o'tirish uchun mebellar bilan jihozlanishi kerak. Shuningdek, axborot stendlari va gigiyena qoidalarini tushuntiruvchi materiallar joylashtiriladi.

Davolash xonalari stomatologik muassasaning asosiy qismi hisoblanadi. Bu xonalarda terapevtik, jarrohlik, ortopedik va bolalar stomatologiyasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatiladi. Har bir davolash xonasi yetarli maydonga ega bo'lib, tabiiy va sun'iy yoritish bilan ta'minlanadi. Xonalar toza saqlanishi, dezinfeksiya qilish uchun qulay sharoit yaratilishi zarur.

Stomatologik davolash muassasalarining jihozlanishida stomatologik kreslo asosiy o'rin tutadi. Kreslo bemor uchun qulay, shifokor uchun esa ishlashga mos bo'lishi kerak. Kresloga tish davolash qurilmasi, yoritgich, tupuk so'rg'ich va suv ta'minoti tizimi o'rnatilgan bo'ladi. Bundan tashqari, shifokor va hamshira uchun ish stollari, asboblarni joylashtiriladigan steril stolchalar mavjud bo'ladi.

Tibbiy asbob-uskunalar tarkibiga terapevtik va jarrohlik asboblari, tish burg'ulash moslamalari, ultratovushli tozalash apparatlari kiradi. Diagnostika uchun rentgen apparati, og'iz bo'shlig'ini tekshirish oynalari va zondlar qo'llaniladi. Zamonaviy muassasalarda kompyuterlashtirilgan diagnostika va raqamli rentgen tizimlari ham keng qo'llanilmoqda.

Sterilizatsiya va dezinfeksiya xonalari alohida ahamiyatga ega. Bu xonalarda tibbiy asboblarni maxsus sterilizatorlar yordamida qayta ishlanadi. Avtoklav, quruq issiqlik shkafi va dezinfeksiya eritmalari stomatologik muassasaning majburiy jihozlari hisoblanadi. Bu jarayonlar infeksiya tarqalishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Yordamchi xonalarga ombor, xodimlar uchun kiyim almashtirish xonasi va maishiy xonalar kiradi. Bu xonalar xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va muassasaning uzluksiz ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, stomatologik davolash muassasalarining to'g'ri tuzilishi va zamonaviy jihozlanishi sifatli va xavfsiz tibbiy xizmat ko'rsatishning muhim omili hisoblanadi.

Stomatologik yordam aholiga og'iz bo'shlig'i, tishlar, milk va jag'-yuz sohasida uchraydigan kasalliklarning oldini olish, aniqlash va davolashga qaratilgan tibbiy xizmatlar majmuasidir. Ushbu yordam inson salomatligini saqlashda muhim o'rin tutadi, chunki og'iz bo'shlig'i kasalliklari umumiy organizm holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Stomatologik yordamning asosiy yoʻnalishlaridan biri profilaktik yordam hisoblanadi. Profilaktika tish kasalliklarining oldini olishga qaratilib, ogʻiz boʻshligʻi gigiyenasini oʻrgatish, tishlarni toʻgʻri parvarish qilish, muntazam koʻrikdan oʻtkazish va zararli odatlarni kamaytirishni oʻz ichiga oladi. Profilaktik tadbirlar erda yoshdan boshlab olib borilsa, tish va milk kasalliklarining kamayishiga erishiladi.

Terapevtik stomatologik yordam tish kariyesi va uning asoratlarini davolashga yoʻnaltirilgan. Bu turdagi yordamda tishlarni plombalash, ildiz kanallarini davolash, ogʻriqni bartaraf etish va tish toʻqimalarini saqlab qolish choralari amalga oshiriladi. Terapevtik yordam stomatologik xizmatlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Jarrohlik stomatologik yordam tishlarni olib tashlash, yiringli yalligʻlanishlarni davolash, jagʻ-yuz sohasidagi kichik operatsiyalarni bajarishni oʻz ichiga oladi. Ushbu yordam koʻpincha boshqa davolash usullari samara bermagan hollarda qoʻllaniladi. Jarrohlik muolajalari maxsus steril sharoitda va anesteziya ostida amalga oshiriladi.

Ortopedik stomatologik yordam yoʻqolgan yoki shikastlangan tishlarning oʻrnini tiklashga qaratilgan. Bu yordam turida protezlar, sunʻiy tishlar, koʻpriklar va boshqa ortopedik konstruksiyalar tayyorlanadi. Ortopedik davolash nafaqat chaynash funksiyasini tiklaydi, balki bemorning tashqi koʻrinishi va nutqini ham yaxshilaydi.

Bolalar stomatologik yordami alohida ahamiyatga ega boʻlib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bolalarda tish kasalliklarini erda aniqlash va davolash kelajakda sogʻlom doimiy tishlarning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, bolalarda stomatologik qoʻrquvni kamaytirish muhim vazifalardan biridir.

Umuman olganda, stomatologik yordam turlari oʻzaro bogʻliq boʻlib, bemorning holatiga qarab kompleks tarzda koʻrsatiladi. Oʻz vaqtida va sifatli stomatologik yordam koʻrsatish insonning umumiy sogʻligʻi, hayot sifati va ijtimoiy faolligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Stomatologik poliklinika aholiga keng qamrovli va malakali stomatologik yordam koʻrsatishga moʻljallangan tibbiyot muassasasidir. Unda turli yoʻnalishlar boʻyicha xizmatlar koʻrsatiladi va har bir boʻlim maʼlum vazifalarni bajaradi. Boʻlimlarning toʻgʻri tashkil etilishi bemorlarga qulaylik yaratadi hamda davolash samaradorligini oshiradi.

Stomatologik poliklinikaning qabul va roʻyxatga olish boʻlimi bemorlarni qabul qilish, hujjatlarini rasmiylashtirish va shifokor qabuliga yoʻnaltirish bilan shugʻullanadi. Bu boʻlimda bemorlar haqida maʼlumotlar yigʻiladi, tibbiy kartalar yuritiladi va qabul vaqtlari belgilanadi. Kutish zali bemorlar uchun qulay sharoitda tashkil etiladi.

Terapevtik stomatologiya bo'limi eng asosiy bo'limlardan biri bo'lib, tish kariyesi, pulpitis, periodontit kabi kasalliklarni davolash bilan shug'ullanadi. Ushbu bo'limda tishlarni plombalash, ildiz kanallarini davolash, og'riqsizlantirish va profilaktik muolajalar amalga oshiriladi. Terapevtik xizmatlar aholining eng ko'p murojaat qiladigan stomatologik yordami hisoblanadi.

Jarrohlik stomatologiya bo'limida tishlarni olib tashlash, yiringli yallig'lanishlarni davolash, jag'-yuz sohasidagi kichik jarrohlik amaliyotlari bajariladi. Bu bo'limda steril sharoit yaratiladi va zamonaviy anesteziya usullari qo'llaniladi. Jarrohlik xizmatlari murakkab holatlarda muhim ahamiyatga ega.

Ortopedik stomatologiya bo'limi tishlar qisman yoki to'liq yo'qolganda ularni tiklash bilan shug'ullanadi. Bu yerda turli xil protezlar, ko'priklar, qoplamalar va ortopedik konstruksiyalar tayyorlanadi. Ortopedik xizmatlar bemorning chaynash funksiyasini va estetik ko'rinishini tiklashga qaratilgan.

Bolalar stomatologiya bo'limi bolalarga mo'ljallangan bo'lib, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatadi. Bu bo'limda sut tishlarini davolash, profilaktika tadbirlari va gigiyena bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi. Bolalarda stomatologik qo'rquvni kamaytirish ushbu bo'limning muhim vazifalaridan biridir.

Diagnostika va yordamchi xizmatlar bo'limiga rentgen xonasi, sterilizatsiya xonasi va laboratoriya kiradi. Rentgen xonasi tish va jag' holatini aniqlashga yordam beradi, sterilizatsiya xonasida esa tibbiy asboblarni zararsizlantiriladi. Laboratoriyada ortopedik va boshqa stomatologik buyumlar tayyorlanadi.

Umuman olganda, stomatologik poliklinikadagi bo'limlar va xizmat turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bemorlarga kompleks va sifatli stomatologik yordam ko'rsatishni ta'minlaydi.

Tibbiy terminlar:

- 1.Emal.
- 2.Amalgama koruvchi uskuna.
- 3.Vitaftor.
- 4.Parodont.

”Galereya bo'yicha tur” usuli.

Tinglovchilarni uchta kichik guruhga ajratiladi. Har bir kichik guruh uchun vazifa yozilgan flipchartlar 3 tomonga osib qo'yiladi va shart tushuntirib beriladi. Tayyorlanish uchun vaqt belgilanadi. Vazifani bajarishda guruhdagi tinglovchilarni xammasi ishtirok etishi maqsadga muvofiq. Belgilangan vaqt tugagach, har bir guruhning to'g'ri javoblari sanaladi va tinglovchilar kartochkalar bilan rag'batlantiriladi

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Stomatologik xonani jixozlanishi.
 2. Emal chidamliligini mahalliy oshirish usullari.
 3. Bolalar tishi emalning chidamliligini oshir
 4. Tish va parodont kasalliklarini oldini olishda og‘iz bo‘shlig‘i gigienasi.
 5. Ro‘yxatxona hamshiralarning ish uslubi, hujjatlari va ularni yuritish tartibi.
 6. Emal chidamliligini mahalliy oshirish usullari
 7. Tish va parodont kasalliklarining oldini olish.
- Maktabgacha tarbiya va maktab yoshidagi bolalar muassasalarida stomatologik kasalliklarni oldini olish.
8. Sanitariya — maorif ishlarini kimlar olib boradi
 9. Tish cho‘tkasi va tish pastasini turini tanlash;
 10. Bolalarda tish kariesi va uning asoratlari;
 11. Tish pastasi turlari.
 12. Emal chidamliligini mahalliy oshirish usullari
 13. Ichimlik suvni ftorlash.
 14. Og‘iz bo‘shlig‘i gigienasi.

Test savollari:

1. Karies hosil bulishida organizmning ximoya fiziologik reaksiyasi kandy namoen bo‘ladi:

urinbosar dentin paydo bulishi bilan*

emal yemirilishi bilan

dentin yemirilishi bilan

barcha javoblar to‘g‘ri

2. Kariesga umumiy davo kilishda quyidagilar qo‘llaniladi:

barcha javoblar to‘g‘ri*

kalsiya pereparatlari

vitaminlar kompleksi

ovqatlanish ratsioniga e‘tibor berish

3. Tishlarning qattiq to‘qimalarining turlari:

emal, dentin, sement*

qattiq biriktiruvchi to‘qima

yumshok biriktiruvchi to‘qima

pulpa

4. Tishning eng qattiq to‘qimasi:

emal*

dentin

sement

pulpa

5. Tishning eng yumshoq to‘qimasi:

pulpa*

sement

emal

periodont

6. Karies profilaktikasini qachondan boshlash kerak:

xomiladorlikning birinchi yarmidan*

xomiladorlikning ikkinchi yarmidan

5 yoshdan

2 yoshdan

7. Tish emaliga uglevodlar ta'sirini boshqarish mumkin:

Hama javoblar to'g'ri*

ovqat tarkibida uglevodlarni kamaytirish

ovqatlanish ratsionalligini ko'zartish

og'iz bo'shligi gigienasini olib borish

8. Tishlarni tozalashni nazorat kilish amalga oshiriladi:

tish yuvguncha va undan keyin gigienik indeksni aniqlab*

ish yuvguncha gigienik indeksni aniqlab

tish yuvgandan keyin gigienik indeksni aniqlab

tishlarni tozaligiga vizual baxo beriladi

9. Og'iz bo'shlig'i malakali gigienasi amalga oshiriladi:

yumshoq karash, tish toshlari olinadi, shaxsiy gigiena koidalari urgatiladi*

tishlar va obshk kasalliklari davolanadi

tish chutka bilan tozalanadi

remterapiya

10. Tish chutkasini saklash kerak:

stakanda boshchasi tepada*

maxsus koliplarda

stakanda dastasi tepada

stakanda suv bilan

Vaziyatli masalalar:

Vaziyat: Ortopedik stomatologiya bo'limida yangi ish boshlagan hamshira bemorga metallokeramik ko'prik tayyorlash uchun gips model quyish jarayonida laboratoriyada texnika xavfsizligi qoidalarini buzdi: gips changini tortuvchi ventilyatsiya tizimini yoqmadi va niqobsiz ishladi. Shuningdek, u gips qorishmasini tayyorlashda asbob-uskunalarni noto'g'ri ketma-ketlikda ishlatdi.

- **Savol:** Ushbu holatda hamshira qanday mehnat muhofazasi qoidalarini buzdi va uning uzoq muddatli salbiy oqibatlari nimalardan iborat? To'g'ri ish algoritmini ko'rsating.

Vaziyat: Jag' suyaklarining atrofiyasi bo'lgan 65 yoshli bemorga to'liq olib qo'yiladigan protez yasashdan oldin ortopeding ko'rsatmasi bilan ortopantomogramma (OPTG) buyurildi. Bemor rentgen xonasiga kirishdan oldin hamshira uning sochidagi metall qisqichlarni, protezlarini va bo'ynidagi zanjirni yechishni aytishni unutdi.

- **Savol:** Hamshiraning bu e'tiborsizligi rentgen suratida qanday nuqsonni keltirib chiqaradi va bu shifokorning diagnostikasiga qanday ta'sir qiladi?

Vaziyat: Jagʻ-yuz sohasida onkologik kasallik sababli nurlanish terapiyasini olgan bemorga ortopedik davolashdan oldin rentgenografiya tayyorlanmoqda. Hamshira oʻtgan safargi odatiy bemorlardek uni standart rejimda rentgenga kiritmoqchi boʻldi.

- **Savol:** Nurlanish terapiyasini olgan bemorlarni qoʻshimcha tekshiruvga tayyorlashda hamshira qanday oʻziga xosliklarni hisobga olishi shart?

Vaziyat: Ortopedik stomatologiya kabinetida navbatchi hamshira ultrabinafsha (bakteritsid) chiroqni xonada odamlar bor vaqtda 1 soatga yoqib qoʻydi. Shundan soʻng shifokor va bemorning koʻzlarida yosh oqishi va achishish paydo boʻldi.

- **Savol:** Hamshira qaysi xavfsizlik qoidasini buzdi va ushbu holat koʻz toʻqimasida qanday asorat keltirib chiqaradi?

2.2.1- mavzu:	Stomatologik bo'limlarda amalga oshiriladigan sanitar talablar.
----------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ortoped stomatolog xonasida tish protezlarni klinik tayyorlash 2. Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi. 3. Polimerizatsiya xonasi.
<p>O'quv mashg'uloti maksadi:</p> <p>1.Ta'limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko'nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish 	
- Stomatologik amaliyotlar og'iz bo'shlig'i bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli yuqori infeksiya xavfi mavjud.
- Sterilizatsiya yordamida asboblari va jihozlar bemorlar uchun xavfsiz bo'ladi.
- Bu jarayon stomatologik xizmat sifatini oshirish va infeksiyon asoratlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Sterilizatsiyadan oldingi tozalashning ahamiyati

1. Sterilizatsiyadan oldingi tozalash tushunchasi

Sterilizatsiyadan oldingi tozalash — bu tibbiy asbob-uskunalarini sterilizatsiya qilishdan oldin ularni kir, qon, tupuk, tish parchasi va boshqa iflosliklardan tozalash jarayonidir. Tozalash jarayoni mexanik, kimyoviy yoki kombinatsiyalangan usullar orqali amalga oshiriladi.

2. Tozalashning ahamiyati

1. Sterilizatsiya samaradorligini oshirish

- Kir va organik qoldiqlar sterilizatsiya jarayonini sekinlashtiradi yoki mikroblarni butunlay yo'q qilinishiga to'sqinlik qilishi mumkin.
- Oldingi tozalash orqali asboblari yuzasidagi iflosliklar olib tashlanadi, shundan so'ng sterilizatsiya yuqori samaradorlik bilan amalga oshiriladi.

2. Infeksiya xavfini kamaytirish

- Toza asboblari mikroblarni saqlab qolish xavfini kamaytiradi.
- Sterilizatsiyadan oldingi tozalash bemorlar va tibbiyot xodimlarini kasallik yuqtirishdan himoya qiladi.

3. Asboblarning chidamliligini saqlash

- Tozalash orqali asboblari yuzasidagi qoldiqlar yoki kimyoviy moddalar ularning buzilishiga olib kelmaydi.
- Bu asboblarning xizmat muddatini uzaytiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

4. Sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish

- Stomatologik bo'limlarda gigiyenik me'yorlarga rioya qilish majburiy hisoblanadi.
- Sterilizatsiyadan oldingi tozalash bu me'yorlarga muvofiq ishlashning birinchi bosqichi hisoblanadi.

3. Tozalash usullari

- **Mexanik tozalash:** suyuqlik va cho'tkalar yordamida kirlarni olib tashlash.
- **Kimyoviy tozalash:** dezinfeksiya vositalari bilan asboblarni namlash yoki ishlov berish.

- **Kombinatsiyalangan tozalash:** mexanik va kimyoviy usullarni birlashtirish.

Sterilizatsiya usullari

Stomatologik bo'limlarda tibbiy asbob-uskunalarni mikroorganizmlardan to'liq xoli qilish uchun turli sterilizatsiya usullari qo'llaniladi. Har bir usulning qo'llanishi asbob materiali, shakli va sterilizatsiya maqsadiga bog'liq.

1. Bug'li sterilizatsiya (avtoklavlash)

- Asboblar yuqori haroratli bug' ostida ishlov beriladi.
- Bug'li sterilizatsiya eng keng tarqalgan va samarali usullardan biri hisoblanadi.
- Avtoklavda ishlov berish orqali bakteriyalar, viruslar va sporalar yo'q qilinadi.
- Asboblar metall, rezina va ba'zi plastmassalardan tayyorlangan bo'lishi mumkin.

2. Quruq issiqlik sterilizatsiyasi

- Asboblar yuqori haroratli quruq havoda sterilizatsiya qilinadi.
- Quruq issiqlik sterilizatsiyasi odatda metall asboblar uchun ishlatiladi.
- Bu usulda mikroblar va ularning sporalari yuqori harorat (160–180°C) ta'sirida yo'q qilinadi.

3. Kimyoviy sterilizatsiya

- Asboblar sterilizatsiya qiluvchi kimyoviy eritmalarda ishlov beriladi.
- Kimyoviy sterilizatsiya issiqqa chidamli bo'lmagan asboblar yoki maxsus materiallar uchun qulay.
- Misol: glutaraldehid va boshqa maxsus sterilizatsiyalovchi eritmalar.

4. Radiatsion sterilizatsiya

- UV nurlar yoki boshqa turdagi radiatsiya yordamida mikroblar yo'q qilinadi.
- Asosan havo, ish yuzalari va steril paketdagi asboblarni sterilizatsiya qilishda qo'llaniladi.

5. Sterilizatsiya usulini tanlash mezonlari

- Asbob materiali va chidamliligi
- Mikroblarga qarshilik darajasi
- Sterilizatsiya vaqtining tezligi va samaradorligi
- Ishonchlilik va xavfsizlik talablariga moslik

Sterilizatsiya jarayonining texnologik qoidalari

Stomatologik bo‘limlarda sterilizatsiya jarayoni bemorlar va tibbiyot xodimlarini infeksiyalardan himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Sterilizatsiya jarayoni faqat texnologik qoidalarga qat’iy rioya qilinsa, samarali va xavfsiz bo‘ladi.

1. Sterilizatsiyadan oldingi tayyorgarlik

- Asboblar tozalangan va dezinfeksiya qilingan bo‘lishi kerak.
- Organik qoldiqlar, qon va tupuklar to‘liq olib tashlanishi zarur.
- Asboblar mexanik va kimyoviy tozalash orqali tayyorlanadi.

2. Asboblarni to‘g‘ri joylashtirish

- Avtoklav yoki sterilizator ichida asboblar bir-biriga tegmasdan joylashtirilishi kerak.
- Paketlangan asboblar yoki o‘ramlar sterilizatsiya jarayonida bug‘ yoki issiqlik bilan to‘liq ta’sirlanishi uchun joylashtiriladi.

3. Sterilizatsiya parametrlariga rioya qilish

- Harorat, bosim va sterilizatsiya vaqti usulga mos kelishi kerak.
 - Bug‘li sterilizatsiya (autoklavlash): odatda 121–134°C, 15–30 daqiqa.
 - Quruq issiqlik: 160–180°C, 1–2 soat.
- Kimyoviy va radiatsion sterilizatsiya ham ishlab chiqaruvchi tavsiyalariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Sterilizatsiya davomida xavfsizlik

- Sterilizator ishlayotganda qo‘l yoki boshqa tana qismlarini ichki qismga yaqinlashtirmaslik.
- Kimyoviy eritmalar bilan ishlaganda qo‘lqop, maska va ko‘zoynak kiyish.

5. Sterilizatsiya samaradorligini nazorat qilish

- Asboblar va paketlarning steril bo‘lganligini tasdiqlovchi indikatorlar ishlatiladi (masalan, rang o‘zgaruvchi indikatorlar, biologik indikatorlar).
- Sterilizatsiya jarayoni har bir partiya uchun qayd etilishi va nazorat qilinishi kerak.

6. Sterilizatsiyadan keyingi ishlov berish

- Steril asboblar toza, quruq va ifloslanmagan joyda saqlanishi kerak.
- Paketlarni ochish yoki ishlatish paytida steril holat saqlanishiga e’tibor berish.

”Akvarium” usuli.

Akvariumga baliqchalar joylashtiriladi. O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar stikkerga yoziladi va ularga yopishtiriladi. Tinglovchilar bittadan baliqchani olishadi va unga yozilgan savolga javob berishadi.

(Yangi mavzuni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi).

Tibbiyotga oid dars jarayonlarida qo‘llaniladigan interfaol o‘yin va metodlar quyidagilar Nazorat savollari

1. Sterilizatsiya tushunchasi va maqsadini tushuntiring.
2. Sterilizatsiyadan oldingi tozalash nima va uning ahamiyati nimada?
3. Mexanik va kimyoviy tozalash o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
4. Bug‘li sterilizatsiya qanday amalga oshiriladi?
5. Quruq issiqlik sterilizatsiyasining stomatologik asboblarga qo‘llanilishi qanday?
6. Kimyoviy sterilizatsiya usullari qaysilar va qachon qo‘llanadi?
7. Sterilizatsiya jarayonida texnologik qoidalarga rioya qilishning ahamiyati nimada?
8. Sterilizatsiya samaradorligini qanday nazorat qilish mumkin?
9. Sterilizatsiyadan oldingi tozalash va sterilizatsiya jarayonida xavfsizlik choralari qanday bo‘lishi kerak?
10. Sterilizatsiya va dezinfeksiya o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

Test savollari

1. Sterilizatsiya nima maqsadda amalga oshiriladi?
A) Asboblarni tozalash
B) Barcha mikroorganizmlardan to‘liq xoli qilish
C) Asboblarni bezash
D) Faqat ish yuzalarini tozalash
Javob: B
2. Sterilizatsiyadan oldingi tozalashning asosiy vazifasi nima?
A) Asboblarni chiroyli qilish
B) Kir va organik qoldiqlarni olib tashlash
C) Mikroblarni yo‘q qilish
D) Asboblarni qadoqlash
Javob: B
3. Bug‘li sterilizatsiya qanday amalga oshiriladi?
A) Quruq issiqlikda
B) Issiq bug‘ ostida
C) Kimyoviy eritmalar bilan
D) UV nurlar bilan
Javob: B
4. Quruq issiqlik sterilizatsiyasi uchun mos asboblar qaysilar?
A) Plastmassalar va rezina
B) Metall asboblar

C) Faqat ish yuzalari

D) Shisha idishlar

Javob: B

5. Kimyoviy sterilizatsiya qachon qo'llanadi?

A) Issiqqa chidamli asboblar uchun

B) Issiqqa chidamli bo'lmagan asboblar uchun

C) Metall asboblar uchun

D) Faqat ish yuzalari uchun

Javob: B

6. Sterilizatsiya jarayonida samaradorlikni qanday nazorat qilish mumkin?

A) Rang o'zgaruvchi indikatorlar va biologik indikatorlar yordamida

B) Asbobni ko'rish orqali

C) Ish xonasini havo bilan tozalash orqali

D) Faqat vaqtni o'lchash orqali

Javob: A

7. Sterilizatsiya jarayonida xavfsizlik choralari nima?

A) Qo'lqop, maska va ko'zoynak kiyish

B) Asboblarni iflos joyda saqlash

C) Sterilizatsiya jarayonini tezlashtirish

D) Faqat bemorlarni ogohlantirish

Javob: A

8. Sterilizatsiyadan oldingi tozalash va sterilizatsiya o'rtasidagi farq nima?

A) Tozalash mikroblarni yo'q qiladi, sterilizatsiya esa faqat kirlarni olib tashlaydi

B) Tozalash kirlarni olib tashlashga, sterilizatsiya esa barcha mikroorganizmlarni yo'q qilishga qaratilgan

C) Hech qanday farq yo'q

D) Tozalash faqat ish yuzalarida, sterilizatsiya esa faqat asboblarda

Javob: B

9. Sterilizatsiya qaysi hollarda zarur?

A) Faqat bemorlar ko'p bo'lsa

B) Tibbiy asboblar bemor bilan bog'lanadigan bo'lsa

C) Faqat ish yuzalarini dezinfeksiya qilganda

D) Har doim emas

Javob: B

10. Sterilizatsiyadan oldingi tozalashning kombinatsiyalangan usuli nima?

A) Mexanik va kimyoviy tozalashni birlashtirish

B) Quruq va bug'li sterilizatsiyani birlashtirish

C) Kimyoviy va radiatsion sterilizatsiyani birlashtirish

D) Mexanik va radiatsion sterilizatsiyani birlashtirish

Javob: A

Vaziyatli masalalar:

- **Vaziyat:** Hamshira tarkibida vodorod peroksid va yuvish vositasi bo'lgan SOT eritmasini tayyorladi. Ertasi kuni ushbu eritma ko'piklanib, rangi o'zgargan bo'lsa ham, u asboblarni yuvishda davom etdi.
- **Savol:** SOT eritmalarining yaroqlilik muddati qanday va nima sababdan sifati buzilgan eritmadan foydalanish mumkin emas?
- **Vaziyat:** Ortopedik stomatolog qabuliga jag' suyaklarining og'ir sinishi oqibatida nuqsoni bor bemor keldi. Bemor ruhan juda tushkun ahvolda bo'lib, shifokor bilan gaplashishni istamayapti.
- **Savol:** Hamshiraning bu yerda bemor bilan deontologik (psixologik) muloqotdagi vazifasi nimadan iborat?

2.3. 1- mavzu:	Yuqori va pastki jag' suyaklarining anatomo-fiziologik hususiyatlari.
-----------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none">1. Yuqori va pastki jag' tishlari anatomiyasi.2. Tish qatorlari va ularning o'zaro munosabatlari.3. Chaynov tizimi va unda bajariladigan xarakteristikalar.
O'quv mashg'uloti maksadi: 1.Ta'limiy: <ul style="list-style-type: none">• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash• Amaliy ko'nikmalarni egallash• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash• Deontologik tarbiyaning shakllanishi• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash 2.Tarbiyaviy maqsadi: <ul style="list-style-type: none">• Mutaxassislikka javobgarlik hissinini shakllantirish• Insonparvarlik va rahmdillik hissinini shakllantirish• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar. Tish anatomiyasi. Sut tishlari.	O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi:

Doimiy tishlar. Yuqori va pastki jag' suyaklarining anatomiyasi. Pastki jag' suyaklari, tuzilishi, tishlashda ularni tish va tish qatori bilan yzaro bog'lanishi. Tishlarning anatomik tuzilishi. Yuqori va pastki jag' suyaklarining anatomiyasi. Tishlar, ularning qatorlari, shakli va tuzilishi. Tishlarning tuzilishidagi farqlanishlar, ajratib turadigan belgilari. Artikulyatsiya. Prikus va okklyuziya turlari. Anomaliya sinflari..	-Bemorlarda o'zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, davolovchi xizmatlarini yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, shifokorgacha shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhislash, --Birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o'rnatilgan tartibda hujjatlashtirish, ko'nikmalarini mustahkamlash; -O'z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-xuquqiy me'yorlarga ko'ra yuritish, konfidensial ma'lumotlar bilan ishlashda shifokorlik etikasi, qonunlar, me'yoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish, shifokorlik sirini saqlash.
O'qitish metodlari	Zamonaqviy ta'lim usullari
O'quv faoliyatini tashkil etish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	Tashkiliy qism 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib koidalariga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O'quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni	Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.

	faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.	
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 d</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25</p> <p>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</p> <p>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini ko'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan testni olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish" usulida tushuntiriladi.</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "KLASTER" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollariga javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar.</p> <p>"KLASTER" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p>3-bosqich</p> <p>Yakuniy 5 daqiqa</p>	<ul style="list-style-type: none"> Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib, baxolar e'lon qilinadi. Uyga vazifa: TISH ANATOMIYASI o'qib kelish. <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar: H.Sh.Rahmonov "Tish texnikasi materialshunosligi"</p> <ul style="list-style-type: none"> S.Yusupova D.Ashurov "Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi" N.Toshpo'latova "Og'iz bo'shligi kasalliklari" 	<p>Tinglaydilar, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

MAVZU: Yuqori va pastki jag' suyaklarining anatomo-fiziologik hususiyatlari.

Dars rejasi:

1. Yuqori va pastki jag' tishlari anatomiyasi.
2. Tish qatorlari va ularning o'zaro munosabatlari.

3. Chaynov tizimi va unda bajariladigan xarakatlar.

Tish protezlarni tayyorlashda, og‘iz bo‘shlig‘i anatomiyasining ahamiyati.

Yuqori jag‘ tishlari.

Markaziy kesuvchi tishlar. Ularning toj qismi iskana, kurakka o‘xshab, bo‘yin qismi uchburchak yoki trapetsiya shaklida bo‘lishi mumkin. Barcha kesuvchi tishlar ichida markaziy kesuvchi tishlar eng katta o‘lchovga ega bo‘lib, kurakka o‘xshaganligi uchun ham kurak tishlar deb nomlanadi.

Kesuvchi tishlar tojining shakli inson yuz tuzilishi shakliga mos kelishi aniqlangan.

Tish tojining shakli og‘iz dahliziga qaragan yuzasidan aniqlanadi. Bu yuza biroz bo‘rtgan va to‘g‘ri burchak shaklida. Yuza o‘ziga xos ko‘rinishga ega, bo‘lib, vertikal yo‘nalishda bo‘yin tomon ketgan shakli bir nechta botiqliklar hosil qiladi. Ushbu botiqliklar tish yuzasini to‘lqinsimon qilib, uchburchak shaklida bo‘ladi, asosi esa kesuvchi qirrada yotadi. Bu botiqliklar yuzani uch qismga bo‘lib turganga o‘xshaydi. Uchta vertikal yo‘naluvchi botiqlar yosh o‘tishi bilan tekis bo‘lib qoladi. Ba‘zida kesuvchi tish toj qismi o‘lchami kichik va tuzilishi kvadratga yaqin bo‘lganda to‘lqinsimon botiqlar bo‘lmaydi. Bu vaqtda tish toji dumaloqlangan mediodistal yo‘nalishda kichikroq, vertikal yo‘nalishda kattaroq bo‘lgan qubba shaklga ega bo‘ladi.

Tish toji yon tomonlari ponasimon shaklga ega, uni og‘iz dahliziga qaragan yuzasi bo‘rtgan, og‘iz bo‘shlig‘iga qaragan yuzasi botiqdir. Tish asosi bo‘yin chizig‘i qayrilgan, bo‘yin sohasida yon distal yuza bo‘ylab cho‘zilgan kichikroq chuqurchasi bor. Bu chuqurcha og‘iz dahliziga qaragan tomondan ham ko‘rinadi.

Yon kesuvchi tishlar. Ular markaziy kesuvchi tishlarga o‘xshab kurak tishlar deb nomlanadi. Lekin sathi va hajmi jihatidan ularga nisbatan ancha kichik. Eni markaziy kurak tishidan taxminan 1 mmga qisqa, balandligi esa kaltaroq. Yon kurak tishning medial burchagi markaziy kurak tishnikiga nisbatan yumaloqroq. Ba‘zan kesuvchi qirra dumaloqlangan shaklga ega bo‘ladi. Tish do‘mboqchasi tish bo‘ynidan birmuncha yuqoriroq joy olgan. Og‘iz dahliziga qaragan yuzasi qavariq bo‘lib, tish ildiziga yo‘nalgan uchburchak shaklida bo‘ladi.

Qoziq tish. Yuqori jag‘da qoziq tishlar chap va o‘ng tomonda, yon kesuvchilardan keyin tish yoyi burchagini hosil qilib, oldingi guruh tishlarni yakunlaydi. Qoziq tish toji konussimon va kesuvchi qirralari o‘tkirlashgan do‘mboqcha shaklida bo‘ladi. Og‘iz dahliziga qaragan yuzasi rombsimon, qavariq bo‘lib, bo‘rtmalari bor. Bu bo‘rtmalar yuzani bir-biriga teng bo‘lmagan ikkita: biri kichik medial va ikkinchisi katta distal qismlarga bo‘lib turadi.

Kichik oziq (premolyar) tishlar. Bu tishlar yon chaynov tishlar turkumiga kiradi. Ularning vazifasi ovqatni maydalash va ezishdan iborat. Birinchi kichik oziq tish ikkinchisiga nisbatan ham vertikal, ham mediodistal o‘lchovlariga ko‘ra

birmuncha kattaroq. Yuqori jag'da to'rtta kichik oziq tish bo'lib, bo'laklari har qaysi tomonda ikkitadan joylashgan.

Katta oziq (molyar) tishlar. Bunday tishlar jag'larning bo'laklari tomonida uchtdan joylashgan va birinchi, ikkinchi va uchinchi (aql tish) deb aytiladi. Tish tojlarining o'lchovi birinchidan uchinchiga tomon kichiklashib boradi.

Birinchi molyar tish. Tish tojining lunj yuzasi chaynov yuzasidagi kichikroq o'yiqchadan yo'naluvchi o'rta egatcha bilan teng ikki qismga bo'lingan. O'yiqchalarning chuqurligi o'zgarib turadi. Egatcha ko'pincha tojning uchdan bir bo'yin qismigacha davom etishi mumkin, medial va distal yo'nalishlarda ikkiga ajralib, bo'yin chizig'igacha yetadi. Tish tojining lunj yuzasi ikkita kichik oziq tishlarniki kabi tuzilgan. Shuning uchun yuzada egatchalardan tashqari, ikkita vertikal yo'naluvchi bo'rtma do'mboqchalar bilan tugallanadi. Birinchi katta oziq tish tojining og'iz dahliziga qaragan yuzasidagi bu medial do'mboqcha distal do'mboqchadan kattaligi va balandligi bilan farqlanadi.

Ikkinchi molyar tish. Bu tish toji ko'pincha birinchi katta oziq tish toji shaklini takrorlaydi. Uning hajmi birinchisidan kichik. Og'iz dahliziga va bo'shlig'iga qaragan yuzalaridan yon tomonlari tikroq, burchaklari dumaloqlashib tugallangani uchun to'rtburchakka o'xshab ko'rinadi. Distal, lunj va tanglay do'mboqchalari kamroq ifodalangan.

Pastki jag' tishlari. Markaziy va yon kesuvchi tishlar. Bu tishlar eng kichik tishlardan hisoblanadi. Bu tishlar toj qismi mediodistal yo'nalishda ensiz va kesuvchi yon tish toji markaziy kesuvchi tish tojidan katta.

Kesuvchi tishlarning kesuvchi qirralari ko'ndalang, o'tkirlashgan. Kesuvchi va yon yuzalar oralig'idagi burchaklari markaziy kesuvchi tishda to'g'riga yaqin, yon kesuvchi tishlar tojining distal burchagi ko'proq o'tmaslashgan va dumaloqlangan. Og'iz dahliziga qaragan tish toji yuzasi biroz qavariq, o'rtasida vertikal holatda yo'naluvchi ikkita egatcha o'rtacha ifodalangan. Kesuvchi tishlar tojining og'iz bo'shlig'iga qaragan yuzalari silliq, biroz botiqroq bo'ladi. Medial va distal tomon yo'nalgan taroqchalar bo'yi sohasi markazida bilinar-bilinmas do'mboqcha hosil qiladi. Yon yuzalari parallel, bir-biriga nisbatan zich holda joy olgan. Bo'yin asosi chizig'i kesuvchi tomonga ko'proq egilgan, tish bo'yni oval shaklida.

Birinchi kichik (premolyar) qoziq tish. Bu tish tojining og'iz dahliziga qaragan yuzasi qoziq tish toji yuzasiga o'xshash. Ammo balandligi kalta, eni esa kengroq. Bu yuzaning o'rta do'mboqchasi medial surilgan va yaxshi ifodalanmagan. Toj qismi burchaklarida ba'zida katta bo'lmagan do'mboqchalar farq qilinadi. O'rta va burchak do'mboqchalari uchburchak shaklida yassi egatchalar bilan ajratilgan. Medial va distal burchaklari o'tmas.

Ikkinchi premolyar tish. Bu tish toj qismi birinchi kichik oziq tish o'lchamidan katta. Og'iz bo'shlig'iga qaragan yuzasida vertikal va mediodistal yo'nalgan bo'rtmalar mavjud bo'lib, yuza shaklini deyarli hosil qilmaydi.

Tish toj qismi yumaloqlashgan bo'ladi. Og'iz bo'shlig'iga qaragan yuza til do'mbog'ining yaxshi rivojlanganligi sababli ancha katta ko'rinadi.

Birinchi molyar tish. Bu tish toji qolgan katta oziq tishlar tojidan hajmi jihatidan katta, og'iz dahliziga qaragan yuzasi uchta vertikal yo'nalgan do'ngliklardan tashkil topgan. Ular oralig'ida medial va distal lunj egatchalari joylashgan.

Do'ngliklar chaynov yuzasida do'mboqlarga o'tadi. Medial do'mboqning cho'qqisi o'tkir, o'rtasi yumaloq, distal do'mboqniki kamroq ifodalangan va dumaloqlangan.

Ikkinchi molyar tish. Bu tish o'lchami birinchi katta oziq tish tojidan kichik, kubsimon shaklga ega. Chaynov yuzasida to'rtta — ikkitadan medial va distal lunj va til do'mboqlari bor. Medial-lunj do'mboq distaliga nisbatan katta va baland. Lunj do'mboqlari til do'mboqlaridan balandroq joylashgan va ularning kesuvchi yuzalari o'tmaslashgan burchak ostida birlashadi yoki mutloq to'g'ri chiziqni ifodalaydi.

Tish qatorlari va ularning o'zaro munosabatlari. Tishlar yuqori va pastki jag' suyaklarining alveolar o'siqlaridagi tish katakchalarida mustahkam joy olib, tish qatorlarini hosil qiladi. Ularning shakli tishlar faoliyat ko'rsatishi uchun qulay. Tishlarning yuqorigi qatori yarim ellips, pastki qatori parabola shaklida bo'ladi. To'g'ri shakllangan tish-jag' tizimida tishlar bir-biriga yon yuzalari bilan zich tegib turadi, ya'ni ekvatorlari bilan nuqtaviy (kontakt) bog'lanish old tishlarda kesuvchi qirra yaqinida, yon tishlarda esa chaynov yuzasi yaqinida hosil bo'ladi. Bu kontakt bog'lanishning ahamiyati juda katta bo'lib, ba'zida tishlarga ortiqcha yuk tushganda ushbu nuqtaviy kontaktlar tish qatorlarini mustahkamlaydi, ya'ni birorta tishga tushadigan bosim uning ildizlari orqali alveolar o'simtasigagina emas, balki tishlararo bog'lanish nuqtasi orqali qo'shni tishlarga ham tarqaladi. Shu bilan birga, milk so'rg'ichlarini tishlarning yon tomonlaridan ovqat tegib jarohatlashidan saqlaydi. Chunki milk so'rg'ichlari tishlararo nuqtaviy bog'lanishlar tufayli hosil bo'lgan bo'lib, ular ostidagi uchburchak shaklidagi bo'shliqda joylashgan. Bu bilan tishlararo milk so'rg'ichlari jarohatlanmaydi. Tishlar orasidagi nuqtaviy bog'lanishlar yosh ulg'aygan sari siyqalanadi. Bu holat tish qatori va yoyining uzluksizligini kamaytirmaydi. Ammo, tishlarning turli yo'nalishda fiziologik qimirlashiga imkon yaratadi.

Fiziologik prikus ma'lum sharoitlarda parodontozda, tishlar yo'qotilganda va shu kabilarda uzoq vaqt davolanilmasa, o'zgarishi mumkin. Ortognatiya, fiziologik progeniya, biprognatiya va to'g'ri prikus (ba'zida prognatiya ham) fiziologik prikus guruhiga kiradi.

Ortognatik prikus. Yuqori jag'dagi old tishlar, pastki jag'dagi old qator tishlarni 3—4 mm qoplab turadi. Ko'proq darajada qoplashi patologik prikus turlarining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Progenik prikus. Bunda pastki kesuvchi tishlar yuqoridagilarni qoplab turadi, aniqrog'i, ortognatik prikusga taqqoslanadigan bo'lsa. uning aksidir.

Biprognatik prikus. Bunday tish qatorlarining bir-birlariga munosabati yuqori va pastki jag' oldi tishlarining oldinga og'ganligi bilan belgilanadi. Chaynov tishlari sohasida ortognatik prikusga xos munosabat saqlanadi. Yuqori jag' tishlarining pastki jag' tishlarini qoplash darajasi juda kam saqlangan bo'ladi.

To'g'ri prikus. Bunday paytda ikkala jag'ning tishlari va alveolyar o'simtalari jag'lar shakliga mos holda tik joylashadi.

Ortognatik prikusning farqi shundaki, to'g'ri prikusda old yuqori tishlarning kesuvchi qirralari pastki shu nomdagi tishlarni qoplab turmasdan to'g'ridan to'g'ri jipslashadi. Yon tishlarning jipslashishi esa ortognatik tishlovdan farq qilmaydi.

Patologik tishlov turlariga prognatik, progenik, chuqur, ochiq, kesishgan prikus (tishlov)lar kiradi.

Prognatik prikus. Bunda pastki jag' ning orqaga surilishi yoki yuqori jag'ning oldingi surilishi oqibatida old va yon tishlar jipslashishining buzilishi kuzatiladi.

Progenik prikus. Bunda pastki jag' oldinga surilgan bo'lib, pastki old tishlar yuqorigi old tishlarni qoplab turadi. Yuqori birinchi katta oziq tish lunj do'mboqchalari pastki ikkinchi katta oziq tish bilan bog'lanishda bo'ladi;

Chuqur prikus. Bunday tish qatorlarining jipslashuvida yuqori old tishlarning pastki old tishlarni ko'p qoplab turishi kuzatiladi.

Pastki tishlarning kesuvchi qirralari yuqori tishlarning bo'yniga, gohida shilliq pardaga tegib turadi. Chaynovchi tishlar ortognatik tishlovdagi kabi jipslashadi.

Chuqur tishlovda milkning shikastlanishi hamda ovqat chaynashning buzilishi kuzatiladi.

Ochiq prikus. Bu vaqtda old tishlarda, ba'zan kichik oziq tishlarda tish qatorlari jipslashganda qarama-qarshi tishlar orasida bog'lanish bo'lmaydi. Bog'lanish faqatgina katta oziq tishlardagina bo'ladi, xolos. Bu holat o'z vaqtida tashqi qiyofani, chaynashni, so'zlashishni o'zgartiradi.

Kesishma prikus. Bu prikusning kelib chiqishiga yuqori tish qatorlarining qisqarishi sabab bo'lishi mumkin. Bu vaqtda pastki chaynov tishlarining lunj do'mboqchalari yuqori chaynov tishlarining lunj do'mboqchalaridan tashqarida joylashgan bo'ladi. U bir tomonlama va ikki tomonlama bo'lishi mumkin.

Chaynov tizimi va unda bajariladigan xarakatlar.

Tish protezlari tayyorlashda chaynovni tashkil etuvchi a'zolar tizimi harakatini hamda ularning o'zaro bog'lanishini bilish muhim ahamiyatga ega.

Chaynov murakkab tish-jag' sohasi a'zolarining birgalikdagi faoliyati tufayli yuzaga keladi. Pastki jag'ning harakatli yo'nalishlari chakka-pastki jag' bo'g'imi tufayli, chaynov mushaklari yordamida yuzaga keladi.

Chakka-pastki jag' bo'g'imi o'zida pastki jag' bilan chakka suyagini birlashtiradi. Bu bo'g'im boshqa bo'g'imlarga o'xshamaydi: har bir bo'g'imda ko'ndalang va tik o'qlar bo'yicha turli yo'nalishlarda harakat sodir etish mumkin.

Bo'g'im bo'g'im chuqurchasi, bo'g'im boshchalari, bo'g'im diski va xaltasidan tashkil topgan.

Sagittal harakat. Pastki jag'ning sagittal yo'nalishdagi harakati tashqi qanotsimon mushaklar ikki tomonining birdaniga qisqarishi tufayli sodir bo'ladi. Ortognatik prikusda bo'g'imda bo'ladigan harakat ko'proq ko'ndalang o'q atrofida bo'ladi, to'g'ri prikusda esa bo'g'imda bo'ladigan harakat bo'g'im boshchasining o'z o'qi atrofida aylanishi hisobiga bo'ladi. Pastki jag'ning oldinga harakati 3 qismga bo'linadi:

-jag'ni pastga tushirish;

-jag'ni oldinga surish;

-old tishlarning chetlarini bir - biriga tekkuniga qadar tepaga ko'tarish.

Transverzal harakatlar tashqi qanotsimon mushaklar qisqarganda yuzaga keladi. Agar chap qanotsimon mushak qisqarsa, jag' o'ng tomonga, o'ng qanotsimon mushak qisqarsa, jag' chap tomonga suriladi. Bunday harakatda bo'g'im boshchasi bir tomonda pastki jag'ning o'simtasidan tik o'tuvchi o'qi atrofida aylanadi. Shu paytda boshqa tomondagi boshcha disk bilan birga, do'mboq bo'g'im yuzasida aylanadi. Mushak qisqargan tomonda bo'g'im boshchasi pastga, oldinga va ozgina orqaga suriladi. Bunday harakatda uning yo'li burchak ostida sagittal bo'g'im yo'li tomon yo'nalgan bo'ladi. Hosil bo'lgan burchakni birinchi bo'lib Benet aniqlab, tasvirlab bergan. Shuning uchun bu yo'lni Benet burchagi yo'li yoki yon bo'g'im yo'li deb ataladi. Bu burchak $15 - 17^\circ$ atrofida bo'ladi.

Pastki jag'ning transverzal harakatida kesuvchi tishlar ham jiplashuv sathiga nisbatan egriliklar hosil qiladi. U transverzal kesuvchi yo'l burchagi deb atalib, bu burchak $100 - 110^\circ$ ga tengdir.

Artikulyatsiya va okklyuziya.

Pastki jag'ning harakatlantiruvchi mushaklar—bog'lamlar qisqarishi natijasida yuqori jag' bilan har xil munosabatda bo'lishiga artikulyatsiya deyiladi.

Tepa jag' tishlarining pastki jag' tishlari bilan har xil vaziyatda jiplashishi okklyuziya deb ataladi. Okkluziya 3 xil bo'ladi.

A. Markaziy jiplashuv.

B. Oldingi jiplashuv (sagittal).

V. Yon jiplashuv (transversal).

Pastki jag' markaziy jiplashuv holatini aniqlashning ahamiyati shundan iboratki, u hamma chaynov harakatlarining oxirgi va dastlabki holatlari ko'rinishini aks ettiradi. Markaziy jiplashuv holati tishlov turlariga bog'liq va tish qatorlari munosabatlarining aniq belgilangan va umumiy belgilariga ega. Bu tish texnigiga tishlar, tish qatorlari va ular munosabatlarining negizini egallagan holda ish yuritish imkonini beradi.

Markaziy jiplashuv tish qatorlarining jiplashganligi, pastki jag' tish qatorlarining o'rta chiziqda joylashganligi bilan tavsiflanadi. Uning belgilari quyidagicha:

Pastki markaziy kesuvchi tishlar va yuqori jag'ning uchinchi katta oziq tishlari bittadan qarama-qarshi turgan tishlar bilan bog'lanishda bo'ladi. Qolgan

tishlar ikkitadan qarama-qarshi turgan tishlar bilan bog'lanadi. Yuqori tish pastki tish bilan bir nomdagi va orqada turgan tish bilan, pastki tish esa yuqori tish bilan bir nomdagi hamda oldinda turgan tish bilan bog'lanadi.

Yuqori va pastki jag'larning markaziy kesuvchi tishlari o'rtasidan o'tgan chiziq ko'pincha bir-biriga mos keladi.

Yuqori jag' oldi tishlar pastki jag' oldi tishlarning 1/3 qismini yopib turadi.

Yuqori birinchi katta oziq tishning lunj do'mboqchasi pastki jag' birinchi katta oziq tish lunj do'mboqlari orasidagi egatchada yotadi.

Yuzning o'rta chizig'i har ikkala jag'ning markaziy kesuvchilari o'rtasidan o'tadi.

Old jiplashishda:

- oldingi pastki tishlarining kesuv sathi yuqori tishlarning kesuv sathiga tegib turadi;
- pastki jag' bo'g'im boshi yuqori jag' bo'g'im do'mbog'ining old tarafiga surilgan bo'ladi.

Yon jiplashishda:

- pastki jag' tishlari yon tarafga surilgan bo'lib, shu tomondagi tish qatorining do'mboqlari qarshi tishlarning shu xildagi do'mboqlariga tegib turadi, ya'ni pastki jag'ning ketma-ket o'ngga va chapga harakati natijasi bo'lib, bu harakat ovqatni maydalash jarayonini yuzaga keltiradi.

”KLAUSTER” usuli. (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar “yo'ldoshlar” yozib qo'shiladi. Ularni “asosiy” so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi.

Bu “yo'ldoshlarda” “kichik yo'ldoshlar” bo'lishi mumkin.

Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klaster” usuli-turli xil g'oyalar o'rtasida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Yuqori jag' tishlarning anatomiyasi.
2. Pastki jag' tishlarning anatomiyasi.
3. Chakka pastki jag' bo'g'imi.
4. Yuqori jag'da bajariladigan harakatlar.
5. Pastki jag'da bajariladigan harakatlar.
6. Fiziologik prikus turlari.
7. Patologik prikus turlari.

8. Chuqur prikus turini izoxlang.
9. Artikulyatsiya nima ?
10. Okklyuziya nima ?

Tibbiy atamalar.

1. Model - protez o'rnining to'qimalari va unga yaqin yotgan soha rel'efining o'lchovlar bo'yicha hosil qilingan pozitiv tasviri
2. Amalgama - simobning metall bilan kotishmasi.
3. Kiritma - tabiiy tishni tiklovchi, ko'priksimon va byugel protezlarlari uchun tayanch qism.
4. Oral - og'iz ichi.
5. Qoplama - buzilgan tabiiy tish koronkasini tiklovchi protez.

Vaziyatli masala.

1. Yuqori jag'dagi old tishlar, pastki jag'dagi old qator tishlarni 3—4 mm qoplab turadi. Tashhis:
Javob: Ortognatik prikus.
2. Pastki kesuvchi tishlar yuqoridagilarni qoplab turadi. Tashhis:
Javob: Progenik prikus.
3. Yuqori va pastki jag' old tishlarining oldinga og'gan, chaynov tishlari sohasida ortognatik prikusga xos munosabat saqlangan, yuqori jag' tishlarining pastki jag' tishlarini qoplash darajasi juda kam saqlangan. Tashhis:
Javob: Biprognatik prikus.
4. Ikkala jag'ning tishlari va alveolyar o'simtalari jag'lar shakliga mos holda tik joylashgan. Tashhis:
Javob: To'g'ri prikus.
5. Pastki jag'ning orqaga surilishi yoki yuqori jag'ning oldingi surilishi oqibatida old va yon tishlar jiplashishining buzilishi kuzatildi. Tashhis:
Javob: Prognatik prikus.
6. Pastki jag' oldinga surilgan bo'lib, pastki old tishlar yuqorigi old tishlarni qoplab turibti. Yuqori birinchi katta oziq tish lunj do'mboqchalari pastki ikkinchi katta oziq tish bilan bog'lanishda. Tashhis:
Javob: Progenik prikus.
7. Yuqori old tishlarning pastki old tishlarni ko'p qoplab turishi kuzatildi. Pastki tishlarning kesuvchi qirralari yuqori tishlarning bo'yniga, gohida shilliq pardaga tegib turadi. Chaynov tishlari ortognatik tishlovdagi kabi jiplashadi. Milkning shikastlanishi hamda ovqat chaynashning buzilishi kuzatiladi. Tashhis:
Javob: Chuqur prikus.
8. Old tishlarda, ba'zan kichik oziq tishlarda tish qatorlari jiplashganda qarama - qarshi tishlar orasida bog'lanish yo'q. Tashhis:
Javob: Ochiq prikus.

9. Pastki chaynov tishlarining lunj do‘mboqchalari yuqori chaynov tishlarining lunj do‘mboqchalaridan tashqarida joylashgan. Tashhis:

Javob: Kesishma prikus.

Test savollari.

1. Markaziy kesuvchi tishlarning shakli nimani eslatadi ?
 - *Qoziqni
 - Uchburchak shaklini
 - Xanjarni
 - Doirani
2. Tish tojining shakli og‘iz dahliziga qaragan yuzasi ...
 - *Bo‘rtgan
 - Qabariq
 - Tekis
 - G‘adir budir
3. ... tishlar eng kichik tishlardan hisoblanadi.
 - *Pastki jag‘ markaziy va yon kurak tishlar.
 - Pastki jag‘ qoziq tishlar.
 - Yuqori jag‘ markaziy va yon kurak tishlar.
 - Yuqori jag‘ qoziq tishlar.
4. Qaysi turdagi prikusda pastki kesuvchi tishlar yuqoridagilarni qoplab turadi ?
 - * Progenik prikus.
 - To‘g‘ri prikus.
 - Prognatik prikus.
 - Biprognatik prikus.
5. Qaysi turdagi prikusda yuqori jag‘dagi old tishlar, pastki jag‘dagi old qator tishlarni 3—4 mm qoplab turadi ?
 - * Ortognatik prikus.
 - To‘g‘ri prikus.
 - Prognatik prikus.
 - Biprognatik prikus.
6. Qaysi turdagi prikusda ikkala jag‘ning tishlari va alveolyar o‘simtalari jag‘lar shakliga mos holda tik joylashgan ?
 - *To‘g‘ri prikus.
 - Prognatik prikus.
 - Biprognatik prikus.
 - Ortognatik prikus.
7. Qaysi turdagi prikusda pastki jag‘ning orqaga surilishi yoki yuqori jag‘ning oldingi surilishi oqibatida old va yon tishlar jipslashishining buzilishi kuzatildi ?
 - *Biprognatik prikus.
 - Ortognatik prikus.
 - To‘g‘ri prikus.

Prognatik prikus.

8. Pastki jag‘ning harakatlantiruvchi mushaklar—bog‘lamlar qisqarishi natijasida yuqori jag‘ bilan har xil munosabatda bo‘lishiga ... deyiladi.

*Artikulatsiya

Okklyuziya

Chaynash jarayoni

To‘g‘ri prikus.

9. Tapa jag‘ tishlarining pastki jag‘ tishlari bilan har xil vaziyatda jiplashishi ... deb ataladi.

*Okklyuziya

Artikulatsiya

Chaynash jarayoni

To‘g‘ri prikus.

10. Qaysi turdagi prikusda old tishlarda, ba‘zan kichik oziq tishlarda tish qatorlari jiplashganda qarama - qarshi tishlar orasida bog‘lanish bo‘lmaydi.

* Ochiq prikus.

To‘g‘ri prikus.

Prognatik prikus.

Biprognatik prikus.

2.2. 2- mavzu:	Tish protezlarini tayyorlashda chaynovni tashkil etuvchi a‘zolar tizimi harakati hamda ularning o‘zaro bog‘lanishini ahamiyati.
-----------------------	--

Ma‘ruza mashg‘ulotini O‘qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Nazariy mashg‘ulot
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi.	I. Tish protezlari. II. Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi.
O‘quv mashg‘uloti maqsadi:	
1.Ta‘limiy:	
<ul style="list-style-type: none">• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash• Amaliy ko‘nikmalarni egallash• Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash• Deontologik tarbiyaning shakllanishi• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash	
2.Tarbiyaviy maqsadi:	
<ul style="list-style-type: none">• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish	

<ul style="list-style-type: none"> • O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e‘tiborlilik xissini shakllantirish 	
<p>Pedagogik vazifalar.</p> <p>Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasini tashkil etishdagi chora tadbirlar o‘tkazish borasida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlashdan iborat.</p>	<p>O‘quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Tinglovchi:</p> <p>Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi ishini tashkil etish. Xujjatlarni to‘ldirish va ularga bo‘lgan talablar. Tish protezlarini yasash jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish.</p>
O‘qitish metodlari	Zamonaviy ta‘lim usullari
O‘quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O‘qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil’mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O‘qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o‘quv xona.
Qayta a‘loqaning usul va vositalari.	Og‘zaki so‘rov: tezkor so‘rov, yozma so‘rov, test, misol va mashklar bajarilgan o‘quv topshiriklarini baxolash

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchi
<p>1 bosqich</p> <p>O‘quv mashg‘ulotiga kirish 10 dakika</p>	<p>Tashkiliy kism</p> <p>1.1 O‘qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O‘quv bo‘limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib koidalariga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O‘quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo‘llaniladigan usullarni aytib O‘yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar</p> <p>Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>

<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 dakika 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni tO'lik bayonetish 30-40. 3.O'kitishning noannaviy usullarini ko'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'kituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy xujum" usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar"Aqliy xujum" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi ishini tashkil etish.</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'qib kelish Tavsiya etiladigan adabiyotlar: H.Sh.Rahmonov "Tish texnikasi materialshunosligi" • S.Yusupova D.Ashurov "Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi" • N.Toshpo'latova "Og'iz bo'shligi kasalliklari" 	<p>Tinglaydilar,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

MAVZU: Tish protezlarini tayyorlashda chaynovni tashkil etuvchi a'zolar tizimi harakati hamda ularning o'zaro bog'lanishini ahamiyati.

Dars rejasi:

- I. Tish protezlari.
- II. Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi.

Tish protezlari.

Tish protezlari, tish qatorlaridagi tishlar sonini qayta tiklashda, tish qatorlarini va ular munosabatini o'zgartirish, chakka-pastki jag' bo'g'imi ishini qayta qo'rish, tishlarni taxtakachlashda (shinalashda) shuningdek tish tojini tiklashda qo'llaniladi. Tish protezlarining xilma-xilligi maxsus xom ashyo ishlatish zaruriyatini tug'diradi. Tish protezlari asosiy xom ashyolari -plastmassalardan, tarkibida asosan oltin, kumush va palladiy bo'lgan metall qotishmalardan, xrom-nikelli zanglamaydigan pulatlardan, xrom-kobaltli qotishmalardan, chinnidan tayyorlanadi. Protez tayyorlash jarayonida juda ko'p yordamchi xom ashyolar (gips, mumlar, yengil eruvchan metall qotishmalar, sementlar, o'tga chidamli massalar, abraziv va pardoziy xom ashyolar, kavsharlar, kislotalar va x.k.) xam ishlatiladi.

Asosiy xom ashyolar mutlaqo zararsiz bo'lib, odam organizmiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Yordamchi va asosiy xom ashyolardan protez tayyorlash jarayonida tish texnigi kasbga aloqador zaxarlanishning oldini olish kerak, ularni ishlatayotgan vaqtda (kislotalar, monomerlar, qo'rg'oshin va boshqalar) extiyot choralari ko'rish kerak.

Ortopedik stomatologiya bo'limining ish faoliyati.

Tish protezlarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Klinik-laboratoriya tayyorlash bosqichlari ketma-ket davomiylik, ba'zi bosqichlar vrach tomonidan mustaqil ravishda bajariladi, boshqalari esa tish protezlarni tayyorlash laboratoriyasida tish texnigi tomonidan davom ettirilib tish protezi tayyorlanadi.

Ortopedik stomatologiya bo'limi yoki xonasi stomatologik poliklinikasining yoki o'zga davolash muassasalarining bir qismidir. Ular maxsus o'ziga xos binolarda yoki moslashtirilgan binolarda (xonalarda) sanitariya qoidalariga rioya qilingan xolda tashkil etiladi.

Agar a'xoli turar joy binolarida stomatologik shifoxona yoki bo'lim joylashgan bo'lsa, uning tarkibida fizioterapevtik va rentgen moslamalarining bo'lishi ko'p xollarda to'g'ri kelmaydi.

Aytish lozimki, agar biror shifoxona qayta tiklanayotgan yoki yangi bino loyihalashtirilayotgan bo'lsa, albatta talabga muvofiq aniq maqsadli loyixa asosida qurilishi darkor. Ortopedik stomatologiya bo'limi bir vaqtning o'zida bir qancha ortoped-stomatolog vrachlarning ishlariga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Bu bo'lim xonalarida birinchi stomatologik kursisi uchun 14 m 2 maydon va xar qaysi qo'shimcha kursi uchun 7 m 2 joy ajratilishi kerak. Qo'shimcha stomatologik kursi yonida xamma ish bop (universal) stomatologik bormashinasi bo'lsa, maydon 7 m 2 emas, 10 m 2 bo'lishi lozim.

Xonalarning balandligi 3 m, bir tomonlama tabiiy yoritilganda kengligi 6 m dan oshmasligi kerak.

Ortopedik bo'lim ichini ta'mirlash uchun ishlatiladigan xom ashyolar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qurilishda ishlatish uchun ruxsat etilgan bo'lishi shart.

Xona devorlari yoriqlarsiz, silliq bo'lishi kerak, shift bilan polni xamma burchaklari, xamda devorlarning birlashgan joylari dumaloqlangan bo'lib, bezak va karnizlar bo'lishi kerak emas. Vrach xonasi va tish texnigining asosiy ish joyi

devorlari eshiklari balandligida polivinilatsetat yoki nitroemal va boshqa moyli buyoqlarda bo'yalgan bo'lishi lozim.

Paneldan yuqori qismi esa silikat yoki yelimli bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Vrachxonasi va tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi xodimlari xonasining shifti suv emulsiyali moyli, silikatli, yelimli bo'yoqlar bilan oq rangga bo'yaladi.

Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi maxsus ishlab chiqarish xonalarning devori eshik bo'ylab glazur qilingan kafel bilan qoplangan bo'ladi. Paneldan yuqori qismini silikatli yoki yelimli bo'yoqlar bilan bo'yaladi.

Stomatologik xonalarning pollariga polivinil xloridli xomashyo (vinil plast, linoleum) yotqizilgan bo'lishi va yoriqlar bo'lmasligi kerak. Buning uchun linoleum choklari yuqori to'lqinli kavsharlash moslamasi bilan yoki maxsus (gorelka) moslama yordamida birlashtiriladi.

Tish protezlarni tayyorlash laboratoriyasi xonalari quyidagicha nomlanadi:

Asosiy xonalar - poli polivinil xloridli xom ashyolardan yopilgan bo'lishi kerak.

Maxsus xonalar - polikeramik tosh taxtalardan bo'lishi kerak.

Ortopedik xonalar devori va poli yorqin rangda bo'lib, aks etgan yorug'lik koeffitsienti 40% dan kam bo'lmasligi kerak.

Neytral och kul rang bo'yoq qullanish maqsadga muvofiq bo'lib, shilliq, qavat, terini, qon va tishlar rangi aksini (tabiiy va sun'iy), plomba va tish protezi xom ashyolari rangini bir-biridan to'g'ri ajratishga xalaqit bermaydi.

Xamma xonalarning eshik va derazalari emal bo'yoqlar bilan oq rangga bo'yaladi. Eshik va deraza tutqichlari silliq bo'lib, tozalash uchun qulay bo'lishi zarur.

Ortopedik stomatologiya bo'limlari, xonalari va tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasini tibbiy asbob-uskunalar bilan jixrzlash, stomatologik maskanlarni ta'mirlash talab asosida olib boriladi.

Ortopedik stomatologiya xonasida 3 tadan ortiq kreslo qo'yib bo'lmaydi va albatta vrachlar ish joylari balandligi 1,5 m bo'lgan to'siqlar bilan ajratilgan bo'lishi kerak. Xonalarga bir tomonlama tabiiy yorug'lik tushadigan bo'lsa, kursilar bir qator yorug'lik tushadigan devor tomon joylashtiriladi.

Klinikada vrachlar ishini taftish kilinganda, ular ish vaqtining ko'p qismi yordamchi, ikkilamchi ishlar uchun sarf bo'lishi aniqlandi. Vrachlarning ish vaqtini tashkil qilishdagi asosiy masala ana shu vakti qisqartirishdan iboratdir.

Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi ortopedik bo'lim bilan birga bir binoda joylashishi kerak. Shuningdek, tish protezlarini tayyorlash bosqichlarida yuzaga keladigan o'ziga xos sharoitlarga e'tibor qilib, bir xildagi ishlab chiqarish jarayonlarini umumlashtirish uchun aloxida maxsus xonalar ajratilishini ko'zda tutish kerak.

Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi.

Laboratoriyaning ishini tashkil qilishda avvalo tish texniklarini yaxshi, samarali mexnat qilishlari uchun gigienik talablarga mos keladigan tegishli ish sharoitlarini yaratib berish lozim.

Ishning sanitariya normalarini tuzayotganda tish texniklarining maxsus, o'ziga xos sharoitlarda ishlashga tug'ri kelishini nazarda tutish kerak. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) kislotalar (azot, xlorid) bilan ishlash vaqtida;
- 2) polimetil-metakrilat eritmalari bilan ishlaganda;
- 3) kavsharlash va quyish jarayonlarida benzin va gaz bug'lari ta'sirida ishlayotganda;
- 4) metallarga (zanglamas po'lat, xrom kobalt, yengil eruvchan metall) ishlov berish vaqtda karborund changi bo'ladigan vaqtida;
- 5) plastmassaga ishlov berishda changning ko'p bo'lganida;
- 6) yordamchi xom ashyolar (pemza, GOI pastasi va boshqalar) bilan ishlaganda ularning changining ta'sir etishi;
- 7) kyuvetada mumlarni eritayotganda va plastmassani polimerlashda juda ko'p suv bug'larining ta'sirida ishlaganda.

Shular bilan bir qatorda tish texniklarining sog'lig'iga quyidagilar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- 1) ish joyining torligi;
- 2) yorug'lik va isitgich moslamalarining kamligi;
- 3) xonani shamollatish moslamalarining yetishmasligi;
- 4) texniklar ish tartibining notug'ri bo'lganligi va x.k..

Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasining xamma xonalari asosiy yoki tayyorlov xonasi, maxsus ishlar bajariladigan xonalardan iborat bo'ladi. Ularga gipslash xonasi, polimerlash ish xonasi, pardoqlash xonasi, kavsharlash xonasi, quyish xonasi kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan xonalardan tashqari xom ashyolar saqlanadigan, kiyim bosh yechiladigan joy, cho'miladigan yordamchi xonalar bo'lishi lozim. Shuning bilan bir qatorda nodir metallar qotishmalari (oltin, kumush, palladiy, platina va boshqalar) bilan ishlash uchun maxsus xona va qotishmalar beriladigan, qabul qilinadigan, tortadigan va saqlaydigan xonalarning bo'lishi xam nazarda tutiladi.

Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi issiq va sovuq quvurli vodoprovod, kanalizatsiya, markazlashgan isitgich moslamalari bilan ta'min etilishi shart.

Xonalarga issiqlik berilishini boshqarish markaziy issiqlik tarqatish xonasida amalga oshiriladi. Isitgich moslamalari ustini vaqti-vaqti bilan tozalab turish xisobga olingan xolda joylashtirilishi kerak. Xavo issiqligi xarorati 16° - 18° S, namligi 40-60 foizni tashkil etishi kerak.

Asosiy va maxsus xonalarning balandligi 3,5 m dan kam bo'lmasligi lozim.

Xamma xonalar aloxida va mexanik ishlaydigan umumiy shamollatish moslamalari bilan jixrzlanadi.

Asosiy xonada xar bir ishlayotgan tish texnigi uchun xajmi 13 m^3 va 4 m^2 dan kam bo'lmagan maydon to'g'ri kelishi kerak.

Toza xavo oqimi uning aylanishi va ifloslangan xavoning tortilishi sekundiga 0,5 m dan oshmasligi kerak. Gipslash, kavsharlash, polimerlash, quyish xonalarida xavoni tortib shamollatuvchi moslamalar ishlatiladi.

Xamma xonalarda xar bir ish joyi uchun biriktirilgan elektr simli yoritgichlar va kerakli kuchlanishdagi elektrotexnik tarmog'i mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Laboratoriyada tabiiy gaz bo'lmasa, tish protezlarini tayyorlash jarayonida ishlatiladigan muamlarni eritishda spirtli idish alangasidan foydalaniladi. Mumni eritish uchun mualliflar tomonidan yaratilgan maxsus elektr toki bilan ishlaydigan (elektroshpatel) moslamasi mavjud. Metall qotishmalaridan yasalayotgan tish protezi detallarini bir-biriga ulash uchun benzin bilan ishlaydigan moslama qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish xonalaridan, asosan gipslash xonasidan oqib chiqayotgan chiqindi suvlar maxsus jixrzlangan chuktirgichlar orqali utishlari shart.

Ish joyini yoritish qator gigienik normalarga rioya qilingan xolda ta'minlanadi. Derazalarning oynalangan satxi pol satxiga 1/5 nisbatda, ish joyining ko'ndalang yuzasiga tushadigan burchak 25-27° dan kam bo'lmasligi lozim. Ish joyiga yorug'lik to'g'ridan yoki chap tomondan tushishi kerak.

Tish protezlarini tayyorlash laboratoriya xonalari kunda ikki marta tozalanishi shart.

Asosiy xona.

Bu tish protezlari, jag'-yuz protezlari, ortodontik moslamalar tayyorlashda asosiy ishlarni bajarishga mo'ljallangan. Xonada tish texniklari uchun ish joyi - stollar va stullar qo'yiladi. Xomashyolar va boshqa buyumlar uchun tokchali shkaflar bilan jixozlanadi. Shu xonada metall gilzalarni cho'zish uchun Samson moslamalari va boshqalar o'rnatiladi.

Nodir metallar bilan ishlanadigan asosiy xonada o'tga chidamli shkaf, seyflar bo'lishi lozim. Seyf devor ichiga joylashtirilishi kerak.

Tish protezi tayyorlashda xamma ish jarayonlari qulay, tez va unumli bajarishga maxsus jixozlangan shaxsiy ishlash joyi, o'lchovlari 1,0x0,7m bo'lgan tish texnigi stoli imkoniyat tug'diradi. Stol tepasida yarim aylana o'yiqlik yuzasi bo'lib, zanglamaydigan po'lat yoki parchali latun bilan stol cheti ximoyalaniadi. O'yiqlik o'rtasida stol ustki taxtasi chetiga taxtadan bo'rtiq maxkamlanadi. Stol yuzasi ustida yoritgich anjomi, shlifmotor, elektr isitgich asbobi va gaz gorelkasi joylashtiriladi.



Tish texnigi ish joyi, laboratoriya.

Shuni aytish lozimki, stol, stul balandligi shu o'rinda ishlaydigan tish texnigiga mo'ljallanib yakka tartibda moslanadi.

Shlifmotor ishlovchining chap tomoniga o'rnatiladi. Protezning mayda qismlariga ishlov berish uchun kichik bor mashina xam bo'ladi.

Stol uchta tortmali bo'ladi:

-yuqori tortmani xajmi kattaroq, mayda asboblari saqlanadi,

-o'rtta tortma jiyaklangan faneradan yasalgan bo'lib, qirindilar, nodir metallar qotishmalarining qiyiqlari yig'iladi,

-pastkisiga xar xil chiqindilar (gips, plastmassa) tushadi.

Tish texnigi ish jarayonida quyidagi asboblardan foydalanadi:

-tish texnigi va shakl beruvchi shpateli,

-gipsni kesish uchun pichoq,

-qisqichlar va metall qaychilar,

-xar xil katta-kichiklikdagi bolg'achalar,

-sangdon,

-o'rtta va mayda tishli egovlar;

-turli silliqlovchi va pardozlovchi asboblari,

-karborundli va olmosli toshlar, borlar, frezlar, falslar, cho'tkalar va arrachalar.

-gipsni qorish uchun rezina kosacha va keng shpatel-aralashtirgich.

Tish texnigi o'z ishlarini bajarishda ortopedik stomatologiya va tish protezlarini tayyorlash uchun ishlab chiqarilgan hozirgi zamon xom ashyolarini qo'llaydi. Ularga qolip olish xomashyolari, turli ishlarga mo'ljallangan mumlar, plastmassalar, metallar qotishmalari, chinni massalari, sun'iy tishlar, qoliplash, ishlov berish, izolyatsiya va qoplovchi xomashyolar, sementlar va boshqalar kiradi.

Xomashyolarni sarflash va xisobdan chikarish tasdiqlangan me'yorlarga rioya qilingan xolda bajariladi.

Xozirgi davrda protez turlarining ko'pligi va ularni xar xil toifali malakali tish texniklari bajarishi tufayli ularning asosiy ish joylarini ajratish, davr talabi bo'yicha jixozlash, ishlab chiqarish darajasini, xamda protez sifatini oshirishga imkon beradi (ortodontik moslamalar tayyorlash, yoyli protezlar tayyorlash, metall-keramika va x.k.).

Maxsus tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi (xonasi) deb nomlanishi uning faoliyati va jixozlanishiga karab belgilanadi.

Giplash xonasi.

Bu xonada asl nusxalar quyiladi. Kyuvelalarga, okklyudator va artikulyatorlarga giplash va tayyor protezlarni gipsdan xoli qilish kabi ishlar bajariladi. Xonada bu ishlar uchun stol bo'ladi. Stolda 2-Z ta teshiklar bo'lib, tagiga gips qoldiklari tushishi uchun idish qo'iilgan bo'ladi. Xonaga suv tarmog'i keltirilgan bo'lishi lozim.

Xonaga gips saqlash uchun kichikroq quti, kyuvetadan gipsni siqib chiqaruvchi press, oddiy press (iskanja) bo'ladi. Kyuvelalar, byugellar, okklyudator, artikulyatorlar stol tortmalarida saqlanadi. Bu asbob uskunalaridan tashqari gipsli asl nusxalarni kesish uchun moslama o'rnatilishi zarur.

Polimerizatsiya xonasi.

Bu xonada plastmassa tayyorlash, uni qoliplash va polimerlash jarayonlari bajariladi. Xonada turli plastmassalardan xamir tayyorlash va uni qoliplash uchun stol bo'ladi. Stolga kyuvetalar uchun bir yoki ikkita tish texnikligi pressi o'rnatiladi. Stol tortmalarida byugellar va plastmassa chiqindilari uchun germetik idish

qo'yiladi. Germetik idish chiqindilarning bug'lanishi va zararli ta'siridan saqlaydi. Stol tepasida xavoni so'rib oluvchi moslama o'rnatilgan bo'lishi darkor.

Xonada kamida ikkita sterilizator yoki unga o'xshash idish bo'lishi kerak, birida kyuvetalardagi mum eritib chiqariladi, ikkinchisida plastmassalar polimerlanadi.

Pardozlash xonasi.

Xona tayyor tish protezlari, jag'-yuz va ortodontiya moslamalariga ishlov berish va pardozlash uchun mo'ljallangan. Bu xonada bir nechta shlifmotor o'rnatilgan stol bo'lib, ular chang ushlagich qurilmalari bilan jixozlangan bo'ladi.

Xonadagi stol tortmasida protezga mexanik va elektrokimyoviy ishlov berish uchun maxsus ashyolar saqlanadi

Nodir metallar qotishmalaridan ishlangan tish protezlarini pardozlashda xona albatta xususiy chang ushlagich qurilmalari bilan jixozlangan bo'lishi shart.

Kavsharlash xonasi.

Xonada protez qismlarini bir-biriga ulash-kavsharlash ishlari bajariladi, kavsharlash moslamasida gilzalarga termik ishlov berish xam bajariladi.

Xona xavo so'rib oluvchi shkaf bilan xam jixozlangan bo'lishi kerak.

Quyish xonasi.

Xona turli metall qotishmalaridan protez qismlarini quyib tayyorlashga mo'ljallangan. Bu xonada maxsus eritish va quyish moslamalari bo'ladi. Mumni eritish, quyish, qoliplarni quritish mufel pechida olib boriladi. Bu pech xavo so'rib oluvchi shkaf ichiga o'rnatiladi.

Xamma toifadagi stomatologiya poliklinikalari tish protezlarini tayyorlash laboratoriyalari o'rniga metall tish protezlarini quyish uchun shaxar yoki tuman qoshida markazlashtirilgan quyish sexini tashkil etish xam mumkin.

Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasining ishlab chiqarish va yordamchi xonalarida xamma vaqt sovun, qo'l yuvish chutkasi, sochiq, dezinfeksiya qiluvchi vositalar va birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur qo'llanmali dori-darmonlar bo'lgan quticha bo'lishi shart.

Kavsharlash xonasida asbest va qum solingan qutti bo'lishi kerak.

Xar bir xonada o't o'chirgich bo'lishi va xar bir texnik undan foydalanish qoidalarini bilishi lozim. Kommunal gigiena va mexnat gigienasi qoidalariga rioya qilish kasb kasalliklarining oldini olishda muxim o'rin tutadi.

“Aqliy hujum” usuli. Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o'quvchi o'zining fikrini bayon etishi kerak.

Bu javob yoki fikr o'rinli yoki noo'rin bo'lishi mumkin, ammo, o'qituvchi ham qolgan o'quvchilar ham javob bergan o'quvchiga tanbeh bermaydilar.

O'qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o'quvchining javobini yozib boradi. Har bir o'quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.

Qanchalik ko'p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo'ladi.

Bu usulda dars o'tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o'quvchilarning mulohazalarini to'plash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Har qanday javoblar usul so'ngida muhokama qilinadi.

Test savollari.

1. Ortopedik xonalar devori va poli yorqin rangda bo'lib, aks etgan yorug'lik koeffitsienti necha % dan kam bo'lmasligi kerak ?

*40%

30%

20%

10%

2. Tish texniklarining qaysi xonasida mufel pechini ko'rish mumkin ? ***Quyish xonasida**

Asosiy xonada

Kavsharlash xonasida

Pardozlash xonasida.

3. Mumni eritish tish texniklarining qaysi xonasida bajariladi ?

***Quyish xonasida**

Asosiy xonada

Kavsharlash xonasida

Pardozlash xonasida.

4. Qaysi xonada protez qismlarini bir-biriga ulash ishlari bajariladi ?

* Kavsharlash xonasida

Quyish xonasida

Asosiy xonada

Pardozlash xonasida.

5. Tish texniklarining qaysi xonasida gilzalarga termik ishlov berish xam bajariladi ?

* Kavsharlash xonasida

Quyish xonasida

Asosiy xonada

Pardozlash xonasida.

6. Tish texniklarining qaysi xonasi albatta xususiy chang ushlagich qurilmalari bilan jixozlangan bo'lishi shart ?

* Pardozlash xonasida

Kavsharlash xonasida

Quyish xonasida

Asosiy xonada.

7. Qaysi xonada asl nusxalar quyiladi ?

* Gipslash xonasida

Pardozlash xonasida
Kavsharlash xonasida

Quyish xonasida.

8. Tish texniklarining qaysi xonasida kamida ikkita sterilizator yoki unga o'xshash idish bo'lishi kerak ?

* Polimerlash xonasi

Gipslash xonasida

Pardozlash xonasida

Kavsharlash xonasida

9. Ortopedik stomatologiya xonasida nechttadan ortiq kreslo qo'yib bo'lmaydi ?

*3 tadan

4 tadan

5 tadan

6 tadan.

10. Ortopedik stomatologiya xonalarida birinchi stomatologik kursisi uchun maydon o'lchamini ko'rsating.

*14 m²

12 m²

10 m²

7 m²

Vaziyatli masalalar:

• **Vaziyat:** Hamshiraga xonani joriy tozalash uchun 3% li Xloramin eritmasini tayyorlash topshirildi. Hamshira 10 litr suvga 30 gramm quruq xloramin kukunini qo'shdi.

• **Savol:** Hamshira eritma konsentratsiyasini to'g'ri tayyorladimi? Matematik hisobni ko'rsating

• **Vaziyat:** Hamshira bix ichiga jarrohlik va ortopedik choyshablarni, asboblarni joylashtirdi. Biroq u bix ichiga materiallarni o'ta zich, tiqib joylashtirdi.

• **Savol:** Bix ichiga materiallarning o'ta zich joylashtirilishi avtoklavda sterilizatsiya sifatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2.2.3- mavzu:	Artikulyatorlar va okklyudatorlar bilan ishlashda tish texnigining vazifalari.
----------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Artikulyator va okklyudator tushunchasi 2. Artikulyatorning vazifasi va turlari 3. Okklyudatorning vazifasi va turlari 4. Tish texnigi uchun artikulyator va okklyudator bilan ishlashning ahamiyati
<p>O'quv mashg'uloti maksadi:</p> <p>1.Ta'limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko'nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish 	
<p>Pedagogik vazifalar.</p> <p>Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasini tashkil etishdagi chora tadbirlar o'tkazish borasida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlashdan iborat.</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Tinglovchi:</p> <p>Tish protezlarini tayyorlash laboratoriyasi ishini tashkil etish. Xujjatlarni to'ldirish va ularga bo'lgan talablar. Tish protezlarini yasash jarayonida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish.</p>
O'kitish metodlari	Zamonaviy ta'lim usullari
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi,

	matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov:tezkor surov,yozma so'rov,test,misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 dakika	<p>Tashkiliy kism</p> <p>1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi,ichki tartib koidalriga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.</p>	Javob beradilar Tinglaydilar,Yozib oladilar.
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 dakika</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni tO'lik bayon etish 30-40.</p> <p>3.O'kitishning noannaviy usullarini ko'llagan xolda tinglovchilar</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'kituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi.</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Akvarium" usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>. Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar"Akvarium" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>

bilimini mustaxkamlash		
3-bosqich Yakuniy 5 daqqa	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e’lon qilinadi .Uyga vazifa: Artikulyatorlar va okklyudatorlar bilan ishlashda tish texnigining vazifalari. O’qib kelish Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.S.SAgzamxo‘jaev, G.T.Maqsudova Ortopedik stomatologiya va ortodontiya asoslari Toshkent- 2005yil 3. .S.SAgzamxo‘jaev, S.G’afforov Stomatologik asbob va ashyolar 3.Nazarova N.Sh. – “Ortopedik stomatologiya propedevtikasi”, Toshkent, 2024. 4.Irsaliev X.I. va boshq. – “Ortopedik stomatologiya</p>	<p>Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

Mavzu: Artikulyatorlar va okklyudatorlar bilan ishlashda tish texnigining vazifalari.

Dars rejasi:

5. Artikulyator va okklyudator tushunchasi
6. Artikulyatorning vazifasi va turlari
7. Okklyudatorning vazifasi va turlari
8. Tish texnigi uchun artikulyator va okklyudator bilan ishlashning ahamiyati.

Artikulyator va okklyudator tushunchasi

Artikulyator stomatologiyada bemorning og‘iz bo‘shlig‘idagi mandibula harakatlarini mexanik tarzda simulyatsiya qilish uchun ishlatiladigan maxsus asbobdir. U tish modellarini o‘rnatish va tishlarning bir-biriga tegishi, ochilish, yopilish, lateral va protruziv harakatlarni qayta tiklash imkonini beradi. Artikulyator yordamida tish texniklari va stomatologlar protezlar va qoplamalarni bemorning individual mandibula harakatlariga moslab tayyorlashlari mumkin.

Okklyudator esa asbob orqali tishlarning kontakt nuqtalari va vertikal o‘rnatilishini aniqlashga xizmat qiladi. Bu asbob yordamida tishlar orasidagi bo‘shliqlar, o‘zaro moslik va muvozanat tekshiriladi. Okklyudator stomatolog va tish texnigi uchun

kontakt nuqtalari to'g'ri joylashganligini baholash va protezlar yoki qoplamalarni yakuniy shaklga keltirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan artikulyator bemorning mandibula harakatlarini simulyatsiya qilsa, okklyudator tishlar orasidagi kontaktlarni aniqlash va tishlar orasidagi moslikni tekshirishda qo'llaniladi. Ikkalasi ham stomatologik protezlarni tayyorlash jarayonida sifat va funktsionallikni ta'minlash uchun zarur asboblarni hisoblanadi.

Artikulyatorning vazifasi

Artikulyator stomatologiyada bemorning mandibula harakatlarini simulyatsiya qiluvchi asbob bo'lib, tish texnigi va stomatolog uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Mandibula va maxilla tish modellarini o'zaro moslashtirish va ularni ish holatida tekshirish;
- Tishlar orasidagi kontakt nuqtalarini aniqlash va tish protezlarini moslashtirish;
- Mandibula ochilish, yopilish, lateral va protruziv harakatlarini simulyatsiya qilish;
- Tayyorlangan protezlar va qoplamalarni bemor og'iziga mos kelishini ta'minlash;
- Tishlarning o'zaro moslashuvini va okklyuziya balansini tekshirish.

Artikulyator turlari

Artikulyatorlar ishlash printsipi va murakkabligiga ko'ra bir nechta turga bo'linadi:

- **Oddiy (klassik) artikulyatorlar:**
Tish modellarini faqat asosiy yopilish va ochilish harakatlarini simulyatsiya qilish uchun ishlatiladi. Qisqa vaqt ichida oddiy protezlar tayyorlashda qulay.
- **Yarim o'zgaruvchan (semi-adjustable) artikulyatorlar:**
Mandibula harakatlarini yanada aniqroq simulyatsiya qiladi. Lateral va protruziv harakatlarni moslashtirish imkoniyati mavjud. Tish protezlari va qoplamalarining yakuniy moslashuvini tekshirish uchun ishlatiladi.
- **To'liq o'zgaruvchan (fully adjustable) artikulyatorlar:**
Bemor mandibula harakatlarini maksimal darajada simulyatsiya qilish imkonini beradi. Har bir bemor uchun individual sozlash mumkin, murakkab protezlar va funktsional rehabilitatsiya uchun ideal.
- **Elektron yoki raqamli artikulyatorlar:**
Kompyuter orqali mandibula harakatlarini kuzatish va simulyatsiya qilish imkoniyatini beradi. Raqamli protetik ishlar va CAD/CAM texnologiyalarida qo'llaniladi.

Okklyudatorning vazifasi va turlari

Okklyudatorning vazifasi

Okklyudator — stomatologiyada tishlar orasidagi kontakt nuqtalarini aniqlash va tishlarning vertikal hamda gorizontal oʻrnatilishini tekshirish uchun ishlatiladigan asbobdir. Tish texnigi va stomatolog uchun uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tishlar orasidagi oʻzaro moslik va boʻshliqlarni aniqlash;
- Tayyorlangan protez yoki qoplamalarning ogʻiz boʻshligʻida toʻgʻri joylashishini tekshirish;
- Kontakt nuqtalarining teng taqsimlanganligini va okklyuziya balansini baholash;
- Tishlarning vertikal va gorizontal oʻrnatilishi bilan bogʻliq xatolarni aniqlash va tuzatish;
- Protezlar va qoplamalarni yakuniy shaklga keltirishda yordam berish.

Okklyudator turlari

Okklyudatorlar ishlash printsipi va murakkabligiga qarab bir nechta turga boʻlinadi:

- **Oddiy (klassik) okklyudatorlar:**
Tishlar orasidagi asosiy kontakt nuqtalarini tekshirish uchun ishlatiladi. Oddiy protezlar tayyorlashda qulay.
- **Yarim oʻzgaruvchan (semi-adjustable) okklyudatorlar:**
Lateral va protruziv harakatlarni hisobga olgan holda tishlar orasidagi kontaktlarni aniqroq tekshirish imkonini beradi. Protezlar va qoplamalarning funksional mosligini oshiradi.
- **Toʻliq oʻzgaruvchan (fully adjustable) okklyudatorlar:**
Bemor mandibula harakatlarini maksimal darajada simulyatsiya qilish imkonini beradi. Murakkab va individual protezlar tayyorlashda ishlatiladi.
- **Elektron yoki raqamli okklyudatorlar:**
Kontakt nuqtalarini kompyuter orqali aniqlash va vizualizatsiya qilish imkonini beradi. CAD/CAM protetik ishlarida qoʻllaniladi.

Tish texnigi uchun artikulyator va okklyudator bilan ishlashning ahamiyati

Tish texnigi stomatologik protezlar va qoplamalarni tayyorlash jarayonida artikulyator va okklyudator yordamida bemorning mandibula harakatlarini va tishlar orasidagi kontaktlarni simulyatsiya qiladi. Bu asboblarni tish texnigi ishida quyidagi ahamiyatga ega:

- **Protezing funksionalligini taʼminlash:** Artikulyator yordamida mandibula harakatlari simulyatsiya qilinadi, tishlar orasidagi boʻshliqlar aniqlanadi va protezlar bemorning ogʻiziga moslashtiriladi.
- **Kontakt nuqtalarini tekshirish:** Okklyudator orqali tishlar orasidagi kontakt nuqtalari, okklyuziya balans va vertikal oʻrnatish tekshiriladi. Bu protezlar va qoplamalarning ishlashini optimallashtiradi.

- **Xatolarni oldini olish:** Artikulyator va okklyudator yordamida tish protezlaridagi moslashuv yoki okklyuziya xatolari laboratoriya bosqichida aniqlanadi, bemorning og‘izida tuzatish ehtiyojini kamaytiradi.
- **Sifat va estetikni oshirish:** Asboblarning yordamida tayyorlangan protezlar bemorning tabiiy mandibula harakatlariga mos bo‘ladi, bu funksional qulaylik va estetik ko‘rinishni ta’minlaydi.
- **Ish samaradorligini oshirish:** Artikulyator va okklyudator laboratoriya bosqichida protezlarni tayyorlash jarayonini tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi, shuning uchun klinikada qo‘shimcha tuzatishlar kamroq bo‘ladi.

”Akvarium” usuli.

Akvariumga baliqchalar joylashtiriladi. O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar stikkerga yoziladi va ularga yopishtiriladi. Tinglovchilar bittadan baliqchani olishadi va unga yozilgan savolga javob berishadi.

(Yangi mavzuni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi)

Nazorat savollari

1. Artikulyator va okklyudator tushunchasini tushuntiring.
2. Tish texnigi uchun artikulyator bilan ishlashning asosiy vazifalari qanday?
3. Okklyudator yordamida tishlar orasidagi kontakt nuqtalarini qanday tekshirish mumkin?
4. Artikulyator va okklyudator yordamida tayyorlangan protezning funktsionalligini qanday baholaysiz?
5. Tish texnigi ishida artikulyator va okklyudator yordamida xatolarni oldini olishning ahamiyati nimada?
6. Oddiy va yarim o‘zgaruvchan artikulyatorlar o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
7. Tish protezlarini bemor og‘iziga moslashtirishda tish texnigi qanday bosqichlardan o‘tadi?
8. Artikulyator va okklyudator yordamida tayyorlangan protezlar estetik jihatdan qanday afzallik beradi?
9. Tish texnigi uchun artikulyator va okklyudatorni ishlatishda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish zarurmi?
10. Raqamli (elektron) artikulyator va okklyudatorlarning an’anaviy turlardan afzalliklari nimada?

Testlar:

1. Artikulyator nima vazifani bajaradi?
 - A) Tishlarning rangini aniqlaydi
 - B) Mandibula harakatlarini simulyatsiya qiladi
 - C) Tishlarni tozalaydi

D) Faqat ish yuzasini tekshiradi

Javob: B

2. Okklyudator yordamida tish texnigi nima aniqlaydi?

A) Mandibula harakatlarini

B) Kontakt nuqtalari va tishlarning vertikal o'rnatilishini

C) Tish rangini

D) Tish shaklini bezashni

Javob: B

3. Artikulyator bilan ishlashda tish texnigi nima qiladi?

A) Tishlarni bo'yash

B) Mandibula harakatlarini simulyatsiya qiladi va protezlarni moslashtiradi

C) Tishlarni kesadi

D) Faqat ish yuzasini dezinfeksiya qiladi

Javob: B

4. Yarim o'zgaruvchan artikulyator nimani ta'minlaydi?

A) Faqat ochilish va yopilish harakatini

B) Lateral va protruziv mandibula harakatlarini simulyatsiya qilishni

C) Tishlarni rangini aniqlashni

D) Protezlarni avtomatik tayyorlashni

Javob: B

5. Artikulyator va okklyudator yordamida tayyorlangan protezlar nima uchun muhim?

A) Faqat estetik ko'rinishi uchun

B) Funktsional va bemor mandibula harakatlariga mos bo'lishi uchun

C) Faqat laboratoriya tajribasi uchun

D) Faqat klinikada test qilinishi uchun

Javob: B

6. Elektron (raqamli) artikulyator va okklyudatorning afzalligi nimada?

A) Protezlarni qo'lda tayyorlash

B) Mandibula harakatlarini kompyuter orqali simulyatsiya qilish va kontakt nuqtalarini vizualizatsiya qilish

C) Tishlarni dezinfeksiya qilish

D) Tishlarni kesish

Javob: B

7. Tish texnigi artikulyator bilan ishlashda nimani simulyatsiya qiladi?

A) Tish rangini

B) Mandibula ochilish, yopilish, lateral va protruziv harakatlarini

C) Tishlarni bo'yash

D) Ish yuzasini dezinfeksiya qilish

Javob: B

8. Okklyudator yordamida aniqlanadigan nuqtalar nima?

A) Tishlarning tashqi ko'rinishi

B) Kontakt nuqtalari va okklyuziya balans

C) Mandibula harakatlari

D) Ish yuzasining gigiyenasi

Javob: B

9. Artikulyator yordamida tayyorlangan protez nimani ta'minlaydi?

A) Faqat rangini

B) Mandibula harakatlariga moslashuv va kontakt nuqtalarining tekshirilishini

C) Tishlarning dezinfeksiyasini

D) Tishlarni tezroq kesishni

Javob: B

10. Tish texnigi uchun artikulyator va okklyudator ishlashining eng asosiy maqsadi nima?

A) Protezlarni tezroq tayyorlash

B) Bemor og'izida protezning funkSIONalligi va kontakt nuqtalarining mosligini ta'minlash

C) Tishlarning rangini aniqlash

D) Faqat laboratoriya mashqlarini bajarish

Javob: B

Vaziyatli masalalar:

• **Vaziyat:** Yangi olingan protezni taqqan bemor og'iz chayqash uchun faqat oddiy suvdan foydalanishini aytdi. 1 oydan keyin protez ostida yoqimsiz hid va yallig'lanish paydo bo'ldi.

• **Savol:** Protezda yoqimsiz hid paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi qaysi mikroorganizmlar guruhidir va hamshira qanday chayqash vositalarini tavsiya qilishi kerak?

• **Vaziyat:** Bemor tekshirilganda unda to'g'ri tishlov (přyamoy prikus) borligi ma'lum bo'ldi. Old yuqori va pastki tishlar bir-biri bilan faqat qirralari (rejushiy kray) orqali urilmoqda.

• **Savol:** To'g'ri tishlov bo'lganda vaqt o'tishi bilan tish tojida qanday patologik jarayon sodir bo'ladi va hamshira shifokorga qanday asboblarni tayyorlaydi?

2.4 modul 1- mavzu:	Kattalar va bolalarda tish jag‘ tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.
--------------------------------	---

Ma’ruza mashg‘ulotini O‘qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Nazariy mashg‘ulot
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi.	I. Yuz – jag‘ ortopediyasi. II. Singan jag‘ suyaklarini maxkamlovchi apparatlar. III. Vankevichning modifikatsiya qilingan shinasini tayyorlash.
<p>O‘quv mashg‘uloti maksadi:</p> <p>1.Ta’limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko‘nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e’tiborlilik xissini shakllantirish 	
<p>Pedagogik vazifalar.</p> <p>Mum asosli protez tuzilishini tekshirish bosqichlari. Mum asosli protezni yakuniy shakllantirish. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash Tishlarni o‘lchamini, shaklini, rangini bemorning yuz tuzilishiga qarab, yoshi hamda teri rangini hisobga olgan holda tish protezalirni yasash.</p>	<p>O‘quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Tinglovchi:</p> <p>Mum asosli prikus yostiqlarini yasash. Mumli asosli yostiqlarni o‘rnatish. Mum asosli prtezni kyuvetaga gipslash. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash. Modellarni okklyudatorga gipslash. Mum protezlarini og‘iz bo‘shlig‘ida tekshirish.</p>
O‘qitish metodlari	“Baxs-munozara”, ”Aqliy xujum”, ”Issik kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”
O‘quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O‘qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil’mlar, chizma, nazorat

	varagi,matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta aloqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov:tezkor surov,yozma so'rov,test,misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	Tashkiliy kism 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi,ichki tartib koidaloriga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O'quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.	Javob beradilar Tinglaydilar,Yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40. 3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar	1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maksadida ulardan testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy xujum" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.	Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."Balik skeleti" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.

bilimini mustaxkamlash		
<p style="text-align: center;">3-bosqich Yakuniy 5 daqqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e’lon qilinadi .Uyga vazifa mavzuni o’qib o’rganib kelish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tavsiya etiladigan adabiyotlar: S H.Sh.Rahmonov “Tish texnikasi materialshunosligi” • S.Yusupova D.Ashurov “Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag’ travmatologiyasi” • N.Toshpo’latova “Og’iz bo’shligi kasalliklari” 	<p style="text-align: center;">Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

**MAVZU: Kattalar va bolalarda tish jag’ tizimining o’ziga xos xususiyatlari.
Dars rejasi:**

- I. Yuz – jag’ ortopediyasi.
- II. Singan jag’ suyaklarini maxkamlovchi apparatlar.
- III.Vankevichning modifikatsiya qilingan shinasini tayyorlash.

Yuz – jag’ ortopediyasi.

Yuz-jag’ ortopediyasi ikki bo’limdan: yuz-jag’ travmatologiyasi va protezlashdan iborat. Birinchi bo’limda yuz skeleti suyaklarining singan joylarni ortopedik davolash, ikkinchi bo’limda esa, yuz-jag’ soxasidagi jaroxat oqibatlarini, tug’ma va keyinchalik orttirilgan nuqsonlarni protezlash usullari o’rganiladi.

Yuz-jag’ jarroxligida qo’llaniladigan ortopedik apparatlar.

Yuz-jag’ soxasi jaroxatlarining ortopedik davolashda xam jaroxat oqibatlarini tugatishga qaratilgan boshqa xar xil operatsiyalardagi kabi tuzilishi turlicha ortopedik apparatlar qo’llaniladi. Apparatlarni ularning funksiyasi, davolash ahamiyati, birikish xarakteri, tuzilishi va boshqa xususiyatlari bo’yicha uch guruxga bo’lish mumkin.

O’z funksiyalariga ko’ra, ortopedik apparatlar to’g’rilovchi, maxkamlovchi (fiksatsiyalovchi), shakl beruvchi, kombinatsiyalashgan (aralash) va o’rnini bosuvchi apparatlarga bo’linadi. Shikastlangan jag’ siniqlarining to’g’ri joylanishiga yordam beradigan apparatlar to’g’rilovchi apparatlar jumlasiga kiradi.

Siniqlar solishtirib chiqilgandan keyin ularni birlashtirish va shu bilan singan joyning bitishiga yordam berish kerak. Bu maqsadlar uchun qo’llaniladigan apparatlar fiksatsiyalovchi yoki maxkamlovchi apparatlar, deyiladi.

Yuz-jag' soxasidagi jaroxat yoki kasallikni davolashda operatsiyalardan xam foydalaniladi. Ularning vazifasi juda xilma-xil, masalan, iyak nuqsoni o'rnini teri transplantat bilan qoplash, yuqori yoki pastki labga shakl berish va xokazo. Teri parchasiga ma'lum shakl berish va xokazo. Teri parchasiga ma'lum shakl berish va uning kirishishining oldini olish uchun tegishli konstruksiyadagi ortopedik apparatdan foydalaniladi. Bunday apparatlar shakl beruvchi apparatlar, deyiladi. Bular ushlab turuvchi apparatlar xam, deb atalishi mumkin.

Davolashning turli davrlarida apparatlarning vazifasi o'zgarishi mumkin. Masalan, to'g'rilovchi shinalar siniqlar joyiga solingandan keyin olib tashlanmaydi, endi ular maxkamlovchi apparatlar vazifasini bajaradi. Ko'pchilik apparatlar bir vaqtning o'zida xam to'g'rilovchi, xam maxkamlovchi apparat rolini bajarishi mumkin. Jag' siniqlarida shinalar nishab yuzaga ega bo'lishi mumkin va apparat ular yordamida siniqlarni maxkamlashdan tashqari, og'iz yumilayotganda jag'ni markaziy okklyuziya xolatiga keltiradi. Apparat bir qancha vazifani bajarsa, uni kombinatsiyalashgan apparat, deb atash mumkin.

Davolash ahamiyatiga ko'ra, apparatlar asosiy va yordamchi turlarga bo'linadi. Kasallikni davolashda yetakchi rol o'ynaydigan apparatlar asosiy apparatlar, deyiladi. To'g'rilovchi va maxkamlovchi apparatlar shular jumlasiga kiradi.

Yordamchi apparatlar xirurgik davolashning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi, kasallikning tugatilishida esa, operatsiyaning o'zi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, operatsiya qattiq va yumshoq tanglayning tug'ma yorig'ida asosiy davo vositasi xisoblanadi, maxkamlovchi tanglay plastinka esa, doka tamponlarni yara ustida ushlab turib, yarani ximoya qiladi va uning bitishiga yordam beradi. Bu xolda apparat, garchi, muxim bo'lsa xam ikkinchi darajali, yordamchi rolni o'ynaydi. Shakl beruvchi apparatlar xam yordamchi apparatlar jumlasiga kiradi. Alveolyar o'siq, jag', quloq, ko'z, burun nuqsonlari o'rnini to'ldiradigan apparatlar to'ldiruvchi apparatlar yoki protezlar, deyiladi.

Maxkamlanish o'rniga ko'ra, apparatlar og'iz tashqarisidagi, og'iz ichidagi va kombinlashgan apparatlarga bo'linadi. Og'iz tashqarisidagi apparatlar og'iz bo'shlig'i uchida turmaydi va ularning mustaxkamlash nuqtalari xam og'izning tashqarisida bo'ladi, iyak sopqoni, Rudko apparati va boshqalar og'iz ichidagi apparatlar tishlarga mustaxkamlanadi, tishsiz alveolyar o'simtalarda yoki qattiq tanglayda ularning tayanchi bor. Turli konstruksiyadagi metall yoki plastmassa tish usti shinalari, shakl beruvchi apparatlar shular jumlasiga kiradi. Og'iz ichidagi apparatlar faqat bitta jag'ga maxkamlanishi mumkin, bular bir jag'li apparatlar (shinalar) dir. Yuqori va pastki jag'lardagi tishlarga maxkamlanadigan shina ikki jag' shinasini, deyiladi va bir jag' shinasiga nisbatan bir qadar afzallikka ega. Gap shundaki, ikki jag' shinasini pastki jag'ni markaziy okklyuziya xolatida maxkamlab, mushak va bo'g'imlar funksiyasini cheklab qo'yadi. Pastki jag'ning qimirlamay qolishi yuz-jag' soxa-sining qon bilan ta'minlanishiga ta'sir ko'rsatadi va bu bilan jaroxatning bitishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, pastki jag'ning

qimirlamay qolishi, agar jag' sinishidan tashqari, shilliq parda xam yaralangan bo'lsa, chandiqli kontraktura paydo bo'lishiga moyillik tug'diradi.

Shuningdek, apparatlarni olib qo'yiladigan va olib qo'yilmaydigan, standart va individual turlarga bo'lish mumkin. Xar qanday ortopedik apparat ikki qismdan: tayanch (passiv) va xarakat qiluvchi qismlardan iborat. Ortopedik apparatlardagi qoplamalar, xalqalar, kappalar, sim yoylar, olinadigan plastinka va boshqalar tayanch elementlar xisoblanadi. Rezina xalqa, vint va boshqalar faol (xarakat qiluvchi) qism sanaladi. Xarakat apparatning mexanik xossasidan boshlanishi (vint, rezina xalqa) yoki funksiya paytida rivojlanishi mumkin. Nishab yassilik funksiya paytida xarakat qiladigan apparatlar qismiga kiradi.

Singan jag' suyaklarini maxkamlovchi apparatlar.

Alyumin simdan tayyorlangan shinalar. Simdan tayyorlangan shinalar xilma-xil shaklda bo'ladi. Silliq simlar, retension xalqalari bo'lgan sim yoylar farq qilinadi. Bunday yoylar tish qatorida nuqson bo'lgan xollarda ishlatiladi. Jag'larni bir-biriga tortish va maxkamlab qo'yish uchun ikkala jag'da changaksimon xalqachalari bo'lgan sim yoylar qo'llaniladi.

Sim yoyni bukib tayyorlash texnikasi. Buning uchun 20-25 sm uzunlikdagi alyumin sim bo'lagi olinib, uning bir uchi eng chetki tish tevaragida ilgak shaklida yoki to'g'ri burchakli turum shaklida egiladi. Turumning uchi uchburchak qilib egovlanadi va tish oralig'iga vestibulyar tomonidan kiritib qo'yiladi. Shundan keyin yoy shikastlangan jag'dagi tishlarga yopishtiriladi. Og'riq xosil qilmaslik va tishlarni siljitib yubormaslik uchun shinani tishlarga zo'rma-zo'raki egib yopishtirmaslik kerak. Simning ikkinchi uchi jag'ning qarama-qarshi tomonidagi tish tevaragiga qayirib yoki tishlar orasiga kiritib quyiladi. Tish qatorida nuqson bo'lsa, yoyning xuddi shu joyida nuqson tomoniga qaratib xalqacha xosil qilinadi. Bu xalqacha jag' siniqlarini bir-biriga tomon siljitmay ushlab turadi. Shundan keyin tish qatoridagi nuqsonga yopishib turuvchi tishlarga taxtacha o'rnatiladi.

Jag'larni bir-biriga tortishda changaksimon xalqali shinalar ishlatiladi. Xalqalar bir-biridan 1-1,5 sm uzoqlikda (orada bir tish qoldirilib) joylashtiriladi, bunda xar bir tomonda 2-3 tadan xalqa bo'lishi kerak. A. A. Limberg usuli bo'yicha, changaksimon xalqachalar tish yoyining tashqi satxiga nisbatan 35-45° burchak qilib qayiriladi. Ilmoqlarning uchlari milka yaqin turmasligi kerak, aks xolda, u rezina xalqalar bilan milni shikastlaydi. A.E. Raer usuli bo'yicha, xalqachalar lab yoki lunj tomonga qaratib bukiladi. Xar bir xalqachaning uchi pachoqlanadi va yuqori jag'dagi xalqalar uchlari balandga qaratib, pastki jag'dagi xalqalar uchlari pastga qaratib, to'g'ri burchakli qilib bukiladi. Agar xalqachalar juda katta bo'lsa, lunj yoki lab shilliq pardasini shikastlantirishi mumkin.

A.I. Stepanov shina tayyorlashda vaqtni tejash maqsadida shinabop silliq simdan xamda jag'larni bir-biriga tortib qo'yish uchun fabrikada tez tayyorlangan changaksimon surilma ilgaklardan foydalanishni tavsiya etadi, bunday ilgaklar shinaning kerakli joylariga o'rnatib qo'yiladi.

Bukib tayyorlangan shinani tuzatishda uni yana to'g'rilash yaramaydi, chunki qayta bukishda u mo'rt bo'lib qoladi.

Ligaturalarni qo'yish usuli. Shinani maxkamlab qo'yishda sim ligaturalardan 6-7 mm uzunlikdagi va 0,4-0,6 mm yo'g'onlikdagi bronza alyumin simdan foydalaniladi. Ligaturalarni tishsiz oraliqlardan o'tkazishning ikki usuli eng ko'p tarqalgan:

1) ligaturaning bir uchini lab-til tomonga qaratib, shina tagidan o'tkaziladi, tishni til tomondan aylanib o'tgach, shu yerga qo'shni bo'lgan tishsiz oraliq orqali shina ustidagi yo'lakchaga chiqariladi, u yerda simning ikkala uchi qo'shib buraladi, ortiqcha qismi qirqib tashlanadi, uchlari shilliq pardani shikastlantirmaydigan qilib bukib qo'yiladi;

2) ligaturaning uchlari xar xil uzunlikdagi shpilka shaklida bukiladi, ligatura uchlarini pinset yordamida til tomonidan, til-lunj yo'nalishida xarakatlantirib, bir-biriga yondosh bo'lgan ikkita tishsiz oraliqqa kiritiladi va yo'lakcha tomondan chiqariladi (bir uchi shina tagidan, ikkinchi uchi shina ustidan chiqariladi) va burab qo'yiladi.

Kombinatsiya qilingan va plastmassadan yasalgan shinalar. Jag'lar singan va nurdan zararlanganda, metall shinalarni ishlatib bo'lmaydi, chunki metall radiatsiyaning ushlanib qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun shinalarni plastmassadan tayyorlash maqsadga muvofiqdir. M.R.Marey shinalarni maxkamlab qo'yishda ligatura sim o'rniga kapron iplardan foydalanishni, pastki jag' singanda qo'llaniladigan shinani esa, o'z-o'zidan qotadigan ACT-2 rusumli plastmassadan avvaldan tayyorlab qo'yilgan yoysimon alyumin nov yordamida tayyorlashni tavsiya qiladi. Bunday novning ichiga yangi tayyorlangan ACT-2 rusumli plastmassa kiritiladi va uni tish yoyning vestibulyar satxiga o'rnatib qo'yiladi. Plastmassa qotgach, alyumin yoy oson ajralib chiqadi, plastmassa esa, kapron iplar bilan mustaxkam birikib qoladi va jag' siniqlarini maxkamlaydi.

Plastmassa shinalar qo'yish usuli P. M. Yegorov, A. I. Markin, D. I. Petrovskiy, M. B. Shvirkovlar tomonidan modifikatsiya qilingan: xar bir tishga plastmassadan tishning vestibulyar satxiga to'g'ri keladigan qilib ishlangan munchoqli kapron ip taqiladi (plastmassadan ishlangan munchoqning ichi parmalab teshilgan bo'ladi). Natijada, tish siniqlari ancha mustaxkam birikadi. Shundan keyin bu ish M.R. Marey bayon qilgan usul asosida tugallanadi. Jag'larning siniqlarini jag' oralariga maxkamlab qo'yish zarur bo'lganda, mualliflar shinaning tegishli qismlarini sharsimon bor yordamida teshish va shu teshiklarga avvaldan tayyorlab qo'yilgan plastmassa turumlarni kiritib qo'yishni tavsiya qiladilar. Bu turkum yangi tayyorlangan o'z-o'zidan qotuvchi plastmassa bilan maxkamlanadi. Bunday turkumlar rezina xalqalar o'rnatish xamda jag' siniqlarini jag'lar o'rtasida maxkamlab qo'yish joyi bo'lib xizmat qiladi.

Kavsharlangan shina. Ba'zi xollarda, masalan, tishlarning soni yetarli bo'lmagan yoki tish tojlari past bo'lgan taqdirda kavsharlangan shina ishlatiladi.

Bunday shina simdan yasalgan. Yoy kavsharlab qo'yilgan qoplama yoki xalqalardan iborat bo'ladi.

Qoplamalar yoki xalqalarni ancha turg'un tishlarga mo'ljallab yasaladi. Modelda tishlarning izi tushirilmaydi, faqat milk cheti qalam bilan belgilab chiqiladi, so'ngra ular gips modeldan kesib olinadi va shular asosida po'lat yoki jezdan qoplamalar yasaladi. Qoplamalar og'izda tishga kiydirib qo'yiladi va ular bilan birga qo'shib o'lchov olinadi. Xosil qilingan qoplamali modellar asosida 1,2-1,5 mm yo'g'onlikdagi sim yoy yopishtirib chiqiladi, bu yoy tish yoyining tashqi satxiga moslab egilgan bo'ladi. Ba'zan qoplamalar kalta bo'lgan xollarda ularga ikkita yoy yopishtiriladi: biri yo'lakcha tomonidan, ikkinchisi til tomonidan yopishtiriladi.

Yoylar qoplamalarga yopishqoq mum bilan birlashtiriladi va ular modeldan extiyotlik bilan olinib, o'tga chidamli massaga gipslab qo'yiladi. Gips qotib va mum erib bo'lgandan keyin shinaning qismlari kavsharlashga kirishiladi. Ba'zi xollarda shinani modeldan olishda shina qismlarining bir-biridan ajralib ketishdan saqlash uchun ularni bevosita modelning o'zida kavsharlash xam mumkin. So'ngra shina oqartiriladi, egovlanadi, pardoz beriladi, shundan keyingina u ishlatish uchun tayyor bo'ladi. Jag' siniqlari vertikal yo'nalishda siljigan bo'lsa, kavsharlangan shina xar ikki jag', ya'ni shikastlangan jag' uchun xam, shikastlanmagan jag' uchun xam changaksimon xalqali qilib tayyorlanadi. Shikastlangan pastki jag' uchun mo'ljallangan shina ikki qismdan iborat qilib tayyorlanadi, xar bir siniqdagi qoplamalarga erkin xoldagi o'siqlar bo'lgan aloxida sim yoylar kavsharlanadi.

Dastlab jag' siniqlari jag'lararo tortib qo'yish yordamida tish okklyuziyasi vaziyatida o'rnatiladi, so'ngra sim shinalarning erkin xoldagi o'siqlarini ligaturalar yordamida birlashtirib, gips qolip olinadi. Bu qolipga qoplamalar va yoylar o'rnatiladi va xosil qilingan model asosida yoylar qoplamalarga kavsharlanadi. Shunday qilib, jag'lar orasiga o'rnatilgan shina bitta jag' uchun bog'lovchi shinaga aylanadi.

Ayrim xollarda kavsharlangan shinaning lunj tomondagi satxiga yassi yoki to'rt qirrali gilzalar kavsharlanadi, ular og'izdan tashqaridagi richaglar uchun vtulka xizmatini o'taydi.

Agar jag'lar o'rtasida til-lunj tomonga qarab tortilish ro'y bersa, A.A. Limberg yuqori jag'ning kavsharlangan shinasiga (yuqori jag'dagi tish yoyining deformatsiyalanishini bartaraf qilish uchun) qo'shimcha sim xalqacha kavsharlashni tavsiya qiladi. Yuqori jag'dagi tishlarning lunj tomondagi do'mboqlariga rezina xalqalardan tushadigan bosim ularning siljib ketishiga sabab bo'ladi.

Milk ustiga qo'yiladigan plastinka shina.

Milk ustiga qo'yiladigan og'ma satxli plastinka shina pastki jag'ning burchagi yoki tepaga ko'tariluvchi tarmog'i soxasida sinishlarni davolashda keng qo'llaniladi. Yuqori jag'dagi sinishlar xam og'izdan tashqarida turadigan richaglari bo'lgan

plastinka shina yordamida davolanadi. Bu richaglar rezina tortqichlar yordamida boshdagi bog'lovichga maxkamlab qo'yiladi. Shuningdek, bu shinadan yuqori va pastki jag'larning aralash siniqlarini davolashda xam foydalanish mumkin. Bunday xollarda mazkur shinaga yuqoriga qarab, to'g'ri burchakli qilib qayirib qo'yilgan changaksimon xalqachalar kavsharlanadi va ular rezina xalqalar o'rnatish xamda pastki jag' siniqlarini tortib qo'yish uchun xizmat qiladi. Pastki jag' siniqlaridagi tishlarga alyumin simdan yasalgan changaksimon xalqachali (xalqachalari pastga qayirib qo'yilgan) shinalar o'rnatiladi.

Plastinka shina o'lchov bo'yicha shaxsiy tartibda tayyorlanadi. Xosil qilingan model bo'yicha tish yoyining atrofida uning vestibular va til (tanglay) satxi tomonida 0,7-0,8 mm yo'g'onlikdagi sim karkas egib tayyorlanadi, so'ng tutashtiruvchi to'simlar egiladi, ular xar bir tomonda 2—3 tadan bo'ladi. To'simlar tish yoyidagi nuqsonli joyga o'rnatilgani ma'qul, basharti, tish butun bo'lsa, to'simni ikki tish tutashgan joydagi chaynov satxiga to'g'ri keladigan qilib egiladi. Shinani gipslash va plastmassa bilan o'rashda sim uchlari karkasni maxkam tutib turishi uchun to'siqlarning erkin uchlari uzunroq qilinadi.

Yuqori jag'dagi siniqlarni davolash uchun shina tayyorlanayotganda uning tashqi satxiga (chaynovchi tishlar soxasida) to'rt qirrali yoki tuxum shaklidagi gilzalar ulab qo'yiladi, ular og'izdan tashqarida turuvchi richaglar uchun vtulkalar xizmatini o'taydi. Richaglar vtulkalarning ichiga oldini-orqasiga qilib kiritib qo'yiladi. Qoziq tishlar yaqinidagi sterjenlar og'iz burchaklari atrofida tashqi tomonga qaratib, lunj ustidagilari quloq suprasi tomonga qaratib bukib qo'yiladi. Richaglarning tashqi va pastki satxlariga to'lqinsimon qilib bukilgan ingichka sim kavsharlab qo'yiladiki, u rezina xalqalarni maxkamlab qo'yish uchun bir qator xalqachalar xosil qiladi. Richaglar 3-4 mm yo'g'onlikdagi qayishqoq po'lat simdan tayyorlanishi kerak.

Karkas qayirib bo'lingach, shina modelini mumdan yasashga kirishiladi. Shina tanglay (til) tomondan xamda og'iz bo'shlig'iga kiraverish tomonidan tishlarni va shilliq pardani qoplab turadi. Shu sababli, bu shina milk usti shinasi nomini olgan. Tishlarning yumilishiga xalal yetkazmaslik uchun ularning chaynash va kesish satxlari shinadan ochiq qoldiriladi. Pastki jag'ning singan joyini davolash uchun ishlatiladigan shinalar ko'pincha og'ma yuzali qilib ishlanadi. Buning uchun chaynovchi tishlar soxasida, og'izga kiraverish tomondan (jag'ning shikastlanmagan qismida) yuqori jag'dagi tishlarning lunj satxiga qaratib, mumdan og'ma yuzali model yasaladi.

Yuqori jag' siniqlarini davolash uchun shina tayyorlashda chaynovchi tishlar soxasiga og'izga kiraverish qismining xar ikki tomonidan (shinaga shakl berish paytida) metall gilzalar kiradi va ular og'izdan tashqarida turuvchi sterjenlar uchun vtulkalar bo'lib xizmat qiladi. So'ng ana shu gilzalarning ichiga yog'och tayoqchalar suqib qo'yiladi. Shinani gipslash va plastmassadan quyish vaqtida maxkamlab qo'yish maqsadida uchlarni gilzadan chiqarib qo'yiladi.

Shundan keyingi texnologik jarayon (gipslash, quyish, polimerizatsiya, pardoqlash va jilo berish) olib qo'yiladigan plastinka tish protezlarini tayyorlash qoidalari asosida olib boriladi.

Vankevich shinasi. Plastinka shinalar orasida Vankevich shinasi singan joylarni davolashda va pastki jag' suyak plastinkasida, ayniqsa, keng qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Muallif bu shinani tayyorlash usulini jag' siniqlarining xolatiga qarab, uch variantda taqdim etadi:

Agar davolash to'g'ri olib borilgan, bir xil tishli xarakatchan siniqlarni bir-biridan ajratish va to'g'ri xolatda o'rnatish mumkin bo'lsa, shina bir yo'la tayanch yuzalar bilan birga qo'shib tayyorlanadi. Uni tayyorlash uchun yuqori jag' modeli, xar bir siniqning qisman modeli xamda mumdan yasalgan prikus bolishlari bo'lishi kerak, sanab o'tilgan modellar artikulyatorda og'iz ichidagi nisbatlarga muvofiq ravishda ana shu bolishlarga o'rnatiladi.

Tishsiz siniqlar uchun avval o'lchov bo'yicha shina tayyorlanadi va plastmassadan yasalgan yuqori jag' andazasi tekshirib ko'riladi. Xar bir siniqni to'g'ri o'rnatish uchun andazaning shu siniqqa qarama-qarshi joylashgan satxiga o'lchov yasaladigan yumshoq massadan tayyorlangan bufer biriktirib qo'yiladi. Bemor surilib qolgan siniqni yuqori jag'ga bosganda, buferning tashqi satxiga surilishi kerak bo'lgan siniqning izi tushib qoladi. Quyish va pardoqlash ishlari tugagandan keyin o'lchov massasi AKP-7 rusumli plastmassa bilan almashtiriladi.

Agar siniqlar bir-biriga noto'g'ri xolatda birikib qolgan bo'lsa, shu siniqlardan biri maksimal masofaga surib qo'yilganda uning, tayanishi uchun (ikkinchi siniqning siljishini xisobga olmagan xolda) tayanch yuzasi bo'lgan yuqori jag' shinasi tayyorlanadi. Shina sinovdan o'tkazilgandan keyin gipsga (quyma taglikka) o'rnatiladi, so'ng gips qotgandan keyin tekshirib ko'rilgan tayanch yuqori jag' shinning minimal qismi bilan birga qo'shib qirqib olinadi va model yasaladi. Shinning modeldan olingan katta qismida ikkinchi tomondagi siniq uchun (xuddi avvalgidek siniqni maksimal masofaga surilganda tayanishi uchun va ikkinchi siniqning siljishini xisobga olmagan xolda) tayanch xosil qilinadi. Shinning bu ikkinchi qismi eritib ulanganidan keyin qo'yib yurib sinab ko'riladi. So'ng aloxida-aloxida tekshirib ko'rilgan xar ikki qism gips taglikka o'rnatiladi va bir butun qilib payvandlanadi. Mana shunday xolda tayanch yuzlari keng ochib qo'yilgan xolatda bo'lganda, faqat siniqlar operatsiya yo'li bilan bir-biridan ajratilgandan keyingina shina o'rnatilishi mumkin.

Shinning tayanch yuzlari (pelotlar) ni ayrim xollarda sirg'aluvchi sharnirli va olib qo'yiladigan qilish lozim.

Sharnir ochilib-yopiladigan bilaguzukka o'xshash tuzilgan: ustki qismi o'yiqlik shaklida, pastki qismi esa, 0,3-0,4 mm qalinlikdagi zanglamaydigan ikki buklangan po'lat plastinkadan iborat prujina shaklida ishlangan.

Olib qo'yiladigan pelotlari bo'lgan ortopedik apparat ikki bosqichda tayyorlanadi. Dastlab apparatning tayanch qismi klammerli bazis yoki yuqori jag'dagi tishlar uchun qoplamalar yasaladi, so'ng pastki jag'ning tishsiz sinig'i uchun pelot tayyorlanadi. Apparat tayanch qismining konstruksiyasi yuqori jag'da tishlar bor yoki yo'qligiga qarab tanlanadi. So'ng pastki va ustki jag'lardagi tishsiz siniqlarning o'lchovi og'izga qo'yilgan apparat tayanch qismi bilan birga olinadi, xar bir tomonning markaziy yumilish xolati mum bolishlar yordamida aloxida-aloxida aniqlab chiqiladi.

Xosil qilingan modellar artikulyatorga gipslab qo'yiladi va apparatni pelotlarga biriktiruvchi qismlarning modellari tayyorlanadi. Apparatning ustki qismiga sharnir o'yiqlari, pastki qismiga (pelotlarga) sharnir prujinasi biriktirib qo'yiladi. Apparat plastmassadan tayyorlanadi. Bu konstruksiyaning qulayligi shundaki, u uncha qo'pol emas, undan tashqari, qismlarga ajratiladigan bo'lgani uchun, operatsiyadan keyin biron joy uyushib qolsa, pelotga osongina tuzatish kiritish mumkin.

Bolalar pastki jag'lari siniqlarini maxkam tutib turuvchi shina. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda pastki jag' tanasi singan taqdirda ustki va pastki jag'lar tishlarining izlari tushirilgan plastmassa kappalar ishlatiladi.

Shina kappani tayyorlash texnikasi. Dastlab bolaning yuqori va pastki jag'lari o'lchovi olinadi. Pastki jag'ning xosil qilingan modeli singan joyidan arralanib, ikki qismga ajratiladi, so'ng uni prikus xolatida tutib turib, yuqori jag'ning gips modeliga ulanadi, modellarni bir-biriga mum bilan yopishtiriladi va okklyudatorga gipslab qo'yiladi. Shundan keyin yaxshilab qizdirilgan mum bolish olinib, tishlarning nusxasini tushirish uchun uni gips modellardagi tishlar orasiga qo'yiladi. Bunda modellar bir-biridan 6-8 mm narida turishi kerak. Ana shu mum reproduksiya asosida tish protezlarini yasash qoidalari bo'yicha plastmassadan kappalar tayyorlanadi. Bu apparat bola 4-6 xafta davomida tutishi uchun sopqonsimon bog'lam bilan birga beriladi.

Bolaning pastki jag'i burchak yoki jag' tarmog'i soxasidan singanda, shuningdek, surunkali osteomielit va jag' burchagi yoki tarmog'i soxasida patologik sinish yuz berganda, modifikatsiya qilingan Vankevich shinasini muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. U bitta tayanch yuzali bo'lib, bu yuza pastki jag'ning shikastlangan tomonidan chaynov tishlarining til tomon satxiga qaratilgandir. Bu apparat o'q-yoysimon klammerlar va milk usti pelotlari yordamida yuqori jag'ga maxkamlab qo'yiladi.

Vankevichning modifikatsiya qilingan shinasini tayyorlash.

Yuqori va pastki jag'larning o'lchovi olinadi, so'ng mumdan tanglay plastinkasi modeli yasaladi, bu plastinkaning vertikal yuzasi pastki jag'ning shikastlangan tomonidagi chaynov tishlarining til tomondagi satxiga qarab yo'nalgan bo'ladi. Plastinkani maxkamlab qo'yish uchun to'rtinchi va beshinchi xamda uchinchi va to'rtinchi tishlar orasiga vestibulyar tomonidan o'q-yoysimon

klammerlar o'rnatiladi. Agar dastlabki doimiy ochiq tishlar yorib chiqqan bo'lsa, klammerlarni beshinchi sut tish bilan oltinchi doimiy tish o'rtasiga xamda to'rtinchi va beshinchi sut tishlar o'rtasiga o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Klammer uch burchagining uchi old tomondan tishlar o'rtasidagi oraliqqa joylanadi, sim klammerning uchlari esa, milk usti pelotining plastmassasiga ulab yuboriladi. Bundan tashqari, milk usti pelotlarini qoziq tishlar soxasida va tish qatorining orqasida biriktiruvchi simlar yordamida tanglay plastinkasi bilan tutashtiriladi. Klammerlar maxsus ombur yordamida 0,6-0,8 mm yo'g'onlikdagi zanglamaydigan po'lat simdan bukib tayyorlanadi. Zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan ulash simlarining yo'g'onligi 0,8 mm bo'lishi kerak.

Shakl berilgandan keyin gipslanadi. AKP-7 rusumli plastmassadan quyiladi, polimerizatsiya qilinadi, pardoatlanadi, jilo beriladi. Gipsloyotganda klammerlarni maxkamlab qo'yish uchun ularni suyuq gipsga yaxshilab botirib qo'yiladi, faqat milk usti pelotining satxi va butun tanglay satxi ochiq qoldiriladi.

Yuqori jag' siniqlarini maxkamlash uchun alyumin simdan tayyorlangan shinalar.

Yuqori jag' siniqlarini, ayniqsa, parchalanib singan va suyak moddasida nuqsoni bo'lgan siniqlarni davolashda og'iz ichiga va og'izdan tashqariga o'rnatiladigan o'rama alyumin shinalar juda qo'l keladi (ular boshdagi bog'lamga maxkamlab qo'yiladi). Ular yaxlit bukilgan va tarkibli (ulama) xillarga bo'linadi.

Y.M. Zbarj alyumin simdan shinalarni bukib tayyorlashning ikki variantini tavsiya qiladi. Sim shinalarni bukib tayyorlash texnikasining birinchi varianti quyidagicha: 75-80 sm uzunlikdagi alyumin simining ikki uchini xar tomondan 15 sm dan qoldirilib, bir-biriga qaratib bukiladi, so'ngra shu uchlarini spiral shaklida o'rab chiqiladi. Spirallar bir tekisda bo'lishi kerak, bunga esa, ba'zi texnikaviy sharoitlarga amal qilish yo'li bilan erishiladi, chunonchi:

A) simni o'rash vaqtida uning uzun o'qlari o'rtasida xosil bo'lgan burchak doimiy bo'lib, 45° dan oshmasligi kerak;

B) simning bir o'sig'i soat mili yo'nalishida, ikkinchisi esa, aksincha, soat miliga teskari yo'nalishda o'ralgan bo'lishi lozim.

Simning eng so'nggi o'ramlari orasidagi o'rtaliq qismi premolyar oralig'iga teng bo'lganda, o'ramli o'siqlar xosil qilish tugallangan xisoblanadi. Uning shu qismi keyinchalik tish ustini oldingi qismi bo'lib qoladi.

Ikkinchi variant bo'yicha, alyumin sim xuddi birinchi variantdagidek uzunlikda olinadi. Uni shunday egish kerakki, natijada shinning og'iz ichida turadigan qismi xamda og'izdan tashqaridagi qoldiqlari darxol ma'lum bo'lsin, shundan keyin og'izdan tashqaridagi sterjenlar burashga kirishiladi, ular xam birinchi variantdagi singari, lunjlar ustidan oshirib, quloq supralari tomon bukiladi

va tik yo'nalishdagi biriktiruvchi sterjenlar yordamida boshdagi bog'ichga maxkamlab qo'yiladi.

Biriktiruvchi sterjenlarning pastki uchlari ilgak shaklida qilib yuqoriga egiladi va ligatura simi yordamida shina o'sig'i bilan tutashtiriladi, biriktiruvchi sterjenlarning yuqori uchlari boshdagi bog'ichga gipslab qo'yiladi, natijada ular juda mustaxkam bo'lib qoladi.

V.Y. Kurlyandskiy yuqori jag' siniqlarini tutib turuvchi sim xalqani juda mustaxkam bo'lgan, qattiq po'lat simdan bukib tayyorlashni tavsiya qiladi. Shina xar tomonida ikkitadan tuxum shaklidagi xalqachalari bo'lgan qayishqoq po'lat simdan iborat bo'lib, mazkur xalqachalar og'izdan tashqarida joylashgan 3—4 mm yo'g'onlikdagi sterjenlar uchun vtulkalar xizmatini o'taydi.

Sterjenlarning tashqi satxida xar bir tomonda 2-3 tadan xalqa yasaladi, ular tik yo'nalishdagi alyumin sterjenlar biriktiriladigan joy xizmatini o'taydi, ushbu sterjenlarning yuqori uchlari boshdagi gips bog'ichiga maxkamlab qo'yiladi.

Pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida maxkamlash uchun ishlatiladigan standart shinalar, Rudkoning pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida maxkamlab qo'yish uchun ishlatiladigan standart apparati xam maxkamlovchi shinalar jumlasiga kiradi.

Rudko apparati quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- 1) pastki jag' chetini ichki tomondan qamrab turadigan ikkita o'tkir turkumi bo'lgan ilgak xamda tashqi tomonda joylashgan qisqich vint (shu vint yordamida suyak vint bilan ilgak turkumlari o'rtasida maxkam ushlanib turadi) ilgak va qisqich vint yumaloq shaklidagi umumiy sterjen bilan tugallanadi;
- 2) qisqichlarning tashqariga chiqib turuvchi sterjenlariga kiydirib qo'yiladigan ikkita sharnir;
- 3) zarur uzunlikdagi uch millimetr po'lat simdan iborat biriktiruvchi sterjen.

Pastki jag'ning tishsiz siniqlarini maxkamlab qo'yish uchun ishlatiladigan bu apparat suyak plastikasida xam katta ahamiyatga ega. Pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida maxkam tutib turadigan standart apparatlarning boshqa konstruksiyalari (V.M. Uvarov, Y. M. Zbarj, Panchoxa), shuningdek, pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida tortib qo'yish va maxkamlash uchun ishlatiladigan apparatlar konstruksiyalari xam taklif qilingan (Y.I. Bernadskiy).

“Aqliy hujum” usuli. Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o'quvchi o'zining fikrini bayon etishi kerak.

Bu javob yoki fikr o'rinli yoki noo'rin bo'lishi mumkin, ammo, o'qituvchi ham qolgan o'quvchilar ham javob bergan o'quvchiga tanbeh bermaydilar.

O'qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o'quvchining javobini yozib boradi. Har bir o'quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim. Qanchalik ko'p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo'ladi. Bu usulda dars o'tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o'quvchilarning mulohazalarini to'plash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Har qanday javoblar usul so'ngida muhokama qilinadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Yuz-jag' ortopediyasi ikki bo'limlari.
2. Davolashning turli davrlarida apparatlarning vazifasi o'zgarishini tushuntiring.
3. Ligaturalarni qo'yish usuli.
4. Milk ustiga qo'yiladigan shinalar.
5. Olib qo'yiladigan pelotlari bo'lgan ortopedik apparat tayyorlash bosqichlari.
6. Shina — kappani tayyorlash texnikasi.
7. Vankeevichning modifikatsiya qilgan shinasi haqida ma'lumot bering.
8. Y.M. Zbarj alyumin simdan shinalarni bukib tayyorlash.
9. V.Y. Kurlyandskiy qanday shinani tavsiya qilgan ?
10. Rudko apparati qaysi qismlardan tashkil topgan ?

Tibbiy atamalar.

1. Prikus — tish qatorlari o'rtasidagi o'zaro aloqa.
2. Mahkamlovchi — fiksatsiyalovchi.
3. Kombinatsiyalashgan — aralash.
4. Tashqi sath — chaynovchi tishlar sohasi.
5. Pelot — shinaning tayanch yuzasi.

Vaziyatli masala.

1. Bemor og'iz bo'shlig'ida tishlarning soni yetarli emas. Bunday holitda qanday shina qo'llaysiz ?
Javob: Kavsharlangan shina.
2. Bemor og'iz bo'shlig'ida tish tojlari past. Bunday holitda qanday shina qo'llaysiz ?
Javob: Kavsharlangan shina.
3. Bolaning pastki jag'i burchak yoki jag' tarmog'i sohasidan singan, shuningdek, surunkali osteomieliit va jag' sohasida patologik sinish yuz bergan. Sizning taktikangiz.
Javob: Modifikatsiya qilingan Vankevich shinasini qo'llash.
4. Bola 2 yoshda. Pastki jag' tanasi singan. Sizning taktikangiz.
Javob: Yuqori va pastki jag'lar tishlarining izlari tushirilgan plastmassa kappalar qo'yiladi.

Test savollari.

1. Rudko apparati qaysi qismlardan tashkil topgan ?

*ilgak, qiqich, sterjen, sharnir, biriktiruvchi sterjen

Taglik, dasta, ishchi qism.

Qiqich, sterjen, sharnir

Taglik, ilgak, qiqich.

2. Yuz skeleti suyaklarining singan joylarni ortopedik davolash yuz-jag' ortopediyasining qaysi bo'limida o'rganiladi ?

*yuz-jag' travmatologiyasi

Protezlash

Ortodontiya

Xirurgiya

3. Yuz-jag' sohasidagi jarohat oqibatlarini, tug'ma va keyinchalik orttirilgan nuqsonlarni protezlash usullari yuz-jag' ortopediyasining qaysi bo'limida o'rganiladi ?

*Protezlash

Ortodontiya

Xirurgiya

Yuz - jag' travmatologiyasi.

4. A. A. Limberg usuli bo'yicha, changaksimon halqachalar tish yoyining tashqi sathiga nisbatan necha ° burchak qilib qayiriladi ?

*35-45°

25-30°

60-90°

55°

5. Shinani mahkamlab qo'yishda sim ligaturalardan necha mm uzunlikdagi simdan foydalaniladi ?

*6-7 mm

2-3 mm

8-9 mm

0.8-2 mm

6. Shinani mahkamlab qo'yishda sim ligaturalardan necha mm yo'g'onlikdagi bronza alyumin simdan foydalaniladi ?

*0,4-0,6 mm

2-3 mm

8-9 mm

0.8-2 mm

7. Davolash ahamiyatiga ko'ra, apparatlar qanday turlarga bo'linadi ?

*Asosiy va yordamchi

Asosiy

Yordamchi

Olib qo'yiladigan va olib qo'yilmaydigan.

8. Qaysi ahamiyatiga ko'ra, apparatlar asosiy va yordamchi turlarga bo'linadi ?

* Davolash

Tuzilish

Kelib chiqish

Og'izda joylashish.

9. Y.M.Zbarj bo'yicha alyumin simni o'rash vaqtida uning uzun o'qlari o'rtasida hosil bo'lgan burchak doimiy bo'lib, necha ° dan oshmasligi kerak ?

*45°

48°

55°

75°

10. Rudko apparati qaysi qismlardan tashkil topgan ?

*ilgak,qiqich,sterjen,sharnir,biriktiruvchi sterjen

Taglik,dasta,ishchi qism.

Qiqich,sterjen,sharnir

Taglik,ilgak,qiqich.

2.4 modul 2- mavzu:	Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya turlari.
--------------------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ul style="list-style-type: none">○ Artikulyatsiya tushunchasi va uning stomatologiyadagi ahamiyati○ Prikusning asosiy turlari○ Okklyuziya tushunchasi va uning ahamiyati○ Okklyuziyaning asosiy turlari
O'quv mashg'uloti maksadi:	
1.Ta'limiy:	
<ul style="list-style-type: none">● Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash● Amaliy ko'nikmalarni egallash● Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash● Deontologik tarbiyaning shakllanishi● Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash	
2.Tarbiyaviy maqsadi:	
<ul style="list-style-type: none">● Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish● Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish	

- O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash
- Amaliyotda extiyotkorlik va e‘tiborlilik xissini shakllantirish

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchi
<p>1 bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish 10 daqiqa</p>	<p>Tashkiliy kism 1.1 O‘qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O‘quv bo‘limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib koidalariga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O‘quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko‘llaniladigan usullarni aytib O‘yin koidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa 1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni to‘lik bayon etish 30-40. 3.O‘qitishning noan‘anaviy usullarini</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O‘kituvchi tomonidan “Ma‘ruza O‘qish”usulida tushuntiriladi. 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda “Klaster” usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar.”Klaster” sxemasi tinglovchilar tomonidan</p>

qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash		to'ldiriladi.
3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya turlari mavzusini o'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • H.Sh.Rahmonov “Tish texnikasi materialshunosligi” • S.Yusupova D.Ashurov “Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi” • N.Toshpo'latova “Og'iz bo'shligi kasalliklari” 	Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.

<p>Pedagogik vazifalar. Mum asosli protez tuzilishini tekshirish bosqichlari. Mum asosli protezni yakuniy shakllantirish. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash Tishlarni o'lchamini, shaklini, rangini bemorning yuz tuzilishiga qarab, yoshi hamda teri rangini hisobga olgan holda tish protezalirni yasash.</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi: Mum asosli prikus yostiqlachalarini yasash. Mumli asosli yostiqlachalarni o'rnatish. Mum asosli prtezni kyuvetaga gipslash. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash. Modellarni okklyudatorga gipslash. Mum protezlarini og'iz bo'shlig'ida tekshirish.</p>
O'qitish metodlari	Zamonaviy ta'lim usullari
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy,guruxlarda ishlash,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar,chizma,nazorat varagi,matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta aloqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov:tezkor surov,yozma so'rov,test,misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

Mavzu: Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya turlari.

Dars rejasi

- Artikulyatsiya tushunchasi va uning stomatologiyadagi ahamiyati
- Prikusning asosiy turlari
- Okklyuziya tushunchasi va uning ahamiyati
- Okklyuziyaning asosiy turlari

Artikulyatsiya tushunchasi va uning stomatologiyadagi ahamiyati

Artikulyatsiya — bu pastki jag‘ning (mandibula) yuqori jag‘ga nisbatan harakatlari jarayonida tishlarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatga kirishishidir. Artikulyatsiya vaqtida tishlar faqat yopilib ochilmaydi, balki oldinga, orqaga va yon tomonga siljiydi. Ushbu harakatlar chaynash, gapirish va yutish kabi muhim funksiyalarni bajarishda muhim rol o‘ynaydi.

Stomatologiyada artikulyatsiya tushunchasi tishlar, jag‘ bo‘g‘imi (chakka-pastki jag‘ bo‘g‘imi) va chaynash mushaklari faoliyatining uyg‘un ishlashini ifodalaydi. To‘g‘ri artikulyatsiya bo‘lsa, tishlar orasidagi yuklama teng taqsimlanadi va jag‘ bo‘g‘imida ortiqcha zo‘riqish yuzaga kelmaydi.

Artikulyatsiyaning stomatologiyadagi ahamiyati juda katta. Tish protezlari, qoplamalar va plomba ishlari tayyorlanayotganda bemorning artikulyatsiyasi hisobga olinmasa, protezlar noqulaylik tug‘dirishi, og‘riq paydo bo‘lishi yoki tishlarning tez yeyilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun stomatolog va tish texnigi artikulyatorlar yordamida mandibula harakatlarini sun‘iy ravishda qayta tiklab, tishlarning to‘g‘ri kontaktini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, artikulyatsiya nutqning to‘g‘ri shakllanishi va ovqatni samarali chaynashda muhim ahamiyatga ega. Artikulyatsiya buzilganda chaynash samaradorligi pasayadi, jag‘ bo‘g‘imida og‘riq va noqulayliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli artikulyatsiyani to‘g‘ri baholash va hisobga olish stomatologik davolashning muhim qismi hisoblanadi.

Prikusning asosiy turlari

Prikus — bu yuqori va pastki jag‘ tishlarining yopilish holati bo‘lib, u chaynash, nutq va yuz estetikasi uchun muhim ahamiyatga ega. Prikusning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi tishlar, jag‘ bo‘g‘imi va chaynash mushaklari faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Stomatologiyada prikus asosan fiziologik va patologik turlarga bo‘linadi.

Fiziologik prikus tishlar va jag‘lar o‘rtasidagi normal, sog‘lom munosabatni ifodalaydi. Bunday prikusda yuqori old tishlar pastki old tishlarni biroz yopib turadi, chaynash tishlari esa bir-biriga to‘g‘ri va muvozanatli tarzda tegadi. Fiziologik

prikus chaynash jarayonining samarali bo'lishini, nutqning ravonligini va yuzning estetik ko'rinishini ta'minlaydi.

Patologik prikus esa tishlar va jag'lar o'rtasidagi noto'g'ri munosabat bilan tavsiflanadi. Bunda tishlar orasidagi yopilish buziladi, chaynash jarayoni qiyinlashadi va estetik nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin. Patologik prikus turli shakllarda uchraydi, masalan oldinga chiqib ketgan prikus, orqaga surilgan prikus, ochiq prikus va kesishuvchi prikus. Ushbu holatlar chaynash samaradorligini pasaytiradi va jag' bo'g'imida noqulaylik yoki og'riq keltirib chiqarishi mumkin.

Prikus turlarini to'g'ri aniqlash stomatologik davolashda muhim hisoblanadi. Ayniqsa protezlash, ortodontik davolash va tish qoplamalari tayyorlashda prikusning holati albatta inobatga olinadi. Prikus to'g'ri baholansa, davolash natijalari uzoq muddatli va samarali bo'ladi.

Okklyuziya tushunchasi va uning ahamiyati

Okklyuziya — bu yuqori va pastki jag' tishlarining bir-biri bilan yopilish va kontaktga kirishish holati hamda bu jarayonda yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar majmuasidir. Okklyuziya faqat tishlarning yopilishi bilan cheklanmay, balki chaynash jarayonida pastki jag'ning harakatlari davomida tishlar orasidagi kontaktlarni ham o'z ichiga oladi.

Stomatologiyada okklyuziya tishlar, jag' bo'g'imi va chaynash mushaklari faoliyatining muvozanatli ishlashini ta'minlaydi. To'g'ri okklyuziyada chaynash paytida yuklama tishlar orasida teng taqsimlanadi, bu esa tishlarning ortiqcha yeyilishining oldini oladi va jag' bo'g'imiga tushadigan bosimni kamaytiradi.

Okklyuziyaning ahamiyati stomatologik davolash jarayonida juda katta. Tish plombalari, qoplamalar va protezlar tayyorlanayotganda okklyuziya hisobga olinmasa, bemorda noqulaylik, og'riq, chaynash qiyinchiliklari va hatto jag' bo'g'imi kasalliklari paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli stomatolog va tish texnigi okklyuziyani maxsus usullar va asboblardan yordamida tekshiradi va baholaydi.

Bundan tashqari, to'g'ri okklyuziya nutqning aniq bo'lishiga va yuz estetik ko'rinishining saqlanishiga xizmat qiladi. Okklyuziya buzilganda yuz simmetriyasi o'zgarishi, mushaklarda charchoq va og'riq paydo bo'lishi mumkin. Shu bois okklyuziyani to'g'ri baholash va tuzatish stomatologik davolashning muhim bosqichi hisoblanadi.

Okklyuziyaning asosiy turlari

Okklyuziya yuqori va pastki jag' tishlarining yopilish holati va chaynash jarayonida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarini ifodalaydi. Stomatologiyada okklyuziya turlari pastki jag'ning harakat yo'nalishiga va tishlar orasidagi kontakt holatiga

qarab farqlanadi. Okklyuziyaning to‘g‘ri aniqlanishi stomatologik davolash va protezlashda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy okklyuziya tishlarning eng barqaror va fiziologik yopilish holatini ifodalaydi. Bu holatda yuqori va pastki tishlar maksimal miqdorda kontaktga kirishadi va chaynash bosimi tishlar orasida teng taqsimlanadi. Markaziy okklyuziya chaynash tizimining asosiy holati hisoblanadi va stomatologik davolashda mezon sifatida qabul qilinadi.

Oldingi, ya‘ni protruziv okklyuziya pastki jag‘ oldinga siljiganda yuzaga keladi. Bunda asosan old tishlar kontaktga kirishadi, orqa tishlar esa ajraladi. Bu turdagi okklyuziya chaynash va kesish harakatlarida muhim rol o‘ynaydi.

Yon, ya‘ni lateral okklyuziya pastki jag‘ o‘ng yoki chap tomonga siljiganda kuzatiladi. Bu holatda bir tomondagi tishlar faol kontaktga kirishadi, ikkinchi tomondagi tishlar esa kamroq yoki umuman kontakt qilmaydi. Lateral okklyuziya chaynash jarayonining muhim qismi bo‘lib, tishlar va jag‘ bo‘g‘imi yuklamasining to‘g‘ri taqsimlanishini ta‘minlaydi.

Stomatologik amaliyotda ushbu okklyuziya turlarining barchasi hisobga olinadi. Agar okklyuziya turlaridan biri buzilgan bo‘lsa, bu chaynash samaradorligining pasayishiga, tishlarning tez yeyilishiga va jag‘ bo‘g‘imida noqulaylik paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

”KLAUSTER” usuli. (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi.

Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin.

Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klaster” usuli-turli xil g‘oyalar o‘rtasida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

Nazorat savollari

1. Artikulyatsiya tushunchasi nimani anglatadi?
2. Artikulyatsiyaning stomatologiyadagi ahamiyati nimada?
3. Prikus nima va u qanday ahamiyatga ega?
4. Prikusning asosiy turlarini tushuntirib bering.

5. Fiziologik prikus qanday belgilar bilan tavsiflanadi?
6. Patologik prikusning stomatologik oqibatlari nimalardan iborat?
7. Okklyuziya tushunchasini izohlang.
8. Okklyuziyaning asosiy turlarini sanab bering.
9. Markaziy okklyuziya nima va u qachon kuzatiladi?
10. Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiring.

Test savollari

1. Artikulyatsiya nima?
 - A) Tishlarning rangini aniqlash
 - B) Pastki jag' harakati vaqtida tishlarning o'zaro munosabati
 - C) Tishlarning gigiyenik holati
 - D) Faqat tishlarning yopilishi**Javob: B**
2. Prikus deganda nima tushuniladi?
 - A) Jag' bo'g'imi kasalligi
 - B) Yuqori va pastki jag' tishlarining yopilish holati
 - C) Tishlarning tozalanganligi
 - D) Tish protezining turi**Javob: B**
3. Qaysi prikus normal hisoblanadi?
 - A) Ochiq prikus
 - B) Kesishuvchi prikus
 - C) Fiziologik prikus
 - D) Oldinga chiqib ketgan prikus**Javob: C**
4. Patologik prikus nimaga olib kelishi mumkin?
 - A) Chaynash samaradorligining oshishiga
 - B) Tish va jag' bo'g'imida muammolarga
 - C) Tishlarning mustahkamlanishiga
 - D) Hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi**Javob: B**
5. Okklyuziya nima?
 - A) Tishlarning tozalash jarayoni
 - B) Tishlarning bir-biri bilan kontaktga kirishish holati
 - C) Tish protezining shakli
 - D) Jag' mushaklarining mashqi**Javob: B**
6. Markaziy okklyuziya qachon kuzatiladi?
 - A) Pastki jag' yon tomonga siljiganda
 - B) Pastki jag' oldinga chiqqanda
 - C) Tishlar maksimal yopilganda

D) Og‘iz ochilganda

Javob: C

7. Oldingi (protruziv) okklyuziya qaysi holatda yuzaga keladi?

A) Pastki jag‘ orqaga ketganda

B) Pastki jag‘ oldinga siljiganda

C) Pastki jag‘ yon tomonga harakatanganda

D) Og‘iz yopiq holatda

Javob: B

8. Yon (lateral) okklyuziya nima bilan tavsiflanadi?

A) Faqat old tishlar kontakti

B) Pastki jag‘ yon tomonga harakatanganda tishlar kontakti

C) Barcha tishlar bir vaqtda yopilishi

D) Tishlarning ajralib turishi

Javob: B

9. Okklyuziya buzilishi nimaga olib kelishi mumkin?

A) Nutq va chaynashning yaxshilanishiga

B) Jag‘ bo‘g‘imi va mushaklarda og‘riqqa

C) Tish rangining o‘zgarishiga

D) Hech qanday muammo tug‘dirmaydi

Javob: B

10. Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya nima uchun muhim?

A) Faqat estetik ko‘rinish uchun

B) Chaynash, nutq va stomatologik davolash samaradorligi uchun

C) Tishlarni oqartirish uchun

D) Faqat tish texnigi uchun

Javob: B

Vaziyatli masalalar:

• **Vaziyat:** Ortoped bemorda tish qatorlari nuqsonini Eichner tasnifi bo‘yicha baholadi va unda protezlash uchun tishlarning o‘zaro okklyuzion zonalari mutlaqo qolmaganini aytdi.

• **Savol:** Eichner tasnifiga ko‘ra tish qatorlarida jami nechta asosiy chaynash (okklyuzion) zonalari farqlanadi va zonalar qolmagan holat qaysi guruhga kiradi?

• **Vaziyat:** Bemorning yuqori jag‘ida faqat 13 va 23-qoziq tishlari saqlanib qolgan, qolgan barcha tishlar yo‘q.

• **Savol:** Tish qatoridagi bunday nuqson subtotal (deyarli to‘liq) nuqson deyiladi. Hamshira shifokorga qanday konstruksiya turi (byugel, plastinka yoki teleskopik) uchun asboblari tayyorlashi maqsadga muvofiq?

2.4 modul 1- mavzu:	Kattalar va bolalarda tish jag‘ tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.
--------------------------------	---

Ma’ruza mashg‘ulotini O‘qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Nazariy mashg‘ulot
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi.	I. Yuz – jag‘ ortopediyasi. II. Singan jag‘ suyaklarini maxkamlovchi apparatlar. III. Vankevichning modifikatsiya qilingan shinasini tayyorlash.
<p>O‘quv mashg‘uloti maksadi:</p> <p>1.Ta’limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko‘nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e’tiborlilik xissini shakllantirish 	
<p>Pedagogik vazifalar.</p> <p>Mum asosli protez tuzilishini tekshirish bosqichlari. Mum asosli protezni yakuniy shakllantirish. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash Tishlarni o‘lchamini, shaklini, rangini bemorning yuz tuzilishiga qarab, yoshi hamda teri rangini hisobga olgan holda tish protezalirni yasash.</p>	<p>O‘quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Tinglovchi:</p> <p>Mum asosli prikus yostiqlarini yasash. Mumli asosli yostiqlarni o‘rnatish. Mum asosli prtezni kyuvetaga gipslash. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash. Modellarni okklyudatorga gipslash. Mum protezlarini og‘iz bo‘shlig‘ida tekshirish.</p>
O‘qitish metodlari	“Baxs-munozara”,”Aqliy xujum”,”Issik kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”
O‘quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy,guruxlarda ishlash,yakka tartibli
O‘qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil’mlar,chizma,nazorat varagi,matnlar.

O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta aloqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov:tezkor surov,yozma so'rov,test,misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	Tashkiliy kism 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi,ichki tartib koidalriga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O'quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.	Javob beradilar Tinglaydilar,Yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40. 3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash	1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maksadida ulardan testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy xujum" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.	Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."Balik skeleti" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.

<p style="text-align: center;">3-bosqich Yakuniy 5 daqqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e’lon qilinadi .Uyga vazifa mavzuni o’qib o’rganib kelish</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: H.Sh.Rahmonov “Tish texnikasi materialshunosligi” 2. S.Yusupova D.Ashurov “Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag’ travmatologiyasi” 3. N.Toshpo’latova “Og’iz bo’shligi kasalliklari” 	<p style="text-align: center;">Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>
---	---	---

**MAVZU: Kattalar va bolalarda tish jag’ tizimining o’ziga xos xususiyatlari.
Dars rejasi:**

- I. Yuz – jag’ ortopediyasi.
- II. Singan jag’ suyaklarini maxkamlovchi apparatlar.
- III.Vankevichning modifikatsiya qilingan shinasini tayyorlash.

Yuz – jag’ ortopediyasi.

Yuz-jag’ ortopediyasi ikki bo’limdan: yuz-jag’ travmatologiyasi va protezlashdan iborat. Birinchi bo’limda yuz skeleti suyaklarining singan joylarni ortopedik davolash, ikkinchi bo’limda esa, yuz-jag’ soxasidagi jaroxat oqibatlarini, tug’ma va keyinchalik orttirilgan nuqsonlarni protezlash usullari o’rganiladi.

Yuz-jag’ jarroxligida qo’llaniladigan ortopedik apparatlar.

Yuz-jag’ soxasi jaroxatlarining ortopedik davolashda xam jaroxat oqibatlarini tugatishga qaratilgan boshqa xar xil operatsiyalardagi kabi tuzilishi turlicha ortopedik apparatlar qo’llaniladi. Apparatlarni ularning funksiyasi, davolash ahamiyati, birikish xarakteri, tuzilishi va boshqa xususiyatlari bo’yicha uch guruxga bo’lish mumkin.

O’z funksiyalariga ko’ra, ortopedik apparatlar to’g’rilovchi, maxkamlovchi (fiksatsiyalovchi), shakl beruvchi, kombinatsiyalashgan (aralash) va o’rmini bosuvchi apparatlarga bo’linadi. Shikastlangan jag’ siniqlarining to’g’ri joylanishiga yordam beradigan apparatlar to’g’rilovchi apparatlar jumlasiga kiradi.

Siniqlar solishtirib chiqilgandan keyin ularni birlashtirish va shu bilan singan joyning bitishiga yordam berish kerak. Bu maqsadlar uchun qo'llaniladigan apparatlar fiksatsiyalovchi yoki maxkamlovchi apparatlar, deyiladi.

Yuz-jag' soxasidagi jaroxat yoki kasallikni davolashda operatsiyalardan xam foydalaniladi. Ularning vazifasi juda xilma-xil, masalan, iyak nuqsoni o'rnini teri transplantat bilan qoplash, yuqori yoki pastki labga shakl berish va xokazo. Teri parchasiga ma'lum shakl berish va xokazo. Teri parchasiga ma'lum shakl berish va uning kirishishining oldini olish uchun tegishli konstruksiyadagi ortopedik apparatdan foydalaniladi. Bunday apparatlar shakl beruvchi apparatlar, deyiladi. Bular ushlab turuvchi apparatlar xam, deb atalishi mumkin.

Davolashning turli davrlarida apparatlarning vazifasi o'zgarishi mumkin. Masalan, to'g'rilovchi shinalar siniqlar joyiga solingandan keyin olib tashlanmaydi, endi ular maxkamlovchi apparatlar vazifasini bajaradi. Ko'pchilik apparatlar bir vaqtning o'zida xam to'g'rilovchi, xam maxkamlovchi apparat rolini bajarishi mumkin. Jag' siniqlarida shinalar nishab yuzaga ega bo'lishi mumkin va apparat ular yordamida siniqlarni maxkamlashdan tashqari, og'iz yumilayotganda jag'ni markaziy okklyuziya xolatiga keltiradi. Apparat bir qancha vazifani bajarsa, uni kombinatsiyalashgan apparat, deb atash mumkin.

Davolash ahamiyatiga ko'ra, apparatlar asosiy va yordamchi turlarga bo'linadi. Kasallikni davolashda yetakchi rol o'ynaydigan apparatlar asosiy apparatlar, deyiladi. To'g'rilovchi va maxkamlovchi apparatlar shular jumlasiga kiradi.

Yordamchi apparatlar xirurgik davolashning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi, kasallikning tugatilishida esa, operatsiyaning o'zi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, operatsiya qattiq va yumshoq tanglayning tug'ma yorig'ida asosiy davo vositasi xisoblanadi, maxkamlovchi tanglay plastinka esa, doka tamponlarni yara ustida ushlab turib, yarani ximoya qiladi va uning bitishiga yordam beradi. Bu xolda apparat, garchi, muxim bo'lsa xam ikkinchi darajali, yordamchi rolni o'ynaydi. Shakl beruvchi apparatlar xam yordamchi apparatlar jumlasiga kiradi. Alveolyar o'siq, jag', quloq, ko'z, burun nuqsonlari o'rnini to'ldiradigan apparatlar to'ldiruvchi apparatlar yoki protezlar, deyiladi.

Maxkamlanish o'rniga ko'ra, apparatlar og'iz tashqarisidagi, og'iz ichidagi va kombinlashgan apparatlarga bo'linadi. Og'iz tashqarisidagi apparatlar og'iz bo'shlig'i uchida turmaydi va ularning mustaxkamlash nuqtalari xam og'izning tashqarisida bo'ladi, iyak sopqoni, Rudko apparati va boshqalar og'iz ichidagi apparatlar tishlarga mustaxkamlanadi, tishsiz alveolyar o'simtalarda yoki qattiq tanglayda ularning tayanchi bor. Turli konstruksiyadagi metall yoki plastmassa tish usti shinalari, shakl beruvchi apparatlar shular jumlasiga kiradi. Og'iz ichidagi apparatlar faqat bitta jag'ga maxkamlanishi mumkin, bular bir jag'li apparatlar (shinalar) dir. Yuqori va pastki jag'lardagi tishlarga maxkamlanadigan shina ikki jag' shinasini, deyiladi va bir jag' shinasiga nisbatan bir qadar afzallikka ega. Gap shundaki, ikki jag' shinasini pastki jag'ni markaziy okklyuziya xolatida maxkamlab,

mushak va bo'g'implar funksiyasini cheklab qo'yadi. Pastki jag'ning qimirlamay qolishi yuz-jag' soxa-sining qon bilan ta'minlanishiga ta'sir ko'rsatadi va bu bilan jaroxatning bitishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, pastki jag'ning qimirlamay qolishi, agar jag' sinishidan tashqari, shilliq parda xam yaralangan bo'lsa, chandiqli kontraktura paydo bo'lishiga moyillik tug'diradi.

Shuningdek, apparatlarni olib qo'yiladigan va olib qo'yilmaydigan, standart va individual turlarga bo'lish mumkin. Xar qanday ortopedik apparat ikki qismdan: tayanch (passiv) va xarakat qiluvchi qismlardan iborat. Ortopedik apparatlardagi qoplamalar, xalqalar, kappalar, sim yoylar, olinadigan plastinka va boshqalar tayanch elementlar xisoblanadi. Rezina xalqa, vint va boshqalar faol (xarakat qiluvchi) qism sanaladi. Xarakat apparatning mexanik xossasidan boshlanishi (vint, rezina xalqa) yoki funksiya paytida rivojlanishi mumkin. Nishab yassilik funksiya paytida xarakat qiladigan apparatlar qismiga kiradi.

Singan jag' suyaklarini maxkamlovchi apparatlar.

Alyumin simdan tayyorlangan shinalar. Simdan tayyorlangan shinalar xilma-xil shaklda bo'ladi. Silliq simlar, retension xalqalari bo'lgan sim yoylar farq qilinadi. Bunday yoylar tish qatorida nuqson bo'lgan xollarda ishlatiladi. Jag'larni bir-biriga tortish va maxkamlab qo'yish uchun ikkala jag'da changaksimon xalqachalari bo'lgan sim yoylar qo'llaniladi.

Sim yoyni bukib tayyorlash texnikasi. Buning uchun 20-25 sm uzunlikdagi alyumin sim bo'lagi olinib, uning bir uchi eng chetki tish tevaragida ilgak shaklida yoki to'g'ri burchakli turum shaklida egiladi. Turumning uchi uchburchak qilib egovlanadi va tish oraliq'iga vestibulyar tomonidan kiritib qo'yiladi. Shundan keyin yoy shikastlangan jag'dagi tishlarga yopishtiriladi. Og'riq xosil qilmaslik va tishlarni siljitib yubormaslik uchun shinani tishlarga zo'rma-zo'raki egib yopishtirmaslik kerak. Simning ikkinchi uchi jag'ning qarama-qarshi tomonidagi tish tevaragiga qayirib yoki tishlar orasiga kiritib quyiladi. Tish qatorida nuqson bo'lsa, yoyning xuddi shu joyida nuqson tomoniga qaratib xalqacha xosil qilinadi. Bu xalqacha jag' siniqlarini bir-biriga tomon siljitmay ushlab turadi. Shundan keyin tish qatoridagi nuqsonga yopishib turuvchi tishlarga taxtacha o'rnatiladi.

Jag'larni bir-biriga tortishda changaksimon xalqali shinalar ishlatiladi. Xalqalar bir-biridan 1-1,5 sm uzoqlikda (orada bir tish qoldirilib) joylashtiriladi, bunda xar bir tomonda 2-3 tadan xalqa bo'lishi kerak. A. A. Limberg usuli bo'yicha, changaksimon xalqachalar tish yoyining tashqi satxiga nisbatan 35-45° burchak qilib qayiriladi. Ilmoqlarning uchlari milikka yaqin turmasligi kerak, aks xolda, u rezina xalqalar bilan milkn shikastlaydi. A.E. Raer usuli bo'yicha, xalqachalar lab yoki lunj tomonga qaratib bukiladi. Xar bir xalqachaning uchi pachoqlanadi va yuqori jag'dagi xalqalar uchlari balandga qaratib, pastki jag'dagi xalqalar uchlari pastga qaratib, to'g'ri burchakli qilib bukiladi. Agar xalqachalar juda katta bo'lsa, lunj yoki lab shilliq pardasini shikastlantirishi mumkin.

A.I. Stepanov shina tayyorlashda vaqtni tejash maqsadida shinabop silliq simdan xamda jag'larni bir-biriga tortib qo'yish uchun fabrikada tez tayyorlangan changaksimon surilma ilgaklardan foydalanishni tavsiya etadi, bunday ilgaklar shinaning kerakli joylariga o'rnatib qo'yiladi.

Bukib tayyorlangan shinani tuzatishda uni yana to'g'rilash yaramaydi, chunki qayta bukishda u mo'rt bo'lib qoladi.

Ligaturalarni qo'yish usuli. Shinani maxkamlab qo'yishda sim ligaturalardan 6-7 mm uzunlikdagi va 0,4-0,6 mm yo'g'onlikdagi bronza alyumin simdan foydalaniladi. Ligaturalarni tishsiz oraliqlardan o'tkazishning ikki usuli eng ko'p tarqalgan:

1) ligaturaning bir uchini lab-til tomonga qaratib, shina tagidan o'tkaziladi, tishni til tomondan aylanib o'tgach, shu yerga qo'shni bo'lgan tishsiz oraliq orqali shina ustidagi yo'lakchaga chiqariladi, u yerda simning ikkala uchi qo'shib buraladi, ortiqcha qismi qirqib tashlanadi, uchlari shilliq pardani shikastlantirmaydigan qilib bukib qo'yiladi;

2) ligaturaning uchlari xar xil uzunlikdagi shpilka shaklida bukiladi, ligatura uchlarini pinset yordamida til tomonidan, til-lunj yo'nalishida xarakatlantirib, bir-biriga yondosh bo'lgan ikkita tishsiz oraliqqa kiritiladi va yo'lakcha tomondan chiqariladi (bir uchi shina tagidan, ikkinchi uchi shina ustidan chiqariladi) va burab qo'yiladi.

Kombinatsiya qilingan va plastmassadan yasalgan shinalar. Jag'lar singan va nurdan zararlanganda, metall shinalarni ishlatib bo'lmaydi, chunki metall radiatsiyaning ushlanib qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun shinalarni plastmassadan tayyorlash maqsadga muvofiqdir. M.R.Marey shinalarni maxkamlab qo'yishda ligatura sim o'rniga kapron iplardan foydalanishni, pastki jag' singanda qo'llaniladigan shinani esa, o'z-o'zidan qotadigan ACT-2 rusumli plastmassadan avvaldan tayyorlab qo'yilgan yoysimon alyumin nov yordamida tayyorlashni tavsiya qiladi. Bunday novning ichiga yangi tayyorlangan ACT-2 rusumli plastmassa kiritiladi va uni tish yoyning vestibulyar satxiga o'rnatib qo'yiladi. Plastmassa qotgach, alyumin yoy oson ajralib chiqadi, plastmassa esa, kapron iplar bilan mustaxkam birikib qoladi va jag' siniqlarini maxkamlaydi.

Plastmassa shinalar qo'yish usuli P. M. Yegorov, A. I. Markin, D. I. Petrovskiy, M. B. Shvirkovlar tomonidan modifikatsiya qilingan: xar bir tishga plastmassadan tishning vestibulyar satxiga to'g'ri keladigan qilib ishlangan munchoqli kapron ip taqiladi (plastmassadan ishlangan munchoqning ichi parmalab teshilgan bo'ladi). Natijada, tish siniqlari ancha mustaxkam birikadi. Shundan keyin bu ish M.R. Marey bayon qilgan usul asosida tugallanadi. Jag'larning siniqlarini jag' oralariga maxkamlab qo'yish zarur bo'lganda, mualliflar shinaning tegishli qismlarini sharsimon bor yordamida teshish va shu teshiklarga avvaldan tayyorlab qo'yilgan plastmassa turumlarni kiritib qo'yishni tavsiya qiladilar. Bu turkum yangi tayyorlangan o'z-o'zidan qotuvchi plastmassa bilan maxkamlanadi. Bunday

turkumlar rezina xalqalar o'rnatish xamda jag' siniqlarini jag'lar o'rtasida maxkamlab qo'yish joyi bo'lib xizmat qiladi.

Kavsharlangan shina. Ba'zi xollarda, masalan, tishlarning soni yetarli bo'lmagan yoki tish tojlari past bo'lgan taqdirda kavsharlangan shina ishlatiladi. Bunday shina simdan yasalgan. Yoy kavsharlab qo'yilgan qoplama yoki xalqalardan iborat bo'ladi.

Qoplamalar yoki xalqalarni ancha turg'un tishlarga mo'ljallab yasaladi. Modelda tishlarning izi tushirilmaydi, faqat milk cheti qalam bilan belgilab chiqiladi, so'ngra ular gips modeldan kesib olinadi va shular asosida po'lat yoki jezdan qoplamalar yasaladi. Qoplamalar og'izda tishga kiydirib qo'yiladi va ular bilan birga qo'shib o'lchov olinadi. Xosil qilingan qoplama modellar asosida 1,2-1,5 mm yo'g'onlikdagi sim yoy yopishtirib chiqiladi, bu yoy tish yoyining tashqi satxiga moslab egilgan bo'ladi. Ba'zan qoplamalar kalta bo'lgan xollarda ularga ikkita yoy yopishtiriladi: biri yo'lakcha tomonidan, ikkinchisi til tomonidan yopishtiriladi.

Yo'ylar qoplamalarga yopishqoq mum bilan biriktiriladi va ular modeldan extiyotlik bilan olinib, o'tga chidamli massaga gipslab qo'yiladi. Gips qotib va mum erib bo'lgandan keyin shinaning qismlari kavsharlashga kirishiladi. Ba'zi xollarda shinani modeldan olishda shina qismlarining bir-biridan ajralib ketishdan saqlash uchun ularni bevosita modelning o'zida kavsharlash xam mumkin. So'ngra shina oqartiriladi, egovlanadi, pardozi beriladi, shundan keyingina u ishlatish uchun tayyor bo'ladi. Jag' siniqlari vertikal yo'nalishda siljigan bo'lsa, kavsharlangan shina xar ikki jag', ya'ni shikastlangan jag' uchun xam, shikastlanmagan jag' uchun xam changaksimon xalqali qilib tayyorlanadi. Shikastlangan pastki jag' uchun mo'ljallangan shina ikki qismdan iborat qilib tayyorlanadi, xar bir siniqdagi qoplamalarga erkin xoldagi o'siqlar bo'lgan aloxida sim yo'ylar kavsharlanadi.

Dastlab jag' siniqlari jag'lararo tortib qo'yish yordamida tish okklyuziyasi vaziyatida o'rnatiladi, so'ngra sim shinalarning erkin xoldagi o'siqlarini ligaturalar yordamida birlashtirib, gips qolip olinadi. Bu qolipga qoplamalar va yo'ylar o'rnatiladi va xosil qilingan model asosida yo'ylar qoplamalarga kavsharlanadi. Shunday qilib, jag'lar orasiga o'rnatilgan shina bitta jag' uchun bog'lovchi shinaga aylanadi.

Ayrim xollarda kavsharlangan shinaning lunj tomondagi satxiga yassi yoki to'rt qirrali gilzalar kavsharlanadi, ular og'izdan tashqaridagi richaglar uchun vtulka xizmatini o'taydi.

Agar jag'lar o'rtasida til-lunj tomonga qarab tortilish ro'y bersa, A.A. Limberg yuqori jag'ning kavsharlangan shinasiga (yuqori jag'dagi tish yoyining deformatsiyalanishini bartaraf qilish uchun) qo'shimcha sim xalqacha kavsharlashni tavsiya qiladi. Yuqori jag'dagi tishlarning lunj tomondagi do'mboqlariga rezina xalqalardan tushadigan bosim ularning siljib ketishiga sabab bo'ladi.

Milk ustiga qo'yiladigan plastinka shina.

Milk ustiga qo'yiladigan og'ma satxli plastinka shina pastki jag'ning burchagi yoki tepaga ko'tariluvchi tarmog'i soxasida sinishlarni davolashda keng qo'llaniladi. Yuqori jag'dagi sinishlar xam og'izdan tashqarida turadigan richaglari bo'lgan plastinka shina yordamida davolanadi. Bu richaglar rezina tortqichlar yordamida boshdagi bog'lovichga maxkamlab qo'yiladi. Shuningdek, bu shinadan yuqori va pastki jag'larning aralash siniqlarini davolashda xam foydalanish mumkin. Bunday xollarda mazkur shinaga yuqoriga qarab, to'g'ri burchakli qilib qayirib qo'yilgan changaksimon xalqachalar kavsharlanadi va ular rezina xalqalar o'rnatish xamda pastki jag' siniqlarini tortib qo'yish uchun xizmat qiladi. Pastki jag' siniqlaridagi tishlarga alyumin simdan yasalgan changaksimon xalqachali (xalqachalari pastga qayirib qo'yilgan) shinalar o'rnatiladi.

Plastinka shina o'lchov bo'yicha shaxsiy tartibda tayyorlanadi. Xosil qilingan model bo'yicha tish yoyining atrofida uning vestibular va til (tanglay) satxi tomonida 0,7-0,8 mm yo'g'onlikdagi sim karkas egib tayyorlanadi, so'ng tutashtiruvchi to'simlar egiladi, ular xar bir tomonda 2—3 tadan bo'ladi. To'simlar tish yoyidagi nuqsonli joyga o'rnatilgani ma'qul, basharti, tish butun bo'lsa, to'simni ikki tish tutashgan joydagi chaynov satxiga to'g'ri keladigan qilib egiladi. Shinani gipslash va plastmassa bilan o'rashda sim uchlari karkasni maxkam tutib turishi uchun to'siqlarning erkin uchlari uzunroq qilinadi.

Yuqori jag'dagi siniqlarni davolash uchun shina tayyorlanayotganda uning tashqi satxiga (chaynovchi tishlar soxasida) to'rt qirrali yoki tuxum shaklidagi gilzalar ulab qo'yiladi, ular og'izdan tashqarida turuvchi richaglar uchun vtulkalar xizmatini o'taydi. Richaglar vtulkalarning ichiga oldini-orqasiga qilib kiritib qo'yiladi. Qoziq tishlar yaqinidagi sterjenlar og'iz burchaklari atrofida tashqi tomonga qaratib, lunj ustidagilari quloq suprasi tomonga qaratib bukib qo'yiladi. Richaglarning tashqi va pastki satxlariga to'lqinsimon qilib bukilgan ingichka sim kavsharlab qo'yiladiki, u rezina xalqalarni maxkamlab qo'yish uchun bir qator xalqachalar xosil qiladi. Richaglar 3-4 mm yo'g'onlikdagi qayishqoq po'lat simdan tayyorlanishi kerak.

Karkas qayirib bo'lingach, shina modelini mumdan yasashga kirishiladi. Shina tanglay (til) tomondan xamda og'iz bo'shlig'iga kiraverish tomonidan tishlarni va shilliq pardani qoplab turadi. Shu sababli, bu shina milk usti shinasi nomini olgan. Tishlarning yumilishiga xalal yetkazmaslik uchun ularning chaynash va kesish satxlari shinadan ochiq qoldiriladi. Pastki jag'ning singan joyini davolash uchun ishlatiladigan shinalar ko'pincha og'ma yuzali qilib ishlanadi. Buning uchun chaynovchi tishlar soxasida, og'izga kiraverish tomondan (jag'ning shikastlanmagan qismida) yuqori jag'dagi tishlarning lunj satxiga qaratib, mumdan og'ma yuzali model yasaladi.

Yuqori jag' siniqlarini davolash uchun shina tayyorlashda chaynovchi tishlar soxasiga og'izga kiraverish qismining xar ikki tomonidan (shinaga shakl berish paytida) metall gilzalar kiradi va ular og'izdan tashqarida turuvchi sterjenlar uchun

vtulkalar bo'lib xizmat qiladi. So'ng ana shu gilzalarning ichiga yog'och tayoqchalar suqib qo'yiladi. Shinani gipslash va plastmassadan quyish vaqtida maxkamlab qo'yish maqsadida uchlarini gilzadan chiqarib qo'yiladi.

Shundan keyingi texnologik jarayon (gipslash, quyish, polimerizatsiya, pardoqlash va jilo berish) olib qo'yiladigan plastinka tish protezlarini tayyorlash qoidalari asosida olib boriladi.

Vankevich shinasi. Plastinka shinalar orasida Vankevich shinasi singan joylarni davolashda va pastki jag' suyak plastinkasida, ayniqsa, keng qo'llaniladigan bo'lib qoldi. Muallif bu shinani tayyorlash usulini jag' siniqlarining xolatiga qarab, uch variantda taqdim etadi:

Agar davolash to'g'ri olib borilgan, bir xil tishli xarakatchan siniqlarni bir-biridan ajratish va to'g'ri xolatda o'rnatish mumkin bo'lsa, shina bir yo'la tayanch yuzalar bilan birga qo'shib tayyorlanadi. Uni tayyorlash uchun yuqori jag' modeli, xar bir siniqning qisman modeli xamda mumdan yasalgan prikus bolishlari bo'lishi kerak, sanab o'tilgan modellar artikulyatorda og'iz ichidagi nisbatlarga muvofiq ravishda ana shu bolishlarga o'rnatiladi.

Tishsiz siniqlar uchun avval o'lchov bo'yicha shina tayyorlanadi va plastmassadan yasalgan yuqori jag' andazasi tekshirib ko'riladi. Xar bir siniqni to'g'ri o'rnatish uchun andazaning shu siniqqa qarama-qarshi joylashgan satxiga o'lchov yasaladigan yumshoq massadan tayyorlangan bufer biriktirib qo'yiladi. Bemor surilib qolgan siniqni yuqori jag'ga bosganda, buferning tashqi satxiga surilishi kerak bo'lgan siniqning izi tushib qoladi. Quyish va pardoqlash ishlari tugagandan keyin o'lchov massasi AKP-7 rusumli plastmassa bilan almashtiriladi.

Agar siniqlar bir-biriga noto'g'ri xolatda birikib qolgan bo'lsa, shu siniqlardan biri maksimal masofaga surib qo'yilganda uning, tayanishi uchun (ikkinchi siniqning siljishini xisobga olmagan xolda) tayanch yuzasi bo'lgan yuqori jag' shinasi tayyorlanadi. Shina sinovdan o'tkazilgandan keyin gipsga (quyma taglikka) o'rnatiladi, so'ng gips qotgandan keyin tekshirib ko'rilgan tayanch yuqori jag' shinning minimal qismi bilan birga qo'shib qirqib olinadi va model yasaladi. Shinning modeldan olingan katta qismida ikkinchi tomondagi siniq uchun (xuddi avvalgidek siniqni maksimal masofaga surilganda tayanishi uchun va ikkinchi siniqning siljishini xisobga olmagan xolda) tayanch xosil qilinadi. Shinning bu ikkinchi qismi eritib ulanganidan keyin qo'yib yurib sinab ko'riladi. So'ng aloxida-aloxida tekshirib ko'rilgan xar ikki qism gips taglikka o'rnatiladi va bir butun qilib payvandlanadi. Mana shunday xolda tayanch yuzlari keng ochib qo'yilgan xolatda bo'lganda, faqat siniqlar operatsiya yo'li bilan bir-biridan ajratilgandan keyingina shina o'rnatilishi mumkin.

Shinning tayanch yuzlari (pelotlar) ni ayrim xollarda sirg'aluvchi sharnirli va olib qo'yiladigan qilish lozim.

Sharnir ochilib-yopiladigan bilaguzukka o'xshash tuzilgan: ustki qismi o'yiqlik shaklida, pastki qismi esa, 0,3-0,4 mm qalinlikdagi zanglamaydigan ikki buklangan po'lat plastinkadan iborat prujina shaklida ishlangan.

Olib qo'yiladigan pelotlari bo'lgan ortopedik apparat ikki bosqichda tayyorlanadi. Dastlab apparatning tayanch qismi klammerli bazis yoki yuqori jag'dagi tishlar uchun qoplamalar yasaladi, so'ng pastki jag'ning tishsiz sinig'i uchun pelot tayyorlanadi. Apparat tayanch qismining konstruksiyasi yuqori jag'da tishlar bor yoki yo'qligiga qarab tanlanadi. So'ng pastki va ustki jag'lardagi tishsiz siniqlarning o'lchovi og'izga qo'yilgan apparat tayanch qismi bilan birga olinadi, xar bir tomonning markaziy yumilish xolati mum bolishlar yordamida aloxida-aloxida aniqlab chiqiladi.

Xosil qilingan modellar artikulyatorga gipslab qo'yiladi va apparatni pelotlarga biriktiruvchi qismlarning modellari tayyorlanadi. Apparatning ustki qismiga sharnir o'yiqlari, pastki qismiga (pelotlarga) sharnir prujinasi biriktirib qo'yiladi. Apparat plastmassadan tayyorlanadi. Bu konstruksiyaning qulayligi shundaki, u uncha qo'pol emas, undan tashqari, qismlarga ajratiladigan bo'lgani uchun, operatsiyadan keyin biron joy uyushib qolsa, pelotga osongina tuzatish kiritish mumkin.

Bolalar pastki jag'lari siniqlarini maxkam tutib turuvchi shina. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda pastki jag' tanasi singan taqdirda ustki va pastki jag'lar tishlarining izlari tushirilgan plastmassa kappalar ishlatiladi.

Shina kappani tayyorlash texnikasi. Dastlab bolaning yuqori va pastki jag'lari o'lchovi olinadi. Pastki jag'ning xosil qilingan modeli singan joyidan arralanib, ikki qismga ajratiladi, so'ng uni prikus xolatida tutib turib, yuqori jag'ning gips modeliga ulanadi, modellarni bir-biriga mum bilan yopishtiriladi va okklyudatorga gipslab qo'yiladi. Shundan keyin yaxshilab qizdirilgan mum bolish olinib, tishlarning nusxasini tushirish uchun uni gips modellardagi tishlar orasiga qo'yiladi. Bunda modellar bir-biridan 6-8 mm narida turishi kerak. Ana shu mum reproduksiya asosida tish protezlarini yasash qoidalari bo'yicha plastmassadan kappalar tayyorlanadi. Bu apparat bola 4-6 hafta davomida tutishi uchun sopqonsimon bog'lam bilan birga beriladi.

Bolaning pastki jag'i burchak yoki jag' tarmog'i soxasidan singanda, shuningdek, surunkali osteomielit va jag' burchagi yoki tarmog'i soxasida patologik sinish yuz berganda, modifikatsiya qilingan Vankevich shinasini muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. U bitta tayanch yuzali bo'lib, bu yuza pastki jag'ning shikastlangan tomonidan chaynov tishlarining til tomon satxiga qaratilgandir. Bu apparat o'q-yoysimon klammerlar va milk usti pelotlari yordamida yuqori jag'ga maxkamlab qo'yiladi.

Vankevichning modifikatsiya qilingan shinasini tayyorlash.

Yuqori va pastki jag'larning o'lchovi olinadi, so'ng mumdan tanglay plastinkasi modeli yasaladi, bu plastinkaning vertikal yuzasi pastki jag'ning shikastlangan tomonidagi chaynov tishlarining til tomondagi satxiga qarab yo'nalgan bo'ladi. Plastinkani maxkamlab qo'yish uchun to'rtinchi va beshinchi xamda uchinchi va to'rtinchi tishlar orasiga vestibulyar tomonidan o'q-yoysimon klammerlar o'rnatiladi. Agar dastlabki doimiy ochiq tishlar yorib chiqqan bo'lsa, klammerlarni beshinchi sut tish bilan oltinchi doimiy tish o'rtasiga xamda to'rtinchi va beshinchi sut tishlar o'rtasiga o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Klammer uch burchagining uchi old tomondan tishlar o'rtasidagi oraliqqa joylanadi, sim klammerning uchlari esa, milk usti pelotining plastmassasiga ulab yuboriladi. Bundan tashqari, milk usti pelotlarini qoziq tishlar soxasida va tish qatorining orqasida biriktiruvchi simlar yordamida tanglay plastinkasi bilan tutashtiriladi. Klammerlar maxsus ombur yordamida 0,6-0,8 mm yo'g'onlikdagi zanglamaydigan po'lat simdan bukib tayyorlanadi. Zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan ulash simlarining yo'g'onligi 0,8 mm bo'lishi kerak.

Shakl berilgandan keyin gipslanadi. AKP-7 rusumli plastmassadan quyiladi, polimerizatsiya qilinadi, pardoatlanadi, jilo beriladi. Gipslayotganda klammerlarni maxkamlab qo'yish uchun ularni suyuq gipsga yaxshilab botirib qo'yiladi, faqat milk usti pelotining satxi va butun tanglay satxi ochiq qoldiriladi.

Yuqori jag' siniqlarini maxkamlash uchun alyumin simdan tayyorlangan shinalar.

Yuqori jag' siniqlarini, ayniqsa, parchalanib singan va suyak moddasida nuqsoni bo'lgan siniqlarni davolashda og'iz ichiga va og'izdan tashqariga o'rnatiladigan o'rama alyumin shinalar juda qo'l keladi (ular boshdagi bog'lamga maxkamlab qo'yiladi). Ular yaxlit bukilgan va tarkibli (ulama) xillarga bo'linadi.

Y.M. Zbarj alyumin simdan shinalarni bukib tayyorlashning ikki variantini tavsiya qiladi. Sim shinalarni bukib tayyorlash texnikasining birinchi varianti quyidagicha: 75-80 sm uzunlikdagi alyumin simining ikki uchini xar tomondan 15 sm dan qoldirilib, bir-biriga qaratib bukiladi, so'ngra shu uchlarini spiral shaklida o'rab chiqiladi. Spirallar bir tekisda bo'lishi kerak, bunga esa, ba'zi texnikaviy sharoitlarga amal qilish yo'li bilan erishiladi, chunonchi:

A) simni o'rash vaqtida uning uzun o'qlari o'rtasida xosil bo'lgan burchak doimiy bo'lib, 45° dan oshmasligi kerak;

B) simning bir o'sig'i soat mili yo'nalishida, ikkinchisi esa, aksincha, soat miliga teskari yo'nalishda o'ralgan bo'lishi lozim.

Simning eng so'nggi o'ramlari orasidagi o'rtaliq qismi premolyar oralig'iga teng bo'lganda, o'ramli o'siqlar xosil qilish tugallangan xisoblanadi. Uning shu qismi keyinchalik tish ustini oldingi qismi bo'lib qoladi.

Ikkinchi variant bo'yicha, alyumin sim xuddi birinchi variantdagidek uzunlikda olinadi. Uni shunday egish kerakki, natijada shinning og'iz ichida turadigan qismi xamda og'izdan tashqaridagi qoldiqlari darxol ma'lum bo'lsin, shundan keyin og'izdan tashqaridagi sterjenlar burashga kirishiladi, ular xam birinchi variantdagi singari, lunjlar ustidan oshirib, quloq supralari tomon bukiladi va tik yo'nalishdagi biriktiruvchi sterjenlar yordamida boshdagi bog'ichga maxkamlab qo'yiladi.

Biriktiruvchi sterjenlarning pastki uchlari ilgak shaklida qilib yuqoriga egiladi va ligatura simi yordamida shina o'sig'i bilan tutashtiriladi, biriktiruvchi sterjenlarning yuqori uchlari boshdagi bog'ichga gipslab qo'yiladi, natijada ular juda mustaxkam bo'lib qoladi.

V.Y. Kurlyandskiy yuqori jag' siniqlarini tutib turuvchi sim xalqani juda mustaxkam bo'lgan, qattiq po'lat simdan bukib tayyorlashni tavsiya qiladi. Shina xar tomonida ikkitadan tuxum shaklidagi xalqachalari bo'lgan qayishqoq po'lat simdan iborat bo'lib, mazkur xalqachalar og'izdan tashqarida joylashgan 3—4 mm yo'g'onlikdagi sterjenlar uchun vtulkalar xizmatini o'taydi.

Sterjenlarning tashqi satxida xar bir tomonda 2-3 tadan xalqa yasaladi, ular tik yo'nalishdagi alyumin sterjenlar biriktiriladigan joy xizmatini o'taydi, ushbu sterjenlarning yuqori uchlari boshdagi gips bog'ichga maxkamlab qo'yiladi.

Pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida maxkamlash uchun ishlatiladigan standart shinalar, Rudkoning pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida maxkamlab qo'yish uchun ishlatiladigan standart apparati xam maxkamlovchi shinalar jumlasiga kiradi.

Rudko apparati quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- 1) pastki jag' chetini ichki tomondan qamrab turadigan ikkita o'tkir turkumi bo'lgan ilgak xamda tashqi tomonda joylashgan qisqich vint (shu vint yordamida suyak vint bilan ilgak turkumlari o'rtasida maxkam ushlanib turadi) ilgak va qisqich vint yumaloq shaklidagi umumiy sterjen bilan tugallanadi;
- 2) qisqichlarning tashqariga chiqib turuvchi sterjenlariga kiydirib qo'yiladigan ikkita sharnir;
- 3) zarur uzunlikdagi uch millimetr po'lat simdan iborat biriktiruvchi sterjen.

Pastki jag'ning tishsiz siniqlarini maxkamlab qo'yish uchun ishlatiladigan bu apparat suyak plastikasida xam katta ahamiyatga ega. Pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida maxkam tutib turadigan standart apparatlarning boshqa konstruksiyalari (V.M. Uvarov, Y. M. Zbarj, Panchoxa), shuningdek, pastki jag' siniqlarini og'izdan tashqarida tortib qo'yish va maxkamlash uchun ishlatiladigan apparatlar konstruksiyalari xam taklif qilingan (Y.I. Bernadskiy).

“Aqliy hujum” usuli. Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.

Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Yuz-jag‘ ortopediyasi ikki bo‘limlari.
2. Davolashning turli davrlarida apparatlarning vazifasi o‘zgarishini tushuntiring.
3. Ligaturalarni qo‘yish usuli.
4. Milk ustiga qo‘yiladigan shinalar.
5. Olib qo‘yiladigan pelotlari bo‘lgan ortopedik apparat tayyorlash bosqichlari.
6. Shina — kappani tayyorlash texnikasi.
7. Vankeevichning modifikatsiya qilgan shinasi haqida ma’lumot bering.
8. Y.M. Zbarj alyumin simdan shinalarni bukib tayyorlash.
9. V.Y. Kurlyandskiy qanday shinani tavsiya qilgan ?
10. Rudko apparati qaysi qismlardan tashkil topgan ?

Tibbiy atamalar.

1. Prikus — tish qatorlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa.
2. Mahkamlovchi — fiksatsiyalovchi.
3. Kombinatsiyalashgan — aralash.
4. Tashqi sath — chaynovchi tishlar sohasi.
5. Pelot — shinaning tayanch yuzasi.

Vaziyatli masala.

1. Bemor og‘iz bo‘shlig‘ida tishlarning soni yetarli emas. Bunday holitda qanday shina qo‘llaysiz ?

Javob: Kavsharlangan shina.

2. Bemor og‘iz bo‘shlig‘ida tish tojlari past. Bunday holitda qanday shina qo‘llaysiz ?

Javob: Kavsharlangan shina.

3. Bolaning pastki jag‘i burchak yoki jag‘ tarmog‘i sohasidan singan, shuningdek, surunkali osteomielit va jag‘ sohasida patologik sinish yuz bergan. Sizning taktikangiz.

Javob: Modifikatsiya qilingan Vankevich shinasini qo‘llash.

4. Bola 2 yoshda. Pastki jagʻ tanasi singan. Sizning taktikangiz.

Javob: Yuqori va pastki jagʻlar tishlarining izlari tushirilgan plastmassa kappalar qoʻyiladi.

Test savollari.

1. Rudko apparati qaysi qismlardan tashkil topgan ?

*ilgak, qiqich, sterjen, sharnir, biriktiruvchi sterjen

Taglik, dasta, ishchi qism.

Qiqich, sterjen, sharnir

Taglik, ilgak, qiqich.

2. Yuz skeleti suyaklarining singan joylarni ortopedik davolash yuz-jagʻ ortopediyasining qaysi boʻlimida oʻrganiladi ?

*yuz-jagʻ travmatologiyasi

Protezlash

Ortodontiya

Xirurgiya

3. Yuz-jagʻ sohasidagi jarohat oqibatlarini, tugʻma va keyinchalik orttirilgan nuqsonlarni protezlash usullari yuz-jagʻ ortopediyasining qaysi boʻlimida oʻrganiladi ?

*Protezlash

Ortodontiya

Xirurgiya

Yuz - jagʻ travmatologiyasi.

4. A. A. Limberg usuli boʻyicha, changaksimon halqachalar tish yoyining tashqi sathiga nisbatan necha ° burchak qilib qayiriladi ?

*35-45°

25-30°

60-90°

55°

5. Shinani mahkamlab qoʻyishda sim ligaturalardan necha mm uzunlikdagi simdan foydalaniladi ?

*6-7 mm

2-3 mm

8-9 mm

0.8-2 mm

6. Shinani mahkamlab qoʻyishda sim ligaturalardan necha mm yoʻgʻonlikdagi bronza alyumin simdan foydalaniladi ?

*0,4-0,6 mm

2-3 mm

8-9 mm

0.8-2 mm

7. Davolash ahamiyatiga koʻra, apparatlar qanday turlarga boʻlinadi ?

*Asosiy va yordamchi

Asosiy

Yordamchi

Olib qo'yiladigan va olib qo'yilmaydigan.

8. Qaysi ahamiyatiga ko'ra, apparatlar asosiy va yordamchi turlarga bo'linadi ?

* Davolash

Tuzilish

Kelib chiqish

Og'izda joylashish.

9. Y.M.Zbarj bo'yicha alyumin simni o'rash vaqtida uning uzun o'qlari o'rtasida hosil bo'lgan burchak doimiy bo'lib, necha ° dan oshmasligi kerak ?

*45°

48°

55°

75°

10. Rudko apparati qaysi qismlardan tashkil topgan ?

*ilgak,qiqich,sterjen,sharnir,biriktiruvchi sterjen

Taglik,dasta,ishchi qism.

Qiqich,sterjen,sharnir

Taglik,ilgak,qiqich.

2.4 modul 2- mavzu:	Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya turlari.
--------------------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ul style="list-style-type: none"> ○ Artikulyatsiya tushunchasi va uning stomatologiyadagi ahamiyati ○ Prikusning asosiy turlari ○ Okklyuziya tushunchasi va uning ahamiyati ○ Okklyuziyaning asosiy turlari
<p>O'quv mashg'uloti maksadi:</p> <p>1.Ta'limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko'nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish 	

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	<p>Tashkiliy kism</p> <p>1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi,ichki tartib koidalariga rioya kilishni</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar,Yozib oladilar.</p>

	<p>tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.</p>	
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 30-40.</p> <p>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'kituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi.</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Klaster" usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."Klaster" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya turlari mavzusini o'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • H.Sh.Rahmonov "Tish texnikasi materialshunosligi" • S.Yusupova D.Ashurov "Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi" • N.Toshpo'latova "Og'iz bo'shligi kasalliklari" 	<p>Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

<p>Pedagogik vazifalar. Mum asosli protez tuzilishini tekshirish bosqichlari. Mum asosli protezni yakuniy shakllantirish. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash Tishlarni o'lchamini, shaklini, rangini bemorning yuz tuzilishiga qarab, yoshi hamda teri rangini hisobga olgan holda tish protezalirni yasash.</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi: Mum asosli prikus yostiqlachalarini yasash. Mumli asosli yostiqlachalarni o'rnatish. Mum asosli prtezni kyuvetaga gipslash. Ikki qavatli asosdan protez tayyorlash. Modellarni okklyudatorga gipslash. Mum protezlarini og'iz bo'shlig'ida tekshirish.</p>
O'kitish metodlari	Zamonaviy ta'lim usullari
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta aloqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

Mavzu: Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya turlari.

Dars rejasi

- Artikulyatsiya tushunchasi va uning stomatologiyadagi ahamiyati
- Prikusning asosiy turlari
- Okklyuziya tushunchasi va uning ahamiyati
- Okklyuziyaning asosiy turlari

Artikulyatsiya tushunchasi va uning stomatologiyadagi ahamiyati

Artikulyatsiya — bu pastki jag'ning (mandibula) yuqori jag'ga nisbatan harakatlari jarayonida tishlarning bir-biri bilan o'zaro munosabatga kirishishidir. Artikulyatsiya vaqtida tishlar faqat yopilib ochilmaydi, balki oldinga, orqaga va yon tomonga siljiydi. Ushbu harakatlar chaynash, gapirish va yutish kabi muhim funksiyalarni bajarishda muhim rol o'ynaydi.

Stomatologiyada artikulyatsiya tushunchasi tishlar, jag' bo'g'imi (chakka-pastki jag' bo'g'imi) va chaynash mushaklari faoliyatining uyg'un ishlashini ifodalaydi. To'g'ri artikulyatsiya bo'lsa, tishlar orasidagi yuklama teng taqsimlanadi va jag' bo'g'imida ortiqcha zo'riqish yuzaga kelmaydi.

Artikulyatsiyaning stomatologiyadagi ahamiyati juda katta. Tish protezlari, qoplamalar va plomba ishlari tayyorlanayotganda bemorning artikulyatsiyasi

hisobga olinmasa, protezlar noqulaylik tug'dirishi, og'riq paydo bo'lishi yoki tishlarning tez yeyilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun stomatolog va tish texnigi artikulyatorlar yordamida mandibula harakatlarini sun'iy ravishda qayta tiklab, tishlarning to'g'ri kontaktini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, artikulyatsiya nutqning to'g'ri shakllanishi va ovqatni samarali chaynashda muhim ahamiyatga ega. Artikulyatsiya buzilganda chaynash samaradorligi pasayadi, jag' bo'g'imida og'riq va noqulayliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli artikulyatsiyani to'g'ri baholash va hisobga olish stomatologik davolashning muhim qismi hisoblanadi.

Prikusning asosiy turlari

Prikus — bu yuqori va pastki jag' tishlarining yopilish holati bo'lib, u chaynash, nutq va yuz estetikasi uchun muhim ahamiyatga ega. Prikusning to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi tishlar, jag' bo'g'imi va chaynash mushaklari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Stomatologiyada prikus asosan fiziologik va patologik turlarga bo'linadi.

Fiziologik prikus tishlar va jag'lar o'rtasidagi normal, sog'lom munosabatni ifodalaydi. Bunday prikusda yuqori old tishlar pastki old tishlarni biroz yopib turadi, chaynash tishlari esa bir-biriga to'g'ri va muvozanatli tarzda tegadi. Fiziologik prikus chaynash jarayonining samarali bo'lishini, nutqning ravonligini va yuzning estetik ko'rinishini ta'minlaydi.

Patologik prikus esa tishlar va jag'lar o'rtasidagi noto'g'ri munosabat bilan tavsiflanadi. Bunda tishlar orasidagi yopilish buziladi, chaynash jarayoni qiyinlashadi va estetik nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin. Patologik prikus turli shakllarda uchraydi, masalan oldinga chiqib ketgan prikus, orqaga surilgan prikus, ochiq prikus va kesishuvchi prikus. Ushbu holatlar chaynash samaradorligini pasaytiradi va jag' bo'g'imida noqulaylik yoki og'riq keltirib chiqarishi mumkin.

Prikus turlarini to'g'ri aniqlash stomatologik davolashda muhim hisoblanadi. Ayniqsa protezlash, ortodontik davolash va tish qoplamalari tayyorlashda prikusning holati albatta inobatga olinadi. Prikus to'g'ri baholansa, davolash natijalari uzoq muddatli va samarali bo'ladi.

Okklyuziya tushunchasi va uning ahamiyati

Okklyuziya — bu yuqori va pastki jag' tishlarining bir-biri bilan yopilish va kontaktga kirishish holati hamda bu jarayonda yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar majmuasidir. Okklyuziya faqat tishlarning yopilishi bilan cheklanmay, balki chaynash jarayonida pastki jag'ning harakatlari davomida tishlar orasidagi kontaktlarni ham o'z ichiga oladi.

Stomatologiyada okklyuziya tishlar, jag‘ bo‘g‘imi va chaynash mushaklari faoliyatining muvozanatli ishlashini ta‘minlaydi. To‘g‘ri okklyuziyada chaynash paytida yuklama tishlar orasida teng taqsimlanadi, bu esa tishlarning ortiqcha yeyilishining oldini oladi va jag‘ bo‘g‘imiga tushadigan bosimni kamaytiradi.

Okklyuziyaning ahamiyati stomatologik davolash jarayonida juda katta. Tish plombalari, qoplamalar va protezlar tayyorlanayotganda okklyuziya hisobga olinmasa, bemorda noqulaylik, og‘riq, chaynash qiyinchiliklari va hatto jag‘ bo‘g‘imi kasalliklari paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli stomatolog va tish texnigi okklyuziyani maxsus usullar va asboblardan yordamida tekshiradi va baholaydi.

Bundan tashqari, to‘g‘ri okklyuziya nutqning aniq bo‘lishiga va yuz estetik ko‘rinishining saqlanishiga xizmat qiladi. Okklyuziya buzilganda yuz simmetriyasi o‘zgarishi, mushaklarda charchoq va og‘riq paydo bo‘lishi mumkin. Shu bois okklyuziyani to‘g‘ri baholash va tuzatish stomatologik davolashning muhim bosqichi hisoblanadi.

Okklyuziyaning asosiy turlari

Okklyuziya yuqori va pastki jag‘ tishlarining yopilish holati va chaynash jarayonida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlarini ifodalaydi. Stomatologiyada okklyuziya turlari pastki jag‘ning harakat yo‘nalishiga va tishlar orasidagi kontakt holatiga qarab farqlanadi. Okklyuziyaning to‘g‘ri aniqlanishi stomatologik davolash va protezlashda muhim ahamiyatga ega.

Markaziy okklyuziya tishlarning eng barqaror va fiziologik yopilish holatini ifodalaydi. Bu holatda yuqori va pastki tishlar maksimal miqdorda kontaktga kirishadi va chaynash bosimi tishlar orasida teng taqsimlanadi. Markaziy okklyuziya chaynash tizimining asosiy holati hisoblanadi va stomatologik davolashda mezon sifatida qabul qilinadi.

Oldingi, ya‘ni protruziv okklyuziya pastki jag‘ oldinga siljiganda yuzaga keladi. Bunda asosan old tishlar kontaktga kirishadi, orqa tishlar esa ajraladi. Bu turdagi okklyuziya chaynash va kesish harakatlarida muhim rol o‘ynaydi.

Yon, ya‘ni lateral okklyuziya pastki jag‘ o‘ng yoki chap tomonga siljiganda kuzatiladi. Bu holatda bir tomondagi tishlar faol kontaktga kirishadi, ikkinchi tomondagi tishlar esa kamroq yoki umuman kontakt qilmaydi. Lateral okklyuziya chaynash jarayonining muhim qismi bo‘lib, tishlar va jag‘ bo‘g‘imi yuklamasining to‘g‘ri taqsimlanishini ta‘minlaydi.

Stomatologik amaliyotda ushbu okklyuziya turlarining barchasi hisobga olinadi. Agar okklyuziya turlaridan biri buzilgan bo‘lsa, bu chaynash samaradorligining pasayishiga, tishlarning tez yeyilishiga va jag‘ bo‘g‘imida noqulaylik paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

”KLAUSTER” usuli. (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi.

Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin.

Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klaster” usuli-turli xil g‘oyalar o‘rtasida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

Nazorat savollari

11. Artikulyatsiya tushunchasi nimani anglatadi?
12. Artikulyatsiyaning stomatologiyadagi ahamiyati nimada?
13. Prikus nima va u qanday ahamiyatga ega?
14. Prikusning asosiy turlarini tushuntirib bering.
15. Fiziologik prikus qanday belgilar bilan tavsiflanadi?
16. Patologik prikusning stomatologik oqibatlarini nimalardan iborat?
17. Okklyuziya tushunchasini izohlang.
18. Okklyuziyaning asosiy turlarini sanab bering.
19. Markaziy okklyuziya nima va u qachon kuzatiladi?
20. Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushuntiring.

Test savollari

11. Artikulyatsiya nima?
 - A) Tishlarning rangini aniqlash
 - B) Pastki jag‘ harakati vaqtida tishlarning o‘zaro munosabati
 - C) Tishlarning gigiyenik holati
 - D) Faqat tishlarning yopilishi

Javob: B

12. Prikus deganda nima tushuniladi?
 - A) Jag‘ bo‘g‘imi kasalligi
 - B) Yuqori va pastki jag‘ tishlarining yopilish holati
 - C) Tishlarning tozalanganligi
 - D) Tish protezining turi

Javob: B

13. Qaysi prikus normal hisoblanadi?

- A) Ochiq prikus
- B) Kesishuvchi prikus
- C) Fiziologik prikus
- D) Oldinga chiqib ketgan prikus

Javob: C

14. Patologik prikus nimaga olib kelishi mumkin?

- A) Chaynash samaradorligining oshishiga
- B) Tish va jag' bo'g'imida muammolarga
- C) Tishlarning mustahkamlanishiga
- D) Hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi

Javob: B

15. Okklyuziya nima?

- A) Tishlarning tozalash jarayoni
- B) Tishlarning bir-biri bilan kontaktga kirishish holati
- C) Tish protezining shakli
- D) Jag' mushaklarining mashqi

Javob: B

16. Markaziy okklyuziya qachon kuzatiladi?

- A) Pastki jag' yon tomonga siljiganda
- B) Pastki jag' oldinga chiqqanda
- C) Tishlar maksimal yopilganda
- D) Og'iz ochilganda

Javob: C

17. Oldingi (protruziv) okklyuziya qaysi holatda yuzaga keladi?

- A) Pastki jag' orqaga ketganda
- B) Pastki jag' oldinga siljiganda
- C) Pastki jag' yon tomonga harakatlenganda
- D) Og'iz yopiq holatda

Javob: B

18. Yon (lateral) okklyuziya nima bilan tavsiflanadi?

- A) Faqat old tishlar kontakti
- B) Pastki jag' yon tomonga harakatlenganda tishlar kontakti
- C) Barcha tishlar bir vaqtda yopilishi
- D) Tishlarning ajralib turishi

Javob: B

19. Okklyuziya buzilishi nimaga olib kelishi mumkin?

- A) Nutq va chaynashning yaxshilanishiga
- B) Jag' bo'g'imi va mushaklarda og'riqqa
- C) Tish rangining o'zgarishiga
- D) Hech qanday muammo tug'dirmaydi

Javob: B

20. Artikulyatsiya, prikus va okklyuziya nima uchun muhim?

- A) Faqat estetik ko'rinish uchun
- B) Chaynash, nutq va stomatologik davolash samaradorligi uchun

C) Tishlarni oqartirish uchun

D) Faqat tish texnigi uchun

Javob: B

Vaziyatli masalalar:

- **Vaziyat:** Shifokor bemor ogʻzida markaziy okklyuziyani aniqlash jarayonida mum yostiqlik sirtiga shpatel bilan vertikal va gorizontal chiziqlar chizdi.
- **Savol:** Mum yostiqlikchasiga chiziladigan 3 ta asosiy chiziqni (antropometrik chiziqlar) sanang va ular tish texnigiga nima uchun kerak?
- **Vaziyat:** Tish texnigi olinadigan protez mumi modelini kyuvetaga gipslashning "teskari" (obratniy) usulidan foydalandi.
- **Savol:** Gipslashning "teskari" usulida sunʼiy tishlar va gips model kyuvetaning qaysi qismlarida joylashadi?
- **Vaziyat:** Metallokeramik qoplamalarni doimiy fiksatsiya qilish uchun shifokor shishaionomer sementdan (ShIS / glass ionomer cement) foydalanishga qaror qildi. Hamshira sementni qorish uchun shisha plitkani spirt bilan artdi, lekin quritmasdan suyuqlikni tomizdi.
- **Savol:** Shishaionomer sementga spirt qoldiqlari qoʻshilishi sementning kimyoviy xususiyatlariga qanday taʼsir qiladi?

2.6. 1- mavzu:	Olinmaydigan tish protezlari, mikroprotezlar va briketlar tayyorlash qoidalari.
-----------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Olinmaydigan, doimiy protezlarni tayyorlash bosqichlari. 2. Qoplamalar. 3. O'zakli tishlar va ularni tayyorlash bosqichlari. 4. Konsol va ko'priksimon protezlar.
<p>O'quv mashg'uloti maqsadi:</p> <p>1.Ta'limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko'nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish 	

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 dakika	<p>Tashkiliy kism</p> <p>1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi,ichki tartib koidalariga rioya kilishni</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar,Yozib oladilar.</p>

	<p>tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib O'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 dakika</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni tO'lik bayon etish 30-40.</p> <p>3.O'kitishning noannaviy usullarini ko'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maksadida ulardan testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'kituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi.</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Akliy xujum" usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."Aqliy xujum" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: olimaydigan tish protezlari mavzusini o'qib kelish.</p> <ul style="list-style-type: none"> • H.Sh.Rahmonov "Tish texnikasi materialshunosligi" • S.Yusupova D.Ashurov "Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi" • N.Toshpo'latova "Og'iz bo'shligi kasalliklari" 	<p>Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

<p>Pedagogik vazifalar. Olinmaydigan tish protezlari, mikroprotezlar va briketlar tayyorlash jarayoni. Olinmaydigan tish protezlari, mikroprotezlar va briketlar tayyorlash qoidalari. Ularni qo'yish. Tayyorlash uchun foydalaniladigan mahsulotlar. Kiritmalar tayyorlash. Kiritmalarni o'rnatish. Tish tojidagi kovakni kiritma uchun tayyorlash. Kiritmani shakllantirish. Kiritmalarni o'rnatishda tish texnigining vazifalari. Kiritmalarni tayyorlashda tish toji va qo'shni tishlarni mustaxkam gipsdan, butun tishlar qatorini oddiy gipsdan quyishda tish texnigining vazifasi. Yarim qoplamalarni tayyorlash. Yarim qoplamalarni o'rnatish. Qoplamalarni tayyorlash. Qoplamalarni o'rnatish texnikasi. Tishni charxlash bosqichlari..</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi: -Bemorlarda o'zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, davolovchi xizmatlarini yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, shifokorgacha shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhishlash, --Birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o'rnatilgan tartibda hujjatlashtirish, ko'nikmalarini mustahkamlash; -O'z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-xuquqiy me'yorlarga ko'ra yuritish, konfidensial ma'lumotlar bilan ishlashda shifokorlik etikasi, qonunlar, me'yoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish, shifokorlik sirini saqlash.</p>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>“Baxs-munozara”, ”Aqliy xujum”, ”Issik kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli</p>
<p>O'qitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.</p>
<p>O'qitish shart sharoiti</p>	<p>Fanga mos jixozlangan o'quv xona.</p>
<p>Qayta aloqaning usul va vositalari.</p>	<p>Og'zaki so'rov: tezkor so'rov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baholash</p>

MAVZU: Olinmaydigan tish protezlari, mikroprotezlar va briketlar tayyorlash qoidalari.

Dars rejasi:

1. Olinmaydigan, doimiy protezlarni tayyorlash bosqichlari.
2. Qoplamalar.
3. O'zakli tishlar va ularni tayyorlash bosqichlari.

4. Konsol va ko'priksimon protezlar.

Olinmaydigan, doimiy protezlarni tayyorlash bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi.

O'lchov olish.

Tish protezi tayyorlash uchun ko'pincha bo'lajak protez o'rnidagi to'qimalardan aniq o'lchov olish va shu o'lchov asosida ish modellari tayyorlash kerak bo'ladi.

O'lchov - protez o'rnining to'qimalari va shu to'qimalarga yaqin yotgan soxalar rel'efining negativ tasviridir.

Model - protez o'rnining to'qimalari va unga yaqin yotgan soxa rel'efining o'lchovlar buyicha xosil qilingan pozitiv tasviridir. Tish protezi konstruksiyasiga qarab uni tayyorlash uchun tishdan, tish qatorlaridan, al'veolyar o'simtadan, og'iz bo'shlig'i va yuz-jag soxasidagi yumshoq to'qimalarning ayrim joylaridan o'lchovlar olinadi. Protez o'rni to'qimalari o'lchovini olish uchun o'lchov materiallari sifatida - tibbiyot gipsi va xar xil plastik massalardan foydalaniladi. O'lchov faqat bitta o'lchov materiali yordamida yoki ulardan bir nechtasini, masalan, gips bilan plastmassani qo'shgan xolda olinishi mumkin. O'lchov massalarini og'iz bo'shlig'iga kiritish uchun o'lchov oladigan maxsus qoshiqlardan foydalaniladi. Bunday qoshiqlarning tagi qattiq bo'lganidan qotgan o'lchov materiali shaklini aniq saqlab qolishga yoki uni og'izdan chiqarib olgandan so'ng o'lchov bo'laklarini yig'ishga imkon beradi.

O'lchov qoshiqlari standart va xar bir kishining o'ziga mos bo'ladi. Standart qoshiklar xar xil metallar (alyuminiy, po'lat) va plastmassadan tayyorlanadi. Qoshiklar turli kattalikda (№ 1,2,3,4 va 5), yuqori va pastki jag'lar uchun aloxida tayyorlanadi. Qoshiq dasta, qoshiq chetlari, tishlar urni, yuqori jag' uchun mo'ljallangan qoshiq gumbazi xamda pastki jag' uchun mo'ljallangan til kemtigi o'rnidan iboratdir.

Bundan tashqari, sanoatda № 7,8,9,10 raqamli standart qoshiqlar xam ishlab chiqariladi. Bu qoshiqlar alveolyar o'siq uchun mo'ljallangan yumaloq shaklli tarqoq joyi bo'lishi bilan farq qiladi.

Elastik massalar bilan o'lchov olish uchun uni og'izdan chiqarib olish vaqtida massaning qoshiqdan ko'chib ketishiga yo'l qo'ymaydigan teshiklar bor qoshiqlar ishlab chiqilgan. Bunday massalar uchun plastmassa qoshiqlar qulaydir. Agar odatdagi o'lchov qoshiqlari qo'llaniladigan bo'lsa, oldin uning qirralariga yopishqoq plastir tasma yopishtiriladi.

Jag'lardan o'lchov olish quyidagicha amalga oshiriladi:

- qoshiq tanlash;
- o'lchov massasini tayyorlash;
- massani koshiqqa solish;
- qoshiqni og'iz bo'shlig'iga kiritish;
- bo'lajak o'lchovning chetlarini shakllantirish;

- qoshiq va o'lchovni og'iz bo'shlig'idan chiqarib olish;
- o'lchov bo'laklarini yig'ish;
- o'lchovga baxo berish;

Qotuvchan material (gips) yordamida olinadigan o'lchovni og'iz bo'shlig'idan chiqarib olayotganda, avval uni og'iz bo'shlig'ida qismlarga ajratish lozim. Elastik materiallar (alginat , silikon , plastmassa) yordamida olinadigan o'lchovlar og'iz bo'shlig'idan shikastlanmay , butunligicha chiqarib olinadi. Tishsiz jag'larning o'lchovlari xar bir kishining o'ziga mos qoshiqlar yordamida olinadi. Bu qoshiqlarni ikki xil usulda tayyorlash mumkin.

-Klinik usul - bir yula bemorning og'zida tish texnikasida ishlatiladigan mumdan tayyorlash;

-Klinika va laboratoriya usulida ikki yo'la tayyorlash.

Klinikada standart qoshiq yordamida o'lchov olinadi.

Laboratoriyada model bo'yicha qoshiqning mum kompozitsiyasi shakllantiriladi, so'ngra u plastmassaga almashtiriladi.

Ayrim tishlardan o'lchov olishda qoshiq o'rniga xar xil o'lchamdagi metall xalqachalar yoki gilzalar laboratoriyada miss plastinkasidan gilza tortadigan apparatda tayyorlanadi. Klinikada shifokor tish o'lchamiga yaqin xalqani olib, tishga moslashtiradi.

Keyingi yillarda quyma qoplamalar, yarimqoplamalar va ko'priksimon protezlarni tayyorlashda ikki qavatli o'lchovlar qo'llanilmoqda. Bu o'lchovlar xar xil turdagi (termoplastik material bilan "tident", silikon yoki evgenoloksitsink plastlari) yoki bir xil turdagi (silikon) o'lchov materiallari yordamida olinadi. Ulchov ikki yula: avval asosiy material bilan, so'ngra buning ustiga aniqlovchi ikkinchi qavat qo'yib olinadi. Ikki qavatli o'lchovlarning afzalligi og'iz bo'shlig'i a'zolarini, ayniqsa, tish milki chetini aniq aks ettiradi. Ikkinchi o'lchov qavati tish milni ostiga kirib, olinmaydigan protezlar konstruksiyasini tayyorlashda muxim bulgan chegarani aniq aks ettirishi sababli modelning shu yerini o'ymaslikka imkon beradi.

Modell quyish.

Gips modellar.

Tish protezlash maqsadlarida ishlatiladigan gipsli modellar ish asosiy va yordamchi modellarga bo'linadi.

Bevosita tish protezi tayyorlanadigan model ish modeli deb ataladi.

Qarama-qarshi jag'dagi tish qatorlarining okklyuzion yuzasi shaklini xosil qiluvchi model yordamchi model deb ataladi.

Ish modeli tayyorlash quyidagilardan iborat:

- o'lchovga ishlov berish;
- o'lchovga gips quyish;
- o'lchovni ajratib olish;
- modelga ishlov berish;

Amalgama modellar.

Metall kiritmalar va yarimqoplamalar tayyorlashda amalgama modellar olinadi.

Amalgama deb - simobning metall bilan qotishmasiga aytiladi. Tish shifokorlik amaliyotida miss va kumush amalgamalar qo'llaniladi. Mis amalgamalar kichik plitkachalar xolida ishlab chiqariladi va 32 – 37 % mis, 59 – 66 % simob, 4 -2 % ruxdan iborat bo'ladi.

Plastik massa mis amalgamasidan quyidagicha tayyorlanadi: plitkachalarni qizdiriladi. So'ngra massani xovonchaga solib, plastik massa xosil bo'lgunga qadar eziladi, shundan keyin u oksidlardan yuvib tozalanadi va yana xovonchada yaxshilab eziladi.

Kumush amalgama metall qirindilari va simobdan iborat. 67 % kumush, 31 % qalay, 2 % mis va 0,03 % rux aralashmasidan iborat qirindi simob bilan qorishtiriladi (4 qism qirindi va 1 qism simob) va xovonchaga yaxshilab eziladi.

Sement modellar.

Plastmassadan protezlar tayyorlash uchun sement modellar ishlatiladi. Bunda amalgama yoki metall modellar ishlatgudek bo'lsa, ular ustidagi oksidlar tufayli plastmassa bo'yali qolishi mumkin.

Sement modellar tayyorlash uchun suyuqlik va kukundan iborat fosfat sement qo'llaniladi. Ular toza va quruq shisha plastinka ustida xromlangan klinik shpatel bilan qorishtiriladi. Cho'ziluvchan massa xosil bo'lgach, uni shpatel bilan to'plab, o'lchov ichi to'ldiriladi.

Kombinatsiyalangan modellar.

Kombinatsiyalangan modellar qattiq gips, metall, amalgama yoki sementdan quyilgan qismlardan iboratdir.

Olinmaydigan, doimiy protezlar:

- Kiritmalar va qoplamalar;
- O'zakli tishlar;
- Konsol va ko'priksimon protezlar;
- Keramika va metall-keramika tish protezlari;

Kiritmalar.

Kiritmalarni qo'llashga ko'rsatma:

- tabiiy tishning qisman buzilgan tuqimalarini tiklash uchun.
- ko'priksimon va byugel protezlarlar uchun tayanch qism sifatida.

Kiritmalar metall qotishmalar, plastmassa, chinni, shuningdek, metall bilan plastmassa, metall bilan chinnidan kombinatsiyalab tayyorlanadi. Tishlarni kiritmalar bilan protezlash quyidagi bir qancha klinik va laboratoriya bosqichlaridan iborat:

- tishdagi bo'shliq shakllantiriladi;

- kiritma reproduksiyasi mumdan yasaladi;
- mum reproduksiya metall yoki plastmassaga almashtiriladi;
- kiritmaning aniq tayyorlanganligi tekshirib ko'riladi va uni tish bo'shlig'iga maxkamlab qo'yiladi;

Tishdagi bo'shliqni shakllantirish shifokor tomonidan klinikada bajariladi.

Kiritmaning mum reproduksiyasi quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

- bevosita usul-bevosita tish bo'shlig'ining o'zida mumdan shakllantirish;
- bilvosita usul-modelda mumdan shakllantirish;

Metalldan kiritma tayyorlash.

Metall kiritma tayyorlashda tish texnigining ishi quyidagilardan iborat :

- litnik (shtift) xolatini va diametrini aniqlash;
- quyish qolipini tayyorlash;
- mumni eritib yuborish;
- kolipni quritish va qizdirish;
- qolipga metall quyish;

Yarim qoplamalar.

Yarim qoplama – shartli tushuncha bo'lib, tabiiy tishning oral, aproksimal va chaynov yuzalarini qoplab turuvchi, olinmaydigan protez konstruksiyasining bir qismini anglatadi.

Yarim qoplama kosmetik jixatdan yaxshi natijaga erishish uchun ko'priksimon protezning tayanch qismi sifatida qo'llaniladi. Yarim qoplamalar oltin-platina qotishmalaridan yoki zanglamaydigan po'latdan tayyorlanadi.

Yarim qoplamalar tayyorlash quyidagi tartibda olib boriladi:

- tabiiy tishni tayyorlash;
- tishdash va tish qatoridan nusxa olish;
- kombinatsiyalangan model tayyorlash;
- tish modeliga ishlov berish;
- yarim qoplamaning mum reproduksiyasi modelini yasash;
- mum reproduksiyasini metall bilan almashtirish;

Qoplamalar.

Qoplama – buzilgan tabiiy tish koronkasini tiklash uchun qo'llaniladigan protezdir. Qoplamalar metall qotishmalar, plastmassa, chinni yoki ana shu materiallar kombinatsiyasidan tayyorlash mumkin.

Qoplamalar:

- tiklanayotgan tish shakliga aynan mos kelishi;
- yaxshi bilinib turadigan ekvatorli bo'lishi;
- tish buynini boshdan oyoq qisib olishi , milk chuntagiga 0,3 mm kirib turishi;
- qo'shni tishlar bilan kontakt punktlarini tiklaydigan bo'lishi;
- pastki jag' okklyuzion xarakatining xar qanday fazasida xam tish qatorining jipslanishiga to'sqinlik qilmasligi shart;

Qoplamalar tayyorlanish usuliga qarab , shtamplab yasalgan va quyib tayyorlangan xillarga bo'linadi.

Qoplamalarni laboratoriyada tayyorlash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- tish va jag' modellarini tayyorlash xamda ularni okklyudator yoki artikulyatorga o'rnatish;
- tishlar modelini yasash;
- qoplamaning mum kompozitsiyasi yoki shtampini tayyorlash;
- qoplamani shtamplash yoki quyish;
- silliqlash va yaltiratish

O'zakli tishlar.

O'zakli tishlarni quyishga bo'lgan ko'rsatmalar:

- tish toj qismini sezilarli darajada nuqsoni, tish tojini plomba, qistirma yoki qoplama bilan tiklashning iloji bo'lmaganda;
- tish qatorlarining o'z yoyida noto'g'ri joylashganda o'zakli tishlar qo'yiladi. Bunda tish toj qismi depulpatsiya qilinib, o'zak ustiga kerakli protezli konstruksiyalar tayyorlanadi;
- o'zakli moslamalar ko'priksimon protezlar uchun tayanch sifatida qo'llaniladi;
- ildizning alveolyar ichi sinishlarida fiksatsiya qilish maqsadida o'zakli konstruksiya qo'llaniladi;
- replantatsiyalangan tishlarda o'zakli konstruksiya qo'llaniladi;
- parodont kasalliklarida shtiftli konstruksiyalarni boshqa elementlar bilan qo'shib ko'llaniladi.



Ko'pchilik mualliflar xar xil turdagi o'zakli tishlar konstruksiyasini taklif etishgan, ammo ularning xammasi bir prinsip asosida 3 guruxga bo'linadi:

1. Ildiz usti qismining tish kulti bilan tegib turadigan o'zakli konstruksiya:
 - a) plastmassali o'zakli tish
 - b) standart o'zakli konstruksiya
 - v) kavsharlangan o'zakli tish
 - g) quyma o'zakli tish

Bu o'zakli tishlarning kamchiliklari shundaki, ularda og'iz bo'shlig'i suyukligining ildiz kanali bilan germetizatsiyasi yo'qligi.

2. Ildiz kanali qistirma bilan germetik yopiladigan o'zakli tish

- a) Ilina-Markosyan bo'yicha
- b) Sitrin bo'yicha
- v) O'zakli vkladka
- g) Shteynberg bo'yicha
- d) Konstantinov bo'yicha

3. Ildizni nafaqat ustidan balki yon tomonlardan xalqa va yarim xalqa yordamida yopib turuvchi:

- a) Richmond bo'yicha
- b) Kats bo'yicha
- v) Axmedov bo'yicha
- g) Orton bo'yicha

O'zakli tish konstruksiyasini tanlash ildiz xolatiga va shifokor malakasiga bog'liq. Bunda ildiz va ildizdan yuqorida joylashadigan protezni o'zaro birlashtirib turuvchi moslama bu o'zakdir. Bu o'zak bosimni bir tekis taqsimlashi shart.

Tish ildiziga talab etuvchi umumiy klinik va texnik talablar mavjud:

- Milkdan baland yoki u bilan bir tekis joylashgan bo'lishi kerak;
- Alveolyar katakda mustaxkam joylashgan bo'lishi kerak;
- Paradont to'qimasi va ildiz kanalida yalliglanishlar bo'lmasligi kerak;
- Ildiz devorlari keraklicha qalinlikka ega bo'lib, biror bir patologik jarayon va karies bilan zararlanmagan bo'lishi kerak;
- Emal dentin chegarasidan boshlab, ya'ni 2/3 qismi tug'ri bo'lishi kerak;
- Aylana boylam xarakatsiz bo'lishi kerak;
- Ildiz kanali toj balandligidan kam bo'lmagan balandlikda o'tuvchi bo'lishi kerak.



Bu sharoitlarning bo'lmasligi o'zakli tishlarni qo'llashda qarshi ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Quyidagi klinik xolatlarda asoslangan xolda o'zakli tishlarni qo'llashga ko'rsatmalar aniqlanadi:

- Milk usti ildiz qismini saqlanganligi va ildizning zararlanganlik darajasi.
- Ildiz soniga (1 yoki undan ortiq)
- Okklyuzion xolatiga

O'zakli tishlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tish ildizi atrofidagi to'qimalarni shikaslantirmasligi;
- ildiz kanaliga zich mos kelishi va ildiz kanalini namlikdan asrashi kerak;
- o'zak yordamida tishga mustaxkam qotishi;
- o'zak, ildiz kanaliga uning 2/3 uzunligiga kirishi kerak;
- estetik talablarga javob berishi kerak.

Tish toj qismi nuqsoni xolatiga qarab o'zakli tishlarni tanlash. O'zakli konstruksiyalarning bir-biridan farqlanishi:

L.V. Ilina – Markosyan o'zakli tishlarning ildizga qotirish usullariga ko'ra quyidagi turlarga taqsimlaydi:

a) o'zakli tish faqatgina ildizning chiqib turgan yuzasiga o'tkaziladi (plastmassali o'zakli tishlar)

b) chiqib turgan tish ildiz qismiga metall xalqa kiygiziladi (Richmond o'zakli tishi)

s) Quyiladigan o'zakli tishning fiksatsiyalovchi qismi ildizi nafaqat tashqi yuzasidan balki kanalning ichidan xam qoplab turadi. (Qistirmali o'zakli tish Ilina – Markosyan)

L.V.Ilina-Markosyan bo'yicha o'zakli tish:

L.V.Ilina-Markosyan Richmond bo'yicha o'zakli tish kamchiliklarini bartaraf etmoqchi edi va shu sababli u xalqani qistirma bilan almashtirishni taklif etdi va ularni amartizator deb ta'rifladi. U qistirmani kubsimon, to'rtburchak va oval shaklida tayyorladi. Quyma qistirma va taglik asosida tish kultiyasiga va bo'shliqga mustaxkam joylanishi kerak. Kistirma kanalda mustaxkam joylashadi va bosimni taqsimlaydi. Qistirma va ildiz usti asosi bosimni butun tish bo'ylab bir tekis taqsimlaydi.

Aynan shu moslama, milk chegarasida bo'lgan tish ildiziga kursatma bo'lib xisoblanadi.

Ijobiy tomonlari:

- chaynov bosimi butun tish yuzasi bo'ylab taqsimlanadi.
- amartizator xususiyatiga ega
- qistirma sementni surilishidan saqlaydi.

Salbiy tomonlari:

Ko'pincha bo'yin soxasidagi metallning ko'rinishi yoki plastmassaning rangini tezda o'zgarishi.

Ildiz devori ingichka bo'lgan tishlarda qo'llash mumkin emas. Xozirgi vaqtda o'zakli tishlar kam qo'llanilmoqda, sababi ular o'rniga kultiyali o'zakli tishlar kirib kelmoqda.

Tish tojining milk ustidan saqlanib qolgan darajasi xolatiga tayanib xar xil turdagi o'zakli tishlardan qo'llash mumkin.

Agar milk usti qismi milk chegarasiga teng bo'lsa, u xolda Ilina Markasyan yoki to'la quyma o'zakli tishlardan foydalanish mumkin. Ildiz to'qimasini subgingival shikastlanishida xam shu usuldan foydalanish mumkin.

Richmond bo'yicha o'zakli tish:

Richmond bo'yicha o'zakli tish moslama oldindan tayyorlangan qoplama, o'zak va metal asosdan iborat bo'lib. ular o'zaro kavsharlangan bo'ladi. Mavjud bo'shliqda esa chinni fasetka joylanadi. V.N.Kopeykin bu moslamani xrom-nikel qotishmasidan foydalanishni taklif etdi. Kavsharlangan oltin qalpoqchanning o'rniga

po'lat qalpoqcha ezib tayyorlanadi. Mana shu qalpoqchada o'zak kavsharlanib ildizga joylashtiriladi.

Ijobiy sifatlari:

- ildiz devori yupqa bo'lganda xalqa bilan qotiriladi;
- qalpoqcha so'lakni tushishidan va o'zakni rasementirovkadan saqlaydi;
- ko'pincha ko'priksimon protez uchun tayanch sifatida qo'llaniladi.

Salbiy sifatlari:

Ko'pincha bo'yin soxasidagi metallning ko'rinishi yoki plastmassaning rangini tezda o'zgarishi.

Shargorodskiy bo'yicha o'zakli tish:

Bu usul bo'yicha tayyorlangan o'zakli tishga zanglamaydigan po'latdan xalqa tayyorlanadi. Xalqani tayyorlash uchun tish qoldig'i charxlanib, ildiz bo'shlig'ini kengaytirib bo'lgandan keyin, vrach ingichka sim bilan ildiz xajmini aniqlaydi, ildiz bo'shlig'iga o'zak tayyorlab, kiritadi va qolip oladi.

Laboratoriyada asl nusxalar quyiladi. Texnik sim yordamida vrach o'lchab bergan ildiz xajmini o'lchoviga mos qilib bir taxlitdagi gilzalardan xalqa kesib oladi. Zarurat bo'lganda gilza o'lchovini Samson moslamasi yordamida to'g'rilaydi.

So'ngra o'zakni olib yumshatilgan mum yordamida tish toji yasaladi. Shargorodskiy bo'yicha tish toji qo'shma qilib tayyorlanadi. Buning uchun fasetkaning ushlab turuvchi metalli qismi quyma usulda tayyorlanadi. Mumdan shakllantirilayotgan paytda og'iz bo'shlig'iga qaragan yuzadagi xalqa mum bilan yopiladi, og'iz daxliziga qaragan yuzada esa chinni yoki plastmassa uchun joy qoldiriladi. So'ngra mum shaklidagi tish toj qismi va o'zak quyish uchun qoplanuvchi massa bilan qoliplanib metalldan quyiladi. Aniq quyilgan tish protezining qismini asl nusxaga joylashtiriladi va xalqa bilan kavsharlanadi, oqartiriladi, ishlov beriladi va tish tojining og'iz daxliziga qaragan yuzasiga mumdan shakl beriladi va odatdagidek mum plastmassa bilan almashtiriladi. O'zakli tishga ishlov beriladi, pardozlanadi, yaltiratiladi. Klinikada vrach sement yordamida bemor tish ildizi bo'shlig'iga maxkamlab qo'yadi.

A. A. Axmedov bo'yicha o'zakli tish:

Tayyorlanishi qulay va oson bo'lgan bunday o'zakli tish, tish ildizida mustaxkam joylanishi jixatidan xam yuqorida bayon qilingan turlaridan qolishmaydi. A. A. Axmedov bo'yicha o'zakli tish tayyorlash uchun milk tekisligida tish toji qoldig'i qolgan bo'lsa, u qulaylik tug'diradi. Shunday qilib, tish toji qoldig'ini ko'proq qoldirib tish ildiz usti charxlanadi. Ildiz bo'shlig'i kengaytiriladi va qolip olinadi. Laboratoriyada asl nusxalar quyiladi. Texnik tish qoldig'iga metall qoplama yasaydi. Qoplamaning tanglay yuzasida teshik xosil etiladi va klinikada vrach qoplamani mum yordamida tish toji qoldig'iga (ildiz asosiga) kiygizadi va koplamadagi teshik orqali o'zakni ildiz bo'shlig'iga kiritadi. O'zakning tashqi uchini oldindan bukib qayirib qo'yiladi. So'ngra qolip olinadi va asl nusxada o'zakni qoplama bilan kavsharlanadi. Qoplamaning og'iz daxliziga qaragan yuzasini

g'ildiraksimon bor yordamida (plastmassa maxkam turishi uchun) kesmalar xosil qilib kesib tashlanadi. Qoplama va o'zakka ishlov beriladi, oqartiriladi, pardozlanadi. Shundan keyin o'zakli tishning og'iz daxliziga qaragan yuzasini mumdan shakllantiriladi va odatdagidek mum plastmassaga almashtiriladi. So'ngra klinikada vrach bemor tish ildizi bo'shlig'iga sement yordamida maxkamlab qo'yadi.

Logan bo'yicha chinni o'zakli tish:

Bunday o'zakli tishlar zavod usulida ishlab chiqarilar edi. Ular asosan ikki xilda: tishning toj qismi o'zaklar bilan birgalikda yoki o'zaklar va toj qismi aloxida, shuningdek turli rangda bo'lardi. Toj qismi chinnidan tayyorlangan bo'lib, oldingi guruh tishlarning turli rang va o'lchamdagi yig'indisi sifatida chikarilar edi. O'zak bilan toji yaxlit bo'lgan tish protezini bemor bo'shlig'iga moslab kiritish juda noqulay, shu sababli ko'pincha avval o'zak moslanib keyin toj qismini tanlab, so'ngra ularni sement yordamida maxkamlab qo'yiladi.

Logan bo'yicha o'zakli tish toj qismini bemor og'zining tish ildiziga moslab ko'rish quyidagi usulda olib boriladi:

1. Bevosita bemor og'iz bo'shlig'ida, ildiz bo'shlig'iga o'zakni va ustiga chinnidan toj qismini moslab o'rnatish va maxkamlab qo'yish

2. Bevosita o'zak moslangandan keyin, bemor tish katorlaridan qolip olish.

Laboratoriyada asl nusxa quyiladi va undagi tish o'zagiga toj qismi moslanib o'tkaziladi. Logan bo'yicha tayyorlanadigan o'zakli tishni bemor bir marta kelganidayoq qo'yib protezlash mumkin (agar tish yumshoq to'qimasi olingan bo'lib, bo'shliq yaxshi plombalangan bo'lsa). Ammo o'zakli tish sifati, yuqorida bayon etilgan o'zakli tishlardan past bo'ladi.

M.Bekmetov va V.Melnikov usuli buyicha kup ildizli kuyma uzakli tishlar:

Ko'pchilik xollarda chaynov jag' tishlarining toj qismi karies kasalligi yoki boshqa sabablar bilan yemirilishi natijasida sug'urilib tashlanar edi, chunki bu tish ildizlariga ularning bir biriga parallel bulmaganligi e'tiborga olinib, kuyma o'zakli tishlar tayyorlash imkoniyati yuq deb xisoblanardi. Klinik, rentgenologik tajribalarga asoslanib prof. M.V. Bekmetov, assistent V.Ya. Milnikovlar «1990 yil» tomonidan toj qismi yemirilgan ko'p ildizli tishlarga ikki segmentdan iborat o'zakli quyma tish konstruksiyasi taklif qilindi va uni amaliyotga joriy qilishdi.

Mualliflar ko'p ildizli toj qismi yemirilgan chaynov tishlariga segmentli quyma o'zakli tish tayyorlashning 2 xil usulini taklif qilishgan.

- 1 usul bo'yicha segmentli quyma o'zak tayyorlash uchun bemorning tish toj qismi yemirilgan ildiz kanallarini kengaytiriladi va mum yoki plastmassa qalamchasidan o'zakli tishning ildiz va toj qismi yasaladi. Shuni aytib o'tish kerakki, o'zakka shakl berayotgan paytda uning xar bitta segment ildizlari tish kanaliga mos bo'lib, bir-birlari bilan tish ildizlari bifurkatsiyasi ustiga to'g'ri keladigan chiziqdan segmentlarning toj qismlariga shakl beriladi. Bu chiziq qiyalik burchagi - tish kanallarining bittasining kanal qiyalik burchagiga teng bo'lishi kerak.

O'zak tishning toj qismi o'zaro birlashib ketgan bo'lsa ularni yupka separatsion disk bilan qo'lda bir-biridan ehtiyotkorlik bilan ajratiladi va maxsus metall qotishmalardan quyiladi, keyinchalik bemor tish ildiziga tayyorlangan quyma o'zak o'lchab quriladi. So'ng tayyorlangan konstruksiyalar pardoatlanib, tish ildizlariga ketma-ket sementlab o'rnatiladi.

2 usul bilan tayyorlaganda oldin tish ildizi kanallariga ularning diametriga tug'ri keladigan plastmassa qalamchalar tanlab olinadi va unga moslashtiriladi. Plastmassa o'zak bo'lajak tish tojining $\frac{3}{4}$ qismi balandligini tashkil qilishi kerak. O'lchangan o'zaklarni o'z-o'zidan qotadigan plastmassa (redont, protakril) xamiri bilan qoplanadi va tish ildizlariga kiydiriladi, bir oz o'tgach o'zaklar chiqarilib, plastmassa to'liq polimerizatsiya bo'lgandan keyin yana o'zaklar tish ildizlarga kiydirilib, jag'larda ishchi va yordamchi qoliplar olinadi. Tish kanallari vaqtincha plomba yoki tampon bilan berkitiladi.

Vrach o'zakli tish konstruksiyasiga qarab ildiz kanalini tayyorlashi:

O'zakning uzunligi va qoplamaning vertikal kesimining bir biriga nisbati muhim ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi. O'zak tiklanayotgan tishning vertikal kismidan katta bo'lmasligi kerak. Tish ildizini tayyorlash tanlanadigan protez turiga asoslanib quyidagi bosqichlardan iborat:

- ildizga yallig'lanish bo'lsa uni bartaraf etish;
- ildiz kanalini kengaytirish;
- kanalni plombalash;
- o'zakni kiritish uchun, ildiz kanalini tayyorlash;
- ildiz kultiyasini charxlash;
- nekrozlangan to'qima olib tashlanib kerakli yuza xosil qilinadi.

O'zakli tishlar tayyorlash uchun ishlatiladigan asosiy va yordamchi xom ashyolar:

O'zakli sun'iy kultiya quyidagi qotishmalardan tayyorlanadi: nikel-xrom, kobalt-xrom, zanglamaydigan qotishmalar, kompozit materiallardan, akrill plastmassasining sovuq qotishmalardan «norakril»

Eng yaxshi natijani sun'iy kultiyaning metall qotishmalardan va farfor, metallokeramik qoplamalarni qo'llashda beradi.

Qolip olish usullari, yordamchi va asosiy qolip.

Tishlarni o'zakli konstruksiyalar bilan davolashda klinik va laborator bosqichning ketma-ketligi.

1. ildizni tayyorlash
2. o'zakni ildizga o'rnatib qurish
3. qolip olish
4. modelni quyish va qolipdan uni ajratib olish, kultni modellashtirish, voskni metallga, plastmassaga almashtirish, shlifovka, polirovka qilish.

Model tayyorlash: kombinatsiyalangan yig'ma modellar.

Qoliplardan quyilgan gips modellari okklyudatorga gipslanadi va o'zaklarning toj qismi o'z-o'zidan qotuvchi plastmassa bilan shakllantiriladi. So'ngra, modelda shakllantirilgan tishning toj qismi yupqa metall disk yordamida

ikki segmentga ajratilib, arralanadi. Tayyorlangan plastmassa qoplamali o'zakning asos segmentining qiya tekisligi yuzasida ortodontik sim yo'g'onligida 1-1,5 mm teshik teshiladi va bu teshikka uzunligi 4-5 mm bo'lgan po'lat sim tez qotadigan plastmassa bilan vertikal xolatda o'rnatiladi. Simning uchi 2-3 mmga chiqib turishi kerak.

So'ngra, segmentlar modeldan olinib qo'yishga beriladi va plastmassa metallga almashtirilgandan keyin, o'zakli tishlar segmentlari og'izda o'lchab qo'riladi va oldin 1- asos qismi sementga o'rnatiladi keyin 2- kismi ildizga va o'zaro sement bilan maxkamlanadi. Sement yaxshi qotgan bo'lsa, o'zakli tish toj qismi charxlanadi va tish protezlashning keyingi klinik bosqichiga tayyorlanadi.

Standart va individual o'zaklar tayyorlash: O'zakli tish tuzilishi, uzunligi ildiz kanaliga to'g'ri kelishi kerak. O'zakning minimal kengligi 0,9 mm dan kam bo'lmasligi kerak. O'zak sifatida ortodontik simlar va zanglamaydigan klammerlarda foydalanish mumkin. Diametri 1-1,8 mmdan kam bo'lmasligi kerak. Bunda, o'zak ildiz kanaliga o'rnatish uchun shlifovka va kanalni borlar bilan kengaytirish bilan amalga oshiriladi. O'zaklarni standartli turlari mavjud bo'lib ular fabrikada ishlab chiqariladi:

- aylana
- chegarali
- vintli va boshqalar.

Ko'p ildizli tishlarda o'zakni kanalga o'rnatish uchun, eng yaxshi ildiz tanlanadi.

Masalan: pastki jag' molyarlarda – distal ildiz

Yuqori jag' molyarlarda – tanglay ildiz tanlanadi.

O'zaklarni bondinglash: Quyma o'zaklarni mustaxkam tarkibini tish tayanchini bonding tizimi bilan amalga oshiriladi. O'zakni ildiz kanaliga qotirishda bonding tizimi oddiylik va mustaxkamlikni talab qiladi. Bunda kuyidagilar amalga oshiriladi:

1. Tishni charxlab, sementlashga tayyorlash
2. Dentinni ortofosfor kislotasi bilan 15 soniya davomida shimdirib zararlagandan keyin tish yaxshilab suv bilan yuvilib, quritiladi. Kanalni kog'ozli o'zak bilan quritiladi.
3. Tish ildizning tashqi va ichki yuzasiga 2 marta ketma-ketlik bilan adgeziya qilinadi
4. Adgeziyaning koldiklarini quruq qog'ozli o'zaklar bilan artib tashlanadi. Keyinchalik nur bilan 10 soniya davomida adgeziya quritilib o'zakni tish ildiziga urnatib quriladi
5. Adgezivli kompozit sement bo'lmish RelyxARCni aralashtirib ildiz kanaliga kiritib o'zakni sementlaymiz. Keyinchalik o'zak maxsus moslama bilan maxkamlanadi.
6. Sementni nur orkali qotiriladi
7. Nurli polimerizatsiyadan sung sement qoldiklari olinadi.
8. O'zak ildiz kanaliga yaxshi qotiriladi so'ng qolip olinadi
9. Quyilgan o'zakli tishning vestibulyar tomondan ko'rinishi inobatga olinadi.

O'zakli tishlarni tayyorlashning bir qatnovli usuli.

Bir qatnovda tayyorlanadigan o'zakli tishlarni tayyorlashni osonligi shundaki qolip olish va laboratoriya bosqichlari bo'lmaydi va shu sababli davolash muddati qisqaradi.

Ildiz kanali oddiy usullar bilan tayyorlanadi. Ildiz kanaliga zanglamaydigan o'zak qotiriladi. Ildiz kanalidan chiqib turgan qismi, tanglay tomonga ilmoq sifatida bukiladi. O'zak bukilib, antagonist va yon tashlarga xalakit bermasligi kerak.

Bukilgan o'zak va antagonist tish orasida plastmassa uchun joy qoldirish zarur. O'zakni tishdan tashqarida qismida maxkamlash uchun moslanadi nasechkalar yuritilib, ular plastmassani mustaxkam tutish uchun moslanadi. O'zak yog'sizlantiriladi va qurutiladi. Plastmassa tishlar garniturasidan shakli va rangi jixatdan mos tish tanlanadi. Tish orka tomondan freza bilan bir qismi olib tashlanadi. O'zak bilan sun'iy tish orasida tez qotuvchi plastmassa uchun joy qoldiriladi.

Ildiz kanali va uning usti xo'llaniladi. So'ng tez qotuvchi plastmassa qorilib tishning ustki qismi ya'ni o'zakning g'adir-budir(notekis) joyiga quyiladi. Plastmassa rezinasimon bo'lgandan so'ng ildiz kanaliga kiritiladi va asos shakllantiriladi. So'ng ozod qismiga plastmassa yurgizilib suniy tish bilan qotiriladi.

Ikkinchi usulda tayyorlangan ildiz kanaliga zanglamaydigan yoki standart o'zak kiritiladi. Kanal kirish qismini konussimon shaklida kengaytirilib ustiga o'zakni o'z-o'zidan qotuvchi plastmassa bilan qoplanadi. Plastmassa maxsus borlar bilan tish shakllantiriladi. Sun'iy tishni kultiyasini shakllantirish maxsus "Evicrol" firmasi tayyorlangan matritsalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maxsus shaklga ega bo'lgan (kesuvchi, qoziq, premolyar tishlar) matritsalar o'z-o'zidan qotuvchi plastmassa yoki kompozit xom ashyolar bilan to'ldiriladi va tish kultiyasiga kiygiziladi. Matritsa ostidan chikib qolgan ortiqcha massa gladilka yoki klinik shpatel yordamida olib tashlanadi, qalpoqcha kesib olinadi. Shakllantirish va tekshirish bilan muolaja tugallanadi. Bu usuldan vaqtinchalik qoplama uchun foydalaniladi. Uning kamchiligi tez sinishidir, rasementirovka va o'zakli tishni tushib qolishidir.

Bir ildizli tishning toj qismini to'liq shikastlanishi. Kultiyali o'zakli tishlar bilan tiklash.

Tish tojining butunlay yemirilishida va faqat ildiz qolgan xolda tishni anotomik xolatini o'zakli sun'iy kultiya bilan tiklash mumkin. Bu usul bilan kesuvchi qoziq, premolyar xatto molyar tishlarni tiklash mumkin. Ildizga bo'lgan talablar xuddi o'zakli tishlar mavzusidagidek. Kultiyada joylashgan qoplamaning boshqa (o'zakli tishlarga) nisbatan afzalliklari:

- yon turgan tishlarni tortishda qoplamani yechish, kultiyani esa ko'priksimon protezni tayanchi sifatida qo'llash mumkin.
- ortopedik usul ko'priksimon protez uchun ancha qulay bo'lib xisoblanadi, sababi ildizlarni paralelsizliklari o'rni koplanadi.
- zarurat tug'ilganda (qoplamaning rangi o'zgarganda, qoplama deffekti buzilganda) qoplamani almashtirish mumkin.

Sun'iy tish kultiyasini metaldan yoki plastmassadan tayyorlash mumkin. Plastmassali kultiya milk oldi soxasida nuqsonlari bulganda qo'llash mumkin emas, sababi plastmassa kengayadi va milkka ta'sir etib zararlaydi, qirg'ok parodontini keltirib chiqaradi.

Agar kultiya koboltxromni qorishmadan qo'yilsa, u xolda shu kultiyada ustun xosil qilish mumkin. Kultiyani metalokeramika uchun chinni xom ashyosi bilan qoplash mumkin.

Ildizni protezlashda tayyorlash tish toj qismini zararlangan darajasiga bog'lik. Tish toj qismini yemirilganligi nisbiy bo'lsa u xolda ildizni tayyorlashning ikki usuli mavjud:

1. Qolgan tish toj qismining butunlay olib tashlanishi
2. Extiyotlik talab etiladigan usul ya'ni iloji boricha mustaxkam devorlarni qoldirish kerak, yupka nozik tish devorlari olib tashlanadi.

Ildizni tayyorlash uning 1/3 kismi plombalangan bo'lsa nisbatan oson kechadi. Agar ildizning xamma joyi plombalangan bo'lsa u xolda maxsus ingichka bor bilan ildiz kanali ochiladi. Bunda ildiz kanalini kengaytirib yubormaslik kerak. Sung ildiz kanali silindrsimon fissurali bor bilan yoki olmos bor yordamida undan tashkari buravdan foydalanib kengaytiriladi. Kanalni kengaytirilishi uning anatomik xususiyati va devor kalinligiga e'tibor berish lozim. O'zakni kanal ichiga aylanmasligi uchun kanalni ovalsimon qilib shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqori tishlarda lab tomondagi devorni, pastki jag'dan esa til tomondan devorini kamroq charxlash zarur, sababi bosim shu devorlardan taqsimlanib tarqaladi. O'zak qancha qalin va uzun bo'lsa u xolda o'zakni devorga nisbatan jiplashishi shuncha ko'p bo'lib, sement bilan qotirilganda mustaxkam qotiriladi. Tanlanadigan o'zakning uzunligi va qalinligi tish ildizining yuzasiga bog'lik xolda tanlanadi. Ildiz kanalini kengaytirish mumkin, ammo bunda ildiz devorlarini yupqalashishi mumkin. Ildiz devorining qalinligi 1.5 mm bo'lishi kerak, ammo yupqa bo'lsa ildiz devorini yorilib sinishi mumkin. Bosimning kuchi kam bo'lganligi sababli, pastki kesuvchi va premolyar tishlar bundan mustasnodir.

Kesishish burchagi (konvergensiya) xali o'zakning mustaxkam joylashishiga katta ahamiyatga ega. Buning uchun silindrsimon o'zakdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, ammo buning uchun ildiz kanali kolibrlab kengaytirish lozim va standart o'zakdan foydalaniladi. Yon bosimga chidamliligini oshirish uchun o'zak qalinligi 1.0-1.2 mm kirish soxasida esa 2 mm bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zakning mustaxkamligi uning uzunligi ya'ni tish tojidan uzun bo'lsa. O'zak ildiz ichida aylanmasligi uchun o'zakning shaklini ovalsimon ki uchburchak qirrali qilish kerak. O'zak devori bo'ylab nasechkalar kilinsa u xolda xam u mustaxkam joylashadi. Undan tashqari qotirish uchun ishlatiladigan sement sifati xam katta ahamiyatga ega.

Ildiz shakllantirilgandan so'ng o'zakli kultiyali qistirmani tayyorlashga o'tiladi. Metall o'zakli kultiyani tayyorlashning bevosita usulidan foydalanish maqsadga muvofik bo'ladi. Uni tayyorlanish bosqichi quyidagilardan iborat:

- tayyorlangan tish kultiyasi paxta valiklari yordamida so'lakdan ximoyalanadi.
- ildiz kanali qipqlaridan, xavo yordamida tozalanib nam paxta yordamida xo'llanadi. Mumdan tayyorlangan o'zak ("Lavaks") elastiklik darajasigacha

qizdiriladi va unga konussimon shakl beriladi. Mumli o'zak tish kanaliga uning aniq shaklini olguncha bosiladi. Mumdan oldindan tayyorlangan qalinligi 1.0-1.5 mm bo'lgan metal o'zak o'tkazilib sovuguncha kutiladi. So'ng sun'iy kultiya bo'lajak qoplama shakliga asoslanib shakllantiriladi. O'zakning erkin qismidan mumli konstruksiya chiqarib olinadi va metallga almashtiriladi. Olingan kultiya tishga joylashtiriladi va sement bilan qotiriladi, so'ng charxlanadi. Keyinchalik oxirgi charxlash va qolip olish sun'iy qoplama yasaladi.

Bilvosita usulda charxlangan tish ildizi kultiyasidan qolip olinadi. Buning uchun bir martalik va ikki kavatli kolip olinadi. Bir vaqtning uzida bazis va irrigatsiyalovchi massalar qoriladi. Ildiz kanaliga shprints yoki kanalnapolnitel yordamida bazis xom ashyosi kiritiladi va unga benzol xom ashyosidan tayyorlangan o'zak kiritiladi. Ustidan oxirgi qolip yechib olinadi va super gips yordamida model quyiladi. Modelda sun'iy tish kultiyasiga mum yordamida shakllantiriladi va uni quyish sexiga jo'natib mum metalga almashtiriladi.

SITKO- firmasiga tegishli o'zaklarni o'rnatish.

SITKO o'zaklariga va asboblariga 5- xil o'zaklar xar xil uzunlikdagi titandan yasaladi. Shulardan uchtasi diametri 0.9mm va ikkitasi esa 1.2 mm.

SITKO o'zaklari boshcha qismidan silindr va konussimon qismidan iborat. Uning rezba qismi tish ildizining eng qalin qismiga kiritiladi. O'zakning rezbasiz qismi chuqur ildiz uchiga kiritilmaydi, uning ustki qismidagi qirqimlari yordamida esa ortiqcha sement olib tashlanadi. O'zakni joylashtirish quyidagi tartibda boradi. Rangsiz kalibrlovchi moslama yordamida rentgen kog'oziga moslab o'zakning katta kichikligiga qarab tanlanadi. "Geyts" asbobi yordamida ildiz kanali o'zakka moslashtirib ochiladi. So'ng kanal quyiladigan o'zak shakli va uzunligiga mos qilib kengaytirilib ochiladi. O'zakning joylashishi rangsiz shablon yordamida tekshiriladi. Agar o'zak to'liq kirmasa u xolda kombinirlangan drillbor yordamida kengaytirish mumkin. O'zakning kanal ichida joylashishi rentgen va shablon bilan yana bir marta tekshiriladi. So'ng SITKO o'zak maxsus naletga o'rnatilib rezba va tekis kismiga qotiriluvchi sement yurgizilib, o'zak o'z o'rniga joylashguncha kiritiladi. Undan keyin tish kultiyasini xosil qiluvchi xom ashyo (fotopolimer "Spektrum TI-PI-Eych") bilan adgeziv sistema "Praym end Bond" kimyoviy qotuvchi kompozit yoki stekloinomer sement "Kormaks" bilan qo'llash mumkin. Tish kultiyasi tayyor va unga ishlov berish mumkin, oxirida esa qoplama bilan qoplash mumkin.

"Yunimetrik" sistemasi uzaklarini urnatish.

"Yunimetrik" sistemasi komplektiga drillbor va o'zaklar kiradi. O'tuvchi drill maxsus 2 ta chikib turuvchi drildagi xalkalardan iborat. Bu xalqalar o'zakdagi uzun va kalta xalkalarga mos keladi. Kalibrlovchi (ulchovchi) drill 2 ta rangdor xalkadan iborat va bularda xam 2 ta chiqib turuvchi xalqadan iborat. Diametri 1 mm bo'lgan o'zaklar xar birida universal qo'shimcha drill mavjud bu esa o'z o'rnida o'tuvchi drildan kalibrlovchi drilga o'tishda ishlatiladi.

“Yunimetrik” o’zaklari 2 xil buladi: S- boshchasi kalta va L- boshchasi uzun. Bu ikkala turi 2-xil razmga ega demak bu 0.8-1 mm.

“Yunimetrik” uzaklarini urnatish metodikasi

Rangsiz shablon rentgen tasmaga qo’yilib taqqoslanadi. Avvaliga ildiz kanali o’tuvchi drill bilan ochiladi va kalibrlovchi drill yordamida ildiz kanali shakllantiriladi. Agar o’rnatiladigan o’zak o’lchami 1mm ga teng bo’lsa, u xolda oralik universal drilldan foydalanish mumkin, bunda kalibrovka osonlashadi. O’zakni muolaja davomida ildiz kanaliga kiritib tekshirib turish maqsadga muvofiq bo’ladi. Agar bir emas bir nechta o’zak qo’yilsa u xolda ularning uzaro munosabati tekshiriladi.

“Lentual” kanal to’ldirgichdan foydalanib ildiz kanali fiksatsiya uchun sement bilan to’ldiriladi. O’zak toza spirt yoki efir bilan yogsizlantiriladi va olov shulasida dezinfeksiya kilinadi. O’zakni kanalga kiritish uchun krestsimon kalitdan foydalaniladi. Agar ikkita o’zakdan foydalanilsa u xolda ularning boshchasi bir-biriga tegmasligiga e’tibor berishimiz kerak. So’ng kompozitdan tish kultiyasi xosil qilinib, olmos instrumentlar bilan ishlov beriladi.

“Yunikast” o’zaklarini o’rnatish

Tayyorgarlik muolajalari xuddi “Yunimetrik” o’zaklari kabi

- mos kattalikdagi o’zak tanlanadi

- o’tuvchi drill bilan konsul o’rnatiladi

- 1mm gacha bulgan o’zakdan foydalanish universal drill bilan kalibrovka qilinadi

- kolibrlovchi drill yordamida oxirgi ildiz kanali shakllantiriladi.

O’zakning joylashishi va ular bir nechta bo’lsa o’zaro jipsligini tekshirish muxim ahamiyatga ega. Qolip olinadi va shunda xosil qilingan shablonlarga tanlangan qoshiqlarning tegmasligini nazorat qilib, e’tibor berish lozim. Qolip olingandan sung o’zaklar joydan olinib qolipdagi o’rniga joylashtiriladi. Laboratoriyada o’zak modelga o’rnatiladi va ular metallga almashtiriladi.

Kultiyaning aniqligi ildiz kanalida tekshiriladi. O’zak bo’ylab tarnovcha xosil kilinadi, bu ortiqcha sementni chiqib ketishi uchun zarur. O’zakli quyma kultiya sementga qotiriladi, koplama esa oddiy usulda tayyorlanadi.

Konsol va ko’priksimon protezlar.

Tish qatorida nuqsonlar bo’lgan taqdirda, ularning kattaligi va joylanishiga xamda saqlanib qolgan tishlar tayanch apparatining xolatiga qarab konsol yoki ko’priksimon protezlar qo’llaniladi. Konsol va ko’priksimon protezlar tayanch qismidan xamda protez tanasidan iborat bo’lib , faqat tayanch qismining tish qatoridagi nuqsonga nisbatan qanday joylashganligi bilan bir biridan farq qiladi.

Konsol protez-tayanch qismi bor tomonda joylashib, tish qatoridagi nuqsonning o’rnini to’ldiruvchi olinmaydigan protezning bir turidir.

Ko’priksimon protez-tayanch qismlari tish qatorlari nuqtasining 2 tomonida joylashgan protez turidir.

Konsol va ko’priksimon protezlarning tayanch qismini qoplamalar, yarim qoplamalar, kiritmalar va shtiftli sun’iy qoplamalar xisoblanadi.

Konsol va ko'priksimon protezlar tanasini metallardan, metall bilan chinni yoki plastmassani birga qo'shib tayyorlangan sun'iy tishlar tashkil etadi. Metallardan tayyorlangan protezlar tanasi quyma tish deb, kombinatsiya qilingani esa fasetka tish deb ataladi. Sun'iy tishlarning alveolyar o'siq shilliq qavatiga nisbatan turishiga qarab, konsol va ko'priksimon protezlar tanasi tegib turuvchi va yuvilib turadigan shakllarda bo'ladi.

Konsol yoki ko'priksimon protez tayyorlashning klinik va laborator usullari:

- tishlarni charxlash va o'lchov olish;
- tish qatorlarining markaziy munosabatini aniqlash;
- tayanch qismlarni laboratoriyada tayyorlash;
- tayanch qismlarni moslash va o'lchov olish;
- o'lchovni ulash va model tayyorlash;
- protez tanasi modelini yasash;
- ko'priksimon protez tanasini quyish;
- ko'prisimon protez qismlarini kavsharlash;
- proteza ishlov berish va pardoqlash;
- protezni tayanch tishlarga maxkamlab qo'yish;

O'lchov olish .

Keyingi yillarda o'lchov olish uchun gips o'rniga elastik massa "novalgin" tavsiya etiladi. Bunda texnik qoplamaning o'z o'rnida juda e'tibor bilan qattiq ezmasdan o'rnatishi kerak.

Qoplama o'rni va o'lchovining xammasini paxta tampon bilan yaxshilab quritish lozim.

Protez tanasi modelini tayyorlash.

Yaxlit metallardan iborat oraliq qismini tayyorlash. Qoplamalar o'rtasi plastinkadan yasalgan bolish bilan to'ldiriladi. Bolish qoplamalardan bir muncha baland va kengroq bo'lishi kerak. Bolishni o'rnatib, modellar jipslashtiriladi, natijada bolishda antagonist tishlarning izi xosil bo'ladi. Dastlab mumning ortiqcha qismlari shpatel bilan tarashlanib, bolishni qo'shni tishlar eniga teng qilinadi va shu bolishdan tishlar modelini yasashga kirishiladi. So'ng unga yo'q tishlar soniga mos keladigan qilib chiziqlar chizib chiqiladi va xar bir bo'lakdan birta tish modelini yasashga kirishiladi. Barcha tishlarda anatomik shakl vujudga keltiriladi.

Protezning vestibulyar, chaynov va til tomon yuzalari yasab bo'lingach, uning milkka qaragan tomoni yasaladi. Buning uchun mumni vestibulyar satxga nisbatan burchak xosil qilib, chaynov yuzasining til yuzasiga o'tish joyidan 2-4 mm naribroqda, bu yuzaga vestibulyar yuzaga bilan tutashguncha o'tkir shpatel bilan qirib chiqiladi. So'ngra mum sovutilib, modeldan chiqarib olinadi. Bu mum kompozitsiya quyish xonasiga yuboriladi.

Protezning kombinatsiyalangan oraliq qismi plastmassa qoplangan metallardan yoki chinni tishlar bilan qoplangan metallardan tayyorlanadi.

Protezning oraliq qismini ishlash.

Detallarning notekis va g'adir budir joylari karborund toshlar, xamda disklar bilan tekislanadi. Alveolyar o'siq va til tomonga qaragan yuzalar ayniqsa yaxshilab silliqanishi kerak.

Protez qismlarini yopishtirish va protezni kavsharlashga tayyorlash.

Ko'priksimon protez qismlarini kavsharlash uchun ularni bir biriga yopishqoq mum yordamida yopishtirib chiqish kerak. Buning uchun qoplamalar garelka alangasida isitilib, ichidagi mum eritiladi va ular modeldan chiqarib olinadi. Qoplamalar turgan gips bo'rtmalariga konus shakli beriladi, bunda qismlar yopishtirib bo'lingandan keyin ko'priksimon protezni modeldan ko'chirib olish osonroq bo'ladi.

Oltin qoplamalarning chaynov yuzasiga ich tomondan kavshar quyiladi, boshqa xil qoplamalar yoki boshqa detallarning kavsharlangan soxalari jilvir qog'oz bilan kuyundidan tozalanadi.

Model suv bilan yaxshilab namlanadi yoki uning protez tayyorlanadigan qismiga moy surtib qo'yiladi, qoplamalar modelga moylanadi va oraliq qismi o'rnatiladi. Ozigina mum olib eritiladi, detallarning bir biriga tegib turgan yeriga til tomondan tomizib, bir-biriga yopishtiriladi. Mum qotib qolmasdan okklyudator yopib qo'yiladi va oraliq qism antogonistlarga nisbatan aniq o'rnatiladi.

Mum suvda sovutilib, ko'priksimon protezlar modeldan avaylab ko'chirib olinadi, o'tga chidamli massaga gipslanadi, quritiladi va kavsharlanadi. Kavsharlangan protez sovuq suvga solinadi, o'tga chidamli massadan tozalanadi va oqartiriladi. So'ngra ortiqcha kavshar olib tashlanib, kavsharlangan joylarga ishlov beriladi va pardoz berishga kirishiladi.

Pardoz berilgandan keyin protez avval suvda sovunlab yuviladi, so'ngra spirt va efir bilan yuviladi. Agar ko'priksimon protezning tanasi fasetkali qilib tayyorlangan bo'lsa, avval chinni yoki plastmassa tishlarni maxkamlashga yoki mumdan modelini yasashga kirishiladi va keyin mum plastmassa bilan almashtiriladi.

Nazorat uchun savollar.

1. Olinmaydigan, doimiy protezlarni tayyorlash bosqichlari.
2. Olinmaydigan, doimiy protezlarning turlari.
3. Qoplamalarni tayyorlash bosqichlari.
4. Qoplamalarni qo'yishga ko'rsatma.
5. O'zakli tishlarni tayyorlash bosqichlari.
6. O'zakli tishlarni qo'yishga ko'rsatma.
7. A. A. Ahmedov bo'yicha o'zakli tish tayyorlash.
8. Richmond bo'yicha o'zakli tish tayyorlash.
9. L.V.Ilina-Markosyan bo'yicha o'zakli tish tayyorlash.
10. Konsol yoki ko'priksimon protez tayyorlashning klinik va laborator usullari.

Tibbiy atamalar.

1. O'lchov - protez o'rning to'qimalari va shu to'qimalarga yaqin yotgan soxalar rel'efining negativ tasviridir.
2. Model - protez o'rning to'qimalari va unga yaqin yotgan soha rel'efining o'lchovlar buyicha hosil qilingan pozitiv tasviridir.
3. Shtift – o'zak.
4. Qoshiq – o'lchov olinadigan moslama.
5. Amalgama - simobning metall bilan qotishmasi.

Vaziyatli masala.

1. 67 % kumush, 31 % qalay, 2 % mis va 0,03 % rux aralashmasidan iborat qirindi simob bilan qorishtiriladi (4 qism qirindi va 1 qism simob) va xovonchaga yaxshilab eziladi. Gap qaysi amalgama haqida ?

Javob: Kumush amalgama.

2. Kichik plitkachalar xolida ishlab chiqariladi va 32 – 37 % mis, 59 – 66 % simob, 4 -2 % ruxdan iborat bo'ladi. Gap qaysi amalgama haqida ?

Javob: Mis amalgama.

3. Tabiiy tish koronkasi qisman buzilgan, plomba qo'yishning iloji yo'q. Sizning taktikangiz.

Javob: Kiritma qo'yish.

4. Tish toj qismida sezilarli darajada nuqson bor. Tish tojini plomba, qistirma yoki qoplama bilan tiklashning iloji yo'q. Sizning taktikangiz.

Javob: O'zakli tish qo'yish.

Test savollari.

1. Olinmaydigan, doimiy protezlar qaysi qatorda ko'rsatilgan ?
 - a) *Vkadka, ko'priksimon protez
 - b) Vkadka, Byugel protezi
 - c) Byugel protezi, ko'priksimon protez
 - d) Byugel protezi, shtift
2. Olinmaydigan, doimiy protezlar qaysi qatorda ko'rsatilgan ?
 - a) *Shtift, qoplama
 - b) Byugel protezi, ko'priksimon protez
 - c) Byugel protezi, shtift
 - d) Shtift, yoyli protez.
3. Vkladka qanday protez turiga kiradi ?
 - a) Olinmaydigan
 - b) Olib qo'yiladigan
 - c) Qisman olib qo'yiladigan
 - d) Yoyli

4. Ko‘priksimon protez qanday protez turiga kiradi ?
- Olinmaydigan
 - Olib qo‘yiladigan
 - Qisman olib qo‘yiladigan
 - Yoyli
5. O‘zakning minimal kengligi neche mm bo‘lishi kerak ?
- *0,9 mm dan kam bo‘lmasligi
 - 0,3 mm dan kam bo‘lmasligi
 - 0,5 mm
 - 0,8 mm
6. Kim Richmond bo‘yicha o‘zakli tish kamchiliklarini bartaraf etmoqchi bo‘ldi ?
- *L.V.Ilina-Markosyan
 - Richmond
 - V.N.Kopeykin
 - M.Bekmetov
7. Richmond bo‘yicha o‘zakli tish tayyorlashda V.N.Kopeykin qanday qotishmadan foydalanishni taklif etdi ?
- *Xrom-nikel
 - Oltin
 - Mis
 - Po‘lat
8. Shargorodskiy bo‘yicha o‘zakli tishga qanday metall dan halqa tayyorlanadi ?
- *Zanglamaydigan po‘latdan
 - Xrom-nikel
 - Oltin
 - Mis
9. Tishlarni o‘zakli konstruksiyalar bilan davolashda klinik va laborator bosqichning ketma-ketligi ko‘rsatilgan qatorni toping.
- ildizni tayyorlash, o‘zakni ildizga o‘rnatib qurish, qolip olish, modelni quyish va qolipdan uni ajratib olish, kultni modellashtirish, voskni metallga, plastmassaga almashtirish, shlifovka, poliurovka qilish.
 - o‘zakni ildizga o‘rnatib qurish, qolip olish, modelni quyish va qolipdan uni ajratib olish, ildizni tayyorlash, shlifovka, poliurovka qilish.
 - qolip olish, modelni quyish va qolipdan uni ajratib olish, kultni modellashtirish, voskni metallga, plastmassaga almashtirish, shlifovka, poliurovka qilish.

- qolip olish, modelni quyish va qolipdan uni ajratib olish, kultni modellashtirish, polirovka qilish.

10. Kumush amalgama tarkibidaga kumushning miqdori necha %?

- a) 67 %
- b) 55%
- c) 72%
- d) 100%

2.6.2- mavzu:	Tishni charxlash bosqichlari.
----------------------	--------------------------------------

Ma’ruza mashg’ulotini O’qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O’quv mashg’ulotining shakli va turi	Nazariy mashg’ulot
Ma’ruza mashg’ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qisman olib qo’yiladigan plastinkali tish protezlarini tayyorlash. 2. Ilgaklar (klammer) turlari va ularni tayyorlash 3. Polimerlash jarayoni
<p>O’quv mashg’uloti maqsadi:</p> <p>1.Ta’limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko’nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko’nikmalarni amaliyotda qo’llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O’z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e’tiborlilik xissini shakllantirish 	

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchi

<p>1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</p>	<p>Tashkiliy qism 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib koidalari rioya qilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O'quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 30-40. 3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maksadida ulardan kirish testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'kituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarni Prezident buyruklari bilan tanishtiradi, reanimasion bemorlarni parvarish qilishni va ularga psixologik yordamni to'g'ri va samarali olib borish xakida ma'lumot beradi 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Rolli o'yin" usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>. Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollariga javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar. "Rolli o'yin" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib, baxolar e'lon qilinadi. Uyga vazifa: olimaydigan tish protezlari mavzusini o'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1. H.Sh.Rahmonov "Tish texnikasi materialshunosligi"</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

	<p>2. S.Yusupova D.Ashurov “Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz- jag’ travmatologiyasi”</p> <p>3. N.Toshpo’latova “Og’iz bo’shligi kasalliklari”</p>	
--	---	--

<p>Pedagogik vazifalar.</p> <p>Olinmaydigan tish protezlari, mikroprotezlar va briketlar tayyorlash jarayoni. Olinmaydigan tish protezlari, mikroprotezlar va briketlar tayyorlash qoidalari. Ularni qo’yish. Tayyorlash uchun foydalaniladigan mahsulotlar. Kiritmalar tayyorlash. Kiritmalarni o’rnatish. Tish tojidagi kovakni kiritma uchun tayyorlash. Kiritmani shakllantirish. Kiritmalarni o’rnatishda tish texnigining vazifalari. Kiritmalarni tayyorlashda tish toji va qo’shni tishlarni mustaxkam gipsdan, butun tishlar qatorini oddiy gipsdan quyishda tish texnigining vazifasi. Yarim qoplamalarni tayyorlash. Yarim qoplamalarni o’rnatish. Qoplamalarni tayyorlash. Qoplamalarni o’rnatish texnikasi. Tishni charxlash bosqichlari..</p>	<p>O’quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Tinglovchi:</p> <p>-Bemorlarda o’zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, davolovchi xizmatlarini yetkazib beruvchilar va iste’molchilar o’rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, shifokorgacha shoshilinch holatlarni o’z vaqtida tashhishlash, --Birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, o’rnatilgan tartibda hujjatlashtirish, ko‘nikmalarini mustahkamlash;</p> <p>-O’z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma’naviy-xuquqiy me’yorlarga ko‘ra yuritish, konfidensial ma’lumotlar bilan ishlashda shifokorlik etikasi, qonunlar, me’yoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish, shifokorlik sirini saqlash.</p>
<p>O’kitish metodlari</p>	<p>“Baxs-munozara”, “Aqliy xujum”, “Issik kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O’quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli</p>
<p>O’kitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofil’mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.</p>
<p>O’kitish shart sharoiti</p>	<p>Fanga mos jixozlangan o’quv xona.</p>
<p>Qayta a’loqaning usul va vositalari.</p>	<p>Og’zaki so’rov: tezkor so’rov, yozma so’rov, test, misol va mashklar bajarilgan o’quv topshiriklarini baholash</p>

MAVZU: Tishni charxlash bosqichlari.

Dars rejasi:

- I. Qisman olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarini tayyorlash.
- II. Ilgaklar (klammer) turlari va ularni tayyorlash
- III. Polimerlash **jarayoni.**

Olib qo'yiladigan tish protezlarini bir qator klinik va laboratoriya bosqichlaridan iborat:

- Gipsli asl nusxalar quyish va markaziy jipslashuv xolatini aniqlash uchun mumdan asos va tishlov yostiqlarini tayyorlash.
- Jag'larni markaziy jipslashuv xolatidagi munosabatini aniqlash.
- Asl nusxalarni okklyudatorga o'rnatish, gipslash.
- Ilgaklarni yoki protezni ushlab turadigan boshqa turdagi qismlarni tayyorlash, sun'iy tishlarni o'rnatish.
- Mumli protez asosini oxirgi shakllantirish, protezni kyuvettaga gipslash, mumni plastmassaga almashtirish, polimerlash, protezlashni silliqlash va pardoqlash, yaltiratish.
- Lozim bo'lsa protezga oxirgi ishlov, jilo berish.

Olingan qoliplardan laboratoriyada asl nusxalar qo'yiladi. Vrach bilan birgalikda texnik protez chegarasini asl nusxalarda belgilaydi va mum asosli tishlov yostiqlarini tayyorlashga o'tiladi.

Yuqori jag'da qancha tishlar kam qolgan bo'lsa, asos o'lchami kattalashib boradi, tishlar qancha ko'p qolgan bo'lsa asos xajmi kamaya boradi.

Pastki jag'da asos o'lchamlari og'iz daxliziga qaragan yuzada esa yo'qotilgan tishlar soniga bog'liq.

Yuqori jag'da bo'lishi mumkin bo'lgan protez chegaralari.

Yuqori jag'da protez asosi quyidagi eng katta chegaralarga ega.

Lab va lunj tomonlarda yo'q tishlar soxasida o'tish burmasi bo'ylab yo'nalib, xarakatchan lunj tortmalarini va yuqori lab yuganchalarini aylanib o'tadi. Tanglay tomonda asos tish bo'yinlariga tegib, tish toji balandligining 1/3 qismini oldingi va 2/3 qismidagi yon tishlarni qoplaydi. Qattiq tanglayda protez asosi chegarasi A – chizig'igacha ko'r teshiklar orqali, qattiq va yumshoq tanglaylar oralig'idan va do'mboqchalar orqa chetlari bo'ylab o'tadi, bular protezning turg'un bo'lishini ta'minlaydi. Torus ifodalangan xohlalarda gipsli qolipda uning qalayi yoki boshqa folgalar yordamida ajratib, so'ng asos bilan qoplanadi. Mana shu vaqtda asosning tanglay yuzada botiqlik yuzaga keladi.

Protez asosi o'lchamini qisqartirish oldingi tishlar bo'lgandagina, qattiq tanglay oldi qismi ochiq bo'lishi, yon tishlar saqlanib, oldingi tishlar bo'lmaganda asos o'zining orqa qismi xisobiga qisqartirilishi mumkin.

Pastki jag'da bo'lishi mumkin protez chegaralari.

Xuddi yuqori jag'dagi kabi, yo'qotilgan tishlar soxasida protez asosi chegarasi lunj o'tish burmasi bo'ylab, lab burmalari orqali boradi, xarakatchan shilliq parda tortmalari va lab yuganchalarini aylanib o'tadi. Til tomondan protez chegarasi o'tish burmasi bo'ylab til yuganchasini aylanib o'tadi.

Protez asosi yuqori jag'dagidan farqli o'laroq xamma bor tishlar toj qismi balandligining 2/3 qismini qoplab turadi. Bunday xolat protez asosini botishdan saqlaydi va shilliq qavat jaroxatlanishining oldini oladi. Og'iz daxliziga qaragan tomondan yon tishlar soxasida protez asosi o'tish burmasi bo'ylab dumaloqlashib tamomlanadi. Tish qatoridagi nuqson chegaralanmagan bo'lsa, protez asosi pastki jag' do'mboqchasini to'liq qoplaydi. Til tomondan premolyar soxasi alveolyar qismida suyak bo'rtmalari ostidan o'tadi. Asos esa bo'rtmalarni qoplaydi. Texnik gipsli asl nusxani tayyorlagandan keyin vrach kimyoviy qalam bilan bo'lg'usi protez yuqorida bayon etilgan qoidalar asosida chizib beradi. Shundan keyin texnik mumdan asos va tishlov yostiqlasini tayyorlashga kirishadi.

Mumdan asos va tishlov yostiqlasini tayyorlash.

Ortopedik stomatologiyaning qonuniyatlariga asosan xamma tish protezlari tish qatorlarining markaziy jiplashuv xolatidagi munosabatlarga muvofiq tayyorlanadi. Buning uchun texnik yassi parchali asos uchun mumdan foydalanadi. Mum yassi parchasining bir tomoni spirtli idish alangasida yumshatiladi va isitilmagan yuzasi bilan gipsli asl nusxalarga protez chegarasi bo'ylab tanglay yuzasiga va alveolyar o'siqning tishsiz yuzalariga qo'yib, bosh barmoq bilan bosib chiqiladi. Qizitilgan shpatel yordamida asl nusxada qalam bilan chizilgan chegara bo'ylab mum kesib olinadi. Og'iz bo'shlig'ida mum yumshab, o'zgarmligi uchun uni sim bilan maxkamlanadi. So'ngra tishlov yostiqlasini tayyorlashga o'tiladi. Ularni xam asos uchun yassi parchali mumdan tayyorlanadi. Yassi parchaning ikki tomoni xam isitilib yumaloqlanadi, yostiqla shakliga keltiriladi va mum asosini tishsiz bo'sh joyga o'rnatiladi (vaqtni va xom ashyoni tejash maqsadida oldingi mumlardan tayyorlab qo'yilsa bo'ladi). Ular yaxlit, balandligi 1-1,5 sm, eni 1 sm keladigan yostiqlalar alveolyar o'simta markazi bo'ylab aniq joylashtirilishi shart. Tabiiy tishlar bo'lganda yostiqlalar mum asosiga qizdirilgan mum yordamida yopishtirib chiqiladi. Yostiqlalar yuzasi va asos qizdirilgan shpatel yordamida tekislanadi.

Jag'larning markaziy jiplashuv xolatidagi munosabatini aniqlash.

Markaziy jiplashuvni aniqlash uchun vrach, yostiqlalarga qizdirilgan mum tasmagini yopishtiradi (yoki yostiqla ustki yuzasi isitilgan shpatel yordamida yumshatiladi) va asl nusxadan mum asosli tishlov yostiqlasini olib spirt yordamida artib bemor og'ziga kiritiladi. Jag'lar birikkan vaqtda yostiqlalar yuzasida qarama-qarshi turgan tishlar izi qoladi.

Oldingi gurux tishlar bo'lmaganda vrach tishlov yostiqlasida o'rta chiziqni va oldingi tishlarni tanlash va terish uchun qoziq tish o'rnini va kulgi chiziqklarini chizadi. Shu qoidalar asosida markaziy jiplashuv xolati aniqlanadi. Avval tishlov balandligi, so'ngra jag'larning markaziy jiplashuv xolatidagi munosabati topiladi.

Tishlov balandligini aniqlash uchun bemorning ko'nikkan balandligini fiziologik nisbiy tinchlik davridagi balandligini aniqlagan xolda va unga asoslanib ish yuritish lozim. Fiziologik nisbiy tinchlik davridagi balandligini aniqlash uchun bemordan og'zini yopishni, bu vaqtda lablarni, og'iz atrofidagi mushaklarni taranglamasdan berkitishni so'raladi. Shundan keyin burun asosi bilan iyak osti oralg'idagi balandlik o'lchanadi. So'ngra topilgan balandlikni qog'ozga yoki mum yassi parchasiga belgilab qo'yiladi va mum asosli tishlov yostiqchalarini moslab, yostiqchalar ustini qizdirilgan shpatel yordamida yumshatilib, markaziy jiplashuv xolatini aniqlash uchun og'iz bo'shlig'iga kiritiladi. Shu narsa ayonki, nisbiy tinchlik davrida yuqori va pastki jag' alveolyar o'simtasi orasidagi balandlikdan 2 - 3 mm ga ortiq . Shu sababi og'iz bo'shlig'iga kiritilgan mum asosli tishlov yostiqchalarini jiplashgandagi balandligi 2 - 3 mm ga past qilinadi. Lozim bo'lsa sun'iy tishlar terish uchun taxminiy chiziqlar mumli asos va tishlov yostiqchalariga chiziladi.

Asl nusxalarni okklyudatorga o'rnatish va gipslash.

Gipsli asl nusxalarni markaziy jiplashuv xolatida saqlash uchun ularning mum asosli tishlov yostiqchalaridagi izlar bo'yicha ustma - ust joylashtiriladi va gugurt cho'plari va mum yordamida bir-biriga maxkamlab qo'yiladi. So'ngra asl nusxadan ortiqcha gipslar kesib tashlanadi. Bunda okklyudator balandligida o'zak maydonchaga qadalib turishi kerak. So'ngra gips qorishtirilib stolning tekis yuzasiga qo'yiladi va unga okklyudatorning pastki romi botiriladi. Yana ozgina gips qo'yib bunga o'zaro biriktirilgan asl nusxalar markazlashtirilib o'rnatiladi va xamma tomondan silliqlab chiqiladi. Shundan keyin yuqori romi tushiriladi. So'ngra gips bilan asl nusxa asosini va romini berkitguncha silliqlab chiqiladi. Bu vaqtda balandlik o'zagi doimo maydonchaga tirilib turishini va surilib ketmasligini kuzatib borish zarur. Gips qotgandan so'ng asl nusxalarni maxkamlab turgan gugurt cho'plar olinadi. Gipsli tishlar sinib ketmasligi uchun extiyotlik bilan okklyudator ochiladi va mum asosli tishlov yostiqchasini asl nusxa ustidan olinadi.

Ilgaklar (klammer) turlari va ularni tayyorlash.

Ilgaklar og'iz bo'shlig'ida protezlarni muayyan xolda mustaxkam turishi uchun keng qo'llaniladigan moslamadir. Protezni muayyan xolda saqlash (fiksatsiya) deganda uni og'iz bo'shlig'ida tinch xolatida va so'zlashganda turishi, mustaxkamlash (barqaror qilish) deganda esa protezning og'iz bo'shlig'ida chaynash vaqtida turg'unligi tushuniladi.

Klammer - nemischa so'z bo'lib ilgak mazmunini anglatadi. Ilgaklarning quyidagi turlari tafovut qilinadi:

1. Qanday xom ashyodan tayyorlanganiga qarab: metall, plastmassali, metal-plastmassali.
2. Turar joyiga nisbatan: tishlarga, milkka (pelotlar) va tish-milkka.
3. Shakliga qarab: dumaloq, yarim dumaloq, tasmasimon.

4. Tayyorlash usuli bo'yicha: ezib tayyorlanadigan, egib tayyorlanadigan, to'la quyma.
5. Vazifasiga qarab: ushlab turuvchi, tayanib turuvchi, tayanib ushlab turuvchi.
6. Tish tojiga o'rnashib turishiga qarab: bir yelkali, ikki yelkali, xalqasimon, oshib o'tuvchi, ko'p bo'g'imli (zvenoli).
7. Asos bilan birikish usuliga qarab: qattiq yoki turg'un, prujinasimon yoki yarim xarakatchan va bo'g'im yoki xarakatchan bo'lib birikadigan turlarga bo'linadi.

Ilgaklarlar xrom- nikel, xrom- kobalt va oltin qotishmalaridan egib quyib tayyorlanadi. Tayanch tishga qoplama faqat shikastlanganda, karies bilan buzilanda, anatomik shaklini yaxshi ifodalangan vaqtida, noto'g'ri joylashganda kiygiziladi. Boshqa vaqtlarda dumaloq va yarim dumaloq ilgaklar tayanch tishlarga qoplama kiygizmasdan xam o'rnatilishi mumkin. Xalqasimon ilgaklar faqat tayanch tishda metalli qoplama bo'lgandagina qo'llaniladi. Chunki yaxshi prujinalanmaydi, tish emalini yemirib yuboradi, uning shikastlanishiga sabab bo'ladi. Olib qo'yiladigan protezlarning muayyan xolda saqlanishi, ayniqsa mustaxkam tayanch tishlar soniga, ilgaklar joylashishiga, tish qatori nuqsoniga bog'liqdir. Protezda faqat bitta ilgak, faqat bittagina tishga joylashgan bo'lsa, bu tayanch faqat bir nuqta bo'ylab xizmat qiladi. Bunday mustaxkamlash juda xam maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Uni nuqtali mustaxkamlash deb yuritiladi. Protezda ikkita ilgak chiziq bilan birlashtirilishi mumkin, uni chiziqli mahkamlash deb yuritiladi. Bunda diagonal, transversal va sagittal ilgak chiziqlari farqlanadi. Diagonal ilgak chizig'i protez asosini diagonal bo'yicha ikki teng bo'lakka bo'ladi. Masalan, bitta ilgak birinchi kichik oziq tishda joylashgan, ikkinchisi esa chapdan ikkinchi katta oziq tishda. Mana shunday ilgak chiziqlari yuqori jag' olib qo'yiladigan protezlari uchun eng qulay hisoblanadi. Transversal ilgak chizig'i esa pastki jag'da olib qo'yiladigan yassi parchali protezlarni muayyan holda saqlash uchun qulay hisoblanadi. Masalan, har ikkala birinchi kichik oziq tishlarda. Agar shunday bo'lsa protezning richagsimon harakatlarida tishlarning qimirlab qolishidan saqlaydi. Sagittal ilgak chizig'i esa bir tomonida faqat ikkita tish tayanch vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan hollardagina qo'llaniladi va nuqtali mahkamlashdagi kabi foydalaniladi. Ba'zi vaqtlarda protezda uchta va undan ko'proq ilgaklardan foydalaniladi. Bu turdagi mahkamlash uchburchak ko'rinishida, trapetsiya ko'rinishida va o'zga ko'rinishlarda bo'ladi. Bunday turdagi ilgaklar joylanishi tish qatorlari nuqsonlarini yoyli protezlar bilan to'latishda qo'llaniladi. Protezda ilgaklarni taqsimlash vrach tomonidan tayanch tishlarni tanlash asosida bajariladi. Tayanch tish toji yaxshi ifodalangan anatomik shaklga ega, toji kerakli balandlikka ega bo'lishi kerak va h. k. Shuning bilan birga tayanch tishlar tanlashda boshqa tishlar bilan uning parallelligini va qarshi turgan tishlar bilan o'zaro munosabatlari ahamiyatga egadi.

Bir yelkali sim ilgakni bukish usuli.

Dumaloq bir yelkali ushlab turuvchi ilgaklar keng qo'llaniladi. Ularning quyidagi qismlari:

1. Tishni lunj (og'iz dahlizi) tomondan qamrab turuvchi halqa.
2. Protez asosida birlashtirilib yuboriladigan o'ciq.
3. Tanasi ilgak yelkasini o'siq bilan biriktiruvchi qism farqlanadi.

Ilgakning prujinaluvchi qismi qanchalik katta bo'lsa, protez shunchalik elastik bo'ladi va uning tayanch tishga ko'rsatadigan zararli ta'siri shunchalik kamayadi. Ilgak yelkasi tishning nuqtaviy bog'lanish sohasining ostidan boshlanadi, u tishning eng ko'p nuqtalar bo'yicha tegib turishi, protez harakatlarida prujinasimon, tayanch holatda tishga bosim bermasligi, yelka uchi qarama-qarshi tomon nuqtaviy bog'lanish darajasida bo'lishi, dumaloqlangan va pardoqlangan bo'lishi kerak. Ilgak tanasi tishning yon yuzasi ekvatorida tish qatori nuqsoni tomonga yo'naladi. Ilgak tanasi qanchalik yaxshi bukilsa, u shunchalik elastik bo'ladi va tayanch tishga shuncha kam zararli ta'siri bo'ladi. Ilgak o'siqchasi protez asosi orasiga sun'iy tishlar ostiga kiradi, alveolyar o'sig'i qirrasiga parallel holatda 1,0 - 1,5 mm undan ichkarida joylashadi va ilgakni asos bilan birlashtiradi.

Sanoatda simli ilgaklar uchun o'lchami 0,5 - 1,2 mm gacha o'yilgan va bir uchi pachoqlangan (plastmassa yaxshi tutib turishi uchun) va bu yuzada kesmachalar qilingan taxlitdagi ilgaklar yarim tayyor holda chiqariladi. Agar ular bo'lmasa o'lchovi to'g'ri keladigan barcha zanglamas po'latdan iborat simlardan ham ilgak uchun foydalanish mumkin. Ilgakni bukishda yumalok jag'li ombur yoki krampon omburlaridan foydalanish mumkin ular yordamida simga kerakli shakl beriladi. Ilgak yelkasi uchlarini dumaloqlaydigan egov, ilgak o'sig'ini yassilaydigan bolg'acha va sangdon qo'llaniladi. Ilgak tayyorlash sim uchini egovlab dumaloqlashdan boshlanadi. Ilgak asl nusxadagi gipsli tishga moslab bukiladi. Ilgak yelkasini omburlar yordamida shunday egiladiki, u tish vestibulyar yuzasini ekvator ostidan o'rasin, tish bo'yni chizig'ini aks ettirgan holda milikka tegmasligi lozim. Bog'lanish nuqtada chaynov yuzada yoki kesuvchi qirraga deyarli yetishi bilan ilgak tanasi boshlanishini hosil qiladigan ikkinchi bukilma qilinadi, bu tishning yon yuzasida tish ekvatoriga zich tushadi.

Uchinchi bukish o'siqqacha ikkinchi bukishga to'g'ri burchak holida shakl beradi va uni alveola o'siqchasining tishsiz qism bo'ylab sun'iy tishlar ostida asos ichiga yo'naladi. Agar ilgak bir taxlitdagi yarim tayyor ilgaklardan bukilayotgan bo'lmasa, o'siqcha uchini bolg'a bilan yassilab, egov yordamida kesmachalar qilinadi.

Ikki yelkali sim ilgakni bukish usuli.

Ikki yelkali ilgaklar bir yelkali ilgaklarga nisbatdan tayanch tishni kam shikastlantiradi va protezni mahkamlanishiga, muayyan holda saqlashga yaxshi yordam beradi. Ikki yelkali ilgaklar bir yelkali ilgaklardan shu bilan farq qiladiki, u

tishni og'iz bo'shlig'iga va og'iz dahliziga qaragan yuzalari tomonidan qamrab turadi.

Ilgakni bir bo'lak simdan bukib yoki ikkita bir yelkali ilgaklardan ulab, yasash mumkin. Bir bo'lak simdan tayyorlashdan avval og'iz dahlizi tomondagi yelkasi, undan keyin tanasi bukiladi. Ilgaklar tanasi aproksimal tomondan tish ekvatori ustida joylashishi kerak. So'ngra tishni og'iz bo'shlig'i tomondan qamrab turgan yelkasi bukiladi. Ikki yelkali ilgakka uchi ezilgan va plastmassa asosga yaxshi birikadigan kesmachalar qilingan o'siqcha kavsharlanadi. Biroq, sim kavsharlash natijasida o'zining taranglik xususiyatini yo'qotadi, bu esa uning salbiy tomoni hisoblanadi.

Uzluksiz sim egish usuli.

Uzaytirilgan yelkali ilgak ikkita yonma-yon turgan tishni og'iz dahliziga qaragan yuzalarini o'rab turadi. Uzluksiz ilgakli protezlarning turg'unligi ortadi. Shuning bilan birga ko'p yuklanishdan saqlaydi. Uzunligi 34 sm va o'lchovi 0,61 mm gacha bo'lgan sim uchi dumaloqlanib, tayanch tish va nuqsonni chegaralab turgan ikkinchi tishga ham og'iz dahliziga qaragan yuzalariga ilgak yelkasi egiladi. Uzaytirilgan yelkali bunday ilgakning tanasi tish qatori nuqsonini chegaralab turgan tayanch tish yon yuzasiga egiladi va o'siqchasini asos ichiga sun'iy tishlar ostiga bukib yo'naltiriladi.

Milkka tiralib turadigan kanotsimon ilgaklar tayyorlash usuli.

Oldingi guruh tishlarga o'rnatilgan metalli ilgaklar estetik jihatdan ko'pincha yaxshi natija bermaydi. Shuning bilan birga tayanch tish turg'unligi ham buzilishiga olib keladi. Bunday vaqtlarda va tishlar qimirlaganda olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarini mahkamlash uchun milkka tiralib turgan qanotsimon ilgaklar (pelotlar) dan foydalanish mumkin. Ularni po'lat simdan va ko'pincha plastmassadan tayyorlanadi.

Simdan egib tayyorlanadigan ilgakning bir uchi protez asosi, sun'iy tishlar tagiga kiritiladi, bir uchiga esa milkka zarar yetkazmaydigan qilib yassi oval shaklni mum yordamida beriladi va uni alveolyar o'siqning milk ustiga chiqariladi.

Plastmassali pelotlar tishlar terib bo'lingach va protez tuzilishi og'iz bo'shlig'ida tekshirilgandan keyin gipsli asl nusxada yon tishlar sohasida alveola o'sig'ining og'iz dahliziga qaragan tomonida yaxshi bilinib turadigan chuqurchalar joylashgan joylarida mumdan milk ilgaklari shakllantiriladi. Ular sun'iy milk davomi hisoblanib, o'tish burmasiga borib va dumaloqlangan chetlari bilan markaziy va yon kesuvchi tishlar oraliq'i ustida tamomlanadi.

Polimerlashdan so'ng diqqat bilan pelot uyalari dumaloqlanadi va pardoqlanadi.

Kemeni bo'yicha tish milk ilgaklarini tayyorlash usuli.

Bunday ilgak ikki qismdan iborat bo'lib bir qismi alveolyar o'siqning og'iz dahliziga qaragan tomonida, ikkinchi qismi qolgan tayanch tishlarning og'iz

dahliziga qaragan tomoni bo‘yin qismida joylashgan bo‘ladi. Ilgak venger olimi nomi bilan ataladi.

Bunday ilgaklar nuqson bilan chegaradosh 23 tishlarni o‘rab turadi, Bu esa protezning jag‘da yaxshi turishiga yordam beradi, tishlarni taxtakachlaydi, bu bilan yuklanishni oldini oladi. Shuning bilan birga bunday ilgaklar estetik yaxshi natija beradi. Chunki ilgakning o‘zi plastmassadan iborat bo‘lib, uning milkda joy oladigan qismi pushti milk rangida. Tish bo‘yni oldidagi qismini esa tish emali rangiga mos plastmassadan pishiriladi.

Tishlar terilib va ilgaklarsiz protez tuzilishi bemor og‘iz bo‘shlig‘ida tekshirilgandan so‘ng mum asosli tish protezi asl nusxaga o‘rnatiladi, ilgak chegaralarini qalam bilan belgilab, ularni mumdan shakllantirishga o‘tiladi. Ilgakning alveolyar qismi o‘tish burmasi bilan va ilgak uchun belgilangan tishlar bo‘yni oralig‘ida joylashadi, tish qismi esa milk chetidan tish ekvatoriga boradi. Ilgakning alveola qismi kengligi 46 mm, qalinligi 2 mm, tish qismi kengligi 1,5 - 2,0 mm, qalinligi 0,5 - 1,0 mm dan iborat.

Alveola qismini o‘tish burmasiga o‘tish cheti dumaloqlashtiriladi, tish qismi chetiga tish ekvatori shakli beriladi va ilgakni surilishdan va shakl o‘zgarishdan saqlash uchun asl nusxaga yopishtirib qo‘yiladi. Asl nusxa teskari usulda kyuvetaga gipslanadi, mumli ilgak eritib chiqariladi, uni tish bo‘yni qismini emal rangida va alveola qismi pushti plastmassa bilan koplanadi.

So‘ngra kyuveta iskanja ostida qisiladi va qayta ochilib plastmassaning joylanishi tekshiriladi. Agar ilgakning tish qismiga pushti plastmassa tushgan bo‘lsa uni tish bo‘ynigacha kesiladi, emal rangiga xos plastmassa bilan almashtiriladi va yangitdan iskanja ostiga olinib qisiladi, va yoy (byugel) romga mahkamlanadi. So‘ngra odatdagidek polimerlanadi, ishlov beriladi, pardoatlanadi.

Ilgaklar quyish usulida ham tayyorlanishi mumkin. Buning uchun **asl** nusxalarda bo‘lajak ilgakning mum **shakli** yasaladi. Mumdan yasalgan ilgakning yaxshi qotishi uchun **asl** nusxa bilan birgalikda darhol sovuq suvga solib qo‘yiladi, so‘ngra quyish sexida odatdagidek maxsus pechlarda ilgak quyiladi. Agar ilgak oltin qotishmasidan tayyorlanadigan bo‘lsa, tish texnigining o‘zi quyib tayyorlay olishi mumkin. Buning uchun 750-probali oltin qotishmasi ishlatiladi. Agar bu qotishma tarkibiga 8-10 foiz platina qo‘shilgan bo‘lsa, ilgakning mustahkamligi hamda prujinasimon harakatlari ortadi.

Olib qo‘yiladigan yassi parchali protez asosida torus va ekzostozlarni ajratish usuli.

Agar bemorning jag‘ suyaklarida bo‘rtgan tanglay bolishi (torus) va pastki jag‘ning til tomonida kichik oziq tishlar sohasidagi suyak bo‘rtmalari (ekzostoz) bo‘lsa, bu anatomik tuzilmalar nusxasini aniqroq olishga harakat qilish lozim.

Quyilgan asl nusxalarda vrach bu tuzilmalarni kimyoviy qalam bilan belgilaydi va ajratish uchun folga qalinligi ko‘rsatiladi. Agar tish tuzilmasi joy olgan yerni tish protezi asosida ajratib quyilmasa, keyinchalik bemorning og‘iz bo‘shlig‘i protez o‘rnida yaralar, o‘yiqalar hosil bo‘lishiga, og‘riq kuchayib tish protezidan foydalana olmaslikka olib keladi. Asl nusxada suyak bo‘rtmalarini ajratish uchun

qalay, qo'rg'oshin yoki qalinligi 0,2-0,4 mm va bundan ko'proq bo'lgan folga qo'llaniladi. Belgilab berilgan suyak bo'rtmalari o'lchami va shaklida metallga qo'llaniladigan qaychilar yordamida folga yassi parchali kesib olinadi va hamma ish bop yelim bilan asl nusxaga yopishtiriladi. Polimerlash tugagandan so'ng folga protez ichki yuzasida qoladi, u joydan protez pardoqlangandan so'ng olib tashlanadi. Hosil bo'lgan chuqurcha chetlari silliqlanadi.

Mana shu yo'l bilan hosil qilingan torus va ekzostozlarni ajratish, protez asosining protez o'rniga zich yopishib turishini, og'riq sezgilar, protez sinishining oldini oladi. Shuning bilan birga protezning o'z o'rnida muayyan holda turg'un turishini ta'min etadi.

Sun'iy tishlarni o'rnatish.

Olib qo'yiladigan yassi parchali tish protezlari uchun to'la quyma metalli, plastmassali va chinnili sun'iy tishlar ishlatiladi. Sun'iy tishlarni tanlash va o'rnatish vrach ko'rsatmasi asosida bo'lishi lozim.

Plastmassaning kelib chiqishi, butunlay sun'iy chinnili tishlar o'rnini egallaydi. Buning juda asosli sabablari bor. Avvalo plastmassali sun'iy tishlar, shu plastmassadan bo'lgan asos bilan kimyoviy mustahkam birikadi. Shuning bilan birga ularni tayyorlash jarayoni deyarli oddiy va rangi tabiiy tishlarnikidek va h. k. Ammo plastmassali sun'iy tishlar kamchiliklardan xoli emas. Vaqt o'tishi bilan rang o'zgarishi va yedirilishi mumkin. Bu esa o'z vaqtida tishlov balandligi pasayishiga va h. k. asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Chinni sun'iy tishlarda bunday xususiyat yo'q. Shu tufayli hozirgi paytda yana ko'proq chinnili tishlar qo'llanilmoqda. Shunday qilib, u vrach tish texnigi uchun teriladigan tish rangi, o'lchami, tish shakli haqida ma'lumot beradi va shu asosda laboratoriyada quyidagi ishlar bajariladi.

Tishlar katta-kichikligini tish texnigi saqlangan tabiiy tishlar, al'veola o'sig'i shakli va katta-kichikligi, tishlov holatiga qarab tanlaydi. Yuqori jag'ning hamma oldingi guruh tishlari bo'lmaganda, vrach tomonidan markaziy okklyuziyani aniqlashda kiritilgan belgilar yordamida, qoziq tishlararo chiziq bo'yicha tishlar kengligi, pastki mum asosli tishlov yostiqchasidagi va kulgi chizig'i oraliq'i bo'yicha esa, tishlar balandligini tanlaydi. So'n'iy tishlar tanlab olingach, ularni terish uchun asl nusxani tayyorlaydi. Buning uchun mumli asos yasaladi, uning chegarasi protez chegarasidan birmuncha kengroq qilinadi, chunki mum asosni protez o'rnini buzmasdan asl nusxaga yopishtirish lozim. Mum asos simli yoy bilan mahkamlanadi. Eritilgan mum bilan 3-4 mm qalinlikdagi mum yostiqcha asosga yopishtiriladi.

Uning tashqi cheti alveola o'sig'i o'rtasi darajasida bo'lishi kerak. Shundan keyin mumli asosga ilgaklar o'rnatiladi va tishlar terishga o'tiladi. Tishlarni terish oldingi guruhdagi tishlardan boshlanadi. Sun'iy tishlar tabiiy ko'rinish hosil qilishi uchun ularni alveola o'sig'iga, asl nusxada bo'lgan gipsli tishlarga qarab, charxlab moslanadi. Yuqori jag' kichik oziq tishlar ham milkka zich qilinib yedirib o'rnatiladi.

Sun'iy tishga oldin kerakli kenglik beriladi, so'ngra milkka uni moslanadi va oxirida tishlovni ko'tarib qolmaydigan qilib zich bog'lanish hosil qilish uchun qarshi turgan tyshlarga moslanadi. Sun'iy tishlarni charxlab moslash shlifmotorda karborund toshlar bilan, agar lozim bo'lsa bor mashinada frezlar, olmosli aylanmalar bilan bajariladi. Shlifmotorda ishlaganda ishlov beradigan tish yaxshi ko'rinib turishi uchun har ikkala qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari orasida mahkam ushlab kerak.

Mumli asos yostiqtasini shpatel bilan yumshatilib, unga markaziy, so'ngra kesuvchi tishlar, qoziq va boshqalar o'rnatib yopishtiriladi. Sun'iy chaynov tishlarni sun'iy milkka, qarshilariga moslab chaynov yuzasini charxlab o'rnatiladi. **Sun'**iy tishlar chaynov yuza do'mboqchalari qarshi tishlarning mos keladigan chuqurchalariga kirishi shart.

Chinni tishlarni terish katta ehtiyotkorlik talab qiladi, ularni to'xtab-to'xtab, bosmasdan charxlash lozim. Aks holda tishlar darz kyotib, oxirida sinishga olib keladi. Kramponlarni charxdan ehtiyot qilish zarur, bo'lmasa ular protez asosi bilan mustahkam birikma hosil etmaydi. Har bir charxlab moslangan tish alveola o'sig'i o'rtasiga mos holda mum yostiqtasiga yopishtirib o'rnatiladi.

Tishlar terishning yana bir usuli: agar alveolyar o'simta yaxshi ifodalangan bo'lsa, old guruh tishlar sun'iy milksiz asosga o'rnatiladi. Buning uchun har bir sun'iy tishning bo'yin qismi alveolyar o'simtasining milk chetiga zich yopishib turishi uchun tishlar yaxshilab yedirib moslanadi. Qolgan ishlar tartibi xuddi yuqorida alveolyar o'simta ko'proq siyqallangan vaqtda tishlar terish uslubidek davom ettiriladi.

Tishlarni terib bo'lgandan va ularning qarshilari bilan munosabatlarini sinchiklab tekshirilgandan so'ng tishlar oralig'idagi ortiqcha mum olib tashlanadi, tishlar bo'inigacha tozalanadi. Mumli asos va sun'iy milklar shakllantiriladi. Shakllangirish tugagandan so'ng, mumli asos, ilgaklar va tishlar bilan birgalikda osonlikcha asl nusxadan ko'chirib olish kerak.

Bemor og'iz bo'shlig'ida mumli protez asosini tekshirish.

Tishlar terilgandan keyin mum asosli protezni klinikada vrach bemor og'iz bo'shlig'iga kiritadi. Markaziy jiplashish holatining to'g'ri aniqlangani, old va katta oziq tishlarning qanday terilgani ularni rangi, shakli katta-kichikligi tekshirib chiqiladi. Shuning bilan birga ilgaklarning joylashishini va har turli jag' harakatlarida ko'p bog'lanish borligiga ahamiyat beriladi. Bu vaqtda ko'p kamchiliklarni aniqlash mumkin. Ularni darhol tuzatish lozim. Protez tuzilishini tekshirib kamchiliklar tuzatilgandan keyin asl nusxaga o'rnatilgan mum asosli protez okklyudator bilan birgalikda laboratoriyaga qaytariladi.

Mumli protez asosiga oxirgi ishlov berish va uni plastmassaga almashtirish usuli.

Vrach ko'rsatmalarini e'tiborga olgan holda tish texnigi qizitilgan mum bilan sun'iy **milk** chetlarini asl nusxaga yopishtirib chiqadi. Asos ichida yotuvchi sim yoy

olib tashlanadi. Mum asos qalinligi bir tekis **bo'lmasa**, uni hamma sun'iy tishlar sohasi bo'yicha qizdirilgan **shpatel** bilan kesiladi va 1,5-2 mm yangi mum plastinkasi o'rnatiladi uning chetlari o'ziq chegarasi bo'ylab tekislanib ortiqcha mum olib tashlanadi, asos sathi silliqqlanadi. Ayniqsa tishlarni mumdan yaxshilab tozalash kerak, aks holda polimerlashdan so'ng asos uchun plastmassa tishlar yuzasida bo'lib qolishi yoki ularning shakl o'zgartirishi, surilib qolishiga olib **kelishi** mumkin. Pastki jag' protezi katta pishiqlikka ega bo'lishi **uchun** yuqoriga nisbatan 1 mm ga qalin bo'lishi va o'rtacha qalinligi 2,0-2,5 mm ga yetishi kerak.

Mum asosli protezni plastmassali asosga almashtirish uchun ularni kyuvetaga gipslanadi. Gipslashning uch usuli farqlanadi: to'g'ri, teskari va qo'shma. To'g'ri usulda asl nusxa, sun'iy tishlar va ilgaklar kyuveta asosida qoladi, teskari usulda kyuveta asosida faqat gipsli asl nusxa qoladi, sun'iy tishlar va ilgaklar uning yuqori qismiga kontrkyuvetaga o'tadi. Qo'shma usulda esa kyuveta asosida **asl** nusxa, old guruh sun'iy tishlar va ilgaklar qoladi, kyuveta yuqori qismiga esa yon tishdar o'tadi.

To'g'ri usulda gipslash.

Asl nusxalar pastki jag' harakatini yuzaga keltiruvchi moslamalardan ajratilib, ularning asosini kyuveta balandligida kesib chiqiladi. Odatda asl nusxalar kyuveta asosiga joylashtirilganda, sun'iy tishlar kyuveta devori balandligidan pastroq turadigan bo'lishi kerak. Ilgak turgan gipsli tishlarni bir oz kesib chiqiladi. Bu esa ilgak yelkasining gipsga yaxshi kirishi uchun sharoit yaratadi. Shundan keyin asl nusxalar namlanadi, gips qoriladi va u bilan kyuveta asosi to'ldiriladi.

Asl nusxa asosi bilan kyuveta tubiga yetgunicha botiriladi va siqib chiqarilgan gipsdan tishlar ustida yostiqlar hosil qilinadi. Tishlarning og'iz dahliziga qaragan yuzasi, kesuvchi qirrasini va chaynov yuzasi gips bilan yopiladi, faqat yuqori jag'da tanglay va pastki jag'da til yuzalari ochiq qoladi.

Shunday qilib, hamma tishlarni yopib turuvchi gips yostiqlar hosil qilinadi. Yostiqlar katta oziq tishlar oldida qalinroq va old tishlar ustida esa yupqa bo'lishi, yetarlicha pishiq, tekis va silliq, ilinadigan joylarisiz bo'lishi kerak. Gips qotgandan so'ng kyuveta qirralari tozalanadi va keyingi quyiladigan gipsdan ajratish uchun bir necha daqiqa sovuq suvga solib qo'yiladi va kyuvetaning yuqori qismi qopqoqsiz o'rnatiladi, ichini esa suyuq gips bilan to'ldiriladi. Bu vaqtda havo pufaklari hosil bo'lmasligi uchun kyuvetani tebratib turiladi va bir ozdan keyin kyuveta qopqog'i zich qilib yopiladi, iskanja ostiga qo'yiladi, siqiladi, ortiqcha gips olib tashlanadi. Gips qotgandan so'ng kyuveta qismlari, ular orasiga shpatel yoki gips pichog'i qo'yib, richagsimon harakatlar qilinib ehtiyotlik bilan ajratiladi.

Kyuvetani yuqori qismi asta olinadi, bunda faqat gipsli izlar bo'ladi. Pastki qismida esa gips bilan qoplangan ilgak va tishlar hamda asl nusxa qoladi. Kyuvetaning har ikki qismi zichlanmasdan yopilib, maxsus panjarasimon tutqichga o'rnatiladi va uni suv qaynab turgan idishga tushiriladi. Mum butunlay erib oqib chiqquncha ushlab turiladi. Bu vaqtda gipsli yostiqlarning yupqa chetlari sinmasligini, sun'iy tishlar o'z joylaridan chiqib ketmasligini, suv ostida asl nusxa gipsning zararlamasligini kuzatib borish lozim.

Yuqorida bayon qilingan usulda gipslash asosan kauchuk asosli protezlarni tayyorlashda foydalanilgan. Shuning bilan birga olib qo'yiladigan yassi parchali protezlar sun'iy milksiz tayyorlanayotganda shu gipslash usuli qo'llaniladi.

Teskari usulda gipslash.

Bu usul asosan plastmassali protezlar tayyorlash uchun qo'llaniladi. Ish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Gipsli tishlar og'iz dahliziga qaragan tomondan asl nusxa sohasigacha qiya qilib kesiladi. Shu kabi ilgak turgan tishlar ham uning yelkasini ajratish uchun kesiladi va asl nusxa bir necha daqiqaga suvga solib qo'yiladi. Gips qoriladi va u bilan kyuvetaning ustki kismi to'ldiriladi va unga asl nusxa asosi sun'iy milk chetigacha botirib o'rnatiladi, faqat asl nusxaning o'zi gipslab qo'yiladi. Milk, tishlar va tanglay gipsdan xoli qoldiriladi. Gips qoriladi va kyuveta asosi to'ldiriladi, havo pufakchalari bo'lmasligi uchun oz-ozdan solib, kyuveta tebratib turiladi. Kyuvetaning qopqog'i yopiladi va iskanja ostiga qo'yib siqiladi. Ortiqcha gips siqib chiqariladi. Gips qotgandan so'ng kyuvetani qaynab turgan suvga mum yumshagunicha solinadi. Mum yumshaganini suv betiga erigan mum chiqishidan bilinadi. Mum yumshagandan keyin kyuvetani suvdan olinadi va richagsimon harakatlarda ostida kyuveta shpatel bilan oson ochiladi. Kyuveta ochilgandan so'ng uning ustki qismida asl nusxa, asosida esa sun'iy tishlar, ilgaklar va yumshagan mum asos qoldig'i bo'ladi. Bunda sun'iy tishlarning kesuv va chaynov yuzalari kyuveta asosining tubiga, tishlarning bo'yin qismi esa yuqoriga qarab turadi. Yumshagan mumli asos ajratib olinadi va qaynoq suv bilan mum qoldiqlari yuviladi.

Qo'shma usulda gipslash.

Bu usul oldingi tishlar sun'iy milksiz terilganda yoki oziq tishlar o'simta qirrasiga yaqin o'rnanishgan hollarda qo'llaniladi. Oldingi sun'iy milksiz terilgan tishlar gips bilan yopiladi. Yon tishlar esa ochiq qoldiriladi. Gips qotgandan keyin kyuvetaning asosini sovuq suvga bir necha daqiqaga solinadi va kyuvetani suvdan olib, ustiga qopqoqsiz kyuvetaning yuqori qismini o'rnatiladi. Uning ichini suyuq qorilgan gipsdan solib to'latiladi. Qopqoq yopilib, kyuveta iskanja ostida qisiladi.

Ortiqcha, siqib chiqarilgan gips olib tashlanadi. Gips qotgandan so'ng mum eritiladi. So'ngra kyuveta ochiladi. Kyuveta asosida gipsli asl nusxa, oldingi guruh gipsli va sun'iy tishlar, shuningdek gips bilan qoplangan ilgaklar, kyuvetaning ikkinchi qismida esa oziq tishlar va sun'iy milklar izi o'tadi. Qoldiq mumlardan tozalanadi va plastmassa joylash uchun tayyorgarlik ko'riladi.

Polimerlash jarayoni.

Plastmassa monomerini gips o'ziga shimdirmasligi uchun mumdan tozalangan kyuveta qismlari ichidagi gips ustiga ajratuvchi «Izokol» loki yupqa qavat qilib surtiladi. Kyuveta sovitilgandan so'ng yana cho'tkacha yordamida ajratuvchi qavat surtiladi va qoliplash uchun plastmassa tayyorlash boshlanadi.

Hamma ishlarni havo soʻrib oluvchi moslamalar ostida bajargan afzal. Chunki plastmassa monomeridan tarqaluvchi zarrachalar zararlidir. Shuning bilan birga ish joyi ozoda va saranjom boʻlishi kerak. Yuqorida bayon qilingandek, kyuveta sovitilgandan keyin suv qoldiqlarini toza paxta bilan artib tozalash kerak. Yogʻ tomchilari va mum qoldiqlari qolmasligi uchun sunʻiy tishlar ustini monomer bilan artish zarur. Nusxaning protezga qaragan yuzasiga ajratuvchi qatlam suriladi (izokol, kanakunjut moyi). Chunki keyinchalik plastmassa bilan gips yopishib qolmasligi uchun shu ish sinchkovlik bilan, zarur boʻlsa qaytadan bajarilishi shart.

Olib qoʻyiladigan plastinkali protezlar asosi «Etakril», «Ftoraks» yoki «Akril» plastmassasidan tayyorlanadi. Plastmassani tejash maqsadida bitta sunʻiy tishga bir gramm hisobidan yoki 8-12 gramm protez uchun olinadi va kukun toʻyinguncha monomer qoʻshiladi. Polimer va monomer miqdorini 2:1 nisbat olinib aralashtirilsa ham qulay boʻladi. Bir vaqtning oʻzida bir necha protezlar uchun chinni yoki shisha idishlarda plastmassa qorishtiriladi. Aralashma yuzasi sopolga oʻxshash boʻlishi uchun monomer ortiqchasi yoʻqotiladi va qopqoq bilan zichlab bektiladi. Plastmassa bilan keyin bajariladigan ishlar protez sifati uchun juda katta ahamiyatga ega.

Plastmassa kukuni «polimer» zarrachalari bir tekis boʻrtib oshishi va bir jipsli xamir hosil boʻlishi uchun aralashgani vaqti vaqti bilan aralashtirib turish va idish qopqogʻini yana zichlab yopish zarurdir.

Monomer yengil boʻlgani uchun u yuqoriga oʻtib, kukunning yuqori qavatlarini oʻta toʻyintiradi, buning oqibatida plastmassaning shu qismi unchalik pishiq qilinmaydi, pastki qavatlar esa monomerni kam shimadi va plastmassaning shu qismi oqroq rangli, moʻrt boʻlib qoladi. Agar shu holdagi plastmassa aralashmasi bilan kyuveta qoliplansa, protez rangi marmarni eslatadi. Shuning uchun plastmassa yetilish jarayonini eʼtibor bilan kuzatib borish, qoliplash vaqti boshlanishini oʻtkazib yubormaslik lozim. Uning vaqtini aniqlash mumkin emas, sababi plastmassaning yetilish darajasi turli xil boʻladi. Bu vaziyat plastmassa turlariga, zarralari katta kichikligiga, ishlab chiqarilgan vaqtiga, uni ishlatilish muddatiga, saqlash sharoitlariga va shu vaqtdagi xona haroratiga bogʻliqdir.

Plastmassani xamirsimon holatda qoliplash uchun tayyorligini aniqlash uni uzish vaqtida choʻziluvchan ipsimon tortilmasligi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda plastmassani rezinaga oʻxshash darajagacha ushlab turish kerak emas. Chunki undagi taranglik xususiyati plastmassani qoliplashga yoʻl qoʻymaydi. Aralashma bu vaqtda yaroqsiz boʻlib qoladi. Qoliplash oldidan sunʻiy tishlar va ilgaklar monomer yordamida yana moysizlantiriladi, toza qoʻllar bilan (yoki sellofan yordamida) idishdan bir protez uchun aralashma boʻlagi olinadi va unga yuqori jagʻ uchun yapaloq, pastki jagʻ uchun tayoqcha shakli berilib va u bilan teskari gipslashda kyuveta asosini, toʻgʻri gipslashda kyuvetani va qoʻshma gipslashda har ikki yarmini toʻldiriladi. Plastmassa ustini namlangan sellofan parchasi bilan yopilib, kyuvetaning har ikki yarmini birlashtiriladi, soʻngra iskanja ostida kyuvetalar oraligʻida 1,0-1,5 mm yoriq qoladigan qilib asta sekin qisiladi va 3-5 daqiqaga qoldiriladi, keyin kyuveta ochiladi, sellofan olib tashlanadi. Monomerni uchib ketishdan saqlash uchun tezlik bilan plastmassaning ortiqcha qismi protez chegarasi boʻylab kesib olinadi. Plastmassa kam boʻlib qolgan joylarga uning yaxshi

birikishi uchun monomer bilan namlab yangi bo‘lak qo‘shiladi. Kyuveta qismlari birbiriga birlashtirilib, iskanja ostida zich biriqkuncha qisilib shu holda 10-15 daqiqa ushlab turiladi, so‘ngra iskanjadan olib rom orasiga mahkamlab qo‘yiladi va polimerlash uchun 18-20^oS haroratdagi suvga solinadi va sekin-asta suvni qaynatish darajasigacha olib boriladi. Suv haroratini 80^oS gacha yetkazish uchun 60-70 daqiqa davomida sekin qaynatiladi, keyin 100^oS gacha ko‘tarib yana 25 daqiqa qaynatiladi va issiqlik manbai o‘chiriladi. Kyuvetani suv idishda sovitish lozim. So‘ngra idishdan olib havoda sovutiladi. Polimerlash tartibiga rioya qilingandagina sifatli protez olinishini esdan chiqarmaslik kerak. Agar kyuveta birdan issiq suvga botirilsa, plastmassa ichida g‘ovaklar paydo bo‘ladi. Polimerlashdan keyin tez sovitsa, plastmassaning ichki bosimi ortib ketadi, natijada uning ichi va ustida yoriqlar paydo bo‘ladi. Bayon qilingan har ikkala holat ham protezni mo‘rt bo‘lishiga, tez sinishiga sabab bo‘ladi.

Kyuvetalar butunlay sovutilgandan keyin **qisib** qo‘yilgan romdan holi qilinadi va kyuvetalar qopqoqlari ajratiladi. Maxsus iskanja ostiga kyuvetani qo‘yib, ichidagi **gips** ehtiyotlik **bilan** siqib chiqariladi, keyin gips **pichog‘i** bilan plastmassali protez asta sinchkovlik bilan tozalanadi. Aks holda, ehtiyotsizlik natijasida asos, sinishi, tishlarning uzilishi, sinishi, ilgaklarning shakl o‘zgartirishi yuz berishi mumkin.

Polimerlashdan avval asl nusxalar ustiga surtilgan ajratuvchi (**izokol**) qatlam plastmassaning gipsdan **oson** ajralishiga **yordam** beradi. Agar gipsni ajratish qiyin **bo‘lsa**, shu sohalarga **xlorid** kislota surtib 5-10 daqiqaga **qoldiriladi** va cho‘tka **yordamida** sovunli suv bilan yuvib tashlanadi, artib, quritiladi **va** protezga ishlov berishga o‘tiladi.

Protezni silliqlash va pardoqlash, yaltiratish usuli.

Ishlov **berish** qo‘lda shtixel va shaberlar, **turli** shakldagi egovlar **bilan** metalli karborund frezlar, turli **toshlar**, jilvir **qog‘oz bilan** bor mashina yoki shlif-**motorda olib** boriladi. Po‘lat **shaberlar** uchlari o‘tkirlashtirilgan qoshiqsimon yoki uch qirrali shakldagi yog‘och dastali asboblardan bo‘lib, **protez** yuzasidagi **qirindilarni** olishga xizmat qiladi. Shtixellar o‘tkir ishchi uchli **yog‘och dastali** yarim dumaloq va uch qirrali iskanasimon po‘lat asboblardir. Ulardan tishlar oraliq qismlarini va protez qirindilarini ishlashda, g‘adir-budirliklarni **yo‘qotishda** foydalaniladi. Ishlov berilayotgan **protez qo‘lda** mahkam ushlanadi va asosi sindirib qo‘ymaslik **va sun‘iy** tishlar yoki ilgaklarga zarar yetkazmaslik uchun qattiq bosmasdan, siqmasdan ish bajarish tavsiya etiladi. Bor mashina yordamida karborund toshlar, frezlar va h. k. bilan **plastmassa** asosining ortiqcha **qismi** belgilangan chegaragacha olib tashlanadi.

Silindrsimon va konussimon frezlar bilan **sun‘iy** tishlarning **bo‘yin** oldi shakllantiriladi. Shaber bilan **protezning** ortiqcha plastmassasi va yuzasidagi g‘adir budirliklar olinadi. Sun‘iy tishlar bo‘yinlari, ular oralig‘iga shtixellar bilan shakl beriladi. Ishlov berish oxirida protezning til tomon yuzasida, lunj va lab shilliq pardasiga qaragan yuzlarida bir tekis silliqlikka erishiladi. Gipslashda yo‘l qo‘yilgan xatolik natijasida kyuveta ichidagi gipsdagi g‘ovaklik va yoriqlar, protezning ichki yuzasida kelib chiqqan bo‘rtmalar va ortiqcha plastmassalar, sun‘iy tishlar oraliq qismiga yo‘nalgan o‘tkir qirralar ehtiyotlik bilan olib tashlanadi.

Protezning ichki yuzasi shilliq qavatga tegib turadigan yuzaga qo‘shimcha ishlov berilmaydi. Chunki bu yuzaning relefini o‘zgartirish protezning o‘z o‘rnida muayyan holda saqlanib turishini buzadi. Protez chegarasining kaltalanishi va haddan tashqari protez asosini yupqalash, protezni yaroqsiz holga olib kelishi mumkin.

Protezni silliq qilish jilvir qog‘oz vositasida, bor mashinada yoki qo‘lda olib boriladi. Protezning ichki yuzasi va sun‘iy tishlar silliq qilinmaydi. Protezdagi ilgaklarni uchlar dumaloq va hamma qolgan sohalarning silliq bo‘lishi uchun ham ishlov beriladi.

Protezlarni pardoqlash natijasida tekis, silliq yuzasi hosil qilinadi. Bu esa plastmassani kimyoviy va fizik ta’sirotlardan saqlaydi, parvarishlashni ta’minlaydi. Olib qo‘yiladigan protezlarni pardoqlash shlifmotorda silindr va konus shaklidagi kigiz yoki o‘zga filslarda, cho‘tkalarda olib boriladi. Silliq qilish va pardoqlash jarayonida protezni ikki qo‘lning bosh, ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlari bilan ushlanadi. Boshlanishda konussimon filni pemza suvdagi qaymoqsimon aralashmasi bilan namlab turib protezning tishlararo qismi pardoqlanadi. Har galgidek protezning ichki yuzasi bundan mustasno. Protezning tashqi yuzasi tekis bo‘lguncha pardoqlash davom ettiriladi. Fils bilan yetish mumkin bo‘lmagan protezni ayrim joylari qattiq qilli doira shaklidagi cho‘tkalar bilan, protezga pemzaning suvli aralashmasi surtib pardoqlanadi. Ishlash jarayonida vaqt vaqti bilan protezni suv bilan yuvib turish lozim. Protezga oxirgi shishasimon yaltiroqlik berish uchun gipsni suvda eritib, glitserin moyi qo‘shib shu aralashmani protezga surtib, yumshoq cho‘tkani motorga o‘rnatib ishlov beriladi. Metall ilgakni avvalroq pardoqlanadi. Protez asosi pardoqlangandan keyin unga ip cho‘tkasi va pasta GOI yordamida yaltiroqlik kiritiladi. So‘ngra protezni sovunli suvda cho‘tkasi yordamida yaxshilab yuviladi.

“ROLLI O‘YIN” metodi- o‘quvchilar tomonidan mavzu yuzasidan uchraydigan hayotiy vaziyatlarning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.



Nazorat uchun savollar.

1. Qisman olib qo'yiladigan plastinkali tish protezlarini tayyorlashning klinik laborator bosqichlari.
2. **Olib qo'yiladigan yassi parchali protez asosida torus va ekzostozlarni ajratish usulini tushuntiring.**
3. To'g'ri usulda **gipslash.**
4. Teskari usulda **gipslash.**
5. Qo'shma usulda **gipslash.**
6. Polimerlash **jarayoni nima ?**
7. **Sun'iy tishlarni o'rnatish qanday amalga oshiriladi ?**
8. Bir yelkali sim ilgakni bukish usulini tushuntiring.
9. Ikki yelkali sim ilgakni bukish usulini tushuntiring.
10. Uzluksiz sim egish usulini tushuntiring.

Tibbiy atamalar.

1. Fiksatsiya - muayyan holda saqlash.
2. Torus – tanglay bolishi.
3. Ekzostoz – suyak bo'rtmalari.
4. Qoshiq – o'lchov olinadigan moslama.

5. Model - protez o'rnining to'qimalari va unga yaqin yotgan soha rel'fining o'lchovlar buyicha hosil qilingan pozitiv tasviridir.

Vaziyatli masala.

1. Og'iz bo'shlig'ida protezlarni muayyan holda mustahkam turishi uchun keng qo'llaniladigan moslamadir. Xrom - nikel, xrom - kobalt va oltin qotishmalaridan egib quyib tayyorlanadi. Gap qanday moslama haqida ?

Javob: Klammer.

2. Tayanch tishni kam shikastlantiradi va protezni mahkamlanishiga, muayyan holda saqlashga yaxshi yordam beradi. Tishni og'iz bo'shlig'iga va og'iz dahliziga qaragan yuzalari tomonidan qamrab turadi. Gap qanday moslama haqida ?

Javob: Ikki yelkali ilgaklar.

Test savollari.

1. Og'iz bo'shlig'ida protezlarni muayyan holda mustahkam turishi uchun keng qo'llaniladigan moslama ?

***Klammer.**

Shina

2. Torusning sinonimi qaysi qatorda berilgan ?

***Tanglay bolishi**

Protez asosi

Pastki jag'

Qoziq tish

3. Ekzostoz bu ?

***Suyak bo'rtmalari.**

Tanglay bolishi.

Milk cho'ntagi.

Til yuganchasi.

4. Qaysi ilgaklar tishni og'iz bo'shlig'iga va og'iz dahliziga qaragan yuzalari tomonidan qamrab turadi ?

*** Ikki yelkali**

Bir yelkali

Uzaytirilgan yelkali ilgak

Kemeni bo'yicha **tish milk** ilgaklari.

5. Klammerlar turar joyiga nisbatan quyidagilarga bo'linadi ?

***Tishlarga, milkka va tish-milkka.**

Ushlab turuvchi, tayanib turuvchi, tayanib ushlab turuvchi.

Og'iz ichi, og'izdan tashqari.

Og'iz ichi, og'izdan tashqari, tayanib turuvchi.

6. Klammerlar asos bilan birikish usuliga qarab quyidagilarga bo'linadi ?

***Qattiq yoki turg'un, prujinasimon yoki yarim harakatchan va bo'g'im yoki harakatchan bo'lib birikadigan.**

Tishlarga, milkka va tish-milkka.

Ushlab turuvchi, tayanib turuvchi, tayanib ushlab turuvchi.

Og'iz ichi, og'izdan tashqari.

7. ... nemischa so'z bo'lib ilgak mazmunini anglatadi.

*Klammer

Vkladka

Shtift

Qoplama.

8. Protezning qaysi qismiga qo'shimcha ishlov berilmaydi ?

*Ichki yuzasi

Tashqi yuzasi

Ichki va tashqi yuzasi

Chaynov yuzasi.

9. Agar gipsni ajratish qiyin **bo'lsa**, shu sohalarga nima surtiladi ?

***Xlorid** kislota

Sulfat kislota

Nitrat kislota

Borat kislota

10. Vazifasiga qarab klammerlar:

*Ushlab turuvchi, tayanib turuvchi, tayanib ushlab turuvchi.

Tishlarga, milkka va tish-milkka.

Ushlab turuvchi, tayanib turuvchi, tayanib ushlab turuvchi.

Og'iz ichi, og'izdan tashqari.

2.7 1-mavzu	Ko'priksimon protezlar yasash va bunda tish texniklari tomonidan qo'yilgan xato va kamchiliklar.
------------------------------	--

Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'uloting rejasi.	<ol style="list-style-type: none">1. Metall-keramik qoplamalar haqida ma'lumot.2. O'zakli tishlarni quyishga bo'lgan ko'rsatmalar.3. Ko'priksimon protezlar.

O'quv mashg'uloti maqsadi:**1.Ta'limiy:**

- Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash
- Amaliy ko'nikmalarni egallash
- Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash
- Deontologik tarbiyaning shakllanishi
- Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash

2.Tarbiyaviy maqsadi:

- Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish
- Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish
- O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash
- Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 dakika	Tashkiliy kism 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi,ichki tartib koidalariga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O'quv magulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.	Javob beradilar Tinglaydilar,Yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy qism 65 dakika 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni	1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maksadida ulardan kirish testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'kituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Akvarium" usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.	. Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol

<p>tO'lik bayon etish 30-40. 3.O'kitishning noannaviy usullarini kO'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</p>		<p>tarikasida yullab javob oladilar.”Akvarium” sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa mavzuni o'qib o'rganib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. H.Sh.Rahmonov “Tish texnikasi materialshunosligi” 2. S.Yusupova D.Ashurov “Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi” 3. N.Toshpo'latova “Og'iz bo'shligi kasalliklari” 	<p>Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

<p>Pedagogik vazifalar. Tish qoplamalari (Koronkalar), zamonaviy tish qoplamalarining turlari, tayyorlash usullari. Metall, plastinkali, forforli xamda kombinatsiyalashgan tish qoplamalari (koronkalar). Metall o'zakli tishlar. Ulardan foydalanish uchun ko'rsatma. Metall o'zakli tishlarning kismalari. Ularning ildizi va boshqa qismlariga nisbatan talablar.</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi: Metall, keramik tish protezlarini tayyorlashning laboratoriya bosqichlari Zanglamaydigan metallardan, oltindan, plastmassadan, forfordan, metalloplastmassadan xamda metallokeramikadan va boshka maxsulotlardan kupriksimon protezlarni tayyorlash bosqichi va usullari.</p>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>“Baxs-munozara”,”Aqliy xujum”,”Issik kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy,guruxlarda ishlash,yakka tartibli</p>

O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov: tezkor so'rov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baholash

MAVZU: Ko'priksimon protezlar yasash va bunda tish texniklari tomonidan qo'yilgan xato va kamchiliklar.

Dars rejasi:

- I. Metall-keramik qoplamalar haqida ma'lumot.
- II. O'zakli tishlarni quyishga bo'lgan ko'rsatmalar.
- III. Ko'priksimon protezlar.

Metall-keramik qoplamalar.

Metall-keramikadan yasalgan qoplamaning asosi metall bo'lib, ustki qatlami keramika (chinni) massasi bilan qoplanadi.

Asosiy qiyinchilik metall qotishmasini va chinni massasini tanlash bo'lib, ular bir-biriga mos bo'lishi kerak.

Metall yaxshi texnologik xossalarga chinni massasi esa tabiiy rang va estetik ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

Xozirgi paytda bu maqsadlar uchun xrom-kobal'tli qotishmalar ishlatilmokda.

Metall-keramikali qoplama tayyorlash bir-necha klinik va laboratoriya bosqichlaridan iborat. Birinchi navbatda klinikada tish toji charxlanadi. Bu jarayon xuddi chinni qoplama tayyorlashda bajariladigan uslubda olib boriladi.

Lekin metall keramika qoplamalarining qalinligi chinni qoplamalardan biroz qalinroq bo'ladi. Shuning uchun tish charxlangan paytda bu farqni e'tiborga olish lozim. Umuman, metall sinch xolatidagi qoplamaning tish aylanma yuza atrofidagi qalinligi 0,3-0,5 mm va okklyuzion yuzasi 0,5 dan 0,75 mm gacha bo'lishi kerak. Qoplamaning chinni qatlami qalinligi esa 0,3-0,5 mm ni tashkil qiladi. Demak, tabiiy tayanch yoki qoplanadigan tish bo'lajak metall-keramika qoplamaning umumiy qalinligini e'tiborga olmay charxlansa, u xolda bu qoplama qo'pol va xajmi jixatdan yirik bo'lib qoladi.

Tishlarni charxlashda, albatta ularni og'riksizlantirish kerak. Agar charxlanadigan tishlar depulpatsiya qilingan bo'lsa, bu xolda milklar applikasiya usuli bilan anesteziya qilinishi kerak.

Shunday qilib, tishlar charxlanib bo'lgandan keyin qaysi jag'ga metall-keramika protezi qilinadigan bo'lsa shu jag'dan silikon massalari (stomafleks, dentafleks, ekzafleks va stens) bilan ikki qatlamli qolip olish kerak. Protez qilinmaydigan jag'dan bir qavatli qolip olinsa xam bo'laveradi.

Laboratoriyada olingan qolipdan qo'shma nusxa qo'shib tayyorlanadi va tish cho'giriga mumdan qalpoqcha yasaladi. So'ngra mum shaklidagi qalpoqchalarni KXQ (kabalt-xrom qotishmasi)ga almashtirish chora-tadbirlari quriladi. Qoplamaning metall asosi quyilgandan keyin unga ishlov beriladi va tish texnigi nusxadagi tish cho'giriga joylashtiriladi. Metall qalpoqcha yaxshi va aniq quyilganda og'izda xamda tish cho'giriga yaxshi o'rnashadi. Buning uchun vrach bemor og'zida qarama-qarshi tish bilan qoplama o'rtasidagi masofa xar xil jipslashuv xarakatida chinni massasi qalinligi uchun yetarli yoki yetarli emasligini tekshirib ko'radi. Agar bo'shliq yetarli bo'lmasa vrach metall qoplamani charxlab yetarli darajaga keltirishi zarur. Klinikada metall qalpoqchani moslab bo'lgandan keyin chinni massasi rangi tanlanib, metall qalpoqchani chinni massasi bilan qoplash jarayoni boshlanadi. Chinni massasi (gurung) metall qalpoqchaga surtiladi va keyin quritaladi. Quritilgandan so'ng gurunt massasi farfor pechida birinchi marta pishiriladi. Xozirgi kunda bunday pechlar («Faton», «Vita», «Arkon» va x.k.) berilgan dasturda ishlaydi.

Qoplama nusxaga kiygiziladi va ko'zdan kechiriladi. Ortiqcha massa olib tashlanadi, so'ngra mavjud qatlam ustiga tishga shakl berilgan xolda dentin qatlami suriladi va pechda yana pishiriladi. Pechdan qayta olinib, kerak bo'lsa ishlov berib, ikkinchi qatlam ustiga yaltiroq, tabiiy rang beruvchi uchinchi qatlam surtiladi va yana pishiriladi. So'ngra klinikada bemor og'zida moslab ko'riladi va nixoyat protez yana bir marta pechda glazur qavati surilgach pishiriladi. Metall - keramika protezi sovitilgandan keyin vrach sement yordamida qoplamani tish cho'giriga maxkamlab qo'yadi.

O'zakli tishlarni quyishga bo'lgan ko'rsatmalar:

- tish toj qismini sezilarli darajada nuqsoni, tish tojini plomba, qistirma yoki qoplama bilan tiklashning iloji bo'lmaganda;
- tish qatorlarining o'z yoyida noto'g'ri joylashganda o'zakli tishlar quyiladi. Bunda tish toj qismi depulpatsiya qilinib, o'zak ustiga kerakli protezli konstruksiyalar tayyorlanadi;
- o'zakli moslamalar ko'priksimon protezlar uchun tayanch sifatida qo'llaniladi;
- ildizning alveolyar ichi sinishlarida fiksatsiya qilish maqsadida o'zakli konstruksiya qo'llaniladi;
- replantatsiyalangan tishlarda o'zakli konstruksiya qo'llaniladi;
- parodont kasalliklarida shtiftli konstruksiyalarni boshqa elementlar bilan qo'shib ko'llaniladi.

Tish ildiziga talab etuvchi umumiy klinik va texnik talablar mavjud:

- Milkdan baland yoki u bilan bir tekis joylashgan bo'lishi kerak;
- Alveolyar katakda mustaxkam joylashgan bo'lishi kerak;
- Parodont to'qimasi va ildiz kanalida yalig'lanishlar bo'lmasligi kerak;
- Ildiz devorlari keraklicha qalinlikka ega bo'lib, biror bir patologik jarayon va karies bilan zararlanmagan bo'lishi kerak;
- Emal dentin chegarasidan boshlab, ya'ni 2/3 qismi to'g'ri bo'lishi kerak;
- Aylana boylam xarakatsiz bo'lishi kerak;

-Ildiz kanali toj balandligidan kam bo'lmagan balandlikda o'tuvchi bo'lishi kerak.

Standart va individual o'zaklar tayyorlash.

O'zakli tish tuzilishi, uzunligi ildiz kanaliga to'g'ri kelishi kerak. O'zakning minimal kengligi 0,9 mm dan kam bo'lmasligi kerak. O'zak sifatida ortodontik simlar va zanglamaydigan klammerlarda foydalanish mumkin. Diametri 1-1,8 mm dan kam bo'lmasligi kerak. Bunda, o'zak ildiz kanaliga o'rnatish uchun shlifovka va kanalni borlar bilan kengaytirish bilan amalga oshiriladi. O'zaklarni standartli turlari mavjud bo'lib ular fabrikada ishlab chiqariladi:

- aylana
- chegarali
- vintli va boshqalar.

Ko'p ildizli tishlarda o'zakni kanalga o'rnatish uchun, eng yaxshi ildiz tanlanadi.

Masalan:

Pastki jag' molyarlarda – distal ildiz.

Yuqori jag' molyarlarda – tanglay ildiz tanlanadi.

Ko'priksimon protezlar.

Ko'priksimon protez-tayanch qismlari tish qatorlari nuqtasining 2 tomonida joylashgan protez turidir.

Konsol va ko'priksimon protezlarning tayanch qismini qoplamalar, yarim qoplamalar, kiritmalar va shtiftli sun'iy qoplamalar hisoblanadi.

Konsol va ko'priksimon protezlar tanasini metall dan, metall bilan chinni yoki plastmassani birga qo'shib tayyorlangan sun'iy tishlar tashkil etadi. Metall dan tayyorlangan protezlar tanasi quyma tish deb, kombinatsiya qilingani esa fasetka tish deb ataladi. Sun'iy tishlarning alveolyar o'siq shilliq qavatiga nisbatan turishiga qarab, konsol va ko'priksimon protezlar tanasi tegib turuvchi va yuvilib turadigan shakllarda bo'ladi.

Konsol yoki ko'priksimon protez tayyorlashning klinik va laborator usullari:

- tishlarni charxlash va o'lchov olish;
- tish qatorlarining markaziy munosabatini aniqlash;
- tayanch qismlarni laboratoriyada tayyorlash;
- tayanch qismlarni moslash va o'lchov olish;
- o'lchovni ulash va model tayyorlash;
- protez tanasi modelini yasash;
- ko'priksimon protez tanasini quyish;
- ko'priksimon protez qismlarini kavsharlash;
- protepga ishlov berish va pardozlash;
- protezni tayanch tishlarga maxkamlab quyish;

O'lchov olish.

Keyingi yillarda o'lchov olish uchun gips o'rniga elastik massa "novalgin" tavsiya etiladi. Bunda texnik qoplamani o'z o'rnida juda e'tibor bilan qattiq ezmasdan o'rnatishi kerak.

Qoplama o'rnini va o'lchovining xammasini paxta tampon bilan yaxshilab quritish lozim.

Protez tanasi modelini tayyorlash.

Yaxlit metallardan iborat oraliq qismini tayyorlash. Qoplamalar o'rtasi plastinkadan yasalgan bolish bilan to'ldiriladi. Bolish qoplamalardan bir muncha baland va kengroq bo'lishi kerak. Bolishni o'rnatib, modellar jiplashtiriladi, natijada bolishda antagonist tishlarning izi xosil bo'ladi. Dastlab mumning ortiqcha qismlari shpatel bilan tarashlanib, bolishni qo'shni tishlar eniga teng qilinadi va shu bolishdan tishlar modelini yasashga kirishiladi. So'ng unga yuq tishlar soniga mos keladigan qilib chiziqlar chizib chiqiladi va xar bir bo'lakdan birta tish modelini yasashga kirishiladi. Barcha tishlarda anatomik shakl vujudga keltiriladi.

Protezning vestibulyar, chaynov va til tomon yuzalari yasab bo'lingach, uning milkka qaragan tomoni yasaladi. Buning uchun mumni vestibulyar satxga nisbatan burchak xosil qilib, chaynov yuzasining til yuzasiga o'tish joyidan 2 - 4 mm naribroqda, bu yuza vestibulyar yuza bilan tutashguncha o'tkir shpatel bilan qirib chiqiladi. So'ngra mum sovutilib, modeldan chiqarib olinadi. Bu mum kompozitsiya quyish xonasiga yuboriladi.

Protezning kombinatsiyalangan oraliq qismi plastmassa qoplangan metallardan yoki chinni tishlar bilan qoplangan metallardan tayyorlanadi.

Protezning oraliq qismini ishlash.

Detallarning notekis va g'adir budir joylari karborund toshlar, xamda diskalar bilan tekislanadi. Alveolyar o'siq va til tomonga qaragan yuzalar ayniqsa yaxshilab silliqanishi kerak.

Protez qismlarini yopishtirish va protezni kavsharlashga tayyorlash.

Ko'priksimon protez qismlarini kavsharlash uchun ularni bir biriga yopishqoq mum yordamida yopishtirib chiqish kerak. Buning uchun qoplamalar goretka alangasida isitilib, ichidagi mum eritiladi va ular modeldan chiqarib olinadi. Qoplamalar turgan gips bo'rtmalariga konus shakli beriladi, bunda qismlar yopishtirib bo'lingandan keyin ko'priksimon protezni modeldan ko'chirib olish osonroq bo'ladi.

Oltin qoplamalarning chaynov yuzasiga ich tomondan kavshar quyiladi, boshqa xil qoplamalar yoki boshqa detallarning kavsharlangan soxalari jilvir qog'oz bilan kuyundidan tozalanadi.

Model suv bilan yaxshilab namlanadi yoki uning protez tayyorlanadigan qismiga moy surtib qo'yiladi, qoplamalar modelga moylanadi va oraliq qismi o'rnatiladi. Ozingina mum olib eritiladi, detallarning bir biriga tegib turgan yeriga til tomondan tomizib, bir-biriga yopishtiriladi. Mum qotib qolmasdan okklyudator yopib qo'yiladi va oraliq qism antagonistlarga nisbatan aniq o'rnatiladi.

Mum suvda sovutilib, ko'priksimon protezlar modeldan avaylab ko'chirib olinadi, o'tga chidamli massaga gipslanadi, kuritiladi va kavsharlanadi. Kavsharlangan protez sovuq suvga solinadi, o'tga chidamli massadan tozalanadi va oqartiriladi. So'ngra ortiqcha kavshar olib tashlanib, kavsharlangan joylarga ishlov beriladi va pardoz berishga kirishiladi.

Pardoz berilgandan keyin protez avval suvda sovunlab yuviladi, so'ngra spirt va efir bilan yuviladi. Agar ko'priksimon protezning tanasi fasetkali qilib tayyorlangan bo'lsa, avval chinni yoki plastmassa tishlarni maxkamlashga yoki mumdan modelini yasashga kirishiladi va keyin mum plastmassa bilan almashtiriladi.

Plastmassa ko'priksimon protezlar.

Plastmassali ko'priksimon protezlar uncha katta bo'lmagan nuqsonlarda, asosan, frontal tishlar, kamroq premolyarlar tushib ketganda qo'yiladi. Shifokor tishni pog'onali qilib charxlaydi, ikki qavatli qolip oladi. Texnik laboratoriyada modelni qattiq gipsdan yoki sement bilan gipsni kombinatsiyalab tayyorlaydi. Oq yoki pushti rangli mumdan model yasashda avval tayanch tishlar qoplamasining anatomik formasi shakllantiriladi.

Shundan so'ng ko'priksimon protez tanasini yasash qoidasiga rioya qilgan holda tushib ketgan tishlar shaklining modelini yasashga kirishiladi. Mum qoplama kompozitsiyasi bilan protez tanasi birlashgan chov mum bilan yaxshilab yopishtiriladi. Modeldan protezning mum kompozitsiyasi modeli yasalgan soxani qirqib olib, kyuvetaga gipslanadi va mum plastmassaga almashtiriladi. Polimerizatsiyadan so'ng plastmassadan iborat protezga ishlov beriladi, yaltiratiladi va klinikaga o'tkaziladi.

Quyma ko'priksimon protezlar.

Quyma ko'priksimon protezlar tobora keng qo'llanilmoqda, ular nixoyatda aniq bo'lishi bilan birgalikda, kosmetik jihatdan yangi natijalarga erishish imkonini beradi. Bunga protezning plastmassa yoki chinni qoplangan xamma qismlarini tayyorlash yo'li bilan erishiladi.

Quyma ko'priksimon protezlar oltin, kumush-palladiy, xrom-kobalt qotishmalaridan quyiladi.

Protezni laboratoriyada tayyorlash tartibi quyidagicha:

- tayanch tishlarning taxminiy modelini yasash;
- tayanch tishlarning asosiy modelini yasash;
- ko'priksimon protez tanasining modelini yasash;
- protezning mum modelini metallga almashtirish;
- protezga ishlov berish va yaltiratish;
- tish va koronkalarda qoplamalar xosil qilish;

Tayanch qoplamalar modelini yasash yuqorida bayon qilingan usulda bajariladi. Tayanch qoplamalar modeli uzil-kesil yasalgandan so'ng, ko'priksimon

protez tanasining modeli uzil-kesil yasalgandan so'ng, ko'priksimon protez tanasining modeli plastmassa yoki chinni qoplamalari uchun joy yasaladi.

Protez tayyorlashning eng qiyin tomoni protez reproduksiyasini modeldan ko'chirib olishdir. Bu maqsadda protez ko'chirib olinadigan yo'nalishda litnik xosil qiluvchi shtiftlarni qoplama va fasetkaga birtadan o'rnatib chiqish lozim. Xar bir qoplamaga shtiftni oral tomondagi do'mboqcha soxasida yopishtirgan ma'qul. Xamma litniklarni bir nuqtaga yig'ib, ularning bir biri bilan kesishgan joylari mum bilan yopishtirib qo'yiladi. Kompozitsiyani modeldan chiqarib olishdan oldin, litnik xosil qiluvchi shtiftni o'rnatib bo'lish bilan modelning xammasini 30-35⁰S li suvga 10-16 minut solib qo'yish tavsiya etiladi.

Markaziy litnikdan ushlab, mum model extiyotkorlik bilan chiqarib olinadi.

Aniq quyish uchun litnik xosil qiluvchi sistemani yasash jarayonida xavo chiqarib yuboruvchi kanallar qoldirishni esdan chiqarmaslik kerak. Protezning tayyor qilingan mum modeli o'tga chidamli massa qatlami bilan yaxshilab qoplab chiqiladi, keyin kyuvetaga gipslanadi va quyiladi. Protez pardoatlanadi, yaltiratiladi va klinikaga topshiriladi.

"Akvarium" usuli.

Akvariumga baliqchalar joylashtiriladi. O'tilgan mavzu bo'yicha savollar stikkeriga yoziladi va ularga yopishtiriladi. Tinglovchilar bittadan baliqchani olishadi va unga yozilgan savolga javob berishadi.

(Yangi mavzuni mustahkamlash uchun qo'llaniladi).

Nazorat uchun savollar.

1. Metall-keramikali qoplamalar haqida ma'lumot.
2. Metall-keramikali qoplama tayyorlashning klinik va laboratoriya bosqichlari.
3. O'zakli tishlarni qo'yishga bo'lgan ko'rsatmalar.
4. Tish ildiziga talab etuvchi umumiy klinik va texnik talablar.
5. Protez tanasining modeli qanday tayyorlanadi ?
6. Protezning oraliq qismi qanday ishlanadi ?
7. Protez qismlarini yopishtirish qanday amalga oshiriladi ?
8. Protezni kavsharlashga tayyorlash jarayoni haqida ma'lumot bering.
9. Plastmassa ko'priksimon protezlar haqida tushuncha bering.
10. Quyma ko'priksimon protezlar haqida tushuncha bering.

Tibbiy atamalar.

1. O'lchov - protez o'rning to'qimalari va shu to'qimalarga yaqin yotgan soxalar rel'efining negativ tasviridir.
2. Model - protez o'rning to'qimalari va unga yaqin yotgan soha rel'efining o'lchovlar buyicha hosil qilingan pozitiv tasviridir.
3. Shtift – o'zak.
4. Qoshiq – o'lchov olinadigan moslama.
5. Keramika – chinni.

Test savollari.

1. Metall-keramikadan yasalgan qoplamaning asosi nimadan iborat ?

* Metall

Keramika

KXQ

Ham metall, ham keramika.

2. Metall-keramikadan yasalgan qoplamada metall qanday xossalarga ega bo'lishi kerak ?

*Yaxshi texnologik

Estetik

Tish rangiga mos kelishi

Bosim natijasida tishga zarar yetkazishi.

3. Metall-keramikadan yasalgan qoplamaning birinchi klinik bosqichi nima ?

*Tishni charxlash

O'lchov olish

Model quyish

Munga shakl berish.

4. Metall sinch holatidagi qoplamaning tish aylanma yuza atrofidagi qalinligi necha mm ?

*0,3-0,5 mm

0,1-0,5 mm

0,3-0,9 mm

1 sm

5. Metall sinch holatidagi qoplamaning tishning okklyuzion yuzasi necha mm ?

*0,5 dan 0,75 mm

0,3 dan 0,9 mm

0,3 dan 0,6 mm

0,1 dan 0,5 mm

6. Qoplamaning chinni qatlami qalinligi necha mm ni tashkil qiladi ?

*0,3-0,5 mm

0,1 - 0,5 mm

0,3 - 0,9 mm

1 sm

7. Laboratoriyada tish cho'giriga mumdan yasalgan qalpoqcha qanday metallga almashtiriladi ?

*KXQ

Oltin

Po'latga

Misga.

8. O'zakning minimal kengligi necha mm dan kam bo'lmasligi kerak ?

*0,9 mm

0,7 mm

0,5 mm

0,3 mm

9. Quyma ko‘priksimon protezlar laboratoriyada tayyorlashning birinchi bosqichi ?

*Tayanch tishlarning taxminiy modelini yasash

Tayanch tishlarning asosiy modelini yasash

Ko‘priksimon protez tanasining modelini yasash

Protezning mum modelini metallga almashtirish.

10. Quyma ko‘priksimon protezlar laboratoriyada tayyorlashning yakuniy bosqichi ?

?

*Tish va koronkalarda qoplamalar xosil qilish

Protezga ishlov berish va yaltiratish

Ko‘priksimon protez tanasining modelini yasash

Protezning mum modelini metallga almashtirish.

2.7 2- mavzu	Zanglamaydigan metallar, plastmassa, forfor, metalloplastmassalardan hamda metallokeramika va boshqa maxsulotlardan ko‘priksimon protezlarni tayyorlash bosqichlari, usullari.
---------------------	---

Ma‘ruza mashg‘ulotini O‘qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Nazariy mashg‘ulot
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none">1. Zanglamaydigan metallardan ko‘priksimon protezlarni tayyorlash bosqichlari, usullari.2. Butun holda kuyilgan kupriksimon protezlar3. Tish porotzlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan mahsulotlar ,ularga kuyilgan talablar.
O‘quv mashg‘uloti maqsadi:	
1.Ta‘limiy:	
<ul style="list-style-type: none">• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash• Amaliy ko‘nikmalarni egallash• Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash• Deontologik tarbiyaning shakllanishi• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash	
2.Tarbiyaviy maqsadi:	
<ul style="list-style-type: none">• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish	

- O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash
- Amaliyotda extiyotkorlik va e‘tiborlilik xissini shakllantirish

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchi
<p>1 bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish 10 daqiqa</p>	<p>Tashkiliy kism 1.1 O‘qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O‘quv bo‘limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib koidalarga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O‘quv magulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko‘llaniladigan usullarni aytib O‘yin koidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 dakika 1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni tO‘lik bayon etish 30-40. 3.O‘kitishning noannaviy usullarini ko‘llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maksadida ulardan testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O‘kituvchi tomonidan “Ma’ruza O‘qish”usulida tushuntiriladi. 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda “Aqliy xujum” usuli orkali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar.”AQLIY hujum” sxemasi tinglovchilar tomonidan to‘ldiriladi.</p>

<p style="text-align: center;">3-bosqich Yakuniy 5 daqiqqa</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e’lon qilinadi .Uyga vazifa: H.Sh.Rahmonov “Tish texnikasi materialshunosligi” 2. S.Yusupova D.Ashurov “Tish jarroxligi stomatologiyasi va yuz-jag’ travmatologiyasi” 3. N.Toshpo’latova “Og’iz bo’shligi kasalliklari” 	<p style="text-align: center;">Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>
---	---	---

<p>Pedagogik vazifalar. Tish qoplamalari (Koronkalar), zamonaviy tish qoplamalarining turlari, tayyorlash usullari. Metall, plastinkali, forforli xamda kombinatsiyalashgan tish qoplamalari (koronkalar). Metall o’zakli tishlar. Ulardan foydalanish uchun ko’rsatma. Metall o’zakli tishlarning kismlari. Ularning ildizi va boshqa qismlariga nisbatan talablar.</p>	<p>O’quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi: Metall, keramik tish protezlarini tayyorlashning laboratoriya bosqichlari Zanglamaydigan metallardan, oltindan, plastmassadan, forfordan, metalloplastmassadan xamda metallokeramikadan va boshka maxsulotlardan kupriksimon protezlarni tayyorlash bosqichi va usullari.</p>
<p>O’qitish metodlari</p>	<p>“Baxs-munozara”,”Aqliy xujum”,”Issik kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O’quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy,guruxlarda ishlash,yakka tartibli</p>
<p>O’qitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofil’mlar,chizma,nazorat varagi,matnlar.</p>
<p>O’qitish shart sharoiti</p>	<p>Fanga mos jixozlangan o’quv xona.</p>
<p>Qayta a’loqaning usul va vositalari.</p>	<p>Og’zaki so’rov:tezkor so’rov,yozma so’rov,test,misol va mashklar bajarilgan o’quv topshiriklarini baholash</p>

Mavzu: Zanglamaydigan metallar, plastmassa, forfor, metalloplastmassalardan hamda metallokeramika va boshqa maxsulotlardan ko‘priksimon protezlarni tayyorlash bosqichlari, usullari.

Dars rejasi:

1. Zanglamaydigan metallardan ko‘priksimon protezlarni tayyorlash bosqichlari, usullari.
2. Butun holda kuyilgan kupriksimon protezlar
3. Tish porotezlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan mahsulotlar ,ularga kuyilgan talablar.

Zanglamaydigan metallardan ko‘priksimon protezlarni tayyorlash bosqichlari va usullari

Zanglamaydigan metallardan tayyorlangan ko‘priksimon protezlar stomatologiyada chaynash va estetik funksiyalarni tiklash uchun keng qo‘llaniladi. Bu turdagi protezlar mustahkam, bardoshli va korroziyaga chidamli bo‘lib, uzoq muddat xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Tayyorlash bosqichlari:

1. **Klinik tekshiruv va o‘lchov olish:**
Bemorning jag‘ bo‘shlig‘i va tish holati batafsil tekshiriladi. Yuqori va pastki jag‘ning okklyuziyasi aniqlanadi, prikus belgilanadi va kerak bo‘lsa, tishlarni muvozanatlash uchun tayyorlov ishlari amalga oshiriladi.
2. **Model tayyorlash:**
Jag‘ning gips modeli tayyorlanadi. Yuqori va pastki jag‘ning anatomik shakli aniq qayd etiladi, prikus va artikulyatsiya nuqtalari belgilab olinadi.
3. **Ko‘priksimon protezning dizayni:**
Mum yordamida vaqtinchalik ko‘priksimon shakl modellashtiriladi. Shu bosqichda tishlar oral funksiyalari, okklyuziya, estetika va protezning o‘lchami aniqlanadi.
4. **Metall karkas tayyorlash:**
Mum modeli asosida protezning metall karkasi quyish usuli yoki lazerli ishlab chiqarish usullari yordamida tayyorlanadi. Zanglamaydigan po‘lat yoki boshqa metall qotishmalardan foydalaniladi.
5. **Metall karkasni moslash va tekshirish:**
Tayyorlangan metall karkas gips modelida yoki og‘iz bo‘shlig‘ida sinovdan o‘tkaziladi. Kontaktlar, prikus va okklyuzion balandlik tekshiriladi, kerak bo‘lsa, tuzatishlar kiritiladi.
6. **Plastik yoki keramika qatlamini qo‘shish (agar kerak bo‘lsa):**
Estetik ko‘rinish uchun metall karkas ustiga keramik yoki kompozit qatlam qo‘yiladi. Shu bosqichda tishning tabiiy rangi, shakli va yuzasi qayta tiklanadi.
7. **Yakuniy tekshiruv va tugatish:**
Protez og‘iz bo‘shlig‘ida sinovdan o‘tkaziladi. Kontaktlar, prikus,

artikulyatsiya va estetik jihatlar tekshiriladi. Kerak bo'lsa, silliqdash va polirovka ishlari amalga oshiriladi.

Ko'priksimon protez tayyorlash usullari:

- **An'anaviy quyish usuli:** Mum modelini investitsiya materialida o'rab, metallni quyish orqali karkas tayyorlanadi.
- **Lazerli yoki CAD/CAM texnologiyasi:** Kompyuter yordamida dizayn qilingan protez modeli lazerli kesish yoki frezalash orqali metall karkas hosil qilinadi.
- **Modifikatsiyalangan issiq presslash usuli:** Ba'zi hollarda qotishma metallni issiq presslash orqali ko'priksimon shaklga keltirish mumkin.

Butun holda quyilgan ko'priksimon protezlar

Butun holda quyilgan ko'priksimon protezlar — bu stomatologiyada yuqori va pastki jag'ning tishlarini tiklash uchun ishlatiladigan metall yoki qotishma karkasli protezlar bo'lib, ularning barcha tarkibiy qismlari bir butun sifatida quyiladi. Ushbu turdagi protezlar yuqori mustahkamlik va uzoq muddatli xizmat muddati bilan ajralib turadi.

Xususiyatlari va afzalliklari:

- **Mustahkamlik:** Butun holda quyilgan protezlar bir bo'lak metall karkasdan iborat bo'lgani uchun yuqori yuklamaga chidamli va egilmaydi.
- **Barqarorlik:** Barcha tishlar va ko'priksimon elementlar bir butun bo'lib, ular o'rtasida bog'liqlik va bir xil kontakt mavjud bo'ladi.
- **Uzoq xizmat muddati:** Zanglamaydigan metallardan tayyorlangan butun protezlar korroziyaga chidamli va uzoq muddat bemorga qulaylik ta'minlaydi.
- **Yuqori aniqlik:** Butun holda quyish orqali tishlarning artikulyatsiyasi va okklyuziyasi aniq tiklanadi, bu esa chaynash va nutq funksiyasini yaxshilaydi.

Tayyorlash jarayoni:

1. **Klinik va laboratoriya tayyorgarlik:** Bemorning og'iz bo'shlig'i tekshiriladi, prikus va okklyuziya belgilanadi. Gips modellari tayyorlanadi.
2. **Mum modeli tayyorlash:** Tishlarning shakli va joylashuvi mum yordamida modellashtiriladi.
3. **Investitsiya materialida o'rab quyish:** Mum modeli investitsiya materialida o'raladi va eritib chiqariladi. Shu bo'shliqqa zanglamaydigan metall yoki qotishma quyiladi.
4. **Karkasni tayyorlash va silliqdash:** Quyish jarayonidan keyin metall karkas olinadi, sirlari silliqdash va og'iz bo'shlig'ida sinovdan o'tkaziladi.
5. **Estetik qoplama (agar kerak bo'lsa):** Keramika yoki kompozit qatlam qo'yiladi va tishlar tabiiy ko'rinishga keltiriladi.

6. **Yakuniy tekshiruv:** Protez og'iz bo'shlig'ida sinovdan o'tkazilib, artikulyatsiya, okklyuziya, prikus va estetik jihatlar tekshiriladi.

Tish protezlarini tayyorlash uchun ishlatiladigan mahsulotlar va ularga qo'yiladigan talablar

Tish protezlarini tayyorlashda turli xil materiallar va mahsulotlardan foydalaniladi. Har bir materialning o'ziga xos xususiyatlari va stomatologik jarayonda qo'yiladigan talablar mavjud. Materiallar protezning mustahkamligi, estetik ko'rinishi va bemor uchun qulayligi uchun muhim hisoblanadi.

Asosiy ishlatiladigan mahsulotlar:

1. **Zanglamaydigan metallar va qotishmalar:**
 - Ko'priksimon protezlar, metall karkaslar tayyorlash uchun ishlatiladi.
 - Metall qotishmalar yuqori mustahkamlikka, egiluvchanlikka va korroziyaga chidamlilikka ega bo'lishi kerak.
2. **Keramika va kompozit materiallar:**
 - Estetik qoplama va tish yuzasini yaratishda qo'llaniladi.
 - Rang uyg'unligi, tabiiy ko'rinish, silliqlik va aqinishga chidamlilik talab qilinadi.
3. **Mum:**
 - Tishlarning vaqtinchalik modellashtirishida ishlatiladi.
 - Yumshoqligi va shakl berish qulayligi muhimdir; gipslash yoki quyish jarayonida deformatsiyalanmasligi talab qilinadi.
4. **Gips va investitsiya materiallari:**
 - Jag' modellari tayyorlash va metallni quyish jarayonida ishlatiladi.
 - Qotishdan keyin barqaror, yorilmasligi va aniqlikni saqlashi kerak.
5. **Plastik materiallar:**
 - Tayyorlashning vaqtinchalik bosqichlarida yoki ba'zi protez elementlarini yasashda qo'llaniladi.
 - Elastikligi, silliqligi va bemor og'izida qulayligi talab qilinadi.

Mahsulotlarga qo'yiladigan umumiy talablar:

- **Sifat va xavfsizlik:** Barcha materiallar toksik bo'lmasligi, bemor salomatligi uchun xavfsiz bo'lishi kerak.
- **Mustahkamlik va chidamlilik:** Chaynash va bosim ta'sirida deformatsiyalanmasligi zarur.
- **Aniqlik:** Protezning shakli, kontakt nuqtalari va artikulyatsiya aniq bo'lishi lozim.
- **Estetik ko'rinish:** Rang, silliqlik va tabiiylik bemorning tabassumi va yuz simmetriyasiga mos kelishi kerak.
- **Ishlash qulayligi:** Laboratoriya sharoitida shakllantirish, silliqlash va qoplama ishlari oson bajarilishi kerak.

“Aqliy hujum” usuli. Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.

Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

Nazorat savollari

1. Ko‘priksimon protez nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
2. Zanglamaydigan metallardan tayyorlangan ko‘priksimon protezlarning afzalliklari va xususiyatlari qanday?
3. Plastmassa va forfordan tayyorlangan ko‘priksimon protezlarning ishlatilish maqsadi va xususiyatlari nimada?
4. Metalloplastmassa protezlarning tarkibi va tayyorlash usullari qanday?
5. Metallokeramika ko‘priksimon protezlarining estetik va funksional afzalliklari nimada?
6. Ko‘priksimon protezlarni tayyorlash jarayonining asosiy bosqichlarini sanab bering.
7. Mum modeli tayyorlash va giplash jarayonida qaysi asosiy talablar mavjud?
8. Quyish, presslash va CAD/CAM texnologiyalari orqali ko‘priksimon protezlarni tayyorlash usullari qanday farq qiladi?
9. Tayyor protezlarni og‘iz bo‘shlig‘ida sinash va moslash jarayonining ahamiyati nimada?
10. Ko‘priksimon protezlar uchun ishlatiladigan turli materiallarga qo‘yiladigan umumiy talablar qanday?

2.8 1-mavzu	To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez yasash uchun markaziy jiplashish xolatini aniqlash
------------------------	--

Ma‘ruza mashg‘ulotini O‘qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Nazariy mashg‘ulot
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tishsiz yuqori va pastki jag‘ning tasnifi 2. To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protezlar. 3. To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez yasash uchun markaziy jiplashish xolatini aniqlash.
<p>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</p> <p>1.Ta‘limiy:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash • Amaliy ko‘nikmalarni egallash • Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash • Deontologik tarbiyaning shakllanishi • Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <p>2.Tarbiyaviy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish • Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish • O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash • Amaliyotda extiyotkorlik va e‘tiborlilik xissini shakllantirish 	

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta‘lim beruvchi	Ta‘lim oluvchi
1 bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish 10 dakika	<p>Tashkiliy kism</p> <p>1.1 O‘qituvchi guruhga kirib tinglovchilarning O‘quv bo‘limi tomonidan berilgan ruyxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi,ichki tartib koidalariga rioya kilishni tasdiklovchi tilxat oladi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>

	<p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni utkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib O'yin koidalirini tushintiradi.</p>	
<p>2-bosqich. Asosiy qism 65 dakika</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni tO'lik bayon etish 30-40.</p> <p>3.O'kitishning noannaviy usullarini ko'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'kituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi.</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy hujum" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, savollariga javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."Aqliy xujum" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: 1. H.Sh.Rahmonov "Tish texnikasi materialshunosligi"</p> <p>2. S.Yusupova D.Ashurov "Tish jarroxlgi stomatologiyasi va yuz-jag' travmatologiyasi"</p> <p>3. N.Toshpo'latova "Og'iz bo'shligi kasalliklari"</p>	<p>Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

<p>Pedagogik vazifalar. Tishsiz yuqori va pastki jag'ning tasnifi, to'la olib qo'yiladigan plastinkali</p>	<p>O'quv faoliyatining natijalari: Tinglovchi:</p>
---	--

<p>protezlari. To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez yasash uchun markaziy jiplashish xolatini aniqlash. To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez tayyorlashda tishlarni anatomik usulda terish. Progeniya prikusi bo‘lganda tish terish usuli. Prognatiya prikusi bo‘lganda tish terish usuli. Yuqori va pastki jag‘ uchun bir momentli usulda maxsus qoshiq tayyorlash. Ikki momentli usulda tayyorlanadigan maxsus qoshiq. Singan, olib qo‘yiladigan plastinkali protezlarni tuzatish va ular parvarish. Yuqori va pastki jag‘ uchun bir momentli usulda maxsus qoshiq tayyorlash.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Tishsiz yuqori va pastki jag‘ning tasnifi, to‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protezlari • To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez yasash uchun markaziy jiplashish xolatini aniqlash. <p>Progeniya prikusi bo‘lganda tish terish usuli</p>
<p>O‘qitish metodlari</p>	<p>“Baxs-munozara”, “Aqliy xujum”, “Issik kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O‘quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli</p>
<p>O‘qitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofil’mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.</p>
<p>O‘qitish shart sharoiti</p>	<p>Fanga mos jixozlangan o‘quv xona.</p>
<p>Qayta a‘loqaning usul va vositalari.</p>	<p>Og‘zaki so‘rov: tezkor so‘rov, yozma so‘rov, test, misol va mashklar bajarilgan o‘quv topshiriklarini baholash</p>

Mavzu: To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez yasash uchun markaziy jiplashish xolatini aniqlash

Dars rejasi:

1. Tishsiz yuqori va pastki jag‘ning tasnifi
2. To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protezlari.
3. To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez yasash uchun markaziy jiplashish xolatini aniqlash.

Yuqori jag‘ bo‘shlig‘i

Yuqori jag‘ bo‘shlig‘i (sinus maxillaries) juft va yirik bo‘lib, **yuqori jag‘ suyagi tanasida joylashgan**, har birining hajmi turlicha bo‘lib, kattalarda o‘rtacha **12-20 sm** teng (ba‘zan 30 sm ga yetishi mumkin). Yuqori jag‘ bo‘shliqlarining **shakli uch qirrali piramidani** eslatadi. Bo‘shliqlarning **ichki yuzasi qalinligi 0,1mm** atrofida bo‘lgan **shilliq parda bilan qoplangan** va u **ko‘pqatorli silindrik hilpillovchi epiteliydan tashkil topgan**. Hilpillovchi

epiteliyning harakati tufayli **shilimshiq ajralma doira** bo'ylab yuqoriga **bo'shliqning ichki devori tomon siljiydi**. Bu joyda bo'shliqning **o'rta burun yo'liga ochiluvchi teshigi** joylashgan. Yuqori jag' bo'shlig'ida

- old,
- orqa,
- yuqori,
- pastki va
- ichki devorlari tafovut etiladi.

Yuqori jag' bo'shlig'ining old, yoki yuz devori yuqori jag' suyagining old yuzidan hosil bo'lib, ko'z kosasining pastki chetidan yuqori jag' suyagining alveolyar o'simtasigacha davom etadi. Ushbu devor bo'shliqning **eng qalin devori** bulib, **lunjning yumshoq to'qimalari bilan qoplangan**. Yuz devorining old yuzasida joylashgan yassi suyak chuqurligi **qoziq yoki it chuqurchasi (fossa canina)** deb ataladi. U **4-7 mm chuqurlikda joylashadi**. Qoziq chuqurchasi haddan tashqari chuqur bo'lgan hollarda yuqori jag' bo'shlig'ining old va yuqori devorlari bevosita ichki devoriga yaqin joylashgan bo'ladi. Buni yuqori jag' bo'shlig'ini diagnostik teshish paytida e'tiborga olish lozim, chunki bunday hollarda nini yuzning yumshoq to'qimalariga yoki ko'z kosasiga kirib ketishi va yirinrgli asoratlarni rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bo'shliqning yuqori, yoki ko'z kosasi devori eng yupqa bo'lib, ko'z kosasining pastki devori hisoblanib, unda ko'z kosasi asab tolasining kanali joylashgan. Ba'zan asab tolasini va qon tomirlar yuqori jag' bo'shlig'ining yuqori devorini qoplagan shilliq pardaga yaqin joylashishi mumkin. Buni jarrohlik amalida patologik ajralmani qirib olish jarayoni paytida e'tiborga olish lozim.

Bo'shliqning orqa-yuqori (ichki) bo'limlari **g'alvirsimon labirintning orqa katakchalari va ponasimon bo'shliq bilan yonma-yon joylashganligi** tufayli ular yuqori jag' bo'shlig'iga ochilishi mumkin. **Ko'z kosasi va bosh miya qattiq pardasining g'orsimon sinusi bilan aloqa hosil qiluvchi vena qon tomirlar to'rining mavjudligi** yallig'lanish jarayonini ushbu maydonlarga tarqalishiga va **g'orsimon sinus trombozi, ko'z kosasi flegmonasi** kabi og'ir asoratlarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqori jag' bo'shlig'ining orqa devori qalin bo'lib, yuqori jag' suyagining tepaligi (tuber maxille) sohasiga to'g'ri keladi, uning orqa yuzasi yuqori jag' asab tolasini, qanottanglay tuguni, yuqori jag' arteriyasi va qanottanglay vena qon tomirlar to'ri joylashgan qanottanglay chuqurchasiga qaratilgan.

Bo'shliqning pastki devori yuqori jag' suyagining alveolyar o'sig'iga to'g'ri keladi. Uning tubi taxminan burun bo'shlig'i tubi sathida yoki undan pastroqda joylashgan. Ba'zan ushbu maydonda **ikkinchi kichik va ikkita katta oziq tishlarning ildizlari bo'rtib chiqib, ba'zan ildiz kariyesi** jarayoni odontogen gaymoritni rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqori jag' bo'shlig'ining ichki (burun) devori (piramidaning asosi) burun bo'shlig'ining tashqi devori hisoblanib, pastki va o'rta burun yo'llarining asosiy qismiga to'g'ri keladi. U asta-sekin yupqalashgan suyak plastinkasidan va o'rta burun yo'li maydonida **ikki qavat shilliq pardadan iborat.** Yuqori jag'

bo'shlig'ining teshigi yuqori bo'limlarda joylashganligi bo'shliq ajralmasi chiqarilishini qiyinlashtiradi.

Yuqori jag' bo'shlig'ining uzunligi **1-5 yoshli bolalarda** eni va balandligiga nisbatan ko'proq bo'ladi, **6-7 yoshlarga** borib uning shakli kattalarnikiga o'xshaydi. 8 yashar bolalarda yuqori jag' bo'shlig'ining tubi burun tubi sathida, **12 yoshli bolalarda** esa burun tubidan pastroqda joylashadi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda yuqori jag' bo'shlig'ining pastki devori ikki qator sut va doimiy tishlarning kurtaklari ustida joylashadi, lekin ular bilan tutashmaydi. Yosh bolalarda qoziq tish yuqori jag' bo'shlig'i va ko'z kosasining ichki burchagiga yaqin joylashib, **5-6 yoshda yuqori jag' bo'shlig'i qoziq tish, ikki kichik va katta oziq tishlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi**

Tishsiz yuqori va pastki jag'ning tasnifi

Tishsiz jag'lar — bu og'iz bo'shlig'ida tishlar yo'q bo'lgan holatdagi yuqori (maksilla) va pastki (mandibula) jag'larning anatomik va funksional xususiyatlarini aniqlashda ishlatiladigan tasnifdir. Tishsiz jag'larni tasniflash stomatologik protezlashda, implantatsiya va protez dizaynini belgilashda muhimdir.

Yuqori jag' (maksilla) tishsiz holati:

Yuqori jag'ning tishsiz holati bemorning yoshiga, tishlarning oldingi yo'qolish vaqtiga, jag'ning suyak zichligi va shakliga bog'liq. Maksilla tishsiz bo'lgan holatida uning anatomik xususiyatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- **Alveolyar soha:** Tish ildizlari joylashgan qism suyakdan yo'qoladi, alveolyar chiqindi kamayadi.
- **Qattiq shilliq pardalar:** Jag'ning shilliq qoplamasi elastik va bemor og'riqsiz protez ishlashini ta'minlashi kerak.
- **Kuyish va cho'kma zonarlari:** Maksillaning ayrim sohalari, masalan, palatina cho'kmasi, protezning stabil ishlashiga ta'sir qiladi.

Pastki jag' (mandibula) tishsiz holati:

Pastki jag'ning tishsiz holati yuqori jag'ga qaraganda ko'proq o'zgarishlarga ega. Mandibula suyak zichligi yuqori bo'lishiga qaramay, tish yo'qolishi bilan quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- **Alveolyar chiqindi kamayishi:** Tish ildizlari joylashgan soha torayadi va jag'ning balandligi pasayadi.
- **Suyak deformatsiyalari:** Mandibula tishsiz holatda chaynash bosimi bilan bog'liq bo'shliq va deformatsiyalar hosil bo'ladi.
- **Protez uchun moslashuv:** Pastki jag'da protez barqarorligi yuqori jag'ga qaraganda qiyinroq, chunki chaynash bosimi va harakatlar ta'siri kuchliroq bo'ladi.

To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protezlar

To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protezlar — bu tishlari to‘liq yo‘qolgan bemorlar uchun mo‘ljallangan, og‘iz bo‘shlig‘iga to‘liq moslashadigan vaqtinchalik yoki yakuniy protezlar hisoblanadi. Ular yuqori va pastki jag‘ning tishsiz holatiga moslab tayyorlanadi va bemorning chaynash, nutq va estetik funksiyalarini tiklashga xizmat qiladi.

Xususiyatlari:

- **To‘liq moslashuv:** Protez jag‘ning barcha tishsiz sohalarini qamrab oladi, shu bilan birga shilliq pardaga yumshoq bosim beradi.
- **Plastmassa asos:** Asosiy karkas sifatida akril yoki boshqa plastmassa materiallardan foydalaniladi. Bu material bemor uchun qulay, yumshoq va og‘riqsiz ta’sir qiladi.
- **Yuqori estetik ko‘rinish:** Tishlar tabiiy rang va shakl bilan tayyorlanadi, bemorning tabassumini va yuz simmetriyasini tiklaydi.

Tayyorlash bosqichlari:

1. **Klinik tekshiruv va o‘lchov olish:** Bemor jag‘ining tishsiz holati tekshiriladi, prikus va okklyuziya belgilanadi.
2. **Gips modeli tayyorlash:** Yuqori va pastki jag‘ning gips modeli tayyorlanadi, protezning aniq shaklini belgilash uchun ishlatiladi.
3. **Mum modelini modellashtirish:** Tishlar va protez shakli vaqtinchalik mum yordamida modellashtiriladi, bemor og‘izida sinovdan o‘tkaziladi.
4. **Plastmassa quyish yoki presslash:** Mum modeli asosida protez plastmassadan tayyorlanadi. Zarur hollarda vakuum presslash usuli yoki issiq presslash usuli qo‘llaniladi.
5. **Silliqlash va tugatish:** Plastinkali protezning sirlari silliq lanadi, ortiqcha materiallar olib tashlanadi, bemor og‘iziga moslashuv tekshiriladi.
6. **Yakuniy moslashuv:** Protez og‘iz bo‘shlig‘ida sinovdan o‘tkazilib, bemor uchun qulaylik va to‘g‘ri prikus ta’minlanadi.

Afzalliklari:

- Bemorga qulay va yumshoq bo‘lishi
- Estetik va tabiiy ko‘rinish berishi
- Qisqa muddat ichida tayyorlanishi
- Bemor uchun barqarorlik va chaynash funksiyasini tiklashi

To‘la olib qo‘yiladigan plastinkali protez yasash uchun markaziy gipslashish holatini aniqlash

Plastinkali to‘la olib qo‘yiladigan protezlarni tayyorlash jarayonida **markaziy gipslashish holati** bemorning jag‘larining to‘g‘ri joylashuvini va tishlarning to‘g‘ri okklyuziyasini ta‘minlash uchun muhim hisoblanadi. Bu holat jag‘larning o‘zaro nisbati, prikus va artikulyatsiyani aniqlashga xizmat qiladi.

Markaziy gipslashish holati aniqlashning asosiy vazifalari:

- Yuqori va pastki jag‘larning anatomik to‘g‘ri joylashuvini aniqlash
- Tishlarning funksional artikulyatsiyasini ta‘minlash
- Protezning og‘iz bo‘shlig‘ida barqaror ishlashini kafolatlash
- Bemor prikusini va chaynash funksiyasini to‘g‘ri tiklash

Aniqlash jarayoni:

1. **Bemor og‘iz bo‘shlig‘ini tekshirish:** Jag‘ning tishsiz holati, shilliq pardalar, alveolyar chiqindi va boshqa anatomik xususiyatlar aniqlanadi.
2. **Gips modellari tayyorlash:** Yuqori va pastki jag‘ning gips modeli olinadi va okklyudatorga joylashtiriladi.
3. **Markaziy holatni belgilash:**
 - Jag‘larni bemorning tabiiy markaziy prikus holatiga keltirish
 - Yuqori va pastki gips modellari orasidagi bo‘shliqni moslashtirish
 - Artikulyatsiya nuqtalarini belgilash va barqaror joylashuvni ta‘minlash
4. **Sinov va moslashuv:** Modellar okklyudatorida sinovdan o‘tkaziladi, kerak bo‘lsa tuzatishlar kiritiladi.
5. **Yakuniy markaziy gipslashish holati:** Belgilangan markaziy holat asosida plastinkali protez shakllantiriladi va bemor og‘izida moslashadi.

Ahamiyati:

- Protez tayyorlashning keyingi bosqichlarida tishlarning to‘g‘ri joylashuvi kafolatlanadi
- Chaynash va nutq funksiyasi yaxshilanadi
- Protez barqarorligi oshadi va bemor qulaylikka ega bo‘ladi

“Aqliy hujum” usuli. Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.

Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Har qanday javoblar usul so'ngida muhokama qilinadi.

Nazorat savollari

1. Markaziy gipslashish holati nima va u plastinkali protez tayyorlashda nima uchun muhim?
2. To'la olib qo'yiladigan plastinkali protez tayyorlash jarayonida markaziy holatni aniqlashning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Gips modellar yordamida markaziy gipslashish holatini qanday aniqlash mumkin?
4. Markaziy gipslashish holati noto'g'ri belgilansa, protez qanday muammolar yuzaga keltirishi mumkin?
5. Markaziy gipslashish holatini aniqlash jarayonida bemor ishtiroki qanday ahamiyatga ega?
6. Okklyudatorida gips modellarini sinovdan o'tkazishning maqsadi nima?
7. Plastinkali protezlarni tayyorlashda markaziy holatni aniqlash qaysi bosqichlardan keyin amalga oshiriladi?
8. Jag' anatomiyasiga moslashish va prikusni to'g'ri belgilashda qaysi mezonlar muhim hisoblanadi?
9. Markaziy gipslashish holati va yakuniy protez funkcionalligini qanday tekshirish mumkin?
10. Markaziy holatni aniqlash protezning estetik va funksional sifatiga qanday ta'sir qiladi?

Test savollari

1. Markaziy gipslashish holati nima uchun muhim?
A) Tish rangini aniqlash uchun
B) Jag'larning to'g'ri joylashuvi va prikusni belgilash uchun
C) Mumni eritish tezligini oshirish uchun
D) Og'iz bo'shlig'ini dezinfeksiya qilish uchun
Javob: B
2. To'la plastinkali protez tayyorlashda markaziy gipslashish holati qachon aniqlanadi?
A) Mum modellar tayyorlanganidan keyin
B) Protez og'izga qo'yilganidan keyin
C) Jag'ni tekshirayotgan bosqichda
D) Estetik qoplama qo'yilgandan keyin
Javob: A
3. Markaziy gipslashish holati noto'g'ri belgilansa, protezda qanday muammo yuzaga keladi?
A) Rang uyg'unligi buziladi
B) Prikus va chaynash funktsiyasi noto'g'ri bo'ladi
C) Mum eritish tezligi kamayadi
D) Tishlar silliqanmaydi
Javob: B

4. Markaziy holatni aniqlashda ishlatiladigan asbob nima?

- A) Skalpel
- B) Okklyudator
- C) Lazer qurilma
- D) Keramika qoplama

Javob: B

5. Markaziy gipslashish holatini aniqlash jarayonida bemorning ishtiroki nimaga xizmat qiladi?

- A) Tish rangini tanlash
- B) Okklyuziya va qulay prikusni aniqlash
- C) Mumni silliqlash
- D) Protezni polirovka qilish

Javob: B

6. Gips modellar yordamida markaziy holatni aniqlash qanday natija beradi?

- A) Protezning estetik ko‘rinishi yaxshilanadi
- B) Protez jag‘ga barqaror joylashadi va chaynash funktsiyasi tiklanadi
- C) Mum oson eritiladi
- D) Tishlarning rangi tabiiy ko‘rinadi

Javob: B

7. Okklyudatorida gips modellarini sinovdan o‘tkazishning maqsadi nima?

- A) Rangni tekshirish
- B) Modellarining to‘g‘ri prikus va artikulyatsiyada joylashishini aniqlash
- C) Mumni eritish tezligini oshirish
- D) Tishlarni silliqlash

Javob: B

8. Markaziy holatni aniqlash protezning qaysi xususiyatini yaxshilaydi?

- A) Faqat estetik ko‘rinishi
- B) Funktsional va estetik sifati
- C) Mumning qattiqligi
- D) Tishlarning egiluvchanligi

Javob: B

9. Gipslash jarayonida markaziy holatni aniqlash qanday bosqichdan keyin amalga oshiriladi?

- A) Plastik protez shakllantirilgandan keyin
- B) Mum modeli tayyorlangandan keyin
- C) Keramika qoplama qo‘yilgandan keyin
- D) Protez og‘izga qo‘yilganidan keyin

Javob: B

10. Markaziy gipslashish holati protez tayyorlashda qaysi funktsiyalarni kafolatlaydi?

- A) Faqat estetik ko‘rinish
- B) Prikus, artikulyatsiya va chaynash funktsiyasi
- C) Mumning barqarorligini
- D) Tishlarning rangi va egiluvchanligini

Javob: B

1- mavzu: O'quv moduliga ajratilgan kredit jami 6 .	Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlari.
--	---

Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik xaritasi.

Vaqt: 160 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot 4 kredit
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Favqulotda vaziyat nima? 2. Terminal xolatlar. Yurak-o'pka reanimatsiyasi. 3. Yuqori nafas yo'llari o'tkir obstruksiyasi. 4. Cho'kish. Issiqlik urishi.
<p>O'kuv mashg'uloti maksadi:</p> <p>1.Ta'limiy: Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p>2.Tarbiyaviy maqsadi: Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	

Ish bosqichlari va vakti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 bosqich O'kuv mashg'ulotiga kirish 10 dakika	<p>Tashkiliy kism</p> <p>1.1 O'kituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'kuv bulimi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiridi,ichki tartib qoidalariga rioya kilishni eslatib o'tadi, yangiliklar aytiladi va eshitaladi.</p> <p>1.2 O'kuv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>

	faollashtirish uchun ko'llaniladigan usullarni aytib o'yin koidalarini tushintiradi.	
<p>2-bosqich. Asosiy qism 140 dakika</p> <p>1. Tinglovchilar bilimni tekshirish va uyga vazifani baxolash 20 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 60 daqiqa</p> <p>3.O'kitishning noananaviy usullarini ko'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash 30 daqiqa va mavzuga oid videorlik ko'rish 30 daqiqa</p>	<p>1.Tinglovchilarning uyga vazifani bajarganligini tekshiradi va ularga o'tilgan mavzuni takrorlash uchun “Baxs munozara” usulida mavzu takrorlanadi. o'qib eshittiradi.To'g'ri javob bergan tinglovchilar baxolanadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'kituvchi tomonidan taqdimot ko'rinishida maxsus monitor orqali tushuntiriladi. Mavzu keng va tushunarli tarzda mavzu bayon etiladi. Tinglovchilar tomonidan mavzuga oid savollarga javob beradi.</p> <p>3.Mavzu tushuntirilgandan so'ng «Akvarium» usuli orqali tinglovchilarni o'zlashtirish darajasi baxolanadi.</p>	<p>1.Tinglovchilar uyga vazifalarini topshiradilar.O'tilgan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan “Baxs munozara” usulida mavzuni takrorlaydilar.</p> <p>2.Tinglovchilar ma'ruzani diqqat bilan tinglaydilar, Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmag an joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar.</p> <p>3.« Akvarium » interaktiv o'yinida faol ishtirok etadilar o'z bilimlarini sinaydilar.</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 10 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa ” Favqulotda xolatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.”mavzusini o'qib konspekt qilish va Krossvord tuzib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.Hamraev A.J., Alimov A.V., A'zamxo'jaev T.S. “Xirurgiya va reanimatsiya asoslari”. Toshkent, “Zar qalam” nashriyoti, 2005 yil. 2.Hamraev A.J. “Xirurgiya ” “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2007 yil</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifalarni yozib oladilar.</p>

	3.M.F.Ziyaeva,M.A.Axmedova “ Jarroxlikda xamshiralik ishi” 2005 y, 4.V.N.Turaqulov,F.A.Qurbonov “Xirurgiyada xamshiralik ishi” 2019 y, F.N.Nishonov, 5.B.R.Abdullajonov,N.Ye.Bozorov “Xirurgik kasalliklar” 2020 y.	
--	--	--

17-Mavzu Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlari.

Dars rejasi:

Reja:

1. Favqulotda vaziyat nima?
2. Terminal xolatlar. Yurak-o‘pka reanimatsiyasi.
3. Yuqori nafas yo‘llari o‘tkir obstruksiyasi.
4. Cho‘kish. Issiqlik urishi.

Favqulotda vaziyat nima?

Favqulotda vaziyat sharoit buzish va kishilar sog‘lig‘iga yoki atrof muhitga sezilarli moddiy yo‘qotishlar , ijtimoiy tuzilmalarni barbod bo‘lishiga yoki kishilar qurbon bo‘lishiga olib kelgan yoki olib keladigan ofatlar yoki boshqa ofatlar , falokatlar natijasida yuzaga kelgan ma’lum hududdagi vaziyat.

Favqulotda vaziyat yuzaga kelgandagi havf.

1. Kishi hayotiga tahdid soluvchi havf.
2. Kishi sog‘lig‘iga tahdid soluvchi havf.
3. Hayot faoliyati sharoiti buzilishi.
4. Sezilarli moddiy yo‘qotishlar.
5. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar.

Favqulotda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari.

Favqulotda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari turlicha, ammo ularni quyidagi uchta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Tabiat yaratgan sabablar.
2. Ijtimoiy mazmundagi sabablar.
3. Tabiat va kishi xatosi bilan birgalikda yaratilgan sabablar.

Favqulotda vaziyatlar tasnifi.

Favqulotda vaziyatlarni asosan 2 turga bo‘lib tasniflash bo‘ladi(chizmaga qarang). Tabiiy ko‘rinishdagi FV va texnogen xususiyatga ega bo‘lgan FV. Tabiiy ko‘rinishdagi FV tayfun, uragan, suv toshqini, qurg‘oqchilik, ko‘chki, zilzila, sunami, vulqonlarning otilib chiqishi, epidemik kasalliklar va boshqalarni kamrab oladi. O‘zbekistonda ko‘chki, suv toshqini va epidemik kasalliklar uchrab turadi.

Tabiiy:

- Hidrometeorologik(tayfunlar,uraganlar,suv
- Qurg‘oqchilik, kuchki
- Geologik (zilzilalar, sunami, vulqonlar va b. lar).

- Biologik(epidemiya)(hayvonlar, o'simliklar orqali),
- Toksik moddalar bilan zaxarlanish, ovqatdan ommaviy zaxarlanish va boshqalar

Texnogen:

- Texnika bilan bog'liq(transport avariylari, zavodlarda avariylar, yong'in va portlash xavfi bor ob'ektlarda sodir bo'lishi mumkin avariylar, radioaktiv avariylar va x.k.lar)
- Majmualiy ofatlar(terrorizm, irqiy majoralar, xarbiy harakatlar, ichki mojaralar, urush)

Terminal holat deganda – organizmning o'lim bosqichlari tushuniladi Bu a'zo va sistemalar mutanosib funksiyasi buzilishi natijasida gomeostazning o'zgarishi va buzilishidan kelib chiqadi.

Terminal holatga:

- a) preagoniya
- b) agoniya
- v) klinik o'lim

Preagoniya – Ichki a'zolarga kislorod yetishmovchiligi natijasida kelib chiqadi. Bu xolat 5-10 sekunddan 3-4 minutgacha davom etadi.

Belgilari:

Asta sekin hushdan ketish. Nafas olishni o'zgarishi (avvaliga tez-tez, keyin yuzaki, keyin kam nafas olish). Qon aylanishini o'zgarishi (AQB past, puls tez-tez, keyin pasayadi). Teri qoplamalarini o'zgarishi (ko'karish, oqarish, nuqtalarni xosil bo'lishi)

Agoniya – organizmning so'ngi kompensator reaksiyasini ishga tushishi.

Belgilari: boshlanishida bemor AQB normallasadi, yurak urishi ko'payadi, nafas olish yaxshilanadi, xatto bemor bir necha soniyaga xushiga kelishi mumkin. Bemorni axvoli yaxshilanayotgandek tuyuladi va birdaniga AQB tushib ketadi, ipsimon puls, nafas olishini o'zgarishi, xushdan ketish kabi belgilar kuzatiladi. Bemorda og'riqni sezish, va boshqa bir qator reflekslar yo'qoladi. Agonal xolat bir necha minutdan bir necha soatgacha davom etishi mumkin va klinik o'lim bilan tugaydi.

Klinik o'lim - qon aylanish va nafas olish funksiyasi umuman to'xtagan, lekin, miyadagi asosiy hujayralar hali tirik bo'lib, bu holat 5-6 minut davom etishi mumkin. Klinik o'lim holatida - ko'z qorachig'i kengaygan, ularning yorug'likka reaksiyasi yo'q, teri qoplamalari rangi o'zgargan, tonik (sudorogi) harakatlar kuzatiladi Keyin orqaga qaytmas holat - biologik o'lim sodir bo'ladi.

Yurak urushi va nafas olish to'xtaganda jonlantirish choralari.

YURAK O'PKA REANIMATSIYASI.

Baxtsiz xodisalar tufayli bemor xushini yo'qotganda, unda nafas va yurak ritmining to'xtab qolishi kuzatiladi. Shunday xollarda nafas yo'llarini o'tkazuvchanligini ta'minlash va qon aylanishini yaxshilash, o'pkaga sun'iy nafas berish, yurakni bilvosita massaj qilishga qaratilgan tadbirlar kompleksiga "Yurak o'pka reanimatsiyasi" deyiladi. Asosiy tadbirlarni "AVS" ketma-ketligida bajarish mumkin.

A-nafas yo‘llarini utkazuvchanligi

V-nafas berish

S-sirkulyatsiyani yaxshilash

Birinchi navbatda yordam ko‘rsatuvchi o‘z xavfsizligini ta‘minlashi kerak. Shundan so‘ng bemorning xayot ko‘rsatkichlari, ya‘ni es-xushi, ko‘z qorachiqclarini yorug‘likka reaksiyasi, refleklari, nafas olishi xamda yurak urishini tekshirib ko‘riladi. Bemorni qattiq yuzaga yotqizib, siqib turgan kiyimlari bo‘shatiladi. Shundan so‘ng 1 chi bosqichda kirishiladi;

A- NAFAS YO‘LLARINI O‘TKAZUVCHANLIGINI TA‘MINLASH.

Buning uchun avvalambor bemorning bo‘yin umurtkasi tekshirib olinadi. Shundan so‘ng bemorni boshini orqaga engashtirib chalqancha yotqiziladi, pastki tishlar yuqoridagi tishlardan bir oz chiqib turadigan qilib pastki jag‘ oldinga suriladi. Shundan so‘ng og‘iz bo‘shlig‘i tekshirib ko‘riladi. (shilimshiqlar, ovqat luqmalari, protezlardan tozalanadi). Og‘izga salfetka qo‘yiladi. Bu ishlarni tez, shikast yetkazmay, extiyotlik bilan bajarish lozim. Nafas yo‘llari ochilganligiga ishonch xosil qilingach 2 bosqichga o‘tiladi:

V- OG‘IZDAN OG‘IZGA YoKI OG‘IZDAN BURUNGA SUN‘IY NAFAS BERISH.

Sun‘iy nafas berishni yurakni bilvosita massaj qilish bilan birga bajariladi. S-QON AYLANISHINI TA‘MINLASH - I-yordam beruvchi bemorni burnini chap kuli bilan berkitib chuqur nafas oladi va bemorni og‘ziga sun‘iy nafas beradi. II-yordam beruvchi esa, qo‘l kaftlarini ustma ust qilib, bemor xanjarsimon o‘simtasidan 2 barmoq yuqoriga qo‘yadi. Tirsaklarini bukmasdan butun tana vaznini og‘irligi bilan yurakni massaj qiladi. Bunda yurak to‘sh bilan umurtqa pog‘onasi o‘rtasida siqila boshlaydi va qon yurakdan xaydaladi.

BELGILARI	kattalar	1-8yoshgacha	1yoshgacha	Yangi tug‘ilgan chaqaloklar
Ko‘krak qafasini bosish soni	1min 100martadan kam bo‘lmasligi kerak			
1min.nafas olish tezligi	Xar 6-8 sekund 1nafas (1min. 8-10 nafas)			30 nafas
Bosish chukurligi	5 smdan kam emas	5smgacha	4smdan kam emas	1,5-2,0sm.
Yurak massaji vaqtida qo‘lar xolati	Xanjarsimon o‘simtadan 2ki barmoq yuqoriga kaftni kaft ustiga kapalak simon qo‘yiladi	Xanjarsimon o‘simtadan 2ki barmoq yuqoriga 1-qo‘lning kafti qo‘yiladi	So‘rg‘ichlar orasiga 2ta barmok qo‘yiladi	

Sun'iy nafas va yurak massajining nisbati	30:2 (1yoki 2 kishi)	30:2 (1yoki 2 kishi) 15:2 (2 kishi)	3:1 15:2
---	-------------------------	--	-------------

BEHUSHLIKDA BIRINCHI YoRDAM BERISH

Behushlik (obmorok) - bosh miyaning daf'atan kamqon bo'lib qolishi, bunda odam qisqa vaqt o'zini bilmay qoladi. Obmorok - o'tkir qon tomirlar yetishmovchiligiga aytiladi.

№	Muolaja bajarish algoritmi	Muolajani asoslab berish
1	Bemorni tekis joyga oyoqlarini ko'tarib yotkiziladi.	Miyaga qon okib kelishi uchun.
2	Siqib turgan kiyimlar bo'shatiladi.	O'pkada havo aylanishini yaxshilash uchun
3	Toza havo bilan ta'minlash	Miyada gipoksiyani oldini olish uchun.
4	Bemor yuziga va tanasiga sovuq suv sepiladi, piyoz va novshadil spirti hidlatiladi. Bemorni quloq suprasini massaj qilish kerak. Oyog'iga grekla qo'yiladi. Shirin choy ichiriladi.	Bu bilan nafas olish va yurak qon tomir markazi kuzg'atiladi. Periferiyadagi qon aylanishini yaxshilaydi
5	Kordiamin - 25%-1,0-2,0 ml t/o, Kofein 10%-1,0 ml t/o	Markaziy asab tizimini ko'zg'atish xususiyatga ega.

KOLLAPSDA BIRINCHI YoRDAM

Kollaps-arterial bosimning keskin pasayib ketishi va periferiyada qon aylanishining dag'al suratda izdan chiqishi bilan xarakterlanadigan o'tkir qon tomirlar yetishmovchiligidir.

№	Muolaja bajarish algoritmi	Muolajani asoslab berish
1.	Bemorni tekis va qattik joyga boshini osiltirib yotqiziladi	Miyaga qon oqib kelib – gipok-siyar oldini olish uchun
2.	Siqib turgan kiyimlar bo'shatiladi.	Nafas olishni yengillashtirish uchun
3	Toza havo bilan ta'minlash	Gipoksiyani oldini olish uchun
4.	Tomirni toraytiruvchi dori vositalari yuboriladi Mezaton 0.1% - 0,1 ml yoshiga nisbatan teri ostiga yoki Noradrenalin 0.1% teri ostiga, 0,1 ml yoshiga nisbatan yoki Adrenalin 0.1% -0,1 ml yoshiga nisbatan teri ostiga	Qon tomirini toraytirib, qon bosimini ko'taradi.
5.	Vena ichiga qon o'rnini bosuvchi vositalar quyish – qon bosimini nazorati ostida	Qon tomirlarini qonga to'ldiradi va qon bosimini oshiradi

ShOK

ShOK - ingliz tilidan tarjima qilinganda “turtki” (tolchok) manosini bildiradi. Shok turlari: travmatik, kardiogen, infeksiyon-septik, anafilaktik, gipovolemik, neyrogen va psixik.

Sabablari:	Belgilari:
<ul style="list-style-type: none">- Ko‘p miqdorda suyuqlik yo‘qotish (qon ketishi, diareya, qayt qilish, kuyishlar)- Elaktrotravma- Kuchli og‘riq- Allergik reaksiyalar,- Infeksiya- Issiqlik yoki sovuq ta’siri- Intoksikatsiyalar-kuchli ruxiy stresslarda	<ul style="list-style-type: none">- Besaramjonlik, xavotir, rangpar, sovuq, nam teri, kuchli chanqash, ko‘ngil aynashi, qayt qilish, kuchsiz, tez-tez tomir urishi, AQB pastga tushishi, yuzaki tezlashgan nafas, bosh aylanishi, asta sekin xushni yo‘qotish.

Shokda birinchi yordam berish (keltirib chikaruvchi sababga ko‘ra)

Shok hayot uchun o‘ta xavfli holat bo‘lib shok sababchisi turlicha bo‘lishi mumkin.

№	Muolaja bajarish algoritmi	Muolajani asoalab berish
1.	Bemorni boshi pastroq qilib yotqiziladi.	-gipoksiyani olidini olish uchun.
2.	Shokni keltirib chiqqan sababini aniqlash.	-to‘g‘ri yordam berish uchun.
3.	Bemorni isitish kerak.	-periferiyadagi qon aylanishini yaxshilash uchun.
4.	Tinchlik va toza havo bilan ta’minlash.	-bemorni ahvolini yaxshilash uchun.
5.	Agar bemor yuta olsa, oz-ozdan suyuqliklar berish kerak.	-suvsizlanishni oldini olish uchun.
6.	Og‘riqni qoldirish uchun quyidagi dori vositalarini yuborish mumkin: analgin 50%-0,1 ml yoshiga nisbatan, m o; • yoki promedol 2% -1,0-2,0 ml, m o; • yoki morfin 1% -0,5-1,0 ml t o;	-og‘riqni kamaytirish uchun.
7.	Bemorga qilingan muoalajalar yordam bermasa, tez yordamga murojat qiling.	-malakali tibbiy yordam ko‘rsatish uchun.

ELEKTRDAN SHIKASTLANGANDA BIRINCHI YORDAM

Zudlik bilan elektr toki ta’sirini to‘xtatish lozim. Shikastlangan kishi, ko‘pincha, usti ochiq simni ushlab olib, muskullari qisqarganidan uni qo‘yib yubora olmaydi. Shuning uchun tezda elektr tokini o‘chirish yoki uning iloji bo‘lmaganda shikastlangan kishini toq o‘tmaydigan narsalar yordamida tortib olish lozim bo‘ladi. Bunda elektr tokini o‘tkazmaydigan rezina qo‘lqop, kalish yoki etik, jundan tayyorlangan ko‘rpalar ipak gazlamalar, quruq yog‘ochdan foydalanish zarur. Nafas

olish yoki yurak urishi to'xtasa, sun'iy nafas oldirish va yurakni massaj qilish kerak bo'ladi.

SUVGA CHO'KKANDA BIRINCHI YORDAM

Cho'kayotgan kishini qutqarib olishda juda ehtiyot bo'lish zarur. Uning orqasidan suzib borish kerak. Sochidan yoki qo'ltig'idan ushlab uning yuzini yuqoriga qaratib, tortib ketishiga yo'l qo'ymay qirg'oq tomonga suzish kerak.

Birinchi yordamni u suvdan chiqarilgandan boshlash kerak. Qutqarilgan kishining tizzasini bukib, u qorni bilan yotqiziladi, bunda uning boshi ko'krak qafasidan pastda bo'lishi kerak (quyida keltirilgan rasmga qarang). So'ngra ko'krak qafasini bosadigan qattiq harakatlar bilan traxeya va bronxlardagi suvni chiqarishga harakat qilinadi. Havo o'tadigan yo'llardan suv chiqarilgandan so'ng, shikastlangan kishini tekis joyga yotqizib, nafas olish to'xtab qolgan taqdirda ma'lum usullardan biri (og'izdan-og'izga yoki burundan – burunga) bilan daqiqaga 16-18 martadan sun'iy nafas oldirishga kirishiladi. Yurak faoliyati to'xtaganda massaj qilish zarur.

SOVUQ URISHI

Sovuq urishi - tanaga past harorat ta'sir etganda kelib chiqadi.

Bunda bemor a'zolarini noqulay sharoitlarda ho'l, tor poyabzal kiyish, holdan toyish, 40°Sda hatto, bundan yuqori haroratda ham sovuq urishi mumkin. Ko'pincha, qo'l va oyoqlarning barmoqlari, quloq va burun uchini sovuq uradi.

Sovuq urishning 4 ta darajasi bo'ladi.

Birinchi yordam ko'rsatishda bemor issiq xonaga yotqiziladi. Unga issiq choy, yurak faoliyatini yaxshilovchi va og'riq qoldiruvchi dorilar beriladi. Bemorni vannaga tushirib suv harorati 18-20°S dan asta-sekin 37°S gacha ko'tariladi. Vannada qon ta'minoti, sezuvchanlik tiklangunga qadar ehtiyotlik bilan massaj qilish lozim. Oyoq yoki qo'l terisi spirt bilan artiladi va unga qalin doka bog'lab qo'yiladi.

Mahalliy va umumiy davolash ishlari olib boriladi.

KOMA

Koma - behushlik holati bo'lib, markaziy nerv sistemasining endogen, ekzogen patologik ta'sirotalar natijasida bosh miya reflektor faoliyatining tormozlanishidir.

Komaning turlari ko'p:

1. Uremik koma. Buyraklar ish faoliyati buzilishi natijasida qonda mochevina va kreatinin miqdorining oshib ketishi natijasida bo'ladi.
2. Diabetik koma. Oshqozon osti bezi faoliyati buzilganda qondagi qand miqdori oshib ketishi - giperglikemik, kamayib ketsa - gipoglikemik koma deb aytiladi.
3. Travmatik, termik, anafilaktik, epileptik komalar ham bo'ladi.

KUYISH

KUYISH bu - yuqori temperatura, kimyoviy moddalar, nurlanish yoki elektr toki ta'sirida to'qimalarning jarohatlanishi. Shuning uchun kuyish tasnifida 4ta etiologik faktor e'tiborga olinadi.

Teri kuyishi kuyishning 90-95% tashkil qiladi. Kuyish ta'sirida organizimda yuzaga keladigan patologik holatga – kuyish natijasidagi kasallikka « kuyish kasalligi» deyiladi.

Buning 4ta bosqichi bor:

- 1 kuyish natijasidagi shok.
- 2 kuyish natijasidagi o'tkir toksemiya.
- 3 o'tkir septikotoksemiya
- 4 rekonvalissensiya.

Kuyish natijasida kasallikning og'irlik darajasi-kuygan maydonning kengligi va chuqurligi bilan belgilanadi.

Kuyishning 4 darajasi bor (epidermis- o'suvchi qavat, derma- chuqur qavat). 1, 2 va 3A darajada kuyish yuzaki deyiladi, chunki terining epidermis qavatigina zararlanadi. 3B va 4 daraja kuyish chuqur kuyish deyiladi, bunda terining epidermis va derma qavatlari ham kuyadi va teri o'zi o'smaydi, shu yer biriktiruvchi to'qima bilan qoplanib chandiq hosil bo'ladi.

1 darajali kuyishda - giperimiya, shish, achishish bo'ladi.

2 darajali kuyishda - unchalik tarang bo'lmagan pufakchalar hosil bo'lib, uning atrofi giperimiyalangan bo'ladi.

3A darajali kuyishda - katta, suyuqligi ko'p yoki jelesimon, pufakchalar bo'lib, yorilsa tagi pushti rangli bo'ladi.

3B darajali kuyishda - gemorragik suyuqlik bilan to'lgan, yorilganda to'q kulrang iz qoldiruvchi pufakchalar hosil bo'ladi. (qon tomirlar trombozi, to'qima oqsillari koagulyatsiyasi hisobiga).

4 daraja kuyishda - kuygan yer jigarrang yoki qora, kartonga o'xshab qolgan.

Kuygan yer kengligini kaft bilan o'lchash mumkin, kuygan soha 1 ta bemor kaftiga teng bo'lsa, 1% ga to'g'ri keladi.

Uollsning 9 lik qoidasi:

1. Bosh-bo'yin - 9%
 2. Xar bir qo'l - 9% +9% =18%
 3. Tananig old qismi -18%
 4. Tananing orqa qismi - 18%
 5. Xar bir oyoq -18% + 18% =36%
 6. Tashqi jinsiy a'zolar - 1%
- Umumiy maydon == 100 %

Tez tibbiy yordam ko'rsatish

1. Kimyoviy kuyish bo'lsa 10-15 min oqib turgan suvda yuvish kerak.
2. Quruq steril salftetka bilan yopiladi, steril salftetka bo'lmasa toza mato yopiladi, gospitalizatsiya qilinadi.
3. Og'riq qoldirish uchun – promedol, amnopen, morfin, analgin m/o yuboriladi.
4. Desensibilizatsiyalovchi antigistamin preparatlar-dimedrol, suprastin, v/m agar stasionarga yotqizishgacha 1 soatdan ortiq vaqt ketsa, plazma o'rnini bosuvchi suyuqliklar beriladi 800-1200 ml
5. Shokka qarshi choralardan biri issiq choy yoki kofe, ishqoriy mineral suv.
6. Ichida elektrolitlari bo'lmagan suyuqlikni 0,5 l dan ortiq bermaslik kerak, chunki – suvli intoksiksiyaga sabab bo'ladi.

Kuygan kishiga birinchi yordam ketma-ketligi kuyish sodir bo'lgan yerda amalga oshiriladi:

- ✓ ta'sir etayotgan issiqlikni to'xtatish

- ✓ kuygan yerni sovutish
- ✓ og‘riq qoldirish.
- ✓ kuygan soxa ustini steril mato bilan bekitish.
- ✓ zudlik bilan kasalxonaga yetkazish

TRANSPORTIROVKADAN oldin – og‘riq qoldirish (neyroleptik), antigistamin preparatlar.

Transportirovkada – ingalyatsion anesteziya, plazma o‘rnini bosuvchi suyuqliklar, ishqoriy suyuqliklar berish.

Maxalliy davolash, shokning oldi olingandan keyin qilinadi. Birlamchi xirurgik tozalash – obrabotka spirt bilan yoki 0,25 % ammiak eritmasi bilan artiladi.

Kuygan soxa 2 usulda davolanadi:

- ochiq usul – maxsus karkas, unga lampochkalar o‘rnatilgan bo‘ladi.
- yopiq usul – bog‘lamlar qo‘yish bilan, bunda 5-10% sintomitsin emulsiyasi, 0.5% furatsilin mazi, 10% anestizin mazi birlamchi obrabotkadan keyin 6-8 sutkaga bog‘lab qo‘yiladi, agar kuygan joy yiringlagan bo‘lsa:

Agar yiringli yallig‘lanish bo‘lsa 0,02% furatsilin eritmasi, 0,5% kumush nitrat.

3B darajadagi kuyish bo‘lsa, qonservativ davolash bog‘lashlar bilan o‘tadi. Chuqur kuyishlarda operatsiya bilan davolanadi.

- 1 nekrotomiya
- 2 nekroektomiya
- 3 teri plastikasi.

QON KETISH

Qon qaerdan ketishiga qarab: arteriya, vena, kapillyar va parenximatoz organlarga ajratiladi.

Birlamchi – (jarohatdan keyin qon ketishi) va ikkilamchi – (qon ketish to‘xtagandan keyinroq – operatsiya va boshqa hollarda) qon ketishlari hamda tashqariga (qon tomirlardan tashqariga ketishi) va ichkariga (qorin bushlig‘iga, plevra bo‘shlig‘iga, oshqozon, ichaklarga...) qon ketishlar bo‘ladi.

Qon ketishni to‘xtatish

Qon ketishni to‘xtatish:

1. Vaqtincha.
2. Uzil – kesil bo‘lishi mumkin.

Qon ketishni vaqtinchalik to‘xtatish

Bir qancha usullari mavjud:

1. Bosib turuvchi bog‘lam. Bu usul vena va kichikroq arteriyalardan qon oqishida uni vaqtincha to‘xtatish uchun qo‘llaniladi. Bunda steril doka bir necha qavat qilib qonayotgan sohaga qo‘yiladi va ustidan yana steril doka bilan mahkam o‘raladi.

2. Oyoq-qo‘lni bo‘g‘imidan bukish. Taqim, chov, son, yelka arteriyasi, chov bo‘g‘imidagi son arteriyalari jarohatlanganda yuz beradigan qon oqishini, ba‘zan oyoq-qo‘lni maksimal bukish yoki bog‘lab tortib qo‘yish yo‘li bilan to‘xtatish mumkin.

3. Jarohatda tomirni bosib turish. Qo'lga steril qo'lqop kiyiladi va spirt, yod bilan artiladi. Ko'rsatkich barmoq jarohatga kiritilib, sizib chiqayotgan qon tomiri bosilib, to'xtatiladi.

4. Jarohatni zich tamponlash. Buning uchun tampon olinib, jarohatga birin-ketin va zich qilib biriktirish orqali qon to'xtatiladi. Odatda, bu usul burundan qon ketganda qo'llaniladi.

5. Qonab turgan tomirga qisqich qo'yish. Oyoq-qo'l, chanoq, qorin bo'shlig'ida chuqur joylashgan tomirlardan oqayotgan qon qisqich qo'yib to'xtatiladi.

6. Tomir bo'ylab bosib turish. Bu usulda ayrim yirik arteriyalardan oqayotgan qonni to'xtatishga tomirga yaqin joylashgan nuqtalar orqali suyaklarga bosish yo'li bilan erishiladi.

7. Jgut bog'lash. Bu ayniqsa, arterial qon ketishni to'xtatishda asosiy usul hisoblanadi. Arterial qon ketishida jgut jarohatga nisbatan markaziy tomonga qo'yiladi. Jgut bog'lashdan oldin terini qisib qo'yimaslik uchun oyoq yoki qo'lga sochiq, bint o'raladi. Jgut cho'zilib, oyoq yoki qo'l atrofida aylantiriladi. Jgut o'ramlarining kesishmay, balki yonma-yon joylashishiga e'tibor berish zarur. Jgut uchlari mahkamlanadi va uning o'ramlaridan birining tagiga yozilgan qog'oz qistirib qo'yiladi. Jgut 2 soatdan ortiq qo'yilmasligi kerak, aks holda anaerob infeksiyalar rivojlanishiga va to'qimalar o'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Arteriyaga qo'yilgan jgut to'g'ri bog'langanda oyoq yoki qo'lning undan chetroqdagi qismi oqaradi, jgutdan pastda puls yo'qoladi, qon oqishi to'xtaydi.

Qon ketishini uzil-kesil to'xtatish

Mexanik, fizik, kimyoviy va biologik usullari mavjud.

Bunda tomirlar ushlab olinib, yoki tikiladi. O'sha joyga muzli xaltacha qo'yiladi, bu usul asosan, kapillyarlardan qon ketganda qo'llaniladi.

Elektrokoagulyatsiya – elektrokoagulyator yordamida qon ketib turgan mayda tomirlar koagulyatsiya qilinadi. Ayrim vaqtlarda issiq fiziologik eritmadan ham foydalaniladi.

Tomirlarni toraytiruvchi, qon ivish tizimiga ta'sir qiluvchi vositalar beriladi. Gemostatik vositalarni mahalliy va umumiy qo'llash mumkin. Qon, uning elementlari, plazma quyish ham yaxshi natija beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Yurak upka reanimatsiyasi nima degani?
2. Yurak upka reanimatsiyasi kandy xolatlarda bajariladi?
3. Yurak upka reanimatsiyasini bajarishdan oldin bemorlarda kandy kursatkichlarni aniklab olish zarur?
4. Yurak upka reanimatsiyasini bajarish ketma-ketligini bilasizmi?

Tibbiy atamalar

1. Reanimatsiya-jonlantirish.

MUAMMOLI MASALALAR

Masala: №1

Bemor 48 yosh ogir xolatda tushdi, shikoyatlari bugilishga, xavo yetishmovchilikka. Bemorda bezovtalik, gapirishga va nafas olishga kiyinlashishiga.

Ob'ektiv: teri koplamlari okish rangda, terlagan. Perkusiyada upka ustida kuchaygan nafas fonida gijillovchi va xushtaksimon xirillashlar eshtiladi. Nafas aktida yordamchi mushaklar ishtirok etmokda. Yurak tonlari bugiklashgan AKB-150/90 m.s.u.

Rs-110 min. ritmik. Taranglashgan. EKG-da sinusli ritm, taxikardiya.

SAVOL:

- 1) sizning taxminiy tashxisingiz?
- 2) tekshirish usullari?
- 3) Algoritm xarakatlari?

Masala:№2

Bemor 27 yosh shikoyatlari xolsizlik tinch xolatda nafas kisishiga , Balgamli yutal, tana xaroratini 38°s gacha oshishiga . Anamnezidan 3 kundan beri kasal, Kasallikni sovuk kotish Bilan boglaydi.

teri rangpar, lablari kirgogida gerpetik toshmalar, NOS-36 min.

Ob'ektiv: ung kukrak kafasi nafas aktida orkada koladi.

Ung upka pastki bulagi perkusiyada bugiklashgan. Auskultatsiyada ung pastki bulaklarda susaygan, nam xirillashlar. AKB-140/ 90 msu, Rs-112 min.

EKG - metabolik o'zgarishlar.

SAVOL:

- 1) sizning taxminiy tashxisingiz?
- 2) tekshirish usullari?
- 3) Algoritm xarakatlari?

Masala №3

Bemor osilgandan 15 minut utgach reanimatsiyaga olib kelindi. Ob'ektiv: koma, nafas olishi kamaygan (10-12), stridoroz nafas, bradipnoe, arterial gipertenziya.

SAVOL:

1. Taxminiy diagnozingiz.
2. Asosiy tekshirish usullari.
3. Xarakatlar algoritmi.

Masala №4

Bemor 48 yosh. Shikoyatlari chankash, ogzi kurishi, kungil aynishi, ishtaxa yukligi, umumiy bexollikka. 20 yil davomida kandli diabetom I tipii bilan ogrigan . Ob'ektiv: terisi kuruk, turgori pasaygan. Nafas soni 24 marta min., AB 110/60 mm sim ust., puls 110 marta min. Analizlarida: glikemiya 22,0 mmol/l, siydikda keton tanachalari +, K⁺-2,8 mmol/l, Na⁺-118 mmol/l.

SAVOL:

1. Taxminiy diagnozingiz.
2. Gomeostaz buzilish turini kursating.
3. Xarakatlar algoritmi.

TEST SAVOLLARI

1. Nafas va yurak to'xtagandan so'ng necha daqiqagacha tiriltirish mumkin?
 - A) * 5-6 daqiqagacha
 - B) 10-20 daqiqagacha
 - V) 8-9 daqiqagacha
 - D) 30-40 daqiqagacha
 - E) 60 daqiqagacha
2. O'pka-yurak reanimatsiyasi 1 kishi bo'lganda qanday nisbatda o'tkaziladi?
 - A) 31:4
 - B) 30:2
 - V) 16:2
 - D) * 2:30
 - E) 22:2
3. Nafas to'xtaganda sun'iy nafas berishda necha marta 1 daqiqada nafas beriladi?
 - A) * 16-20 marta
 - B) 10-12 marta
 - V) 40-50 marta
 - D) 20-30 marta
 - E) 5-6 marta
4. Yurak to'xtaganda yopiq uqalashda 1 minutda yurak necha marta uqalanadi?
 - A) 20-30 marta
 - B) 60 marta
 - V) 76 marta
 - D) *80-90 marta
5. Koma xolati deb nimaga aytiladi?
 - A) Og'ir xolat bo'lib, bemorning es-xushi yo'q, reflekslar bo'lmaydi
 - B) Bemorning xushi joyida, lekin tormozlangan bo'ladi
 - V) Bemor xushi kirdi-chiqdi bo'ladi
 - D) Bemorning xushi joyida, lekin yurak faolyati buzilgan
 - E) Bemorning xushi joyida bo'lib, nafas faolyati buzilgan bo'ladi
6. Gipoglikemik komada reanimatsiya tadbirlari.
 - A) Insulin 20 TB yuborish
 - B) Insulin 40 TB Yuborish
 - V) * Glyukoza 40%-40,0 venaga yuborish
 - D) Laziks 4,0 muskul orasiga
 - E) Poliglyukin tomchilab venaga quyish
7. Giperglikemik- diabet komasida qon taxlilida nima aniqlanadi?
 - A) Leykotsitoz
 - B) Neytrofilyoz
 - V) Y-xujayralar
 - D) Keton tanachalari

- E)* Qand miqdorining oshib ketishi
- 8.Qanday shok bo‘lmaydi?
- A) Kuyish shoki
 - B) Travmatik shok
 - V) Postgemorragik shok
 - D)*Giperqlikemik shok
 - E) Elektroshok
- 9.Gipertermiya xolati nima?
- A)*Tana xaroratining keskin ko‘tarilishi
 - B) Tana xaroratining 10 ga ko‘tarilishi
 - V) Tana xaroratining tushib ketishi
 - D) Tana xaroratining normal xolatdaligi
 - E) Tana xaroratining 350 ga tushib ketishi
- 10.“Cho‘kishda “ birinchi reanimatsiya tadbirlari qanday tartibda bo‘ladi?
- A)*Bemorni tezda yotqizib sun‘iy nafas va yurak uqalash o‘tkaziladi
 - B) Bemorning nafas yo‘llaridan suv tushirilib, so‘ngra reanimatsiya tadbirlari qilinadi
 - V) Bemorning tili tortilib, so‘ngra reanimatsiya tadbirlari o‘tkaziladi.
 - D) Bemorni yuqori nafas yo‘lidan suv tushirilib, so‘ngra sun‘iy nafas beriladi
 - E) Yuragi defibrilyatsiya qilinadi

4.3.2. Asosiy adabiyotlar.

Elektron adabiyotlar

1. H.Sh.Rahmonov “Tish texnikasi materialshunosligi”
2. S.Yusupova D.Ashurov “Tish jarroxliligi stomatologiyasi va yuz-jag’ travmatologiyasi”
3. N.Toshpo‘latova “Og’iz bo’shligi kasalliklari”

4.3.3Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Natsionalnaya programma po borbe protiv tabaka v Respublike Uzbekistan na 2008 – 2012 gg. Tashkent 2007 g.
2. V.YE.Avakov O.V. Churilova A.M.Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.
3. Y.Allayorov Y.Tojiboyev “Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”
4. S.Yusupov, D.Ashurov Tish jarroxliligi stomatologiyasi va yuz jag’ travmatologiyasi
5. H.Sh.Rahmonov Tish texnikasi materialshunosligi
6. S.SAgzamxo‘jaev, G.T.Maqsudova Ortopedik stomatologiya va ortodontiya asoslari Toshkent- 2005yil
7. S.SAgzamxo‘jaev, S.G’afforov Stomatologik asbob va ashyolar

8. Nazarova N.Sh. – “Ortopedik stomatologiya propedevtikasi”, Toshkent, 2024.
9. Irsaliev X.I. va boshq. – “Ortopedik stomatologiya A.G.Gadayev, M.X.Alimova, X.S.Axmedov, S.X.Nazarova, R.K.Salixodjayeva, L.X.Musadjanova “Umumiy amaliyot hamshiralari” uchun amaliy- ilmiy ko‘nikmalar to‘plami Toshkent 2011
10. M.B.Xodjayev, R.Z. Mamaniyozov Terapiya fanidan ma’ruzalar matni Samarqand 2012 yil
11. Shukina T.Y. Revmatizm: Osnovi sovremennogo lecheniya: Simptomi, licheniye, profilaktika. – Izdatelstvo A.V.K. – Timoshka, 2002g.
12. Chazov YE.I. Golitsin S.P. Rukovodstvo po narusheniyam ritma serdsa. M. 2008g.
13. A.G.Gadayev, M. Ziyaeva, R. To‘raqulov “Terapiya” o‘quv qo‘llanma Toshkent 2022 yil
14. Yu.Umarova "Hamshiralik ishi" Toshkent-2015y.
15. Yu.Allayorov, Yu.Tojiboev "Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari."2017y.
16. V. E. Avakov O. V. Churilova A. M. Sharipov
"Birinchi shoshilinch tibbiy yordam bo'yicha qo'llanma." 2010 yil.
17. D. M. Sabirov, A. Z. Gazizov "Birinchi tibbiy yordam" 2017 yil.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.edu.uz
2. www.minzdrav.uz
3. <http://www.medpoisk.ru/>
4. <http://www.rusmedserv.com/>
5. www.medi.ru
6. www.medlinks.ru
7. www.medscape.com
8. www.medland.ru
9. www.med-lib.ru
10. www.ksmed.ru/pat/gynecology
11. www.medsan.ru

